O'yinning tafsiloti. O'qituvchi kubning tomonlariga chizilgan yaqqol tasvirlardan birini o'quvchilarga ko'rsatadi va qolgan kublarni har taraflama aylantirib, yaqqol tasvirdagi detalning tegishli ko'rinishlarini topish va kompleks chizma tuzish topshiriladi. Shu tartibda oltita detaining kompleks chizmalari ketma-ket tuzib chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Sindarova, S. (2023). AUTOCAD DASTURIDAN FOYDALANIB TALABALARNING IJODIY IZLANISHLARINI RIVOJLANTIRISH. *Наука и технология в современном мире*, *2*(14), 38-41.

2. Mirzaliyev, Z. E., Sindarova, S., & Eraliyeva, S. Z. (2021). Develop students' knowledge, skills and competencies through the use of game technology in the teaching of school drawing. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, *2*(1), 58-62.

3. Sindarova, S. M., Rikhsibaev, U. T., & Khalilova, H. E. (2022). THE NEED TO RESEARCH AND USE ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE RESEARCH. *Academic research in modern science*, *1*(12), 34-40.

4. Mirzaliev, Z., Sindarova, S., & Eraliyeva, S. (2019). Organization of Independent Work of Students on Drawing for Implementation of the Practice-Oriented Approach in Training. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, *17*(1), 297-298.

5. Sindarova, Shoxista Maxammatovna (2021). O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH (CHIZMACHILIK FANI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 686-691.

6. Maxammatovna, S. S. (2022). Methods of Solving Some Problems of Teaching Engineering Graphics. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *7*, 97-102.

7. Рихсибоев, У. Т., Халилова, Х. Э., & Синдарова, Ш. М. (2022). AutoCAD дастуридан фойдаланиб деталлардаги ўтиш чизиқларини қуришни автоматлаштириш. *Science and Education*, *3*(4), 534-541.

8. Bobomurotov, T. G., & Rikhsiboev, U. T. (2022). Fundamentals Of Designing Triangles Into Sections Equal 5, 7, 9, 11, 13, 15, 17 And 19. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, *3*(2), 96-101.

9. Makhammatovna, S. S. (2023). Pedagogical and Psychological Aspects of Improving the Methods of Developing Students' Creative Research. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(3), 37-41.

10. Abdurahimova, F. A., Ibrohimova, D. N. Q., Sindarova, S. M., & Pardayev, M. S. O. G. L. (2022). Trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish uchun paxta va ipak ipini tayyorlash va foydalanish texnologiyasi. *Science and Education*, *3*(4), 448-452.

11. Sindarova, S. (2023). TALABALARDA IJODIY IZLANUVCHANLIKKA XOS SIFATLARNI SHAKILLANTIRISH USULLARI. *Академические исследования в современной науке*, *2*(11), 23-29.

PVA KOMPOTZISIYASI ASOSIDA ISHLOV BERILGAN GAZLAMALARNING G’IJIMLANMASLIK KO‘RSATKICHLARI TADQIQI

PhD, dotsent., N.M.Artikbayeva, t.f.d.professor., M.K.Rasulova,
magistr, O.A.Normo‘minova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotasiya*. Maqolada kiyim detallarida shaklbarqarorlikni ta’minlash maqsadida to‘qimachilik gazlamalariga PVA kompozitsiyasi bilan ishlov berilganda g’ijimlanmaslik ko‘rsatkichi tahlili keltirilgan.*

Аннотация*. В статье представлен анализ показателей несминаемости текстилных материалов, обработанных композисией на основе ПВА для обеспечения формоустойчивости деталей швейных изделий.*

Abstract*. The article presents an analysis of the crease-resistance properties of textile materials treated with a PVA-based composition to ensure the shape retention of garment components.*

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitda asosiy vazifalardan biri tikuv korxonalarida qo‘llaniladigan qotirma materiallar assortimentini kengaytirish dolzarb muammolardan biri xisoblanadi. Ushbu qotirma materiallar yangi zamonaviy xususiyatlarni hisobga olmaydi. Bu esa tayyor mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

Kiyim detallariga qotirma bilan ishlov berish jarayoni ayollar kiyimini ishlab chiqarishning muhim bosqichi bo‘lib, unda yopishtiruvchi qatlamga ega bo‘lgan ichki mato (dublerin) kiyim detallariga — ustki yoqa, ostki yoqa, bort va yeng uchiga — yopishtiriladi. Bunday ichki matolar issiqlik ta’sirida faollashadigan termoplastik yelim qatlami bilan qoplangan maxsus texnik to‘qimalardir. Bichilgan asosiy mato va ichki qotirma mato detallari shunday joylashtiriladiki, bunda ichki matoning yelim qatlami asosiy matoning ichki tomoniga tegib turishi kerak. So‘ngra ushbu detallar to‘plami press uskunasida ma’lum harorat va bosim ostida, belgilangan vaqt davomida ishlov berish jarayonidan o‘tkaziladi. Qotirmalar mato detallari kerakli yumshoqlik, hajm, qattiqlik va shakl barqarorligini ta’minlash maqsadida qo‘llsniladi [1].

Dublerinlash jarayoni matoning kerakli qovushqoqlik darajasiga yetishini ta'minlash maqsadida yuqori haroratda amalga oshiriladi. Yelim yumshaydigan harorat "yopishtirish harorati" deb ataladi [2]. Polimer kompozit materiallarga qo‘llaniladigan yengil bosim eritilgan mato tolalari orasidagi bo‘shliqlarga kirib borishini ta’minlaydi. Bu esa astarli mato va asosiy mato detallari o‘rtasida mustahkam bog‘lanish hosil bo‘lishiga olib keladi. Dublerinlash jarayoni tannarxini optimallashtirish uchun tanlangan yelim pastroq qotish harorati oralig‘iga ega bo‘lishi kerak. Ushbu harorat oralig‘i kiyimni ishlab chiqarishning keyingi bosqichlaridagi dazmollash va pardozlash jarayonlarida, shuningdek,

tayyor kiyimdan foydalanish va unga parvarish ko‘rsatish davrida qo‘llaniladigan haroratdan yuqori bo‘lishi lozim. Dublerinlash jarayonida yuqori haroratning qo‘llanilishi kiyimning yopishtirilgan qismlarida termik qisqarishga sabab bo‘ladi va bu o‘zgarishlar maksimal darajada 30 mm gacha yetishi mumkin [3]. Yoqa va bort qismlardagi termik qisqarish jiddiy nuqson hisoblanib, uni faqat ushbu qismlarni yangi kesilgan detallarga almashtirish orqali bartaraf etish mumkin.

Termobog‘langan kompozitning uchala komponenti (ya’ni, ustki mato, yelimlovchi qatlam va astar matosi) issiqlik va bosim ta’sirida o‘zaro mustaqil ravishda shakl hosil qiladi. Matoning to‘qilish turi uning qisqarishiga ta’sir ko‘rsatadi [4]. Termobog‘langan kompozitlarda o‘lcham o‘zgarishlarini keltirib chiqaruvchi uchta asosiy sabab mavjud. Bu sabablarga quyidagilar kiradi: tashqi kuchlanishlar ta’siri; termobog‘lash jarayonidagi vaqt, harorat va bosim parametrlari; hamda termobog‘lashdan oldin matoda mavjud bo‘lgan ichki kuchlanishlar va jarayon davomida tola shishishi natijasida hosil bo‘lgan ichki kuchlanishlarning bo‘shashishi [5-6].

To‘qimachlik gazlamalarining g’ijimlanmaslik ko‘rsatkichi kiyimning tashqi shakli va kiyish muddatining davomiyligiga bog’liq. Ustki kiyim detallarida g’ijimlanmaslik ko‘rsatkichi shaklbarqarorlik xususiyati bilan bog’liq. Ilmiy tadqiqod ishida shaklbarqarorlik xususiyatini oshirish maqsadida shakl barqarorlikka ta’sir etuvchi gazlamalarning g’ijimlanmaslik ko‘rsatkichi o‘rganildi.

1-jadval

To‘qimachilik tolali gazlama+PVA kompositsiya miqdorining g’ijimlanmaslik ko‘rsatkichining solishtirma tahlili

Polimer kompozitsiya konsentrasiyasi, g/l	**1-namuna**	**2-namuna**	**3-namuna**
PVA 200	22,2	33,3	42,6
PVA 100	36,6	38,8	44,4
PVA 60	46,6	44,4	48,8
PVA 40	48,8	50,0	57,7
Ishlov berilmagan namuna	49,9	56,6	61,1
Farqi, %	**55,6**	**41,2**	**30.2**

Bukish va qisish ta’sirida gazlamada hosil bo‘ladigan qoldiq deformatsiyalar g’ijimlanuvchanlikni keltirib chiqaradi. Qayishqoq va elastik qismi ancha katta bo‘lgan tolalar bukish va qisish deformatsiyasidan keyin sekinroq yoki bir oz tezroq tekislanadi va dastlabki holatini egallaydi, shu sabab g’ijimlar yo‘qoladi [7-8]. Sinov tajribasi uchun 3 turdagi to‘qimachilik gazlama namunalari tanlab olindi. Gazlama namunalari kesib olindi va namunalar 40,0-200,0 g/l oraliqda PVA kompozitsiya eritmasi bilan ishlov berildi. Sinov natijalari 1-jadvalga kiritildi.

To‘qimachilik gazlama namunalari va gazlama+PVA kompozitsiya bilan ishlov berilgandan so‘ng gazlamalarda g’ijimlanmaslik ko‘rsatkichi o‘rtacha 42,3 % ga oshishiga erishildi.

To‘qimachilik gazlamalarida g’ijimlanmaslik ko‘rsatkichining oshishi tikuv buyumlarida shaklbarqarorlik xususiyatini ham oshishiga ta’sir etadi. Shu sabab tikuvchilik ishlab chiqarishida tikuv buyumlariga yangi ishlov berish texnologiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq ekani aniqlandi

Adabiyotlar ro‘yhati

1.Mahar T, Postle R. 1989. Measuring and interpreting low-stress fabric mechanical and surface properties: Part IV: subjective evaluation of fabric handle. Textile Research Journal, 59(12), 721-733.

2. Cawood M P. 1980. Textiles: Some technical information and data VI: fusing. CSIR.,3. Glawe A, Reuscher R, Koppe R, Kolbusch T. 2003. Hot-Melt Application for Functional Compounds on Technical Textiles. Journal of Industrial Textiles, 33(2), 85-92.

3. Vilumsone-Nemes I. 2018. Automation in spreading and cutting. In R Nayak, R Padhye (Eds.), Automation in garment manufacturing. Woodhead Publishing, 139-164.

4. Topalbekiroğlu M, Kaynak HK. 2005. The effect of weave type on dimensional stability of woven fabrics. International Journal of Clothing Science and Technology, 20(5), 281.

5. Lindberg J. 1961. Dimensional Changes in Multicomponent Systems of Fabrics: A Theoretical Study. Textile Research Journal, 31(7), 664-669.

6.N.Artikbayeva, M.Rasulova, G.Buzrukhanova, N.Musurmonova, Ways to Improve Dimensional Stability in Women's Garment Components Made from Various Types of Fabric // conference on Advanced Technologies in Engineering AIP Conf. Proc. 3447, 030009-1–030009-7; https://doi.org/10.1063/12.0044036.

7. Артикбаева Н.М., Расулова М.К., Шин И.Г. Влияние складкообразования на формоустойчивость тканевой оболочки, пропитанной полимерной композицией // УЗМУ хабарлари, 2024 йил, Б 348-352. https://journals.nuu.uz/

8. Н.М. Артикбаева, И.Г. Шин, С.Ш. Ташпулатов, И.В. Черунова, Н. Бралина Оценка напряженного состояния при формообразовании объемных участков деталей одежды потоком сжатого воздуха // Иванова2019 г. № 5 (383) 2019.-С.181-186. https://doi:10.214151/1561-5405

MODA DIZAYNIDA 3D TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

assistenti, G.S. Orziqulova, magistr,K.M. Baratova,
talabaS.S. Axmatova
Jizzax politexnikaka Instituti.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy moda dizaynida uch o‘lchamli (3D) texnologiyalardan foydalanishning nazariy va amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada 3D dasturiy vositalarning moda dizaynidagi o‘rni, virtual manekenda kiyimni sinash hamda dizayndagi konstruktiv kamchiliklarni ishlab chiqarishdan oldin aniqlash masalalari yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и практические возможности использования трехмерных (3D) технологий в современном дизайне одежды. Рассматривается роль 3D-программных средств в дизайне одежды, вопросы примерки одежды на виртуальном манекене и выявление недостатков дизайна до начала производства.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and practical possibilities of using three-dimensional (3D) technologies in modern fashion design. The article covers the role of 3D software tools in fashion design, the issues of trying on clothes on a virtual mannequin, and the identification of design flaws before production.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga, shu jumladan, moda va yengil sanoatga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Moda sanoati doimiy ravishda yangilanib turadigan, iste’molchilar talabining tez o‘zgarishi, qisqa ishlab chiqarish sikllari va yuqori darajadagi ijodkorlikni talab qiladigan sohalardan biridir [1]. An’anaviy kiyim loyihalash jarayonida dizayner avvalo eskiz yaratadi, konstruktiv yechimlarni ishlab chiqadi, andazalar tayyorlaydi, material tanlaydi va tajriba namunasini tikadi. Keyinchalik tayyor namuna manekenda yoki inson gavdasida sinab ko‘riladi. Agar kiyimda kamchilik aniqlansa, konstruksiya qayta ishlanadi va yangi namuna tayyorlanadi. Bunday jarayon bir necha marotaba takrorlanishi mumkin. Natijada vaqt, mehnat va material sarfi ortadi [2]. 3D texnologiyalarning moda dizayniga joriy etilishi ushbu muammolarning bir qismini raqamli muhitda hal qilish imkonini berdi. 3D dasturlar yordamida kiyimning virtual modeli yaratiladi, unga turli mato xususiyatlari beriladi, virtual manekenga kiydiriladi va uning shakli, hajmi, silueti hamda gavdaga mosligi tahlil qilinadi Shu jihatdan 3D texnologiyalarni faqat kiyimning chiroyli tasvirini yaratish vositasi sifatida emas, balki dizayn, konstruksiyalash, prototiplash va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtiruvchi raqamli texnologiya sifatida ko‘rib chiqish muhimdir [3]. Moda dizayni uzoq vaqt davomida qo‘lda bajariladigan eskiz, andaza va tajriba namunalariga asoslangan. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan CAD tizimlari moda sanoatiga kirib keldi. Dastlab kompyuter

yordamida ikki o‘lchamli chizmalar va andazalarni ishlab chiqish imkoniyati kengaydi. CAD — Computer-Aided Design, ya’ni kompyuter yordamida loyihalash tizimi bo‘lib, kiyim konstruksiyalarini ishlab chiqish, andazalarni tahrirlash va ularning o‘lchamlarini boshqarishda qo‘llaniladi.



1-rasm. Hozirgi vaqtda moda sanoatida 3D texnologiyalarni qo‘llash yo‘nalishlari

3D modellashtirish — obyektning uch o‘lchamli raqamli modelini yaratish jarayonidir. Moda sanoatida ushbu obyekt sifatida kiyim, aksessuar yoki boshqa moda mahsuloti olinadi. Kiyimning 3D modeli uchta asosiy o‘lcham — uzunlik, kenglik va balandlik asosida shakllantiriladi. Bunda kiyimning konstruktiv qismlari bir-biriga bog‘lanib, inson gavdasining uch o‘lchamli shakliga moslashtiriladi. Moda sanoatida 3D modellashtirish uchun turli professional dasturlar ishlab chiqilgan. Ular orasida CLO 3D, Browzwear, Style3D va Optitex kabi tizimlar alohida ahamiyatga ega[4]. CLO 3D kiyimlarni uch o‘lchamli muhitda loyihalashga mo‘ljallangan dastur bo‘lib, unda ikki o‘lchamli andazalarni uch o‘lchamli kiyimga aylantirish, virtual manekenda sinash va material xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin. Optitex tizimi CAD va 3D texnologiyalarni birlashtirib, andazalarni ishlab chiqish va kiyimning uch o‘lchamli ko‘rinishini yaratish imkoniyatini beradi [5,6]. Shunday qilib, zamonaviy 3D dasturlar nafaqat vizualizatsiya, balki kiyimning konstruktiv va texnologik jihatlarini tahlil qilish imkoniyatlarini ham kengaytirmoqda Hozirgi moda sanoatida barqarorlik muhim masalalardan biridir. Kiyim

ishlab chiqarish jarayonida material, suv, energiya va boshqa resurslardan foydalaniladi. Shu sababli mahsulot yaratish jarayonida ortiqcha sarfni kamaytirish dolzarb vazifadir. 3D texnologiyalar ushbu yo‘nalishda bir qator imkoniyatlarni beradi. Birinchidan, fizik prototiplar sonini kamaytirish mumkin. Dizaynning dastlabki variantlari virtual muhitda tekshirilgani sababli har bir o‘zgarish uchun yangi fizik namuna tikish zarurati kamayadi. Ikkinchidan, dizayner ishlab chiqarishdan oldin turli variantlarni taqqoslashi mumkin. Uchinchidan, raqamli kiyimlar orqali ayrim holatlarda fizik mahsulot yaratmasdan turib moda kontenti ishlab chiqish mumkin. Shu sababli 3D texnologiyalarni barqaror moda konsepsiyasining raqamli vositalaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin. 3D texnologiyalar faqat kiyim loyihalashda emas, balki moda aksessuarlarini yaratishda ham qo‘llanilishi mumkin. Sumka, poyabzal, bosh kiyim, bezak va boshqa aksessuarlarning shakli va dizaynini 3D muhitda modellashtirish mumkin. Masalan, aksessuar dizaynida geometrik shakllar, dekorativ elementlar, naqshlar, rang kombinatsiyalari va material teksturalari raqamli muhitda sinab ko‘riladi. Bu imkoniyat ayniqsa qo‘l mehnati asosida yaratiladigan zamonaviy aksessuarlarni loyihalashda foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, munchoq, to‘qima, kashta yoki boshqa dekorativ materiallardan foydalaniladigan aksessuarning umumiy shakli avval 3D muhitda ishlab chiqilib, keyinchalik fizik mahsulotga aylantirilishi mumkin. O‘zbekiston yengil sanoati to‘qimachilik, tikuvchilik va tayyor kiyim ishlab chiqarish yo‘nalishlarida rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Mazkur sohada raqamli texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, eksportga yo‘naltirilgan korxonalar uchun mahsulotni masofadan turib raqamli ko‘rsatish imkoniyati muhimdir. Dizayner va buyurtmachi turli hududlarda joylashgan holatda ham mahsulotning 3D modeli orqali hamkorlik qilishi mumkin. Shu jihatdan 3D texnologiyalar xalqaro hamkorlikni ham yengillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Papahristou E., Bilalis N. Should the fashion industry confront the sustainability challenge with 3D prototyping technology? // International Journal of Sustainable Engineering. — 2017. — Vol. 10, No. 4–5. — P. 207–214.
2. Lee J. Toward Sustainable Fashion Product Development: The Use of 3D Virtual Prototyping Technologies in the Synchronous Remote Learning Classroom // Journal of Educational Technology Systems. — 2022. — Vol. 51, No. 2. — P. 215–235.
3. Habib M. A., Ullah A., Maha M. M., Bristy A. A. Advancing Sustainable Fashion Through 3D Virtual Design for Reduced Environmental Impact // Journal of Textile Engineering & Fashion Technology. — 2025. — Vol. 11, Issue 3. — P. 135–142.
4. CLO Virtual Fashion. CLO 3D: 3D Fashion Design Software and Virtual Garment Simulation. — CLO Virtual Fashion.
5. Optitex. 2D/3D CAD Software for Fashion Design. — Optitex.

ERGONOMIK VA BIOKINEMATIK TAHLIL ASOSIDA MODULLI-FUNKSIONAL KIYIMLARNI LOYIHALASHNING ILMIY ASOSLARINI SHAKLLANTIRISH

dotsent. G.D. Ulkanbayeva, assistent G. Xodjayeva
doktorant D.A. Abdujabborova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Tadqiqot modulli-funksional kiyimlarni ishlab chiqishning ilmiy asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Natijada qulaylik, harakat erkinligi va funksional materiallar asosida ergonomik hamda konstruktiv talablar tizimi ishlab chiqildi.*

Аннотация. *Исследование направлено на формирование научных основ разработки модульно-функциональной одежды. В результате сформирована система эргономических и конструктивных требований, основанная на комфорте, свободе движений и функциональных свойствах материалов.*


Abstract. *This study aims to establish the scientific basis for developing modular-functional clothing. As a result, a system of ergonomic and constructive requirements has been established based on comfort, freedom of movement, and functional properties of materials.*

Kiyim insonning kundalik faoliyatida nafaqat tashqi ta’sirlardan koruyuvchi va estetik vosita, balki harakat va fiziologik jarayonlarni maqbullashtiruvchi muhim konstruktiv element hisoblanadi [1]. Ommaviy ishlab chiqarishga mo‘ljallangan standart kiyimlar ko‘pincha inson anatomiyasining o‘ziga xosliklarini, turli harakat dinamikasini hamda individual ehtiyojlarni to‘liq hisobga olmaydi.

Ayniqsa, uzoq vaqt o‘tirgan holda ishlovchi, intensiv harakatlanuvchi yoki tana proporsiyalarida o‘ziga xosliklar bo‘lgan foydalanuvchilar uchun standart kiyimlar ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Choklarning ma’lum sohalarga ortiqcha bosim berishi, materialning tez ishqalanib yirtilishi hamda kiyish-yechishdagi noqulayliklar shular jumlasidandir [2].

Ushbu muammolarning samarali yechimi sifatida modulli-funksional kiyimlarni loyihalash taklif etiladi. Modulli yondashuv kiyimning ayrim qismlarini (yeng, yoqa, yon va orqa detallarni) foydalanuvchining ehtiyoji hamda atrof-muhit sharoitiga mos ravishda oson moslashtirish (transformatsiya qilish) imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi — o‘tkazilgan so‘rovnomalar, ergonomik va biokinematik tahlillar asosida modulli-funksional kiyimlar konstruksiyasiga qo‘yiladigan texnik va ilmiy talablarni shakllantirishdan iborat



Tadqiqot empirik hamda tahliliy metodlar majmuasiga tayangan holda olib borildi. Dastlabki bosqichda kiyimga bo‘lgan real ehtiyojlarni aniqlash maqsadida respondentlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi.


Respondentlarning demografik va funksional ko‘rsatkichlari quyidagicha taqsimlandi:

Jinsi bo‘yicha: 61,9% erkaklar va 38,1% ayollar.

Funksional va morfologik profili bo‘yicha:

- Pastki qism amputatsiyasiga ega foydalanuvchilar — 18,6%;
- Yuqori qism amputatsiyasiga ega foydalanuvchilar — 13,4%;
- Aravachada harakatlanuvchilar — 12,4%;
- Eshitish va ko‘rish cheklovlariga ega shaxslar — 11,4%;
- Boshqa turdagi harakat hamda tana morfologiyasi xususiyatlariga ega shaxslar — 44,3%.

So‘rovnoma ommaviy kiyimlardan foydalanishdagi muammolar, kiyim konstruksiyasining afzal turlari, kiyish-yechish qulayligi va material xossalariga qo‘yiladigan talablarni qamrab oldi.



O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 80,4 foizi hozirda an’anaviy tayyor kiyimlardan foydalanadi [3], [5]. Biroq, ushbu kiyimlar quyidagi asosiy kamchiliklarga ega:

- Kiyish va yechish jarayonining murakkabligi;

- Takroriy harakatlar va uzoq vaqt o‘tirish davomida choklar va material burmalari sababli noqulaylik tug‘ilishi;
- Yuqori yuklama tushadigan zonalarda matoning chidamsizligi.

Respondentlarning kiyim turlariga bo‘lgan afzalliklari bo‘yicha ko‘rsatkichlar:

- Transformatsiyalanuvchi kiyimlar: 45,7%;
- Aqlli (Smart) kiyimlar: 33,0%;
- Modulli-funksional kiyimlar: 21,3%.

Ushbu ma’lumotlar foydalanuvchilarning ko‘pchilik qismi kiyim detal va qismlarini oson o‘zgartirish imkonini beruvchi modulli hamda transformatsiyalanuvchi konstruksiyalarga muhtojligini tasdiqlaydi.

Kiyimga qo‘yiladigan asosiy talablar ko‘rsatkichi:

- Harakatdagi qulaylik va erkinlik: 92,5%;
- Havo o‘tkazuvchanlik va mikroklimat: 87,3%;
- Kiyish va yechishning osonligi: 84,1%;
- Material elastikligi va shaklini saqlashi: 79,8%;
- Ishqalanishga va yeyilishga chidamlilik: 74,2%

Biokinematik kuzatuvlar hamda so‘rovnoma natijalarini umumlashtirish asosida modulli-funksional kiyimni loyihalashda quyidagi zonalarga bo‘lib yondashish tamoyili belgilandi:

Aktiv harakat zonalari (Yelka, tirsak, tizmali sohalar): Ushbu zonalarda harakat amplitudasini cheklamaydigan, elastikligi yuqori bo‘lgan materiallar va yechib-taqiluvchi modullar qo‘llanilishi lozim [4], [6].

Yuqori bosim va ishqalanish zonalari: Uzoq vaqt tayanch nuqtalari bilan kontaktda bo‘ladigan sohalarda ishqalanish koeffitsienti past, chidamli qatlamga ega bo‘lgan almashtiriluvchi modullar mo‘ljallanadi.

Termoregulatsiya zonalari: Orqa va ko‘krak qismlarida havo almashtirish va namlikni tez chiqarish xususiyatiga ega to‘rli (mesh) modulli qo‘shimchalar o‘rnatilishi maqsadga muvofiq.

Kiyim modullarini ishlab chiqishda polyester, poliamid va elastan tolalari birikmasidan tayyorlangan trikotaj matolar eng maqbul ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Respublikamizda trikotaj sanoatining rivojlangani mahalliy paxta-elastan aralashmali matolardan kiyimning asosiy karkas qismida foydalanish imkonini beradi [7]. Maxsus funksional va chidamlilik talab etiladigan modullarda esa mahalliy xomashyolarni maxsus xususiyatli to‘qimachilik materiallari bilan gibridlash tavsiya etiladi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari an’anaviy sport va kundalik kiyimlar foydalanuvchilar ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantirmasligini va ularda modulli kiyimlarga yuqori ehtiyoj borligini ko‘rsatdi.

Modulli-funksional kiyimlarni loyihalashda harakat erkinligi, tez va oson kiyish-yechish imkoniyati hamda zonal ergonomika yetakchi mezonlar sifatida belgilandi. Tadqiqot natijalari keyingi bosqichlarda modulli-funksional kiyimlarning tajriba-sinov nusxalarini konstruksiyalash hamda ularning

ko‘rsatkichlarini amaliyotda baholash uchun ilmiy-metodologik poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bragança, S., Castellucci, I., Gill, S., Matthias, P., Carvalho, M., & Arezes, P. (2018). nsights on the apparel needs and limitations for athletes with disabilities: The design of wheelchair rugby sports-wear. *Applied Ergonomics*, 67, 9–25.
DOI: https://doi.org/10.1016/j.apergo.2017.09.004
2. Cho, S., & Morris, K. D. (2026). Addressing the Gap Between End Users and the Adaptive Apparel Market: Symbolic and Functional Values of Clothing for Male Wheelchair Users. *Clothing and Textiles Research Journal*.
DOI: https://doi.org/10.1177/0887302X261250100
3. World Health Organization. (2022). *Global report on health equity for persons with disabilities*. Geneva: World Health Organization.
URL: https://www.who.int/publications/i/item/9789240063600
4. Watkins, S. M., & Dunne, L. E. (2015). *Functional Clothing Design: From Sportswear to Spacesuits*. New York: Fairchild Books.
ISBN: https://www.bloomsbury.com/9781609018580
5. McBee-Black, K., & Ha-Brookshire J. (2017). Adaptive apparel for people with disabilities: A review of design requirements. *Fashion Practice*, 9(2), 209–227.
DOI: https://doi.org/10.1080/17569370.2017.1313981
6. Shishoo, R. (Ed.). (2015). *Textiles for Sportswear*. Woodhead Publishing.
DOI: https://doi.org/10.1016/C2014-0-01931-1
7. Fan, J., & Hunter, L. (Eds.). (2009). *Engineering Apparel Fabrics and Garments*. Woodhead Publishing.
DOI: https://doi.org/10.1533/9781845696399

TEJAMKOR ISHLAB CHIQARISHNI TIKUV KORXONALARIDA QO‘LLASH AXAMIYATI

Dotsent Sh.G.Madjidova, talaba M. Baxtiyorova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tikuv buyumlarni ishlab chiqarish jarayonida mavjud tashqi va ichki yoqatishlar ko‘rsatigan. Tejamkor ishlab chiqarishni qollash natijasida korxonalar raqobatda ustunlikka ega bo‘lishi aytilgan.*

Аннотация. *В данной статье показаны внешние и внутренние потери швейного производства. Утверждается, что предприятия получают конкурентное преимущество благодаря внедрению бережливого производства.*

Abstract. *This article outlines the external and internal losses in garment manufacturing. It argues that enterprises gain a competitive advantage through the implementation of lean manufacturing.*

Korxona raqobatbardoshligini oshirishda resurslardan oqilona va samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kam xarajat evaziga yuqori foyda olishga erisha oladigan korxonalar raqobatda ustunlikka ega bo‘ladi.

Korxona xarajatlari asosan tashqi va ichki omillar ta’sirida shakllanadi. Tashqi omillarga korxona bevosita ta’sir ko‘rsata olmaydi, shu sababli ular bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Ichki omillar bilan bog‘liq xarajatlarni esa korxona boshqaruv orqali nazorat qilishi va kamaytirishi mumkin[1].

Resurslarni boshqarish korxona faoliyatining ichki omili hisoblanadi. Shu sababli resurslardan samarali foydalanishni tashkil etish korxonaning o‘ziga bog‘liq bo‘ladi. Aynan mana shu jihat korxona raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil sanaladi.

Korxona resurslarini boshqarishning turli usullari mavjud bo‘lib, ulardan eng samaralilaridan biri Lean Production konsepsiyasidir. Ushbu yondashuv ishlab chiqarishdagi ortiqcha xarajatlar, yo‘qotishlar va samarasiz jarayonlarni kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, korxona faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Lean Production atamasi “tejamkor ishlab chiqarish” ma’nosini anglatadi.

Mahsulotni ishlab chiqarishdagi har bir bosqich uning qiymatini shakllantirish bilan bog‘liq hisoblanadi[2]. Shu sababli ishlab chiqarish jarayonida iste’molchi uchun qiymat yaratuvchi operatsiyalargina bajarilishi kerak. Ortiqcha va foyda keltirmaydigan operatsiyalarni qisqartirish yoki ulardan voz kechish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa resurslardan samarali va tejamkor foydalanish imkonini beradi. Qiymat - ishlab chiqaruvchi tomonidan yaratiladi, iste’molchi

tomonidan belgilanadi.Qiymat iste’molchi nuqtayi nazaridan mahsulotga xos bo‘lgan foydaliligi. Bu odamlar egalik qilishni, foydalanishni, iste’mol qilishni, ekspluatatsiya qilishni va ayirboshlashni xohlaydigan narsalardir.

Mahsulot qiymati iste’molchi tomonidan o‘z tajribasi, raqobatbardosh takliflari, mavjud bilim va texnologiyalari, imkoniyatlari va ehtiyojlari asosida aniqlanadi va ayirboshlash jarayonlari natijasida shakllanadigan narx bilan o‘lchanadi (universal ayirboshlash qiymati - pul).

Iste’molchi uchun qiymat sifat, mahsulot ishlab chiqarish vaqti, xizmat ko‘rsatish vaqti, ishonchlilik, xavfsizlik va boshqalar kabi toifalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ishlab chiqaruvchi uchun qiymat mahsulotni pulga - universal mahsulot almashuvi qiymatiga ayirboshlash bilan bog‘liq. Bunda iste’molchi uchun qiymat qanchalik yuqori bo‘lsa, mahsulot ishlab chiqaruvchi uchun shunchalik katta mahsulot almashuvi qiymatiga ega bo‘ladi.

Qiymat yaratish oqimiga mahsulotga konsepsiyani ishlab chiqishdan tortib ishlab chiqarishga kiritishgacha va buyurtmani qabul qilishdan tortib iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha jarayonlardan o‘tishga imkon beradigan qiymat yaratuvchi va yaratmaydigan barcha harakatlar kiradi.

Iste’molchi uchun qiymat yaratish oqimi - o‘zaro bog‘liq jarayonlar va operatsiyalar tizimi yordamida amalga oshiriladigan iste’molchi uchun qiymat yaratishga qaratilgan faoliyat.Tejamkor ishlab chiqarishda qiymat oqimining tezligini oshirish, uning uzluksizligi, bir tekisligini ta’minlash va yo‘qotishlarni bartaraf etishga harakat qilinadi.

Qiymat yaratish oqimini tashkil etuvchi barcha harakatlarni uch toifaga bo‘lish mumkin:

1. Qiymat yaratuvchi harakatlar.
2. Qiymat yaratmaydigan, ammo bir qator sabablarga ko‘ra chiqarib tashlash mumkin bo‘lmagan harakatlar.
3.Qiymat yaratmaydigan, darhol jarayondan chiqarib tashlash mumkin bo‘lgan harakatlar[3].

Yo‘qotishlarni har tomonlama kamaytirish va bartaraf etish faoliyati “tejamkorlik”da qiymat yaratish oqimini yaxshilash va xarajatlarni kamaytirishning asosi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Э.А. Понуждаев , В.II. Медведев, М.Э. Понуждаева Управление организационными изменениями. Уч. Пособие-Москва; Берлин: ДиректМедиа, 2020.-457с.

2. Мокеева Н.С., Жилисбаева О.Р. Проектирование швейных предприятий.Алматы: ТОО «Издательство LEM», 2019 – 331с.

3. https://Leanvektor.ru

MILLIY KIYIM DIZAYNIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DEKORATIV ELEMENTLARNI PARAMETRIK MODELLASHTIRISH

dotsent, PhD, Sh.G. Djurayeva, talaba, F.Y.Esonova
talaba, M.A. Raximberganova
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada milliy kiyim dizaynida dekorativ elementlarni raqamli loyihalash va 3D modellashtirish masalalari yoritilgan. CLO 3D, Marvelous Designer, AutoCAD va Photoshop dasturlaridan foydalanib, dekorativ elementlarni kiyim konstruksiyasiga moslashtirish va virtual baholash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы цифрового проектирования и 3D-моделирования декоративных элементов в дизайне национальной одежды. Проанализированы возможности использования программ CLO 3D, Marvelous Designer, AutoCAD и Photoshop для адаптации декоративных элементов к конструкции одежды и их виртуальной оценки.*

Abstract. *The article examines digital design and 3D modeling of decorative elements in national clothing design. The possibilities of using CLO 3D, Marvelous Designer, AutoCAD, and Photoshop for adapting decorative elements to garment structures and their virtual evaluation are analyzed.*

Bugungi kunda raqamli texnologiyalardan foydalanish kiyim dizaynini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, milliy kiyimlarda an’anaviy dekorativ elementlarni zamonaviy konstruksiya va texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Milliy dekorativ elementning kiyimdagi samarali ko‘rinishi uning shakli bilan bir qatorda o‘lchami, joylashuvi va kiyim konstruksiyasi bilan mutanosibligiga bog‘liq. Sh.G. Djurayeva dekorativ element parametrlarini kiyim o‘lchamiga mos tanlash zarurligini ta’kidlaydi [4]. Shu bilan birga, zamonaviy kiyim detallarida milliy dekorativ elementlarning sifatini baholash ham muhim hisoblanadi [2].

Milliy kiyimlarni raqamli loyihalashdagi asosiy muammolardan biri — dekorativ elementning ikki o‘lchamli grafik ko‘rinishi bilan uning tayyor kiyimdagi hajmiy ko‘rinishi o‘rtasidagi farqdir. Shu sababli dekorativ elementlarni 3D muhitda oldindan modellashtirish va baholash loyihalash samaradorligini oshiradi. Dekorativ elementlar bo‘yicha axborot ta’minotini shakllantirish ularni tizimlashtirish va loyihalash jarayonida tezkor foydalanish imkonini beradi. Tashpulatov S.Sh., Djurayeva Sh.G. va Murodov T.B. dekorativ elementlar uchun axborot ta’minotini ishlab chiqish masalasini tadqiq qilganlar [5]. Shuningdek, milliy dekorativ elementlar va tarixiy bichim asosidagi kiyimlarni loyihalash jarayonini axborot bilan ta’minlash masalalari ham o‘rganilgan [6].

Raqamli loyihalash jarayonida **AutoCAD** dasturidan dekorativ elementlarning geometrik parametrlarini aniqlash va kiyim detallariga joylashtirishda foydalanish mumkin. **Photoshop** yordamida ornamentlarning grafik shakli, rang variantlari va kompozitsion yechimlari ishlab chiqiladi.

Keyingi bosqichda **CLO 3D** va **Marvelous Designer** dasturlari yordamida kiyimning virtual modeli yaratiladi va dekorativ element uning hajmiy yuzasiga joylashtiriladi. Bu usul orqali ornamentning kiyim shakliga mosligi, o‘lchami, joylashuvi va harakat jarayonidagi deformatsiyasini fizik namuna tayyorlamasdan oldin baholash mumkin. Dekorativ elementlarni kiyim detallari bilan unifikatsiya qilish ham ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [7]. Zamonaviy kostyumda milliy ornamentlardan foydalanishda esa ularning an’anaviy xususiyatlarini saqlagan holda zamonaviy kompozitsion yechimlarni ishlab chiqish muhimdir [8].

Xulosa. Milliy kiyim dizaynida raqamli texnologiyalardan foydalanish dekorativ elementlarni loyihalash va ularning kiyimdagi ko‘rinishini oldindan baholash imkonini beradi. **AutoCAD** va **Photoshop** grafik hamda geometrik parametrlarni ishlab chiqishda, **CLO 3D** va **Marvelous Designer** esa kiyimning virtual modelini yaratish va dekorativ elementlarni 3D muhitda baholashda samarali vosita bo‘la oladi.

Shunday qilib, dekorativ elementlarni:

raqamlashtirish → parametrlarini aniqlash → 3D modellashtirish → virtual baholash → optimal variantni tanlash

ketma-ketligi asosida loyihalash milliy kiyim dizaynining sifatini oshirish va ishlab chiqarishdan oldingi xatolarni kamaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Djurayeva Sh.G. Значение узбекских национальных декоративных элементов в мире // Universum: технические науки. – 2021. – № 8-1 (89). – S. 81–83.
2. Djurayeva Sh.G. Оценка качества узбекских национальных декоративных элементов на деталях современной одежды // Universum: технические науки. – 2021. – № 8-1 (89). – S. 78–80.
3. Djurayeva Sh.G. Закономерности взаимосвязи между видами узбекской вышивки и систематизация по региональному аспекту // Молодой ученый. – 2021. – № 37 (379). – S. 17–19.
4. Djurayeva Sh.G. Выбор параметров декоративного элемента, соответствующего размеру одежды // Материалы VIII Международной научной конференции «Наука и образование». – Белово: ООО «Канцлер», 2010. – Ч. 3. – S. 178–180.
5. Tashpulatov S.Sh., Djurayeva Sh.G., Murodov T.B. Development of information support for decorative elements for fashion industry objects //

International Journal of European Science Review. – Vienna, Austria. – 2018. – № 7–8. – P. 225–228.
6. Djurayeva Sh.G. Разработка информационного обеспечения процесса проектирования одежды с узбекским историческим кроем и национальными декоративными элементами // Universum: технические науки. – 2021. – № 8 (89). – S. 75–77.
7. Tashpulatov S.Sh., Djurayeva Sh.G., Muminova U.T. Декоративные элементы и унификация деталей швейных изделий // Международная рецензируемая научная онлайн-конференция «Тенденции развития легкой промышленности Республики Узбекистан: проблемы, анализ и решения». – Toshkent, 2020. – S. 49–54.
8. Djurayeva Sh.G., Tashpulatov S.Sh. Орнаменты декора, применяемые в современном костюме // Инновационные технологии в текстильной и легкой промышленности: материалы международной научно-технической конференции. – Vitebsk, 2014. – S. 142.

MILLIY KIYIM DIZAYNIDA DEKORATIV ELEMENTLARDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

dotsent, PhD, Sh.G. Djurayeva, talaba, F.Y.Esonova,
Talaba, M.A. Raximberganova
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada milliy kiyim dizaynida dekorativ elementlardan foydalanishning zamonaviy yo‘nalishlari yoritilgan. Milliy ornamentlarni zamonaviy moda talablari bilan uyg‘unlashtirish, ularning kompozitsion va estetik xususiyatlari hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.*

Аннотация. *В статье рассмотрены современные направления использования декоративных элементов в дизайне национальной одежды. Проанализированы вопросы сочетания национальных орнаментов с современными требованиями моды, их композиционные и эстетические особенности, а также возможности применения цифровых технологий.*

Abstract. *The article examines modern trends in the use of decorative elements in national clothing design. The combination of national ornaments with modern fashion requirements, their compositional and aesthetic features, as well as the possibilities of applying digital technologies are analyzed.*

Bugungi kunda jahon moda sanoatida milliy madaniyat va an’anaviy badiiy meros elementlaridan foydalanish muhim tendensiyalardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy kiyim dizaynida milliy bezaklardan foydalanish nafaqat kiyimning

estetik ko‘rinishini boyitadi, balki xalqning tarixiy-madaniy merosini saqlash va uni yangi avlodga yetkazish imkonini ham beradi.

O‘zbek milliy kiyimlari o‘zining rang-barangligi, shakliy yaxlitligi, nafis kashtalari va o‘ziga xos ornamentlari bilan ajralib turadi. Milliy dekorativ elementlarning shakli va mazmuni turli hududlarning tarixiy, madaniy va badiiy an’analari bilan chambarchas bog‘liq. Sh.G. Djurayeva o‘zbek kashtachiligi turlarining o‘zaro bog‘liqligi va ularni hududiy jihatdan tizimlashtirish masalalarini tadqiq etib, milliy bezaklarning mintaqaviy xususiyatlarini aniqlash muhimligini ta’kidlaydi [3].

Zamonaviy moda dizaynida milliy ornamentlardan foydalanishda ularning an’anaviy shaklini saqlab qolish bilan birga, yangi badiiy-kompozitsion yechimlarni izlash muhim ahamiyatga ega. Bunda milliy naqshlarni bevosita ko‘chirishdan ko‘ra, ularning asosiy shakliy va ritmik xususiyatlarini saqlagan holda zamonaviylashtirish, ya’ni stilizatsiya qilish samarali usullardan biri hisoblanadi.

Milliy dekorativ elementlar kiyimning yoqa, yeng, etak, old bo‘lak, cho‘ntak, bel qismi va boshqa detallarida turlicha joylashtirilishi mumkin. Bunda bezakning o‘lchami va kiyim detalining geometrik shakli o‘rtasidagi mutanosiblikka alohida e’tibor qaratish lozim. Sh.G. Djurayevaning tadqiqotlarida dekorativ element parametrlarini kiyim o‘lchamiga mos holda tanlash masalasi yoritilgan bo‘lib, dekorativ elementning o‘lchami kiyimning umumiy kompozitsiyasi bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatilgan [4].

Kiyim dizaynida dekorativ elementni to‘g‘ri tanlash uning nafaqat tashqi ko‘rinishiga, balki mahsulotning umumiy badiiy ifodasiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli dekorativ elementning shakli, o‘lchami, takrorlanish ritmi, ranglar uyg‘unligi va kiyim konstruksiyasidagi joylashuvi birgalikda ko‘rib chiqilishi zarur.

O‘zbek milliy dekorativ elementlari zamonaviy kiyim modellarida qo‘llanganda, ularning milliy xususiyatlari va badiiy mazmunini saqlab qolish muhimdir. Milliy bezaklarning zamonaviy kiyimdagi o‘rni va ahamiyati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda ularning zamonaviy moda yo‘nalishlarida qo‘llanish imkoniyatlari qayd etilgan [1].

Shuningdek, zamonaviy kiyimlarda qo‘llanilayotgan milliy dekorativ elementlarning sifat ko‘rsatkichlarini baholash ham muhim masalalardan biridir. Dekorativ elementning estetik ko‘rinishi bilan bir qatorda, uning kiyim materiali bilan mosligi, chidamliligi, texnologik jihatdan bajarilish imkoniyati va foydalanish qulayligi ham hisobga olinishi kerak [2].

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi milliy bezaklarni zamonaviy kiyim dizayniga tatbiq etish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirish imkonini bermoqda. Kompyuter grafikasi va avtomatlashtirilgan loyihalash vositalari yordamida milliy ornamentlarning elektron variantlarini yaratish, ularni turli masshtablarda o‘zgartirish, ranglarini almashtirish va kiyim detallarida joylashtirish mumkin.

Dekorativ elementlar bo‘yicha axborot ta’minotini yaratish moda sanoati obyektlarini loyihalash jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. S.Sh. Tashpulatov, Sh.G. Djurayeva va T.B. Murodov tomonidan dekorativ elementlar uchun axborot ta’minotini ishlab chiqish masalalari o‘rganilgan bo‘lib, bunday yondashuv dekorativ elementlarni tizimlashtirish va ulardan loyihalash jarayonida samarali foydalanish imkonini beradi [5].

Milliy kiyim dizaynida raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali ornamentlarning elektron kutubxonasini shakllantirish mumkin. Unda naqshning nomi, kelib chiqish hududi, grafik tasviri, ranglari, geometrik parametrlari va qo‘llanish sohasi kabi ma’lumotlarni jamlash imkoniyati mavjud. Bu esa dizayner uchun kerakli dekorativ elementni tez tanlash va uni yangi kiyim modeli bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, tarixiy bichim va milliy dekorativ elementlardan foydalanilgan kiyimlarni loyihalashda axborot ta’minotidan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar ham mavjud [6]. Ushbu yondashuv milliy kiyim elementlarini zamonaviy dizayn va ishlab chiqarish jarayonlariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ornamentlarning zamonaviy kostyumdagi o‘rnini o‘rganishda ularning kompozitsion tuzilishi ham muhimdir. Sh.G. Djurayeva va S.Sh. Tashpulatov zamonaviy kostyumda qo‘llaniladigan dekor ornamentlarini tadqiq etib, milliy bezaklarning zamonaviy kiyim dizaynida foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatib berganlar [8].

Zamonaviy moda dizaynida milliy dekorativ elementlardan foydalanishning asosiy tamoyili — milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlash**dir.** Bunda an’anaviy naqshlarning asosiy badiiy xususiyatlari saqlanadi, biroq ularning shakli, o‘lchami, joylashuvi va rang yechimi zamonaviy kiyim konstruksiyasiga moslashtiriladi.

Masalan, an’anaviy kashta naqshlarining alohida elementlarini ajratib olib, ularni minimalistik kompozitsiya shaklida kiyimning yoqa yoki yeng qismida qo‘llash mumkin. Yirik ornamentlarni esa kiyimning markaziy qismida asosiy kompozitsion element sifatida ishlatish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv kiyimning milliyligini saqlagan holda uning zamonaviy va estetik ko‘rinishini ta’minlaydi.

Dekorativ elementlarni kiyim detallari bilan unifikatsiya qilish ham ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. S.Sh. Tashpulatov, Sh.G. Djurayeva va U.T. Muminova dekorativ elementlar va tikuv buyumlari detallarini unifikatsiya qilish masalalarini o‘rganib, bunday yondashuvning ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatini ko‘rsatganlar [7].

Shunday qilib, dekorativ elementni loyihalashda uchta asosiy jihat — estetik, konstruktiv va texnologik talablar o‘zaro uyg‘unlashtirilishi kerak. Faqat badiiy jihatdan chiroyli bezak yaratish yetarli emas; uning kiyim konstruksiyasiga mosligi va ishlab chiqarish texnologiyasida bajarish imkoniyati ham ta’minlanishi lozim.

Xulosa. Milliy kiyim dizaynida dekorativ elementlardan foydalanish zamonaviy moda sanoatida milliy o‘zlikni namoyon etishning samarali vositalaridan biridir. Milliy ornamentlarni zamonaviy kiyimlarga tatbiq etishda ularning tarixiy va hududiy xususiyatlarini o‘rganish, o‘lcham va kompozitsion parametrlarini to‘g‘ri tanlash, kiyim detallari bilan mutanosibligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish esa milliy dekorativ elementlarni yaratish, saqlash, tizimlashtirish, modellashtirish va turli kiyim variantlarida sinab ko‘rish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada milliy bezaklarning an’anaviy xususiyatlarini saqlagan holda, zamonaviy moda talablariga javob beruvchi yangi kiyim modellarini yaratish mumkin.

Milliy dekorativ elementlarni zamonaviy dizayn, raqamli texnologiyalar va innovatsion ishlab chiqarish usullari bilan uyg‘unlashtirish yengil sanoat mahsulotlarining badiiy-estetik qiymatini oshirish, milliy merosni asrash hamda uni zamonaviy moda muhitida rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djurayeva Sh.G. Значение узбекских национальных декоративных элементов в мире // **Universum: технические науки.** – 2021. – № 8-1 (89). – S. 81–83.
2. Djurayeva Sh.G. Оценка качества узбекских национальных декоративных элементов на деталях современной одежды **// Universum: технические науки.** – 2021. – № 8-1 (89). – S. 78–80.
3. Djurayeva Sh.G. Закономерности взаимосвязи между видами узбекской вышивки и систематизация по региональному аспекту // **Молодой ученый**. – 2021. – № 37 (379). – S. 17–19.
4. Djurayeva Sh.G. Выбор параметров декоративного элемента, соответствующего размеру одежды // **Материалы VIII Международной научной конференции «Наука и образование». –** Белово: ООО «Канцлер», 2010. – Ч. 3. – S. 178–180.
5. Tashpulatov S.Sh., Djurayeva Sh.G., Murodov T.B. Development of information support for decorative elements for fashion industry objects // **International Journal of European Science Review. –** Vienna, Austria. – 2018. – № 7–8. – P. 225–228.
6. Djurayeva Sh.G. Разработка информационного обеспечения процесса проектирования одежды с узбекским историческим кроем и национальными декоративными элементами // **Universum: технические науки**. – 2021. – № 8 (89). – S. 75–77.
7. Tashpulatov S.Sh., Djurayeva Sh.G., Muminova U.T. Декоративные элементы и унификация деталей швейных изделий // **Международная рецензируемая научная онлайн-конференция «Тенденции развития легкой промышленности Республики Узбекистан: проблемы, анализ и решения».** – Toshkent, 2020. – S. 49–54.
8. Djurayeva Sh.G., Tashpulatov S.Sh. Орнаменты декора, применяемые в современном костюме // **Инновационные технологии в текстильной и легкой**

промышленности: материалы международной научно-технической конференции. – Vitebsk, 2014. – S. 142.

9. Djurayeva Sh., Tashpulatov S. The use of polymer compositions based on modified collagen as a thickener for printing inks // **The Scientific Heritage**. – 2021. – Vol. 1, № 76 (76). – Budapest, Hungary. – P. 8–9.

TIKUV BUYUMLARIGA MATERIALLAR PAKETINI AVTOMATLASHTIRILGAN KONFEKTSIYALASH VA RAQAMLI BOSHQARISH JARAYONI DASTURIY INTERFEYSINI ISHLAB CHIQISH

Z.T. Xasanov, talaba M.A.Turakulova, magistrant, N.A.Babajanova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tikuv buyumlarini loyihalashda materiallar paketini konfektsiyalash jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish masalalari yoritilgan. Taqdim etilgan "Materiallar paketini konfektsiyalash" veb-interfeysi asosida xomashyo sarfi, texnologik parametrlar, etkazib beruvchilar ma'lumotlari va 2D/3D eskiz integratsiyasini bir tizimga jamlash usuli tahlil qilingan. Dasturiy tizim orqali mahsulot tannarxini aniq hisoblash, sarf normalarini shakllantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy xulosalar berilgan.*

Аннотация. *В данной статье освещены вопросы цифровизации и автоматизации процесса конфекционирования пакета материалов при проектировании швейных изделий. На основе представленного веб-интерфейса «Конфекционирование пакета материалов» проанализирован метод объединения в единую систему данных о расходе сырья, технологических параметрах, информации о поставщиках и интеграции 2D/3D-эскизов. Даны практические выводы по точному расчету себестоимости продукции, формированию норм расхода и повышению эффективности производства с помощью программной системы.*

Abstract. *This article highlights the issues of digitalization and automation of the material package confectioning process in garment design. Based on the presented "Material Package Confectioning" web interface, a method for integrating raw material consumption, technological parameters, supplier data, and 2D/3D sketch integration into a single system is analyzed. Practical conclusions are provided on accurately calculating product prime cost, establishing consumption rates, and increasing production efficiency through the software system.*

Yengil sanoatni raqamlashtirish (Industry 4.0) sharoitida tikuv buyumlarini loyihalash va ishlab chiqarishga tayyorlash vaqtini qisqartirish muhim ahamiyatga

ega. An'anaviy konfektsiyalash jarayonida asosiy, qotirma va yordamchi materiallarni tanlash ko‘p vaqt va mehnat talab etadi. Model bo‘yicha barcha xomashyo ma'lumotlarini yagona raqamli tizimga integratsiya qilish materiallar isrofini kamaytirishga va korxona ichidagi biznes-jarayonlarni shaffoflashtirishga xizmat qiladi [1,2,3].


Tadqiqotda ishlab chiqilgan raqamli konfektsiyalash interfeysi uchta asosiy funktsional blokdan iborat:

1. Modelning asosiy parametrlari: A). Model identifikatsiyasi: Model nomi («Ayollar plashi 001»), SKU kodi (K-001), o‘lcham qatori (42–54) va texnik hujjatlar (PDF/SAPR formati) yagona kartochkaga jamlangan. B). Grafik eskiz: Buyumning oldi va orqa ko‘rinishlari vizual aks etib, detallar bo‘yicha konfektsiyalash nazoratini ta'minlaydi.

2. Materiallar spetsifikatsiyasi va sarf normalari jadvali. Interfeysda to‘plamga kiruvchi har bir xomashyo turi bo‘yicha hisob-kitob yuritiladi (1-Rasm):

- Kategoriyalar: Asosiy mato, qotirma (dublerin), iplar (40/2) va aksessuarlar.
- Sarf ko‘rsatkichlari: Bir dona mahsulot va butun o‘lcham qatori turkumi (partiyasi) uchun material miqdori avtomatik hisoblab chiqiladi (masalan, mato: 1 dona uchun 1.85 m, barcha o‘lchamlar uchun 11.10 m).
- Yo‘qotishlar foizi va etkazib berish: Har bir materialga yo‘qotish foizi (5%) va mas'ul etkazib beruvchi korxonalar biriktiriladi.

3. Analitik va hisob-kitob paneli. A). Kompleks hisob-kitob: Model bo‘yicha umumiy materiallar turlari soni, umumiy mato sarfi va tannarx (256 350 so‘m) realik vaqt rejimida hisoblanadi [4,5]. B). Material xususiyatlari moduli: Tanlangan materialning eni (150 sm), rangi, tarkibi (45% paxta, 55% PE) va fizik tasviri alohida panelda boshqariladi.



производства « Бразер» 5 класса. При работе на таких машинах обычно используется полушерстяная пряжа артикула 32/2. При создании многих коллекций кулирная гладь сочеталась с другими разнообразными переплетениями: ластиком, ажуром, резинкой, плиссе, а также с ручным вязанием крючком и на спицах – для достижения наибольшей декоративности и выразительности авторской идеи. Первыми в ряду стилизаций стоят идеи модерна, а также характерные для него символизм и примитивизм, помогающие решить задачу художественной выразительности изделий из трикотажа. Стилизация использовалась не только применительно к трикотажному костюму, но и к интерьерным изделиям. Для модерна характерны стилизованные природные мотивы, асимметрия, растительный декор, в том числе разнообразные цветы [6]. Излюбленные цвета этого стиля полынные, белые и бледно-желтые, символизирующие бренность жизни, были применены в коллекции «Образы цвета» (рис. 5). Следующий стиль, дающий огромные возможности для стилизаций, - ар деко. Эклектичность ар деко привела к его дроблению на множество микростилей, таких как испанский, восточный (ориентализм), японский, античный (неогрек), египетский, геометрический, спортивный и «гарсон». Благодаря этому у стиля ар деко оказались неисчерпаемые художественные возможности. В эпоху ар деко женщины начинают активно заниматься спортом и осваивать мужские профессии. Начинается их повальное увлечение автомобилями и аэропланами [4]. Характерными чертами женского образа становятся короткая стрижка, худоба, маленькая грудь, широкие плечи, отсутствие силуэта талия-бедра. Из мужского гардероба женщины перенимают все мужские атрибуты – брюки, галстуки, сигареты, спортивные свитера [7]. Популярным становится микростиль «гарсон». В 1910-х годах Европу заполоняют жиголо из Латинской Америки, а самым модным танцем становится аргентинское танго. Это способствует формированию «испанского» микростиля в одежде. Характерные черты костюма в «испанском» стиле - туфли с перепонками, высокие гребни, веера из перьев лебедя, павлина, цапли и страуса, шали с шелковой бахромой [3]. Стилизация ар деко была использована автором в коллекциях «Мадагаскар» и «Образы цвета». Такие элементы декора хиппи-стиля, как яркие цвета и полоски, разнообразная бахрома, вязаные цветы, техника пэчворк, а также элементы самого костюма хиппи – разнообразные пончо, связанные ручным способом купальники, сумки, шапки и другие аксессуары, использованы в коллекциях «Кантри» (рис. 5), «Сибирь. Сезон купания», «Образы цвета», «Лолита». Подводя итоги можно сказать, что костюм из ткани формировался на протяжении тысячелетий, а из трикотажа – менее ста лет, что долго ставило под сомнение перспективность его художественной выразительности. Несмотря на это, в течение всего двадцатого столетия шла разработка новых технологических приемов и способов декорирования трикотажного костюма с использованием идей художественных стилей и направлений

изобразительного искусства двадцатого века. Следовательно, можно сделать вывод о том, что трикотаж является полноценной альтернативой ткани на пути создания костюма как произведения декоративно-прикладного искусства, а использование основных декоративных элементов художественных стилей и направлений изобразительного искусства открывает неограниченные возможности в декорировании современной трикотажной одежды и позволяет достичь ее максимальной художественной выразительности.

Библиографический список

1. Блохина И.В. Всемирная история костюма, моды и стиля. Минск: Харавест, 2007. 400 с.

2. Такер Э., Кингсвелл Т. История моды; пер. с англ. И.Бельченко. М.: ООО «Издательство АСТ»; ООО «Издательство Астрель», 2003. 144 с.

3. Мода и стиль / редколлегия: М.Аксенова, Т.Евсеева, А.Чернова и др. М.: Мир энциклопедий Аванта+, 2007. 480 с.

4. Мир Вещей / редколлегия: М. Аксенова, Т. Евсеева, А. Чернова и др. М.: Мир энциклопедий Аванта+, 2007. 444 с.

5. История искусства: художники, памятники, стили; пер. с исп. Т.В. Сафроновой, Г.Ю. Соколовой. М.: Астрель: АСТ, 2006. 393 с.

6. Модерн / Джудит Миллер совместно с Дж. Бейс, Д. Раго и С. Перро; пер. с англ. Т. Граблевской, О. Сухаревой (мл.) М.: АСТ: Астрель, 2005. 240 с.

7. Стриженова Т.К. Из истории советского костюма. М.: Советский художник, 1972.

MILLIY KOSTYUM BICHIMLARINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA ULARNI RAQAMLI MEROS SIFATIDA SAQLASH

Magistranti Qodiriy Firdavsxon Nodirjon qizi,
professori, f.f.n. U.S. Raxmatullayeva, doktoranti K.B. Mirziyodova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston hududlari bo‘yicha milliy kostyum bichimining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ularni 3D modellashtirish va CAD tizimlari asosida raqamli hujjatlashtirish hamda zamonaviy dizaynda innovatsion qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *В статье анализируются особенности кроя национального костюма по регионам Узбекистана и рассматриваются возможности их цифровой фиксации посредством 3D-моделирования и САПР, а также инновационного применения в современном дизайне.*

Abstract. *This article analyzes the distinctive cutting features of national costumes across the regions of Uzbekistan and examines their digital documentation through 3D modeling and CAD systems, as well as innovative application in contemporary design.*

O‘zbekiston hududi qadimdan turli etnik va madaniy jarayonlar kesishgan makon sifatida shakllangan bo‘lib, mazkur tarixiy-madaniy xilma-xillik milliy kostyumlarning rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlarida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Iqlim sharoiti, xo‘jalik yuritish uslubi va mahalliy hunarmandchilik an’analari har bir mintaqada o‘ziga xos bichim, konstruksiya va bezak uslublarining shakllanishiga sabab bo‘lgan. Natijada Farg‘ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Xorazm, Qoraqalpog‘iston va Surxondaryo-Qashqadaryo kabi mintaqaviy kostyum maktablari vujudga kelgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston hududlari bo‘yicha milliy kostyum bichimlaridagi o‘ziga xos xususiyatlarni tahlil qilish hamda ushbu meros raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy moda dizaynida innovatsion tarzda qayta talqin etilishi uchun ilmiy-amaliy asos yaratishdan iborat.

Tarixiy kiyimlarni uch o‘lchamli raqamlashtirish ularning konstruktiv xususiyatlarini saqlash, ilmiy o‘rganish va madaniy meros sifatida ommalashtirish imkonini beradi. Xususan, Amir Buxoro kostyumining 3D skanerlash asosida raqamli hujjatlashtirilishi O‘zbekiston milliy kiyim merosini zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali saqlash imkoniyatini ko‘rsatadi [7].

Tadqiqot natijalari va muhokama. Farg‘ona-Toshkent mintaqasida ayollar ustki kiyimlari orasida keng bichimli ko‘ylaklar hamda choponlardan “mursak” turi keng tarqalgan bo‘lib, ularning konstruktiv yechimida to‘g‘ri va nisbatan erkin siluetli shakllar ustunlik qiladi. Erkaklar kiyimida to‘n asosiy o‘rin tutadi: Farg‘ona to‘nining bichimi asosan to‘g‘ri va oddiy bo‘lgan, farqlar asosan uzunlik, mato rangi va bezatish usulida namoyon bo‘lgan [1]. Bosh kiyimlar orasida Toshkentning “chust” do‘ppilari oq-qora rangli klassik geometrik naqshi bilan alohida ajralib turadi [2].

Buxoro-Samarqand mintaqasida esa hashamatga moyillik va bezak boyligi yetakchilik qiladi. Buxoro zardo‘zligi — oltin ip bilan tikish texnikasi — jahon miqyosida tan olingan bo‘lib, erkaklar choponlari va ayollar kalla po‘shlari zardo‘zi naqshlar bilan qoplanib, ularning bezak xususiyatlari ko‘pincha kiyim egasining ijtimoiy mavqei va jamiyatdagi o‘rnini ifodalagan. Konstruktiv jihatdan Buxoro hududiga xos kiyimlarda keng va erkin bichim, shuningdek, bir necha qatlamdan iborat kiyinish an’anasi kuzatiladi. Bichim jihatidan bu mintaqa kiyimlari kengroq va qatlamli konstruksiyaga ega bo‘lib, hududning tarixiy savdo markazi sifatidagi boyligini aks ettiradi [2].

Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlariga xos milliy liboslarda qadimiy ko‘chmanchi hamda o‘troq madaniyat an’analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi yaqqol namoyon bo‘ladi. Xorazmning qo‘y terisidan tayyorlangan “cho‘girma” telpagi hamda qoraqalpoq ayollarining “ko‘k ko‘ylak” va “saukele” bosh kiyimi murakkab

geometrik naqshlar bilan bezatiladi. Bichim jihatidan bu mintaqa kiyimlari boshqa hududlarga nisbatan erkinroq, kengroq yeng konstruksiyasiga ega [2].

Surxondaryo-Qashqadaryo mintaqasi esa o‘zining boy kashtachilik an’analari bilan ajralib turadi. Asrlar davomida shakllangan an’anaviy naqsh kompozitsiyalari va rang uyg‘unligi milliy kiyimlarning bezak tizimini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lgan. Bichim tuzilishi nisbatan an’anaviy va to‘g‘ri shaklda saqlangan bo‘lsa-da, hududiy o‘ziga xosliklar, asosan, naqsh, rang hamda kashta kompozitsiyalarining tanlanishi va joylashtirilishida namoyon bo‘lgan [4].

Konstruktiv-texnologik nuqtai nazardan qaraganda, zamonaviy konstruksiyalash fanida bazaviy konstruksiyani o‘zgartirish darajasiga qarab bir necha texnik modellash usullari farqlanadi: siluet o‘zgarishsiz qolgan holda mayda detallarning o‘zgarishi, siluet proporsiyalarining o‘zgarishi, o‘tkazma yengli asosdan reglan yoki yaxlit bichilgan yeng konstruksiyasiga o‘tish va yangi model yaratish [3]. Bu tasnifni hududiy kiyimlarga tatbiq etilsa, Farg‘ona-Toshkent va Buxoro-Samarqand liboslarida siluetning barqarorligi va bezaklarning o‘zgaruvchanligi, Xorazm va Qoraqalpog‘iston liboslarida esa erkin konstruktiv yechimlar ustunlik qiladi.

Bundan tashqari, aniqlangan hududiy farqlarni saqlash va amaliy qayta ishlatish uchun ularni raqamli texnologiyalar asosida hujjatlashtirish maqsadga muvofiqdir. 3D modellashtirish va CAD tizimlari yordamida har bir mintaqaga xos konstruktiv-bichim sxemalarini (Farg‘ona to‘nining to‘g‘ri kesimi, Buxoro chopon konstruksiyasining keng siluetlari, Xorazm kiyimlarining erkin yeng konstruksiyasi) parametrik andazalar shaklida raqamli arxivga kiritish mumkin [5]. So‘nggi xalqaro tadqiqotlar meros kiyimlarni 3D skanerlash va CAD asosida raqamli qayta tiklash usulining dunyo miqyosida ishonchli natijalar berayotganini ko‘rsatadi [7]. Bu O‘zbekiston misolida ham tasdiqlangan: 3D skanerlash orqali Buxoro amirining XIX asr oxiriga oid kiyim majmuasi raqamlashtirilib, milliy kiyim merosini raqamli saqlashning ilk yirik tajribasiga aylangan [6]. Bunday yondashuv yo‘qolib borayotgan bichim shakllarini elektron bazada saqlash bilan bir qatorda, dizaynerlarga ularni zamonaviy kolleksiyalarda tezkor modellashtirish imkonini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hududlari bo‘yicha milliy kostyum bichimlarida geografik, tarixiy va xo‘jalik omillari asosida shakllangan aniq farqlar mavjud: Farg‘ona-Toshkent mintaqasida soddalik va funksionallik, Buxoro-Samarqandda hashamat va zardo‘zi bezak, Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududlarida erkin konstruksiya va geometrik naqsh, Surxondaryo-Qashqadaryoda esa boy kashtachilik an’anasi ustuvorlik qiladi. Ushbu hududiy o‘ziga xosliklarni ilmiy tizimlashtirish, konstruktiv-texnologik tahlil usullari bilan qayta o‘rganish hamda 3D modellashtirish va raqamli andazalash vositalari orqali zamonaviy dizayn muhitiga integratsiya qilish milliy meros asosida yangi, raqobatbardosh va innovatsion moda dizayni yechimlarini yaratish uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari moda dizayni yo‘nalishidagi ta’lim dasturlarini boyitish va xalqaro tajriba almashishda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov A. O‘zbek milliy kiyimlari to‘g‘risidagi (do‘ppi va to‘n) ayrim mulohazalar // Yosh olimlar. – 2025. – 3(7). – B. 23–25. DOI: 10.5281/zenodo.15044730

2. Habibova M.O. O‘zbek milliy liboslarining xususiyatlari va dolzarbliklari // Ilmiy jurnal. – 2025. – 59-qism, 4-tom. – B. 87–91.

3. Tursunova X.Sh., Ruzimatova O.A. Ayollar murakkab bichimli kiyimlarida yenglar tahlili // «Ilm-fan muammolari yosh tadqiqotchilar talqinida» respublika ilmiy-onlayn konferensiyasi materiallari. – Farg‘ona politexnika instituti, №7. – B. 98–100.

4. Raxmatullayeva U.S., Xojiyeva M.R. Surxondaryo va Qashqadaryo mintaqalarida kashtachilikning tarixi va an’analari // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g‘oyalar. – 2025. – 2-jild, 1-son. – B. 359–362.

5. Muxamadiyev A.Sh., To‘rayev B.Z. 3D modellashtirish va raqamli animatsiya. – Toshkent: «Aloqachi», 2017. – 348 b.

6. Montusiewicz J., Miłosz M., Kęsik J., Żyła K. Structured-light 3D scanning of exhibited historical clothing – a first-ever methodical trial and its results // Heritage Science. – 2021. – Vol. 9. – Art. 74. – P. 1–20. DOI: 10.1186/s40494-021-00544-x.

7. Ding Q.-K., Liang H.-E. Digital restoration and reconstruction of heritage clothing: a review // Heritage Science. – 2024. – Vol. 12. – Art. 225. DOI: 10.1186/s40494-024-01349-4

CHARMNI TO‘LDIRISH JARAYONINI RAQAMLI NAZORAT QILISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

prof. M.B. Shamsiyeva, kat. o‘qit. N.A. Sodiqov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Tezisda charmni to‘ldirish jarayonining asosiy bosqichlari va ularni raqamli nazorat qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. pH, harorat, suyuqlik koeffitsiyenti va mexanik ta’sir monitoringi orqali reagentlarning derma bo‘ylab bir tekis taqsimlanishi asoslangan.*

Аннотация. *В тезисе рассмотрены основные стадии наполнения кожи и возможности их цифрового контроля. Обосновано равномерное распределение наполнителя в дерме на основе мониторинга pH, температуры, жидкостного коэффициента и механического воздействия.*

Abstract. *The paper considers the main stages of leather filling and their digital control. Uniform distribution of filling agents in the dermis is substantiated through monitoring of pH, temperature, liquor ratio and mechanical action.*

Charmni to‘ldirishning vazifasi faqat derma tolalari orasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish emas, balki uning topografik qismlari bo‘yicha notekisligini kamaytirish, g‘uddali qatlam zichligini oshirish, qalinlik va maydondan foydalanish samaradorligini yaxshilash hamda keyingi bo‘yash, yog‘lash va pardozlash jarayonlarining bir maromda kechishini ta’minlashga qaratilgan [1, 2]. Shuning uchun to‘ldirishni kollagen strukturasi va reagent o‘rtasidagi massa almashinuvi hamda bog‘lanish jarayonlari majmuasi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

To‘ldirish jarayonida reagent avvalo charm yuzasiga konvektiv yo‘l bilan kelib, so‘ng kapillyarlar va tolalar oralig‘ida diffuziyalanadi. Diffuziya tezligi reagentning molekulyar massasi, gidrodinamik o‘lchami, zaryad zichligi, eritma qovushqoqligi va charm g‘ovaklarining holatiga bog‘liq. Past molekulyar moddalarning ichki qatlamlarga kirish qobiliyati yuqori bo‘lsa, yirik va tarmoqlangan polimerlar ko‘proq tashqi hamda o‘rta qatlamlarda to‘planadi. Demak, reagentning molekulyar o‘lchami va uning derma bo‘ylab taqsimlanishini nazorat qilish to‘ldirish samaradorligining muhim shartlaridan biridir.

To‘ldirishda diffuziya bilan bir vaqtda adsorbsiya va fiksatsiya jarayonlari kechadi. Reagent kollagenning amin, karboksil, gidroksil va peptid guruhlari bilan ion, vodorod, gidrofob, koordinatsion yoki kovalent bog‘lar hosil qilishi mumkin. Fiksatsiyaning juda tez kechishi moddaning yuzada saqlanishiga va qatlam bo‘ylab notekis taqsimlanishiga olib keladi, aksincha, bog‘lanish yetarlicha bo‘lmasa reagent ishchi vannada qoladi yoki keyingi yuvishda chiqib ketadi [3,4]. Shu sababli diffuziya va fiksatsiya o‘rtasidagi muvozanatni boshqarish jarayonning markaziy texnologik tamoyili hisoblanadi.

Mazkur muvozanatga pH muhiti ham bevosita ta’sir qiladi. Kollagen amfoter biopolimer bo‘lganligi sababli uning zaryad holati muhit pH iga bog‘liq. Neytrallash yetarli bo‘lmaganda anion reagentlar yuzada tez fiksatsiyalanib, ichki qatlamlarga yetarlicha kira olmaydi, ortiqcha neytrallash esa kollagenning anionligini oshirib, reagent yutilishini kamaytirishi mumkin. Tadqiqot materiallari bo‘yicha bir tekis to‘ldirish samaradorligi pH 5,0–5,3 oralig‘ida yuqori bo‘lib, ushbu oraliqda reagentning derma ichiga kirishi va kollagen strukturasida mustahkamlanishi o‘rtasida maqbul muvozanat yuzaga keladi.

Shu jihatdan ishlab chiqarish qo‘llaniladigan barabanda pH datchigini o‘rnatish va olingan ma’lumotlarni real vaqt rejimida elektron boshqaruv moduliga uzatish istiqbolli yechimdir. Belgilangan diapazondan og‘ish aniqlanganda neytrallovchi yoki kislotali eritmalarni bosqichma-bosqich dozalab berish orqali jarayonni avtomatik tuzatish mumkin. Bunda operatorning davriy o‘lchovlariga bog‘liqlik kamayadi, texnologik rejimning takrorlanuvchanligi esa ortadi.

Harorat ham to‘ldiruvchi moddalarning massa almashinuvi va fiksatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Harorat ortishi molekulalar harakatini va diffuziyani tezlashtiradi, biroq haddan tashqari yuqori harorat ayrim polimerlarning muddatidan oldin koagulyatsiyalanishi, o‘simlik tannidlarining oksidlanishi yoki kollagen strukturasining ortiqcha qisqarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois

raqamli harorat datchiklari asosida jarayonning dastlabki bosqichida mo‘tadil, fiksatsiya bosqichida esa nazoratli harorat rejimini ta’minlash maqsadga muvofiq.

Suyuqlik koeffitsiyenti to‘ldiruvchi reagent konsentratsiyasi va mexanik ta’sir sharoitini belgilaydi. Past suyuqlik koeffitsiyentida reagent konsentratsiyasi ortadi va yutilish tezlashadi, ammo yuzada tez fiksatsiyalanish xavfi paydo bo‘ladi. Yuqori suyuqlik koeffitsiyenti diffuziyani barqarorlashtiradi, biroq suv va energiya sarfini oshiradi. Shuning uchun suyuqlik koeffisiyenti, charm yarimmahsuloti massasi va reagent miqdorini raqamli tarozi hamda sarf o‘lchagichlar asosida aniqlash past vannali, resurstejamkor rejimlarni barqaror amalga oshirish imkonini beradi.

Barabanning aylanish tezligi va mexanik ta’sir ham massa almashinuvini belgilovchi omillardandir. Mexanik harakat charm yuzasidagi chegara qatlamini yangilab, reagentning kapillyarlarga kirishini tezlashtiradi. Biroq haddan tashqari mexanik ta’sir, ayniqsa, yumshoq kiyimbop charmlarda donli qatlamning bo‘shashishi yoki shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Chastota o‘zgartirgichli elektr yuritma yordamida baraban aylanishini dastur asosida boshqarish, faol aylanish va tanaffus davrlarini navbatlashtirish ushbu xavfni kamaytiradi.

Charmni to‘ldirish jarayonini raqamli boshqarish tizimi shartli ravishda “datchiklar – ma’lumotlarni yig‘ish – me’yor bilan taqqoslash – boshqaruv signali – texnologik parametrni tuzatish” ketma-ketligida ishlashi mumkin. Bunday tizim pH, harorat, suyuqlik miqdori, reagent sarfi va baraban aylanish rejimini yagona elektron platformada qayd etadi. Natijada har bir ishlab chiqarish partiyasi uchun raqamli texnologik pasport shakllantirish, olingan parametrlarni tayyor charmning qalinligi, maydon chiqishi, yumshoqligi, deformatsion va gigiyenik ko‘rsatkichlari bilan solishtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Shunday qilib, charmni to‘ldirish jarayonini raqamli nazorat qilish pH, harorat, suyuqlik koeffitsiyenti, reagent sarfi va mexanik ta’sirni o‘zaro bog‘liq holda boshqarish imkonini beradi. Taklif etilayotgan yondashuv to‘ldiruvchi moddalarning derma kesimi bo‘ylab bir tekis taqsimlanishini, barqaror fiksatsiyasini va charmning to‘liqlik hamda shaklbarqarorlik xossalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli monitoringning joriy etilishi inson omili ta’sirini kamaytirish, suv va kimyoviy materiallar sarfini maqbullashtirish hamda mahsulot sifatining takrorlanuvchanligini oshirish orqali yengil sanoatda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Wang X., Sun S., Zhu X. et al. Application of amphoteric polymers in the process of leather post-tanning // Journal of Leather Science and Engineering. – 2021. – Vol. 3. – Art. 9.

2. Латфуллин И.И. Разработка наполняющих и додубливающих реагентов на основе модифицированных аминосмол для производства кож с

улучшенными эксплуатационными характеристиками: дис. ... канд. техн. наук. – Казань, 2015. – 165 с.

3. Юрасова О.В. Разработка и применение сульфоароматических полимерных наполнителей для повышения качества кожи: дис. ... канд. техн. наук. – Санкт-Петербург, 2011. – 189 с.

4. Covington A.D., Wise W.R. Current trends in leather science // Journal of Leather Science and Engineering. – 2020. – Vol. 2.

SMART-ТЕКСТИЛЬ В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВЫХ И ЧЕЛОВЕКООРИЕНТИРОВАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

ст. преп. Н.М.Мирфаязова, студентка М.Абдуфаттохова
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. *В статье рассмотрено история и последние достижения в области smart текстиля, датчиков на текстильной основе, подчеркивая удобство пользователя, незаметность и экологическую ответственность. В совокупности эта статья подчеркивает ключевую роль smart текстиля как технологию следующего поколения, с потенциалом для повышения благосостояния человека при одновременном продвижении глобальных целей устойчивого развития.*

Annotatsiya. *Maqolada smart to‘qimachilik, to‘qimachilik asosidagi sensorlar tarixi va so‘nggi yutuqlari ko‘rib chiqilib, foydalanuvchi qulayligi, sezilmasligi va ekologik mas’uliyati ta’kidlangan. Umuman olganda, ushbu maqola global barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surish bilan birga inson farovonligini oshirish salohiyatiga ega bo‘lgan keyingi avlod texnologiyasi sifatida aqlli to‘qimachilikning asosiy rolini ta’kidlaydi.*

Abstract. *The article examines the history and latest achievements in the field of smart textiles, textile-based sensors, emphasizing user convenience, inconspicuousness, and environmental responsibility. Overall, this article emphasizes the key role of smart textiles as a next-generation technology, with potential to improve human well-being while simultaneously promoting global sustainable development goals.*

Smart текстиль - это ткани, которые были спроектированы и изготовлены с использованием технологий, обеспечивающих носителю повышенную функциональность. Эти текстильные изделия имеют множество потенциальных применений, таких как способность общаться с другими устройствами, проводить энергию, превращаться в другие материалы и защищать носителя от экологических опасностей. Исследования и разработка носимых текстильных личных систем, таких как мониторинг здоровья, защита и безопасность, и здоровый образ жизни, получили сильный

интерес в последние несколько лет. Деятельность интеллектуальных тканей и интерактивных текстилей включает в себя управление личным здоровьем посредством интеграции и использования интеллектуальной одежды и других сетевых мобильных устройств, а также проекты, направленные на полную интеграцию датчиков-активаторов, источников энергии, обработки и связи внутри одежды для обеспечения личных приложений, таких как защита-безопасность, чрезвычайные ситуации и здравоохранение [1].

Основные материалы, необходимые для изготовления электронного текстиля, проводящих нитей и тканей, существуют уже более 1000 лет. В частности, ремесленники веками обматывали тканевые нити тонкими металлическими фольгами, чаще всего золотом и серебром. Многие платья королевы Елизаветы I, например, вышиты золотыми нитями. В конце XIX века, по мере того как люди развивались и привыкали к электрическим приборам, дизайнеры и инженеры начали сочетать электричество с одеждой и ювелирными изделиями - разрабатывая серию освещенных и моторизованных ожерелий, шляп, брошьев и костюмов. Например, в конце 1800-х годов человек мог нанять молодых женщин, одетых в светлые вечерние платья от компании Electric Girl Lighting Company, чтобы обеспечить развлечения на коктейльных вечеринках.

В 1968 году в Музее современного ремесленничества в Нью-Йорке состоялась новаторская выставка под названием "Покрытие тела," посвященная взаимосвязи между технологиями и одеждой. Особенно примечательной в этой коллекции стала работа Дианы Дью, дизайнера, создавшей линию электронной моды, включая электролюминесцентные праздничные платья и пояса, которые могли звучать в сигналах тревоги [2].

Smart textiles определяются как текстиль, способный воспринимать и реагировать на условия окружающей среды или раздражители, исходящие от механических, тепловых, магнитных, химических, электрических или других источников. Они способны ощущать и реагировать на внешние условия (стимулы) заранее определенным образом. Текстильные изделия, которые могут действовать иначе, чем обычная ткань, и в основном способны выполнять специальную функцию, безусловно, считаются умными текстилями.

Другие примеры Smart текстиля включают ткани, способные высвобождать лекарства или увлажняющие вещества в кожу, ткани, которые помогают контролировать вибрацию мышц во время спортивной деятельности, и материалы, которые регулируют температуру тела. Существуют также более простые, эстетичные приложения для Smart текстиля, включая те, которые могут менять цвет, освещать узоры или потенциально отображать изображения и видео.




Рис. Smart-текстиль: человек и экология

Первоначальная функция текстиля заключалась в защите человека от холода и дождя. Позже в истории эстетические аспекты также стали играть роль в одежде. Гораздо позже появилось новое поколение текстиля; умный и интерактивный текстиль. Интерактивный текстиль - относительно новая дисциплина в текстильной отрасли. Это активные материалы, обладающие чувствительными и возбуждающими свойствами. Их потенциал огромен.

Можно было бы подумать об умной одежде, которая делает нас комфортными в любое время, во время любой деятельности и в любых условиях окружающей среды, костюме, который защищает и контролирует, предупреждает в случае опасности и даже помогает лечить болезни и травмы. Такую одежду можно использовать с момента нашего рождения до конца нашей жизни. Умный текстиль может чувствовать и реагировать на условия окружающей среды или стимулы от механических, тепловых, химических, электрических, магнитных или других источников.

В smart текстиле должны присутствовать три компонента. т.е. датчики, исполнительные механизмы и управляющие узлы. Модифицированный текстильный материал и миниатюризированные электронные устройства создают умные ткани. Эти ткани похожи на обычную ткань, которая выполняет особую функцию в различных ситуациях в соответствии с дизайном и применением [3].

Развитие smart-текстиля прошло путь от первых экспериментов с проводящими нитями и простыми сенсорами до современных интегрированных систем, способных отслеживать физиологические параметры и взаимодействовать с цифровыми устройствами. Ключевым достижением последних лет стало создание текстильных датчиков, которые не ощущаются пользователем и не ограничивают движения. Они органично вплетаются в ткань, сохраняя привычный комфорт одежды.

Современные разработки акцентируют внимание на устойчивых материалах, переработке и снижении энергопотребления. Это делает smart-текстиль не только технологичным, но и экологически осознанным продуктом. Новые сенсорные волокна способны измерять температуру,

сердечный ритм, уровень влажности и другие параметры без необходимости внешних устройств. Интеграция с беспроводными системами передачи данных усиливает практическую ценность таких решений.

Smart-текстиль открывает возможности для медицины, спорта, безопасности и повседневной жизни, предлагая невидимую, но эффективную поддержку пользователю. Smart-текстиль и датчики на текстильной основе эволюционировали в сторону максимального удобства, незаметности и экологической ответственности. Эти качества делают технологию перспективной для массового внедрения и подчеркивают её значимость в будущем устойчивого и комфортного взаимодействия человека с технологиями.

Использованные источники:

1. Wang, C.; Fu, L.; Ametefe, D.S.; Wang, S.; John, D. E-textiles in healthcare: A systematic literature review of wearable technologies for monitoring and enhancing human health. Neural Comput. Appl. 2025, 37, 2089-2111. Google Scholar CrossReff

2. Mattmann, C.; Clemens, F.; Tröster, G. Sensor for Measuring Strain in Textile. Sensors 2008. 8, 3719-3732 Google Scholar CrossReff.

3. https://www.mdpi.com/14248220/25/23/7267?utm_source=copilot.com

TABIIY TERMOIZOLYATSIYA MEXANIZMLARI ASOSIDA ZAMONAVIY KIYIM KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

t.f.f.n dotsent N.X.Mirtolipova, tadqiqotchi M.B.Norqobolova
Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat institute

Annotatsiya*. Mazkur tezis tabiiy termoizolyatsiya mexanizmlarini kiyimkonstruksiyasiga tatbiq etish orqali uning termik xususiyatlarini takomillashtirishga bag‘ishlangan. Kiyim qatlamlari orasidagi havo bo‘shlig‘i, funksional zonalash, konstruktiv ventilyatsiya va issiqlikni saqlovchi elementlarning joylashuvi asosida yangi konstruktiv yechim taklif etiladi.*

Аннотация. *Данный тезис посвящён совершенствованию тепловых характеристик одежды посредством применения природных механизмов теплоизоляции в конструкции одежды. На основе воздушных прослоек между слоями одежды, функционального зонирования, конструктивной вентиляции и рационального размещения теплосберегающих элементов предлагается новое конструктивное решение.*

Abstract. *This thesis focuses on improving the thermal properties of clothing by applying natural thermal insulation mechanisms to garment construction. A new constructive solution is proposed based on air gaps between clothing layers, functional zoning, structural ventilation, and the optimal placement of heat-retaining elements.*

Kiyimning termik xususiyatlari nafaqat material tarkibiga, balki uning konstruktiv tuzilishiga ham bog‘liq. Bir xil materialdan tayyorlangan kiyimlarning issiqlikni saqlash xususiyati konstruktiv yechimlar sababli farq qilishi mumkin. Shuning uchun biomimetik yondashuv asosida kiyim konstruksiyasini takomillashtirishda tabiiy termoizolyatsiya mexanizmlarini konstruktiv elementlarga aylantirish muhimdir. Tabiatdagi hayvonlar sovuq muhitda issiqlik yo‘qotilishini kamaytirish uchun turli xil biologik konstruksiyalarga ega. Qush patlari va hayvonlar juni orasida havo qatlamlari mavjud bo‘lib, ular issiqlik uzatilishini cheklashga yordam beradi. Ushbu prinsip kiyim konstruksiyasida quyidagicha qo‘llanishi mumkin:

1. Ko‘p qatlamli konstruksiya-tashqi, issiqlikni saqlovchi va ichki qatlamlardan tashkil topgan kiyim tizimi.

2. Havo bo‘shlig‘ini boshqarish-qatlamlar orasida ma’lum havo hajmini saqlab qolish.

3. Funksional zonalash-tananing issiqlikni ko‘proq yo‘qotadigan qismlarida termoizolyatsion qatlamni kuchaytirish.

4. Ventilyatsion zonalar-issiqlik va namlik ortiqcha to‘planadigan qismlarda havo almashinuvini ta’minlash.

Konstruktiv model tanlashda quyidagi qatlamlar ketma ketligi lozim. Tashqi muhit-tashqi himoya qatlami-havo saqlovchi biomimetik qatlam-issiqlikni boshqaruvchi qatlam-ichki komfort qatlami-inson tanasi Bunda kiyimning turli qismlarida qatlamlar qalinligi va funksiyasi bir xil bo‘lishi shart emas. Masalan, ko‘krak va orqa sohalarida issiqlikni saqlash kuchaytirilishi, qo‘ltiq osti va yon sohalarda esa ventilyatsiya imkoniyati oshirilishi mumkin.

Tabiiy termoizolyatsiya mexanizmlarini kiyimning alohida konstruktiv zonalariga funksional ravishda taqsimlashdan iborat. Bunda kiyimning barcha qismlarida bir xil konstruksiya qo‘llash o‘rniga, inson tanasining issiqlik almashinuvi xususiyatlarini hisobga oluvchi differensial konstruktiv yechim taklif etiladi. Buning natijasida taklif etilayotgan konstruktiv yondashuvlar-kiyimning issiqlikni saqlash qobiliyatini yaxshilashi;-ortiqcha issiqlikni chiqarishni osonlashtirishi;-kiyim ichidagi mikroiqlimni barqarorlashtirishi;-kiyim massasini optimallashtirishi;-harakat qulayligini oshirishdan iborat.

Tabiatdagi termoizolyatsiya mexanizmlarini kiyim konstruksiyasiga tatbiq etish kiyimning funksional xususiyatlarini yaxshilashning istiqbolli yo‘nalishidir. Ayniqsa, ko‘p qatlamlilik, havo bo‘shlig‘ini boshqarish va funksional zonalash tamoyillarini birlashtirish orqali inson tanasi uchun qulay termik mikroiqlim yaratish mumkin. Biomimetik konstruktiv yondashuv kelajakda yengil, funksional, energiya samarador va inson termik komfortiga moslashtirilgan zamonaviy kiyimlarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Bhushan B. Biomimetics: lessons from nature—an overview. *Transactions of the Royal Society A*, 2009.2.Vincent J.F.V. Biomimetics: its practice and theory. *Journal of the Royal Society Interface*, 2006.

3.Hu J. Structure and Mechanics of Woven Fabrics. Woodhead Publishing. 2004.

4.Hes L. Thermal comfort and heat transfer in clothing. – [nashr ma’lumotlari].5.Zhao Y., Fang F. Biomimetic textile with self-assembled hierarchical porous fibers for thermal insulation. – [jurnal/nashr ma’lumotlari].

ZAMONAVIY KIYINISH MADANIYATIDA RANG, SILUET VA MATERIALNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Talaba Sh.D.Olimjonova, assistent (PhD) Zufarova Z.U.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya*. Kostyum inson hayotida nafaqat tanani tashqi muhitdan himoya qiluvchi vosita, balki shaxsning o‘ziga xosligi, dunyoqarashi, kayfiyati va estetik qarashlarini ifodalovchi muhim kommunikatsiya vositasidir. Insonning kiyinish uslubi uning jamiyatdagi mavqeyi, kasbi, madaniy muhiti, individual didi va xarakteri haqida ma’lum tasavvur hosil qilishi mumkin. Ayniqsa, zamonaviy kostyum dizaynida shaxsiyatni kiyim orqali ifodalash dizaynerning asosiy ijodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada kostyum va shaxsiyat o‘rtasidagi bog‘liqlik, rang, siluet, material, dekor va uslubning inson xarakterini ifodalashdagi o‘rni hamda individual obraz yaratish jarayoni tahlil qilinadi.*

Аннотация. *Костюм в жизни человека является не только средством защиты тела от воздействия внешней среды, но и важным средством коммуникации, отражающим индивидуальность, мировоззрение, настроение и эстетические взгляды личности. Стиль одежды человека может формировать определённое представление о его социальном статусе, профессии, культурной среде, индивидуальном вкусе и характере. Особенно в современном дизайне костюма выражение индивидуальности посредством одежды является одной из основных творческих задач дизайнера. В данной статье анализируются взаимосвязь костюма и личности, роль цвета, силуэта, материала, декора и стиля в выражении характера человека, а также процесс создания индивидуального образа.*

Abstract. *Clothing is not only a means of protecting the human body from external environmental influences but also an important means of communication that reflects an individual's identity, worldview, mood, and aesthetic preferences. A person's clothing style can provide insight into their social status, profession, cultural background, individual taste, and character. In contemporary costume design, expressing individuality through clothing is considered one of the designer's primary creative objectives. This article analyzes the relationship between costume and personality, the role of color, silhouette, material, decoration, and style in expressing an individual's character, as well as the process of creating a distinctive personal image.*

Insonning tashqi ko‘rinishi uning atrofdagilar bilan muloqot qilishidagi dastlabki vositalardan biridir. Odamlar bir-biri bilan suhbatlashishdan oldin ham tashqi ko‘rinish orqali ma’lum tasavvurga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda yuz ifodasi, yurish-turish, soch turmagi bilan bir qatorda kiyim ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli kostyumni insonning o‘ziga xos “vizual tili” deb atash mumkin.

Kiyim orqali inson o‘zining kimligini, qanday fikrlashini va qanday obrazda ko‘rinishni istashini namoyon etadi. Masalan, kimdir sodda va qulay kiyimlarni tanlashi orqali minimalizmga moyilligini ko‘rsatishi mumkin. Boshqa bir inson yorqin ranglar, noodatiy shakllar va katta aksessuarlardan foydalanib, o‘zining ijodkor va erkin xarakterini namoyish etishi mumkin. Kostyum dizayneri uchun esa bu jarayon yanada murakkabroqdir. Dizayner kiyimning tashqi ko‘rinishini yaratish bilan cheklanmay, ma’lum bir inson yoki obrazning xarakterini ham ifodalashi kerak. Shu sababli kostyum dizaynida psixologiya, estetika va kompozitsiya tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq [1]. Kostyumning asosiy xususiyatlaridan biri uning inson haqidagi ma’lumotni vizual tarzda yetkazishidir. Inson o‘z kiyimini tanlash orqali ongli yoki ongsiz ravishda atrofdagilarga ma’lum signal beradi. Masalan, klassik kostyum tartib, jiddiylik va professionallik bilan bog‘lanishi mumkin. Sport uslubidagi kiyim esa qulaylik, faol hayot tarzi va erkinlikni ifodalashi mumkin. Romantik uslubdagi liboslarda yumshoq ranglar, nafis matolar va nozik dekorlardan foydalanish orqali muloyim va nozik obraz yaratiladi. Ekstravagant uslub esa odatda yangilikka intilish, ijodkorlik va e’tiborni tortishga bo‘lgan istak bilan bog‘lanadi. Biroq kiyim va xarakter o‘rtasidagi bog‘liqlikni mutlaq qoida sifatida qabul qilish mumkin emas. Insonning kiyinish uslubiga uning kayfiyati, ijtimoiy muhiti, kasbi, madaniyati va vaziyat ham ta’sir qiladi. Demak, kostyum shaxsiyatni to‘liq belgilab bermaydi, lekin uni ifodalash va boshqalarga ma’lum taassurot qoldirish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Kostyum orqali shaxsiyatni ifodalash

Kostyumning silueti inson obrazini shakllantirishda rang kabi muhim vositadir. Yopishib turuvchi siluet figura chiziqlarini aniq ko‘rsatib, nafis va ishonchli obraz yaratishi mumkin. Erkin va hajmli siluet esa qulaylik, erkinlik yoki eksperimental xarakter bilan bog‘lanishi mumkin [2].

Kostyum dizaynida geometrik shakllardan foydalanish ham shaxsiyatni ifodalashga yordam beradi. Keskin burchaklar, aniq chiziqlar va qat’iy

konstruksiyalar kuchli va dinamik obraz yaratadi. Yumaloq va yumshoq shakllar esa sokinroq va romantik taassurot berishi mumkin. Shuningdek, dizayner kostyum orqali inson qomatining ayrim qismlariga vizual urg‘u berishi mumkin. Yelka chizig‘i, bel, son, bo‘yin yoki qo‘l qismlarining konstruktiv yechimi obrazning umumiy xarakterini o‘zgartiradi.

Kiyimda foydalaniladigan material ham shaxsiyatni ifodalashda katta ahamiyatga ega. Har bir matoning o‘ziga xos fakturasi, og‘irligi, yaltiroqligi va harakatlanish xususiyati mavjud. Ipak, atlas va shifon kabi yengil va nafis matolar nozik va romantik obraz yaratishda ishlatilishi mumkin. Jun, denim yoki zich kostyumlik matolari esa qat’iyroq va amaliy obraz hosil qiladi. Teri, metall elementlar yoki noodatiy sintetik materiallardan foydalanish orqali zamonaviy va eksperimental ko‘rinish yaratish mumkin [3].

Kostyumning xarakterini shakllantirishda dekorativ elementlar ham muhim o‘rin tutadi. Kashta, tugma, tosh, metall detal, drapirovka, burma, aplikatsiya va boshqa bezaklar kiyimga o‘ziga xoslik beradi. Masalan, milliy ornamentlardan foydalanish orqali insonning madaniy ildizlari va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini ifodalash mumkin. Minimal dekor esa soddalik va zamonaviylikni ta’kidlaydi.

Aksessuarlar ham obrazning ajralmas qismidir. Sumka, oyoq kiyimi, bosh kiyim, taqinchoqlar yoki ko‘zoynak kabi elementlar asosiy kostyum bilan uyg‘unlashib, umumiy obrazni to‘ldiradi. Ba’zan juda oddiy kostyumni bitta noodatiy aksessuar yordamida butunlay boshqa xarakterga keltirish mumkin. Demak, aksessuarlar kostyumning ikkilamchi qismi emas, balki uning kompozitsion mazmunini kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi [4].

Zamonaviy kostyum dizaynining asosiy vazifalaridan biri inson va kiyim o‘rtasida uyg‘unlik yaratishdir. Kiyim insonning shaxsiyatini yashirmasdan, aksincha, uni yanada yorqinroq namoyon qilishi kerak. Shunday qilib, kostyumni insonning **“vizual tili”** deb atash mumkin. Chunki inson hali biror so‘z aytmasdan turib ham uning kiyimi, rang tanlovi, silueti va umumiy uslubi orqali ma’lum bir taassurot uyg‘otishi mumkin. Dizaynerning mahorati esa ana shu vizual imkoniyatlardan foydalanib, mazmunli, estetik va individual obraz yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jones, L. H. The History of Fashion Design / L. H. Jones. – 2019. – [354] p.
2. Sorger, R. The Fundamentals of Fashion Design / R. Sorger, J. Udale. – 2nd ed. – London : Fairchild Books, 2017. – 192 p.
3. Peacock, J. Fashion Accessories: The Complete 20th Century Sourcebook / J. Peacock. – London : Thames & Hudson, 2000. – 192 p.
4. Laver, J. Costume and Fashion: A Concise History / J. Laver. – 5th ed. – London : Thames & Hudson, 2020. – 320 p.

MODA DIZAYNIDA SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

talaba Sh.D. Olimjonova, assistant (PhD) Zufarova Z.U.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada zamonaviy moda dizaynida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Bugungi kunda moda sohasi nafaqat ijodkorlik, balki zamonaviy texnologiyalar bilan ham chambarchas bog‘lanib bormoqda. Maqolada sun’iy intellekt yordamida g‘oya va eskizlar ishlab chiqish, rang va material tanlash, trendlarni tahlil qilish, 3D modellashtirish hamda virtual prototip yaratishning afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning dizayner mehnatini yengillashtirishi bilan birga, insonning ijodiy fikrlashi va individual uslubini saqlab qolish muhimligi haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация. *В данной статье освещаются возможности использования искусственного интеллекта и цифровых технологий в современном дизайне моды. Сегодня сфера моды тесно переплетается не только с творчеством, но и с современными технологиями. В статье рассматриваются преимущества разработки идей и эскизов, выбора цвета и материала, анализа трендов, 3D-моделирования и создания виртуального прототипа с помощью искусственного интеллекта. Также говорится о важности сохранения творческого мышления и индивидуального стиля человека, в то время как цифровые технологии облегчают труд дизайнера.*

Abstract. *This article explores the possibilities of utilizing artificial intelligence and digital technologies in modern fashion design. Today, the fashion industry is closely intertwined not only with creativity but also with modern technologies. The article examines the advantages of developing ideas and sketches, selecting color and material, analyzing trends, 3D modeling, and creating a virtual prototype using artificial intelligence. It also discusses the importance of preserving a person's creative thinking and individual style, while digital technologies make the designer's work easier.*

Hozirgi vaqtda texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda. Moda sanoati ham bundan mustasno emas. Oldin kiyim yaratish jarayonida dizaynerning qo‘lda chizgan eskizi, mato namunasi va oddiy qoliplar asosiy vosita hisoblangan bo‘lsa, bugungi kunda bu jarayonga kompyuter dasturlari, 3D modellashtirish, raqamli matolar va sun’iy intellekt kabi yangi imkoniyatlar qo‘shilmoqda. Menimcha, bu o‘zgarishlar dizayner kasbini yo‘qotmaydi, aksincha dizaynerning imkoniyatlarini kengaytiradi [1].

Moda dizaynining asosiy vazifasi inson uchun qulay, estetik va zamonaviy kiyim yaratishdan iborat. Bunda dizaynerning kuzatuvchanligi, tasavvuri, ranglarni his qilishi va yangicha fikrlashi katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar esa

ushbu ijodiy jarayonni tezlashtirishga yordam beradi. Masalan, bir g‘oyaning bir nechta variantini qisqa vaqt ichida ko‘rish, ranglarni almashtirish yoki kiyimning siluetini o‘zgartirish ancha osonlashadi [2, 3].

Sun’iy intellekt, qisqacha AI, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, ular asosida yangi natijalar yaratishga yordam beradigan texnologiyadir. Moda sohasida undan trendlarni o‘rganish, iste’molchilar qiziqishini tahlil qilish, ranglar uyg‘unligini aniqlash, dizayn g‘oyalarini rivojlantirish va vizual materiallar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Masalan, dizayner yangi kolleksiya ustida ishlayotgan bo‘lsa, sun’iy intellekt orqali turli fason, rang va dekorativ elementlarning variantlarini ko‘rib chiqishi mumkin. Bu tayyor mahsulotni darhol ko‘chirib olish degani emas. Aksincha, AI dizaynerga boshlang‘ich g‘oya beradigan yoki fikrni rivojlantirishga yordam beradigan vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Yakuniy qaror esa dizaynerning o‘ziga tegishli bo‘lishi kerak.

Sun’iy intellektning yana bir foydali tomoni — moda trendlarini tahlil qilish imkoniyatidir. Ijtimoiy tarmoqlar, internetdagi qidiruvlar va moda namunalari orqali odamlarning qaysi rang, shakl yoki uslubga ko‘proq qiziqishi haqida ma’lumot olish mumkin. Shu sababli yangi kolleksiya yaratishda faqat dizaynerning shaxsiy qarashlari emas, balki bozor ehtiyoji ham hisobga olinadi [4].

Moda dizaynida keng qo‘llanayotgan yana bir yo‘nalish — 3D modellashtirishdir. 3D dasturlar yordamida kiyimning hajmli ko‘rinishini kompyuter ekranida yaratish mumkin. Bunda matoning qanday tushishi, kiyimning gavdada qanday turishi va ayrim konstruktiv qismlarning ko‘rinishi oldindan tekshiriladi. Bu dizaynerga tikuv jarayonini boshlashdan oldin xatolarni aniqlash imkonini beradi.

Virtual prototiplashning iqtisodiy tomoni ham muhim. Har bir yangi namuna uchun mato sarflash, tikish va qayta buzib ko‘rish talab qilinmaydi. Dizayn avval virtual shaklda tekshiriladi, keyin kerakli variantni haqiqiy mahsulotga aylantirish mumkin. Natijada vaqt va material sarfi kamayadi. Ayniqsa, bir nechta variantdan iborat kolleksiyalar uchun bu juda qulay.

Bundan tashqari, 3D kiyimlar yordamida xaridorga mahsulotni oldindan ko‘rsatish, internet do‘konlarida virtual namoyish qilish va kelajakda raqamli moda mahsulotlarini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu moda sanoatining faqat ishlab chiqarish emas, balki reklama va savdo usullarini ham o‘zgartirmoqda.

Bugungi moda sanoatida ekologik masalalar ham dolzarb hisoblanadi. Kiyim ishlab chiqarishda ortiqcha mato sarfi, ishlab chiqarishdagi chiqindilar va tez-tez yangi namuna tayyorlash ekologik yuklamani oshirishi mumkin. Raqamli texnologiyalar bu muammoni to‘liq hal qilmasa ham, uni kamaytirishga yordam beradi [5].



1-rasm. Ushbu rasmda referens asosida sun’iy intellekt yordamida kapsula yaratilgan

Masalan, kiyimning virtual namunasi tayyorlanib, uning bir nechta varianti kompyuterda sinab ko‘rilsa, keraksiz fizik namunalar soni kamayadi. Konstruksiyadagi xatolar oldindan aniqlangani uchun matoni qayta-qayta kesish ehtiyoji ham kamayishi mumkin. Shu jihatdan raqamli dizayn barqaror moda tamoyillarini qo‘llab-quvvatlaydigan vositalardan biri bo‘la oladi [6].

Texnologiyalar rivojlanayotgan bo‘lsa ham, moda dizaynida inson omili juda muhim. Chunki kiyim faqat texnik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi emas, balki ma’lum bir kayfiyat, g‘oya va estetikani ifodalashi kerak. Sun’iy intellekt yoki boshqa dastur dizaynerga ko‘plab variantlarni ko‘rsatishi mumkin, lekin ularning ichidan qaysi biri maqsadga mosligini tanlash uchun insonning didi va tajribasi kerak bo‘ladi.

Shuning uchun kelajakdagi dizayner faqat rasm chizishni emas, balki raqamli dasturlar bilan ishlashni ham bilishi zarur. Ayniqsa, yosh dizaynerlar uchun bu juda katta imkoniyat. Bir vaqtning o‘zida ijodiy fikrlash va texnologik bilimni rivojlantirish orqali o‘ziga xos kolleksiya yaratish mumkin [7].

O‘zbekistonda to‘qimachilik va yengil sanoat rivojlanib borayotganligi sababli raqamli texnologiyalarni moda dizayniga kengroq kiritish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, milliy matolar, atlas va adras kabi an’anaviy materiallarni zamonaviy dizayn bilan birlashtirishda raqamli vositalar yaxshi natija berishi mumkin. Dizayner avval yangi kolleksiyaning raqamli variantlarini ishlab chiqib, keyin eng muvaffaqiyatli namunalarni ishlab chiqarishga tavsiya qilishi mumkin.

Bunday yondashuv mahalliy brendlarning zamonaviy ko‘rinishini rivojlantirishga, yangi avlod dizaynerlarining xalqaro bozorga chiqishiga va ishlab chiqarish jarayonini samaraliroq tashkil etishga xizmat qiladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni 3D kiyim modellashtirish, raqamli eskiz, sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish va zamonaviy dizayn dasturlariga o‘rgatish ham foydali bo‘ladi [8].

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar moda dizaynining rivojlanishiga katta imkoniyat yaratmoqda. Ular dizayn g‘oyalarini tezroq ishlab chiqish, variantlarni solishtirish, 3D prototip yaratish, material va vaqtni tejash hamda bozor talabini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyani inson ijodining o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uni to‘ldiruvchi vosita sifatida ko‘rish kerak.

Mening fikrimcha, kelajakda muvaffaqiyatli dizayner bo‘lish uchun faqat chiroyli eskiz chizishning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Dizayner zamonaviy texnologiyalarni ham tushunishi va ulardan o‘z ijodiy maqsadi uchun foydalana olishi kerak. Ayniqsa, O‘zbekistonning milliy dizayn an’analarini raqamli imkoniyatlar bilan birlashtirish yangi va qiziqarli kolleksiyalar yaratish uchun katta imkoniyat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aneta Genova, Katherine Moriwaki. Fashion and Technology: A Guide to the Future of Fashion Design. DOI:10.5040/9781501317392. January 2016

2. **Rizzi, F., & Bertola, P.** *Exploring the generative AI potential in the fashion design process: Tools, workflows, and professional impacts*. Politecnico di Milano Research Repository. (2025).

3. An, S., & Park, J. (2026). Implementing generative AI in fashion design curriculum: Cognitive load and technical accuracy. Frontiers in Education.

4. https://www.archedu.org/blog/the-role-of-technology-in-modern-fashion-design/

5. Ubaydullayeva, M. (2026). Dizaynda 3D texnologiyalar: Moda sanoatida CLO 3D va CLO Virtual tahlili. Nauchnyi Impuls / Elkutub.

6. Nguyen, T. M., & Tran, H. (2026). Optimizing Garments with OptiTex Software: Economic Impact of Virtual Prototyping.

7. https://www.style3d.com/blog/how-is-the-3d-fashion-design-software-market-evolving-in-2025/

8. Valeriia Shcherbak, Oleksandr Dorokhov, Viktoriia Riashchenko, Mariya Storozhuk, Andrej Bertoncelj, Maja Meško. From Virtual Prototyping to Digital Fashion: How Emerging Technologies Are Setting New Standards for Sustainability in the Creative Industries. Sustainability 2026, 18(7), 3281; https://doi.org/10.3390/su18073281

CHARM SANOATI CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYASI

PhD. M.B.Shamsiyeva,
tayanch doktorant, P.E.Abduraxmonova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mezdra chiqindisi yog‘i asosida anion sirt faol modda olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Jarayon ishqoriy gidroliz, yog‘ kislotalarini ajratish va neytrallash bosqichlaridan iborat. Olingan mahsulotni yog‘sizlantirish va yuvishda qo‘llash imkoniyati asoslandi.*

Аннотация. *Разработана технология получения анионного поверхностно-активного вещества из жира мездровых отходов. Процесс включает щелочной гидролиз, выделение жирных кислот и нейтрализацию. Обосновано применение продукта при обезжиривании и промывке.*

Abstract. *A technology for producing an anionic surfactant from fleshing waste fat was developed. The process includes alkaline hydrolysis, fatty acid separation, and neutralization. The product can be used in degreasing and washing processes.*


Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo‘ladigan chiqindilar miqdorini kamaytirish jahon miqyosidagi eng dolzarb ekologik va texnologik masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida hosil bo‘ladigan organik va kimyoviy chiqindilarni qayta ishlash, ular tarkibidagi qimmatli komponentlarni ajratib olish hamda ikkilamchi xom ashyo sifatida qayta ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish zamonaviy resurs-tejamkor texnologiyalarning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

2025 yil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilingani ham mamlakatda ekologik barqarorlikni ta‘minlash, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ishlab chiqarishda ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi [1]. Mazkur yondashuv sanoat chiqindilarini faqat ekologik muammo sifatida emas, balki qayta ishlash orqali iqtisodiy qiymatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan ikkilamchi xom ashyo sifatida baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq masalalar jahon olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, “yashil kimyo” tamoyillarining amaliyotga joriy etilishi natijasida kimyoviy jarayonlarda chiqindilar hosil bo‘lishini minimallashtirish, xom ashyodan maksimal darajada foydalanish, qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish va nisbatan xavfsiz kimyoviy reagentlardan foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Sirt faol moddalardan foydalanish ham ushbu ekologik yondashuvning istiqbolli

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlarda sirt faol moddalarni kimyoviy tahlil va namuna tayyorlash jarayonlarida qo‘llashning qator afzalliklari keltirilgan. Jumladan, sirt faol moddalar eruvchanlik va ekstraktsiya samaradorligini oshirish hamda organik erituvchilar sarfini kamaytirish imkonini berishi ta‘kidlangan [2]. Bu holat sirt faol moddalarni ekologik va resurs-tejamkor texnologik jarayonlarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Yuqorida keltirilgan ilmiy-nazariy ma‘lumotlardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotda charm-mo‘yna sanoatida hosil bo‘ladigan organik chiqindilarni ikkilamchi xom ashyo sifatida qayta ishlash va ular tarkibidagi yog‘ komponentlaridan funktsional xususiyatga ega sirt faol modda olish imkoniyati o‘rganildi. Tadqiqot ob‘yekti sifatida charm ishlab chiqarish jarayonida mezdralash operatsiyasidan keyin hosil bo‘ladigan mezdra chiqindisi tanlandi. Mezdra chiqindisi tarkibidagi yog‘ komponentlarining mavjudligi uni sirt faol modda sintezi uchun istiqbolli xom ashyo sifatida baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda mezdra chiqindisi tarkibidagi yog‘dan foydalangan holda anion sirt faol modda olishning texnologik sxemasi (rasm) ishlab chiqilib, uning asosida kimyoviy asoslarini ishlab chiqish va olingan mahsulotni charm-mo‘yna sanoatining yog‘sizlantirish hamda yuvish jarayonlarida qo‘llash imkoniyatini o‘rganib chiqildi.



1-rasm. Mezdra chiqindisidan anion sirt faol modda olishning texnologik sxemasi

Tadqiqotning dastlabki bosqichida mezdra chiqindisi tarkibidagi yog‘ Sokslet apparati yordamida ekstraktsiya usuli asosida ajratib olindi. Olingan yog‘ning keyingi qayta ishlash jarayonini tashkil etishda uning asosiy qismi triglitseridlardan tashkil topganligi inobatga olindi [3]. Mezdra yog‘ini sirt faol modda olish uchun qayta ishlash jarayoni shartli ravishda uchta asosiy, ishqoriy gidrolizlash, erkin yog‘ kislotalarni ajratish va kaliy gidroksid bilan neytrallash kimyoviy bosqichlarga ajratish mumkin. Dastlab yog‘ tarkibidagi triglitseridlar natriy gidroksid ta‘sirida ishqoriy gidrolizlanib, glitserin va yog‘ kislotalarining natriyli tuzlari hosil qilindi. Ushbu bosqich mezdra yog‘ini keyingi maqsadli kimyoviy qayta ishlash uchun tayyorlash imkonini beradi. Keyingi bosqichda hosil bo‘lgan yog‘ kislotalarining natriyli tuzlari xlorid kislota ta‘sirida parchalanib,

erkin yog‘ kislotalari hosil qilindi. Reaktsiyadan so‘ng aralashma organik va suvli fazalarga ajratilib, organik fazada to‘plangan erkin yog‘ kislotalari keyingi sintez bosqichi uchun ajratib olindi. Yakuniy bosqichda esa erkin yog‘ kislotalari kaliy gidroksid bilan neytrallanib, yog‘ kislotalarining kaliyli tuzlari hosil qilindi. Ushbu birikmalar molekulyar tuzilishida gidrofob uglevodorod radikali va gidrofil karboksilat guruhi mavjudligi sababli anion sirt faol xususiyat namoyon qiladi. Natijada mezdra chiqindisi tarkibidagi yog‘ komponenti funktsional xususiyatga ega bo‘lgan sirt faol moddaga aylantirildi.

Sintez qilingan anion sirt faol moddaning funktsional xususiyatlari uni charm-mo‘yna sanoatidagi texnologik jarayonlar uchun istiqbolli mahsulot sifatida baholash imkonini beradi. Sirt faol moddaning suvning sirt tarangligini pasaytirish, yog‘larni emulgirlash va ularni yuza qatlamidan ajratish xususiyatlari uni, avvalo, yog‘sizlantirish va yuvish jarayonlarida qo‘llash imkoniyatini yaratadi. Bunday yondashuvning muhim jihati shundan iboratki, charm ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan mezdra chiqindisi qayta ishlanib, uning tarkibidagi yog‘ yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan funktsional mahsulotga aylantiriladi

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, taklif etilayotgan yondashuv “chiqindi - xom ashyo - funktsional mahsulot - qayta qo‘llash” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, sanoat chiqindilarini minimallashtirish, ikkilamchi xom ashyodan samarali foydalanish va ekologik xavfsiz texnologiyalarni shakllantirish nuqtai nazaridan “yashil kimyo” tamoyillariga mos keladi. Shu bilan birga, mezdra chiqindisidan mahalliy sirt faol modda olish charm-mo‘yna sanoati uchun texnologik va iqtisodiy jihatdan istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasida 2025 yilni “Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili” deb e‘lon qilishga oid ma‘lumotlar. Gazeta.uz, 20.11.2024.

2. Vakh C., Koronkiewicz S. Surfactants Application in Sample Preparation Techniques: Insights, Trends, and Perspectives. TrAC Trends in Analytical Chemistry. 2023. Vol. 165. Article 117143.

3. Abdurakhmonova P.E., Shamsiyeva M.B. Untanned waste of the leather industry, recycle them and study of their composition. Юбилейной XX Всероссийской научно-практической конференции для студентов и молодых ученых с международным участием «Новые технологии и материалы легкой промышленности», посвящённой памяти профессора Г.Н. Кулевцова, Казан (Россия) 13-15 мая 2024 г. С. 84-85.;

4. Shamsiyeva M.B., Abduraxmonova P.E. Charm sanoati chiqindisi – mezdrani, terini qayta ishlash jarayonlarida qo‘llashning nazariy tadqiqi. Buxoro Davlat universiteti ilmiy axboroti. 2024. №10. B. 164–166.

AYOLLAR TEZKOR MODANING ENG KATTA ISTE’MOLCHILARIDIR VA O’RTA YOSHDAGI AYOLLARGA KAPSULALI GARDEROB TAVSIYALARI

ass. M.B.Pardayeva, prof F.Z.Ataxanova
Toshkent to’qimachilk va yengil sanoat instituti
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada ayollar tezkor modaning eng katta iste’molchilaridan ekanligi, shu sababli o’rta yoshdagi ayollarga kapsulali garderob tavsiyalari va fast fashion haqida keng yoritilgan. Tadqiqot davomida insonlarning va ayollarning kiyim-kechaklari chiqindilari ko’payb borayotganini tahlil qilish o’rganildi va jahon brendlari ko’ylaklarining markirovkalari, o’rta yoshli ayollarga kapsulali kolleksiyasiga moslab kiyimlar garderobini yaratish haqida ham muhim tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *В данной статье подробно освещается тот факт, что женщины являются одними из основных потребителей быстрой моды. В связи с этим в ней даются рекомендации по созданию капсульного гардероба для женщин среднего возраста и рассказывается о концепции "fast fashion." В ходе исследования был проведён анализ роста объёма отходов одежды, производимых людьми в целом и женщинами в частности. Также даны важные рекомендации по изучению маркировки на платьях мировых брендов и созданию гардероба, соответствующего капсульной коллекции для женщин среднего возраста.*

Abstract. *This article extensively covers fast fashion and provides capsule wardrobe recommendations for middle-aged women, highlighting that they are among the largest consumers of fast fashion. The research involved an analysis of the increasing amount of clothing waste generated by people, particularly women. Furthermore, the article offers important recommendations on creating a wardrobe tailored to a capsule collection for middle-aged women, including information on the labeling of dresses from global brands.*

Yangi ming yillikda jamiyat o’zining yosh tuzilishini sezilarli darajada o’zgartirdi. Demograf olimlarining tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, jamiyat tarkibida yoshlar va o’rta yoshli insonlarning ulushi sezirali darajada oshadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-taqbirlari to‘g‘risida”gi PF-71-son Farmoni, 2023 yil 10 yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-

trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-2-son Farmoni, 2024-yil 7 avgustdagi “Sanoat sohasida nufuzli xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va milliy brendlarni qo‘llabquvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-286-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqolani yozishda kengroq foydalanishga asos bo’ladi. Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub o’zgarishlar amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan, xom-ashyo yo’nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo’liga izchil o’tayotganligi, mamlakat eksport salohiyati kengayayotganligi ishlab chiqarishning xar bir sohasi oldiga yangi vazifalarni qo’ydi.[1] Dunyo bo'ylab odamlar o'n yil avvalgiga qaraganda ko'proq kiyim sotib olishmoqda va tezkor moda doimiy ravishda ortib borayotgan talabni qondirish uchun markaziy o'rinni egalladi. Tez moda atrof-muhitga va sohada ishlaydigan odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Fast fashionning atrof-muhitga ta'siri shubhasizdir , chunki sanoat hozirda global yillik uglerod izining 10 foizini tashkil qiladi, bu barcha xalqaro reyslar va dengiz transportidan chiqadigan chiqindilardan ko'proqdir. Fast fashion uglerod chiqindilaridan tashqari, juda ko'p miqdorda tabiiy resurslarni iste'mol qiladi, yiliga 141 milliard kubometr suvdan foydalanadi va okeanlarimizni ifloslantiradigan mikroplastiklarning 35 foiziga hissa qo'shadi. Shuningdek, biz tezkor moda sanoatining demografik ko'rsatkichlari va ishchi kuchi haqidagi ma'lumotlarga chuqurroq kirib boramiz. Bu shuni ko'rsatadiki, ko'proq odamlar barqaror modani qo'llab-quvvatlasa-da, ko'pchilik tezkor modadan voz kechishni istamaydi. Shu sababli, sanoat 2024 yildan 2032 yilgacha 10,7% yillik o'sish sur'ati bilan o'sishda davom etadi. Ayollar tezkor modaning eng katta iste'molchilaridir. Ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq kiyim-kechak sotib olishga moyil bo'lib, deyarli ikki baravar ko'p qimmat jinsi shimlar, koftalar, xar xil matodagi shimlar, yubkalar sotib olishadi va mavsumiy tendentsiyalarga moslashishadi. Ko'pgina ayollar xarid qilishni do'stlari va oilasi bilan qiziqarli mashg'ulot deb bilishadi. [2] Yoshlar va o’rta yoshli ayollarning taxminan 60 foizi ko'chaga chiqqanda bir xil kiyimni ikki marta kiymaslikka majbur bo'lishadi. Shu bilan birga, erkaklar odatda kamroq xarid qilishadi va moda odatlarini o'zgartirishda sekinroq. 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan ayollar fast fashionning eng ko'p iste'molchisi hisoblanadi.1-rasm.



1-rasm. Ayollar tezkor modaning eng katta iste'molchilaridir

1-jadval.

Jahon brendlari ayollar ko‘ylaklarining markirovka ko‘rsatkichlari

Brend nomi (ishlab chiqaruv-chi davlat)	**Stradivarius (Ispaniya)**	**ZARA (Ispaniya)**	**MANGO (Ispaniya)**	**Massimo Dutti (Ispaniya)**	**TWIN SET (Italiya)**	**Max Mara (Italiya)**	**DIOR (Fransiya)**
NARX USD	24-59	40-94	43-94	90-210	240-560	340-1900	1750-15500
Gazlama tarkibi	100% paxta	100% paxta	100% paxta	100% paxta	100% paxta	100% paxta	100% paxta
	100%poliester	100% viskoza	100%poliester	100% atsetat	100% viskoza	100% ipak	100% ipak
	96% viskoza 4% elastan	90% polyester 10% jun	54% polyester 46% cotton	82%viskoza 18% zig’ir	95%viskoza 5%spandeks	85% jun 15%moxer	77% jun 23 ipak
O’lcham-lar	**XS:**160/80A **S:**165/84A **M:**170/88A **M:**170/92A **L:**175/96A **XL:**180/100A	**XS/**160/80A **S/**165/84A **M/**170/88A **L/**175/96A **XL/**175/100A **O’lchamga mos Kattalashtiradi Kichraytiradi**	**XS/**155/80 **S/**160/84A **M/**165/88A **L/**170/92A **XL/**175/96A **XXL/**175/100A	**XS-**36/165/84A **S-**38/170/88A **M-**40/170/92A **L-**42/175/96A **XL-**44/100A **XXL-**46/104A	**XXS-**80A **XS-**84A **S-**88A **M-**92A **L-**96A **XL-**100A **XXL-**104A	**XS-**40/165/88A **S-**42/170/92A **M-**44/175/96A **L-**46/175/100A **XL-**48/180/104A **XXL-**50/180/108 A	**XS/**155/80A **S/**160/84A **M/**165/88A **L/**170/92A **XL/**175/96A **XXL/**180/100 A

Jahon brendlari turli narx segmentlaridagi ayollar nim yopishgan siluetli ko‘ylaklarining takliflarini o‘rganish natijasida kiyim razmerining oshishiga ko‘ra bo‘y o‘lchamining ko‘rsatkichi oshib borishi (XS/160/80A, S/165/84A, M/170/88A, L/175/92A,96A, XL/180/100A) (1-jadval) va turli bo‘y va

to‘lalikdagi ayollar tipaviy qomatlarida kiyimning o‘rnashuv sifatiga hamda estetik ko‘rinishiga ta’siri aniqlandi. 1-jadval

Ma’lumotlarni tahlil qilish loyihalash jarayonlariga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tendensiya qonuniyatlarini aniqlash va yangi kiyimlar kolleksiyalarini shakllantirish jarayonlarini formallashtirish, ayollar ko‘ylaklari razmerli qatorlarini iste'molchilar ehtiyojlariga mosligi asosida raqobatbardosh kiyimlarni ishlab chiqish zaruriyati asoslandi, bular tikuvchilik sanoatining kelajakdagi rivojining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. [3] Ma’lumki, ijodiy jarayonda kiyim yangi modeli eskizlari, uning shakli va konstruktiv namuna sifatida o’rta yoshdagi ayollar uchun kapsulali kolleksiya loyihalash metodikasini ishlab chiqishda ayollar garderoblaridagi kiyimlarining vizuallashtirishda eskizlar ilhom manbai bo‘lishi mumkin. O‘rta yoshdagi ayollar qomatining o‘ziga xosliklarini (fizilogik va ijtimoiy-psixologik jihatdan) hisobga olgan holda, turli fasllar uchun ishlab chiqilgan kapsulali kolleksiya eskizlari. 2-rasm



O‘rta yosh guruhidagi ayollar uchun kiyim-kechak loyihalashda ushbu ranglar va shakllar quyidagi ilmiy-amaliy tamoyillarga asoslanadi: Siluet va proporsiya, ranglar gammasi, mavsumboplik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://lex.uz/docs/-7059241
2. https://www.uniformmarket.com/statistics/fast-fashion-statistics
3. https://api.ziyonet.uz/uploads/books/10001253/b7LxUFMf00A8Xcm.pdf?ee8lXxk7cTZGc1MpAQ6Wf. USMANOVA N. Avtoreferat 15.04.2025.pdf.

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕКСТИЛЬНО-ПОЛИМЕРНЫЕ КОМПОЗИТЫ В ЦИФРОВОЙ ИНДУСТРИИ МОДЫ: ОТ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ФОРМООБРАЗОВАНИЯ ГОЛОВНЫХ УБОРОВ К 3D-СИМУЛЯЦИИ ИХ СВОЙСТВ.

ассистент У.Р.Сайдалиева
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya. *Maqolada bosh kiyimlar dizaynida yengil sanoat rivojlanishining zamonaviy bosqichi ko‘rib chiqiladi - murakkab badiiy shakl hosil qilish va materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini bashorat qilish o‘rtasidagi muvozanatni taxlil qilingan.*

Аннотация. *В статье рассматривается современный этап развития легкой промышленности в дизайне головных уборов - анализируется баланс между созданием сложной художественной формы и прогнозированием физико-механических свойств материалов.*

Abstract. *The article examines the modern stage of light industry development in headwear design - analyzing the balance between creating complex artistic forms and predicting the physical and mechanical properties of materials.*

Развитие современного производства изделий лёгкой промышленности сопровождается активным внедрением композиционных материалов, обладающих улучшенными эксплуатационными и технологическими характеристиками. В частности, в технологии изготовления головных уборов всё более широкое применение находят текстильно-полимерные композиционные материалы, обеспечивающие требуемую жёсткость, стабильность формы и долговечность изделий [1]. Формообразование является одним из ключевых этапов производства головных уборов, определяющим их эстетические, эргономические и эксплуатационные свойства. Используемые при этом материалы должны обладать способностью к пластической деформации в процессе формования и сохранять заданную геометрию в условиях эксплуатации. Данные требования в наибольшей степени удовлетворяются за счёт применения текстильно-полимерных композитов, структура которых может быть целенаправленно изменена в зависимости от назначения изделия. В связи с этим актуальной является задача анализа структурных характеристик текстильно-полимерных композиционных материалов и выявления закономерностей их влияния на формоустойчивость головных уборов [2].
Текстильно-полимерные композиты широко применяются при изготовлении таких элементов головных уборов, как тулья, поля, козырьки, околыши и уплотняющие вставки. Однако эффективность их применения напрямую зависит от структурных характеристик материала: типа волокнистой основы, морфологии полимерной матрицы, степени пропитки, пористости и однородности. Поэтому анализ структуры и свойств таких композитов является актуальной научно-

практической задачей [3-4]. Актуальность исследования определяется необходимостью разработки и оптимизации композиционных материалов нового поколения, адаптированных под современные технологические процессы формообразования, а также повышением требований к качеству и эксплуатационным свойствам головных уборов. Исследования обусловлена тем, что качество формообразования головных уборов напрямую зависит от параметров композитов. Правильный подбор структуры материала позволяет оптимизировать технологию изготовления, повысить долговечность изделия и расширить ассортимент форм и моделей. Текстильно-полимерные композиционные материалы, применяемые в формообразующих элементах головных уборов. Для реального применения подобных систем в процессе проектирования меховых изделий необходима подготовка и формирование исходной информации и создание программной среды, специфической для меховой промышленности. При этом важное значение имеют раскройные свойства меха. Целью исследования является анализ структурных характеристик текстильно-полимерных композитов, применяемых при формообразовании головных уборов, и оценка их влияния на механические и эксплуатационные свойства изделий. Для достижения поставленной цели были сформулированы следующие задачи: исследовать основные виды текстильных армирующих основ, используемых в композиционных материалах; проанализировать типы полимерных связующих и особенности их взаимодействия с текстильной структурой; изучить влияние структуры композита на формоустойчивость и механические характеристики; определить направления совершенствования композиционных материалов для головных уборов. Структура текстильно-полимерных композитов представляет собой совокупность текстильной армирующей основы и полимерного связующего, формирующих единый материал с заданными свойствами. В качестве армирующих элементов широко применяются тканые, нетканые и трикотажные материалы, отличающиеся по плотности, ориентации волокон и пористости. Исследовано влияние структуры композиционных систем на формоустойчивость, пластичность, механическую прочность и эксплуатационную надёжность головных уборов. Показано, что рациональный подбор компонентов текстильно-полимерных композитов и оптимизация их структурных параметров позволяют повысить качество формообразования и долговечность изделий. Полученные результаты могут быть использованы при разработке новых композиционных материалов и совершенствовании технологий производства головных уборов. Полимерное связующее выполняет функцию фиксации формы и перераспределения нагрузок между элементами текстильной структуры. В зависимости от технологических требований применяются термопластичные и термореактивные полимеры, отличающиеся температурой размягчения, степенью жёсткости и устойчивостью к деформации.

В результате проведённого исследования установлено, что на современном этапе развития индустрии моды текстильно-полимерные композиты переходят из категории исключительно утилитарных (подкладочных, формообразующих) материалов в статус самостоятельного инструмента художественной выразительности. Полученные результаты могут быть использованы при разработке новых композиционных материалов и внедрении современных технологий в производстве головных уборов. Исследование показало, что правильно подобранные композиционные системы позволяют получать изделия с высокой формоустойчивостью, прочностью, устойчивостью к механическим и климатическим воздействиям. Таким образом, проведенное исследование успешно решает важную научно-практическую задачу легкой промышленности: ликвидирует разрыв между сложным художественным замыслом дизайнера и технологическими ограничениями традиционного материаловедения. Полученные результаты подтверждают, что интеграция принципов изобразительного искусства и физико-параметрической 3D-симуляции текстильно-полимерных композитов формирует качественно новую парадигму проектирования аксессуаров в эпоху цифровой индустрии моды (Digital Fashion).

Литература:

1. Источник: https://tkan.club/tipy/smesovaya-tkan
2. Ветошкина, Е. А. Разработка способов получения и оценка свойств меховых полотен Текст. : дис. . канд. техн. наук : 05.19.01 / Ветошкина Елена Александровна. Кострома, 2003. — 160 с.
3. Нигматова, Ф. У. Вопросы к автоматизации процесса раскладки деталей одежды из кожи Текст. / Ф. У. Нигматова, Х. А. Алимова // Швейная пром-сть. 2009. - № 2. - С. 36-37.
4. Кобляков, А .И: Лабораторный практикум по текстильному материаловедению Текст.1: учеб. пособие для, вузов- 2-е изд., перераб. и доп; / А.И Коб-ляков, Г.Н. Кукин, А.Н: Соловьев и др. — М.: Легпромбытиздат, 1986. — 286 с.

ABR MATOSIDAN KIYIM ISHLAB CHIQARISHDAGI ASOSIY MUAMMO VA VAZIFALAR

ass. Y.B.Allayeva, t.f.d professor M.K. Rasulova,
doktorant.K.B.Mirziyodova
Toshkent to’qimachilk va yengil sanoat institute

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek milliy abr matosidan resurstejamkor texnologiya asosida kiyim ishlab chiqarishda kelib chiqadigan muammolar tahlil qilingan va joylashmada andazalararo chiqindilar miqdorini kamaytirish masalasi ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация: *В данной статье последовательно проанализированы этапы изготовления узбекской национальной ткани абр, рассмотрено и изучено, насколько сложными этапами состоит плетение ткани абр, а также проведены исследования с целью дальнейшего укрепления наших национальных ценностей и их представления миру.*

Abstract: *This article analyzes the problems arising in the production of clothing from Uzbek national abr fabric based on resource-saving technology and examines the issue of reducing interstylistic waste in placement.*

Bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni saqlab qolish maqsadida O‘zbekiston hukumati va xalqaro tashkilotlar tomonidan atlas va adras matolarini ishlab chiqarish va eksport qilishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida turli grantlar, o‘quv dasturlari va hunarmandlik festivallari kabi ko‘plab tadbirlar tashkil etilmoqda. Ushbu loyihalar xalq amaliy san’atini va milliy hunarmandchilikni yangi avlodga o‘rgatishga yordam beradi[1].

Atlas va adras O‘zbekistonning xalq amaliy san‘ati va hunarmandchiligidagi muhim matolar bo‘lib, ular milliy identitet va madaniyatni aks ettiradi. Bu matolar faqatgina milliy san’at namunasi sifatida emas, balki xalqaro miqyosda tanilgan brendga aylangan. O‘zbekistonlik dizaynerlar va hunarmandlar atlas va adrasni global moda sanoatida o‘ziga xos va unutilmas uslub bilan taqdim etmoqda [2]. Ularning yorqin ranglari, o‘ziga xos naqshlari va yuqori sifatli ipak matolari faqat O‘zbekistonda emas, balki butun dunyoda tanilgan va qadrlanadi. Ushbu matolar O‘zbekistonning madaniy merosi va xalq amaliy san’ati bilan g‘ururlanishga sabab bo‘lib, ular milliy an’analarni saqlab qolishga va kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi [3].

O‘zbekiston milliy brendining asosi bo‘lgan abr matolari, ya’ni atlas va adras bugungi kunda butun jahon podiumlarini zabt etmoqda. Biroq, ushbu matolardan sanoat miqyosida yoki individual kiyim ishlab chiqarish oddiy matolar (paxta, trikotaj, kostyumlik matolar) bilan ishlashdan tubdan farq qiladi. Abr matolarining o‘ziga xos tuzilishi, qo‘l mehnati bilan tayyorlanishi va uning abrband (gullik) naqshlari dizayner hamda bichuvchidan yuksak mahorat, o‘ta aniqlik va maxsus

texnologik yondashuvni talab qiladi, chunki bu milliy mato tabiiy tola, qo‘l mehnati va murakkab naqshlar asosida tayyorlanadi [4].

Dizaynerlar va texnologlar adras bilan ishlashda ko‘pincha quyidagi o‘ziga xos muammolarga duch kelishadi:

1. Naqsh va gullarni moslashtirish (Simmetriya). Abrband naqshlarni bichish paytida kiyim detalining o‘ng va chap tomonlarida simmetrik naqshlar tushishi shart. Agar naqshlar to‘g‘ri keltirilmasa, kiyim sifatsiz chiqadi.

2. Mato enining o’lchami kichikligi. Qo‘lda to‘qilgan an’anaviy adraslarning eni odatda 40 sm dan 65 sm gacha bo‘lganligi sababli keng fasonli kiyimlar, uzun klyosh yubkalar yoki keng yengli choponlarni bichishda matoni bo‘laklab, ulab tikishga to‘g‘ri keladi. Bu esa qo‘shimcha choklar va vaqt talab qiladi.

3. Kirishish xususiyati. Adras tarkibida tabiiy ipak va paxta tolalari bo‘lgani sababli, kuchli kirishadi. Agar mato bichishdan oldin maxsus professional dekatirovka (bug‘lash) qilinmasa, tayyor kiyim birinchi yuvishdan keyin kalta bo‘lib qoladi.

4. Choklarda mato ipining siljishi va matoning sitilishi. Adras satin o’rilishda to‘qilgan bo’lgani uchun yopishgan yoki nim yopishgan siluetdagi kiyimlarda chok atrofida mato iplari siljib ketadi. Bichilgandan keyin detal qirqimlariga zudlik bilan ishlov berish talab etiladi, bunda chok haqlarini yo’rmash yoki qotirmali material bilan ishlov berish lozim bo’ladi.

6. Matoning bir tekis emasligi. Qo‘l mehnati mahsuli bo‘lgani uchun matoning turli joylarida tolalarning yo‘g‘on-ingichkaligi, tugunchalar yoki rang tarqoqligi, ya’ni nuqsonlar uchrashi mumkin. Shuning uchun bichuvchi andaza qo‘yishdan oldin har bir santimetr matoni nuqsonlar bor-yo‘qligiga tekshirishi va andazani ularni chetlab o‘tib joylashtirishi kerak bo‘ladi [5].

7. Kiyim loyihalashda chiqindilar miqdorining ko’pligi. Bunda matoning eni, naqsh turi, naqsh o’lchami, andazalar komplekti soni, andazalarni joylashtirish tartibi, detallarning shakli va soni, kiyimning o’lchami va bo’yi, to’shama uzunligi kabi omillar ta’sir ko’rsatadi.

Mashhur o‘zbek va yevropa dizaynerlari tomonidan abrli matodan yaratilayotgan liboslar dunyo podiumlarida o‘z o‘rinlarini egallab kelishmoqda.

Bu degani chet davlatlarda abrli gazlamaga qiziqish va talab katta (1-rasm).



1-rasm. Abrli matodan mashhur o‘zbek va evropa dizaynerlari tomonidan yaratilayotgan liboslar

Kelajakda ushbu gazlamalarni yanada chuqurroq o‘rganish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ularning qo‘llanilish doirasini kengaytirishi va yangi innovatsion materiallar yaratish imkonini berishi mumkin. Shu tariqa, atlas va adras nafaqat milliy madaniyat ramzi, balki ilmiy jihatdan o‘rganilishi zarur bo‘lgan murakkab tabiiy materiallar tizimi sifatida o‘zining muhim o‘rnini saqlab qoladi [6].

Olib borilgan tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, abrli matolarda andazalararo chiqindilar miqdorini kamaytirish masalasiga e’tibor qaratish, buning uchun esa dasturiy ta’minot asosida andazalar joylashmasining maqbul variantini ishlab chiqish vaifasini belgilab olish maqsad qilib olindi. Keyingi ishlarda tayyor mahsulotni sifatli, raqobatbardosh qilib ishlab chiqishda joylashmaga andazalarni tejamli joylashtirish uchun ularning turlari, eni, naqshi, kiyimlarning bichimi bo’yicha dasturiy ta’minot asosida elektron ma’lumotlar bazasini yaratish amalga oshiriladi [7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Rasulova M.K., Allayeva Y.B. “Abr matosida qo‘llaniladigan ipak ipini ishlab chiqarish texnologiyasi” nomli tezis “Innovation in technology and science education” jurnali 2025 yil (4-7bet).
2.Б.П.Торебаев, З.И.Рахимова. Хан атлас и бекасам: традиция, современность. Материалы и технологии, 2020, №1(5)
3.Н.М. Артикбаева, И.Г. Шин, С.Ш. Ташпулатов, И.В. Черунова, Н. Бралина Оценка напряженного состояния при формообразовании объемных участков деталей одежды потоком сжатого воздуха // Иванова2019 г. № 5 (383) 2019.- С.181-186. https://doi:10.214151/1561-5405
4. Арипджанова Д.У. Разработка технологии производства женской одежды из нового ассортимента шелковых тканей. Дисс. кан. тех. наук. Т., 2004. с 66
5.P.S.Siddiqov, D.I.Artikovalarning “Milliy matolar va ularning turlarini kengaytirish”. To‘qimachilik muammolari. №3/2017. P.S.Siddiqov,
6.Y.B. Allaeva, M.K. Rasulova. Adras gazlamasining tarixiy ildizlari, ishlab chiqarish texnologiyasi va zamonaviy moda olamidagi o`rni. Янги Узбекистон: Илмий тадкикотлар. 2025 №1.
7.Rasulova M.K., Allayeva Y.B. “Abr gazlamalarda andazalarni joylashtirish usullari. Respublika miqiyosidagi ilmiy amaliy anjuman to‘plami 2-qism. Toshkent 2025yil (94-96bet).

RAQAMLI MODA VA YENGIL SANOATDA INNOVATSION KOMPOZITSION MATERIALLAR: TASVIRIY SAN’AT PRINSIPLARI ASOSIDA DIZAYN VA TEXNOLOGIYALAR UYG‘UNLIGI

R.T. Axmedov
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoati instituti

Аннотация. *В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируется понятие композиционных материалов, их место в современной науке и технике, а также их взаимосвязь с изобразительным искусством.*

Annotatsiya.*Mazkur maqolada kompozitsion materiallar tushunchasi, ularning zamonaviy fan va texnologiyalardagi o‘rni hamda tasviriy san’at bilan o‘zaro aloqasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.*

Annotation*. This article analyzes the concept of composite materials, their place in modern science and technology, and their relationship with fine arts from a scientific and theoretical perspective.*

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida san’at va fan o‘rtasidagi integratsiya tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, kompozitsion materiallarning rivoji tasviriy san’at va dizayn sohalarida yangi ijodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. An’anaviy bo‘yoq, mato, yog‘och va tosh bilan bir qatorda, zamonaviy kompozitsion materiallar san’atkorning badiiy tafakkurini kengaytirib, yangi shakl va mazmun uyg‘unligini yaratishga xizmat qilmoqda. Shu bois, kompozitsion materiallar va tasviriy san’at o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganish dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida kompozitsion materiallarning zamonaviy tasviriy san’atdagi o‘rni, ularning badiiy kompozitsiya jarayonida qo‘llanish xususiyatlari hamda estetik ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati tanlandi. Tadqiqot doirasida an’anaviy va innovatsion kompozitsion materiallar asosida yaratilgan tasviriy san’at asarlari, shuningdek, zamonaviy rassom va dizaynerlarning ijodiy ishlari tahlil qilindi. Tadqiqotning predmeti esa kompozitsion materiallarning strukturaviy, fakturaviy va vizual xususiyatlarining tasviriy san’at kompozitsiyasiga ta’siri, ularning badiiy obraz yaratishdagi roli hamda nazariy va amaliy jihatlari hisoblanadi. Tasviriy san’atdagi kompozitsiya qonunlarini (simmetriya, ritm, Dominanta) raqamli kiyim dizayniga va 3D modellarga ko'chirish. Polimer, nano-to‘qimalar va qayta ishlangan ekologik materiallarning vizual hamda plastik xususiyatlarini san’at asari darajasida o‘rganish. Tabiat shakllarini tasviriy san'at elementlari orqali kiber-moda va innovatsion matolarda aks ettirish. Kompozitsion materiallar — bu ikki yoki undan ortiq tarkibiy komponentlardan tashkil topgan, natijada alohida komponentlarga nisbatan yuqori mexanik, fizik yoki estetik xususiyatlarga ega bo‘lgan materiallardir [2].Ilmiy adabiyotlarda kompozitsion materiallar odatda matritsa va mustahkamlovchi element (tolalar, zarralar yoki qatlamlar)dan iborat

tizim sifatida ta’riflanadi. Fan va texnika sohasida bunday materiallar mustahkamlik, yengillik va chidamlilik kabi xususiyatlari bilan qadrlansa, tasviriy san’atda ularning faktura, rang, plastika va vizual ta’sir imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu jihatlar kompozitsion materiallarni badiiy ifoda vositasi sifatida dolzarb qiladi. Tasviriy san’at nazariyasida kompozitsiya asarning mazmuni va shaklini yagona tizimga keltiruvchi asosiy tamoyil sifatida talqin etiladi. Material esa ushbu kompozitsion g‘oyaning moddiy asosidir. Kompozitsion materiallar san’at asarining umumiy tuzilishi, ritmi, muvozanati va dinamikasini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Turli fakturalarga ega materiallarning uyg‘unligi tasviriy asarda kontrast yoki ritmik takrorlanish hosil qiladi. Bu esa tomoshabinning estetik idrokiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, material tanlovi va kompozitsion yechim o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, badiiy obrazning to‘laqonli ifodalanishini ta’minlaydi[3]. O‘rganilgan namunalar asosida kompozitsion materiallarning qo‘llanishi kompozitsiya muvozanati, ritm va dinamika yaratishda muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Xususan, turli qatlamli va aralash fakturalarga ega materiallar vizual kontrast hosil qilib, asarning emotsional ta’sirchanligini oshiradi. Natijada tomoshabin idrokida badiiy obraz yanada chuqur va ko‘p qatlamli ma’noga ega bo‘ladi[4-5]. Tadqiqot davomida an’anaviy materiallar bilan solishtirganda zamonaviy kompozitsion materiallar shakl erkinligi va texnologik moslashuvchanlik nuqtai nazaridan ustunlik qilishi aniqlandi. Biroq, muhokama jarayonida ushbu ustunliklar bilan bir qatorda ayrim muammolar ham qayd etildi. Jumladan, materialning texnik murakkabligi, uzoq muddatli saqlanish masalalari va estetik me’yorlarga moslashuvi rassomdan yuqori darajadagi bilim va tajribani talab qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompozitsion materiallarning samarali qo‘llanishi san’atkorning nazariy tayyorgarligi va amaliy mahoratiga bevosita bog‘liq. Ilmiy yondashuvsiz va kompozitsion qonuniyatlar hisobga olinmasdan ishlatilgan materiallar badiiy qiymatni pasaytirishi mumkin. Aksincha, materialning fizik xususiyatlari chuqur o‘rganilib, u badiiy g‘oya bilan uyg‘unlashtirilgan hollarda yuqori estetik natijalarga erishiladi. Muhokamalar jarayonida kompozitsion materiallardan foydalanish tasviriy san’at ta’limida innovatsion metod sifatida katta didaktik ahamiyatga ega ekani aniqlandi. [6]. Talabalarning bunday materiallar bilan ishlashi ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, tajribaviy izlanishlarga undaydi va fanlararo bilimlarni egallashiga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy san’at ta’limining sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari kompozitsion materiallar va tasviriy san’at o‘rtasidagi uyg‘unlik nazariy jihatdan asoslangan va amaliy jihatdan samarali ekanini ko‘rsatdi. Ushbu uyg‘unlik zamonaviy badiiy jarayonlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida kelgusidagi ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Ashby, M.* Materials and Design. *Elsevier, 2011.*
2. *Read, H.* The Meaning of Art. *Faber & Faber, 1959.*
3. *G‘afurov, B. Tasviriy san’at nazariyasi. Toshkent, 2018.*
4. *Zamonaviy dizayn va materialshunoslikka oid ilmiy maqolalar to‘plami.*
5. *Xudoyberganov A. Zamonaviy dizayn va kompozitsion yechimlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.*
6. *Jo‘rayev S. San’at va material: nazariya va tajriba. – Toshkent: Akademnashr, 2021.*

TRADITIONAL AND INNOVATIVE ASPECTS OF ACADEMIC DRAWING IN THE CONTEXT OF MODERN ART

Associate Professor N.A. Isakhodjaeva
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Аннотация. *В данной статье исследуется влияние академического рисунка на современное искусство и рассматриваются способы интеграции и трансформации классических методов и приемов. Сохранение и развитие академических традиций позволяют современному искусству оставаться многогранным и инновационным, обогащая художественный ландшафт новыми открытиями и достижениями.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada akademik chizg‘ining zamonaviy san’atga ta’siri tadqiq etilib, klassik usul va texnikalarni integratsiya va transformatsiya qilish usullari ko‘rib chiqiladi. Akademik an’analarni saqlab qolish va rivojlantirish zamonaviy san’atga ko‘p qirrali va innovatsion bo‘lib qolishga, san’at manzarasini yangi kashfiyotlar va yutuqlar bilan boyitishga imkon beradi.*

Abstract. *The article examines the influence of academic drawing on contemporary art and considers ways to integrate and transform classical methods and techniques. The preservation and development of academic traditions allow contemporary art to remain multifaceted and innovative, enriching the artistic landscape with new discoveries and achievements.*

Academic drawing is one of the most significant and multifaceted forms of artistic expression, possessing deeply rooted traditions and techniques passed down from generation to generation. Modern art, in turn, actively draws inspiration from these traditions, transforming them and adapting them to new realities and challenges. This article is dedicated to researching the influence of academic drawing on modern art, as well as considering the ways in which modern artists integrate and transform classical methods and techniques [1].

Academic drawing originates from the Renaissance era, when the leading artists of that time sought maximum artistry in their works. Anatomy lessons, the study of nature, and the use of various technical shades became the foundation for the development of academic drawing. Academies of arts, such as the Academy of St Luke in Rome and the Royal Academy of Arts in London, played a key role in the formation and spread of academic traditions[2].

Despite the fundamental changes that occurred in art in the 20th and 21st centuries, academic drawing continues to exert a significant influence on contemporary creativity. Many contemporary artists turn to classical methods and techniques, striving for a high degree of realism and mastery in their works. For example, modern hyperrealists such as Robert Longo and Brian Drury actively use the principles of academic drawing to create their detailed works [3].

Modern artists not only preserve academic traditions but also actively transform them, adapting them to modern artistic practices. New technologies such as digital drawing and 3D modeling allow artists to expand the possibilities of academic drawing. An example of this is the work of artists such as James Jean, who combines traditional techniques with digital tools to create unique works of art.

Academic drawing remains an integral part of educational programs for artists, contributing to the development of professional skills and creative thinking. In many art schools and universities, academic drawing occupies a central place in the curricula, helping students master the fundamental principles of depicting form and space.

Academic drawing continues to play an important role in modern art, serving as a source of inspiration and a foundation for many artists. The preservation and transformation of academic traditions allow modern art to remain multifaceted and innovative. In the future, the research and development of academic drawing can lead to new discoveries and creative achievements that enrich the artistic landscape.

List of references:

1. spravochnick.ru/ URL: Fundamentals of Academic Drawing
2. nauka.club URL: Representatives and prominent figures of the Renaissance era, features
3. Rakhmatullaeva U., Zufarova Z.U. // The work of a famous artist as a source of raising the social level of youth. Scientific-practical conference "Innovative ideas and developments of talented youth in the context of modernization of machinery and technologies for cotton ginning, textile, light industry, and printing production." TSESI, December 12-13, 2018, pp. 378-381.
4. Zufarova Z.U. Modern 3D programs for clothing design and design. Collection of scientific articles of the International Scientific and Practical Conference "Innovative and Modern Technologies in the Fashion Industry," held within the framework of Tashkent Fashion Week. TTESI. November 23, 2019, pp. 7-10.

MODA DIZAYNIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: KREATIV LOYIHALASHDAN RAQAMLI MODA MAHSULOTLARINI YARATISHGACHA

assistent U.R. Saydalieva, talaba A.T.Turg’unboyeva
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy moda dizaynida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Dizayn g‘oyalarini generatsiya qilish, vizual konsepsiyalarni shakllantirish, 3D modellashtirish, virtual kiyib ko‘rish va kiyimlarni individuallashtirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация. *В статье анализируются основные направления и современные тенденции применения технологий искусственного интеллекта в дизайне одежды. Рассматриваются возможности генерации дизайнерских идей, формирования визуальных концепций, 3D-моделирования, виртуальной примерки и персонализации изделий.*

Abstract. *The article analyzes the main directions and current trends in the application of artificial intelligence technologies in fashion design. The possibilities of generating design ideas, developing visual concepts, 3D modeling, virtual fitting, and product personalization are considered.*

Zamonaviy moda sanoatining rivojlanishi raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi, loyihalash tamoyillarining o‘zgarishi va kiyim kolleksiyalarini yaratish jarayonining an’anaviy usullardan raqamli tizimlarga bosqichma-bosqich o‘tishi bilan tavsiflanadi. Bugungi kunda eng muhim texnologik yo‘nalishlardan biri sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining moda sanoatiga kirib kelishidir. Sun’iy intellekt nafaqat ma’lumotlarni tahlil qilish va iste’molchilar talabini prognozlash, balki kiyim va aksessuarlarni bevosita loyihalash, vizual konsepsiyalar yaratish hamda yangi dizayn yechimlarini ishlab chiqishda ham qo‘llanilmoqda[1]. Zamonaviy generativ sun’iy intellekt tizimlari matnli tavsif, eskiz, fotosurat yoki ma’lum vizual xususiyatlar asosida yangi dizayn variantlarini shakllantirish imkonini beradi. Bunday texnologiyalar qisqa vaqt ichida ko‘plab konseptual variantlarni ishlab chiqish, ranglar uyg‘unligi, faktura, siluet va uslubiy yo‘nalishlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. An’anaviy dizayn jarayonida dizayner avvalo ijodiy manbani tanlaydi, moda tendensiyalarini o‘rganadi, maqsadli auditoriyani aniqlaydi, moodboard va eskizlar yaratadi, materiallarni tanlaydi, konstruktiv yechimlarni ishlab chiqadi hamda tajriba namunasini tayyorlaydi. Ushbu jarayon ko‘p vaqt va moddiy resurslarni talab qiladi[2].

Sun’iy intellektdan foydalanish esa mazkur jarayonning ayrim bosqichlarini avtomatlashtirish bilan birga, yangi badiiy va kompozitsion yechimlarni izlash imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Moda dizaynida sun’iy intellekt

texnologiyalaridan foydalanishning zamonaviy tendensiyalarini o‘rganish hamda ularning badiiy loyihalash, raqamli modellashtirish va moda mahsulotlarini individuallashtirish jarayonidagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Sun’iy intellekt — katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, mavjud ma’lumotlar orasidagi qonuniyatlarni aniqlash va yangi axborot mahsulotlarini shakllantirish imkonini beruvchi raqamli texnologiyalar majmuasidir. Moda sohasida ushbu texnologiyalardan moda tendensiyalarini tahlil qilish, iste’molchilarning talab va xohishlarini aniqlash, yangi dizayn konsepsiyalarini yaratish, tasvirlarni generatsiya qilish hamda mahsulotlarni individuallashtirishda foydalanish mumkin. Generativ sun’iy intellekt ushbu jarayonda alohida ahamiyatga ega. An’anaviy raqamli tizimlar asosan mavjud ma’lumotlarni qayta ishlash va tasniflashga xizmat qilsa, generativ modellar yangi vizual va badiiy yechimlarni yaratish imkonini beradi[3].

Sun’iy intellektdan foydalanishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri moda kolleksiyasini yaratishning dastlabki bosqichida yangi dizayn g‘oyalarini shakllantirishdir. An’anaviy loyihalash jarayonida dizayner ijodiy manbani tanlash, moda tendensiyalarini o‘rganish, moodboard yaratish, kompozitsion yechimlarni ishlab chiqish va dastlabki eskizlarni tayyorlash bilan shug‘ullanadi.

Zamonaviy moda sanoatining asosiy tendensiyalaridan biri ommaviy ishlab chiqarishdan individuallashtirilgan mahsulotlarga o‘tishdir. Sun’iy intellekt iste’molchining individual xususiyatlari, didi, avvalgi xaridlari va tanlovlarini tahlil qilish asosida unga mos dizayn yechimlarini taklif qilishi mumkin. Moda sanoatida sun’iy intellektning muhim qo‘llanilish yo‘nalishlaridan yana biri moda tendensiyalarini prognozlash hisoblanadi. Mazkur ma’lumotlarni tahlil qilish orqali kelajakda talab yuqori bo‘lishi mumkin bo‘lgan ranglar, shakllar, materiallar va uslubiy yo‘nalishlarni aniqlash mumkin. Bu esa dizaynerga qaror qabul qilishda qo‘shimcha analitik vosita beradi[4]. Natijada dizayn jarayoni faqat subyektiv badiiy qarashlarga emas, balki iste’molchilar xohishlari va bozor ma’lumotlariga ham asoslanadi. Digital Fashion yo‘nalishining rivojlanishi faqat fizik kiyimlarni loyihalash bilan cheklanmaydigan yangi dizaynerlik faoliyatini shakllantirmoqda. Bugungi kunda faqat virtual muhit uchun mo‘ljallangan kiyim va aksessuarlar ham yaratilmoqda. Bunday sharoitda dizayner nafaqat materialning fizik xususiyatlari, balki raqamli muhitdagi shakl, harakat, yorug‘lik, tekstura va vizual ta’sir xususiyatlari bilan ham ishlaydi. Natijada moda mahsuloti tushunchasi ham o‘zgarib, kiyim fizik mahsulot, raqamli mahsulot yoki ikkala shaklning uyg‘unligi sifatida mavjud bo‘lishi mumkin[5,6]. Sun’iy intellektning yuqori texnologik imkoniyatlariga qaramasdan, uning moda dizaynidagi vazifasini inson ijodkorligini to‘liq almashtirish sifatida qarash maqsadga muvofiq emas. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt moda mahsulotlarini yaratishning deyarli barcha bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin. Biroq eng samarali natija inson ijodkorligi va raqamli texnologiyalarning o‘zaro hamkorligi asosida yuzaga keladi. Sun’iy intellekt professional dizaynerning o‘rnini to‘liq egallamaydi. Aksincha, generativ texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida dizaynerning badiiy konsepsiyani

shakllantirish, estetik sifatni baholash, milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olish va mahsulotning o‘ziga xosligini ta’minlashdagi roli yanada ortadi. Kelajakda sun’iy intellekt, 3D modellashtirish, virtual reallik, raqamli materiallar va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish texnologiyalarining integratsiyasi kiyim loyihalashning yangi paradigmasini shakllantirishi kutiladi. Bu jarayon an’anaviy eskizdan boshlab, intellektual raqamli tizim yordamida tayyor moda mahsulotini yaratishgacha bo‘lgan yagona texnologik zanjirni shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. McKinsey & Company. Generative AI in fashion: Unlocking the future of fashion. 2023.
2. Zhang Y., Liu C. Unlocking the Potential of Artificial Intelligence in Fashion Design and E-Commerce Applications: The Case of Midjourney. *Journal of Theoretical and Applied Electronic Commerce Research*, 2024. Vol. 19. No. 1. P. 654–670.
3. Human vs. AI: The battle for authenticity in fashion design and consumer response. *Journal of Retailing and Consumer Services*. 2024. Vol. 77. Article 103690.
4. A systematic literature review and analysis of try-on technology: Virtual fitting rooms. *Digital Medicine*. 2023.
5. Deep Fashion Designer: Generative Adversarial Networks for Fashion Item Generation Based on Many-to-One Image Translation. *Electronics*. 2025. Vol. 14. No. 2. Article 220.
6. McKinsey & Company. How AI is shaping fashion’s next chapter. 2026.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR KONTEKSTIDA MILLIY KOSTYUM MOTIVLARINI MODERNIZATSIYA QILISH MUAMMOLARI

Sh.A. Raxmatullayeva, talaba S.M. Anvarova
To’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Milliy-mintaqaviy kiyimlar hamda ularning matolarini raqamli grafika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash — yengil sanoat va moda dizaynidagi eng istiqbolli innovatsion yo‘nalishlardan biridir. Ushbu yondashuv milliy madaniy merosimizni saqlab qolgan holda, uni global moda tendensiyalariga va raqamli bozor talablariga moslashtirish imkonini beradi.*

Аннотация: *Обработка национальной и региональной одежды, а также тканей, используемых для её изготовления, с помощью цифровой графики и современных компьютерных технологий является одним из наиболее перспективных инновационных направлений в лёгкой промышленности и дизайне моды. Данный подход позволяет сохранить*

национальное культурное наследие, одновременно адаптируя его к глобальным модным тенденциям и требованиям цифрового рынка.

Annotation: *The processing of national and regional clothing, as well as the fabrics used in their production, through digital graphics and modern computer technologies is one of the most promising innovative directions in the light industry and fashion design. This approach makes it possible to preserve national cultural heritage while adapting it to global fashion trends and the demands of the digital market.*

O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning har bir mintaqasi o‘ziga xos kiyim bichimi va mato to‘qish an’analariga ega. Milliy bichimdagi kiyimlar qomatga qarab tikila boshlandi, ayol ko‘ylaklari torayib va kaltalashib bordi, oldinroq yuzaga kelgan koketkali (ko‘krak burma) va qaytarma yoqali ko‘ylaklar hayotga muqim kirib bordi, yengi kaltalashdi. XX asrning 50—60-yillaridan boshlab erkaklar kiyimini to‘g‘ri yelkali qomatga moslangan pidjak, keng shimlar, ayollar ko‘ylagini to‘g‘ri yelkali erkin kesma lif, etakka tomon kengaygan yubka kiyish rasm bo‘la boshlagan. Biroq, o‘zbeklar orasida yevropacha kiyimlar bilan birga milliy kiyim ham urfdan qolmadi. Uning o‘ziga xosligi shaklida va milliy mato koloritida namoyon bo‘ldi. Bu jihatdan ayollarning keng yozgi ko‘ylagi va erkaklar yaktagi diqqatga sazovor. Keksa odamlar orasida to‘nning kundalik kiyim sifatida saqlanib qolishi an’anaviy tus oldi.

Farg‘ona vodiysida Abra matolari (Atlas, Adras, Beqasam) va ulardagi geometrik hamda islimiy naqshlar. Buxoro va Samarqandda Zardo‘zlik, og‘ir baxmal matolar hamda yirik gul naqshli so‘zanalar. Surxondaryo va Qashqadaryoda Yorqin rangli "Iroqi" kashtalari va mayda geometrik etno-ornamentlar. Xorazm va Qoraqalpog‘istonda O‘ziga xos bosh kiyimlar, zarrin ip bilan to‘qilgan va quyuq to‘q qizil-jigarrang tusdagi matolar.

O‘zbek milliy kiyimlari xalqimizning ko‘p asrlik madaniy merosi, turmush tarzi, iqlimiy sharoiti hamda milliy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ular o‘zining yorqin ranglari, qulay va erkin bichimi hamda nafis bezaklari bilan ajralib turadi.

Umumiy xususiyatlari va bichimi:

Erkin va qulaylik: Milliy liboslar tanaga yopishib turmaydi, erkin harakatlanish imkonini beradi. Ular asosan to‘g‘ri, tunika simon bichimga ega bo‘lib, issiq va quruq iqlim sharoitiga moslashgan.


Isrofsiz kesim: An’anaviy bichimda mato deyarli isrofsiz to‘rtburchak va uchburchak shakllarda kesiladi. Qo‘ltiq ostiga harakat erkinligini ta’minlash uchun **«xishak»** tikiladi.

Mintaqaviy xilma-xillik: Farg‘ona, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qashqadaryo-Surxondaryo va Xorazm-Qoraqalpog‘iston kabi hududlar o‘zining alohida kiyim maktablariga, naqsh va bosh kiyim uslublariga ega.

Erkaklar milliy kiyimi, Chopon: Erkaklar libosining asosiy elementi bo‘lib, u paxtali (qavima) yoki paxtasiz tayyorlanadi. Paxtali choponlar parallel chiziqlar bo‘ylab qavib tikiladi. Kuylak va Ishton: Yelkasi choklanmagan, to‘g‘ri bichimli ko‘ylak hamda bel qismi keng, pastga qarab torayuvchi ishton kiyilgan. Belbog‘ (Qiyiqcha) chopon va ko‘ylak ustidan belga uzun charxiy yoki kashtador belbog‘ bog‘langan. Bosh kiyimi va poyabzal do‘ppi (masalan, to‘rtburchak *«Kalampir»* do‘ppi). Poyabzal sifatida yumshoq charmdan qilingan mahsi hamda uning ustidan kiyiladigan kavush yoki charm etiklar kiyilgan.

Ayollar milliy kiyimi:

Ko‘ylak va Lozim: Ayollar kiyimi erkin va keng uslubdagi tunika ko‘rinishidagi ko‘ylak hamda to‘piqqacha tushadigan lozimdan (ishton) iborat. **Ustki kiyimlar:** Mavsumga va marosimlarga qarab nimcha, mursak yoki paxtali choponlar kiyilgan. **Bosh kiyimi va bezaklar:** Ayollar bosh kiyimi do‘ppi, ro‘mol hamda salla/turban kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Zargarlik buyumlari (oltin va kumush sirg‘a, bilaguzuk, tillaqosh) kiyimning ajralmas qismi sanalgan.



An’anaviy etno-motivlar va matolarni raqamlashtirish quyidagi texnologik va grafik jarayonlar orqali amalga oshiriladi.

– Naqsh va Matolarni Raqamlashtirish (Vectorization & High-Res Scanning)

– Vektorlashtirish-Adobe Illustrator kabi grafik dasturlar yordamida an’anaviy kashta yoki adras naqshlari vektor formatga o‘tkaziladi. Bu naqsh sifatini yo‘qotmagan holda uni cheksiz masshtablash imkonini beradi.

– Mato teksturasini skanerlash orqali atlas va baxmal matolarning real teksturalari yuqori aniqlikdagi skanerlar yordamida raqamli muhitga ko‘chiriladi

va 3D modellashtirish uchun maxsus mato xaritalari (Diffuse, Normal, Bump maps) yaratiladi.

Raqamli grafika naqshlarni shunchaki nusxalamaydi:

Simmetriya va Geometriya naqsh elementlari dekonstruksiya qilinib, minimalistik, futuristik yoki 3D effektga ega bo‘lgan yangi grafik uslublarga transformatsiya qilinadi. Panton va RGB/CMYK tizimlari orqali milliy matolarning ranglarini zamonaviy mavsumiy kolleksiyalar talabiga ko‘ra bir necha soniyada o‘zgartirish mumkin. Raqamli Mato Chop Etish (Digital Textile Printing) Raqamli grafikada yaratilgan murakkab etno-printlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri tabiiy (ipak, paxta) yoki sintetik matolarga bosiladi. Bu an’anaviy qo‘lda to‘qish yoki gul bosish jarayonidagi vaqt va resurs sarfini kamaytiradi. 3D Modellashtirish va Virtual Kiydirish (3D Digital Fitting), CLO3D, Browzwear yoki Optitex dasturlarida virtual avatarlar ustida kiyim modeli va raqamli mato simulyatsiya qilinadi. Atlasning yengilligi, baxmalning og‘irligi yoki kashtalarning tushishi kompyuter muhitida aniq aks ettirilib, namuna tikishdan oldin dizayndagi kamchiliklar bartaraf etiladi.

Xulosa: Mintaqaviy milliy kiyimlar va mato turlarini raqamli grafika bilan sintez qilish — milliy qadriyatlarimizni saqlagan holda yengil sanoatni zamonaviylashtirishning eng samarali yo‘lidir. Bu yondashuv o‘zbek moda brendlariga jahon bozorida raqobatbardosh, innovatsion va ekologik toza kolleksiyalarni taqdim etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alikulova, M. V., Eshmamatov, B. K. (2026). Artificial Intelligence And Digital Technologies For The Fashion Design. Global Scientific Review, Vol. 52.

2. Abdurahmonova, S. A. (2026). Integrating Uzbek National Ornamentation into Contemporary Digital Fashion Design. Global Journal of Physical and Biological Sciences, 4(1).

3. Ismoilova, D. A., Xoliqov, Q. X. (2026). Transformatsiyalanuvchi kiyimlarda milliy identitetni saqlash muammolari. Shokh int. journal, 12(2).

4. (2023). Libos dizayni va kompyuter grafikasi asoslari. Toshkent: "Yangi asr avlodi" (Darslik).

TERI KASALLIKLARIDA TERAPEVTIK KIYIM ISHLAB CHIQISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

asisstent, X.Asadova, t.f.d.professor., M.K.Rasulova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada teri kasalliklari, jumladan vulgar ixtioz kasalligining o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan. Teri kasallklarii uchun kiyim ishlab chiqishga bag‘ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili amalga oshirilgan va terapevtik kiyim tayyorlashga tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются особенности кожных заболеваний, в том числе вульгарного ихтиоза. Представлен анализ исследований, посвященных разработке одежды для лиц с заболеваниями кожи, а также даны рекомендации по созданию лечебной одежды.*

Аннотация. *The article examines the characteristics of skin diseases, including ichthyosis vulgaris. It presents an analysis of research on the development of clothing for individuals with skin conditions and offers recommendations for creating therapeutic clothing for ichthyosis vulgaris.*

Teriga ta’sir qilishi yoki shikastlashi mumkin bo‘lgan sharoitlar teri kasalliklari deb nomlanadi. Bu kasalliklar tufayli toshmalar, yallig‘lanish, qichishish va boshqa teri o‘zgarishlari paydo bo‘lishi mumkin. Teri kasalliklarining ayrim turlari irsiy bo‘lishi, boshqalari esa insonning turmush tarziga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Teri kasalliklarining har xil turlari mavjud bo‘lib, ular orasida uchraydigan vulgar ixtioz kasalligi irsiy kasallik hisoblanadi. Taxminan har 250 kishidan biri bu kasallikdan aziyat chekadi. Erta bolalik davrida tanada jigarrang, oq yoki kulrang dog‘lar paydo bo‘lishi mumkin [1].

Vulgar ixtioz terida suv yo‘qolishining keskin oshishi va terining haddan tashqari qurishi oqibatida yuzaga keluvchi irsiy dermotologik kasllikdir. Vulgar ixtioz flaggrin geni mutatsiyasi natijasida kelib chiqadi. Terida flaggrin yetishmasa terining shox qatlami strukturasi buziladi, terida suv keskin pasayadi, qichishish, achishish, yorilish va terini ikkilamchi infektsiyalarga moilligi ortadi (1-rasm,a, b) [2].

Vulgar ixtiozga uchragan bemorga kundalik hayotida tez-tez va uzoq muddat cho‘milish, vanna qabul qilish buyuriladi. Undan so‘ng tanani uzoq vaqt davomida sochiq bilan artmasdan terini yumshatuvchi va namlovchi krem surish talab etiladi (1-rasm, v), lekin buning samaradorligi tezda pasayadi [2].

Shu sababli hozirgi zamonaviy tibbiyot yo‘nalishi va to‘qimachilik sanoatining birlashishi natijasida bunday bemorlar uchun maxsus terapevtik kiyimlar yordamida terida namlikni ushlab turish terapiyasini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday kiyimlarning ayrimlaridan bir marta, ayrimlaridan esa bir necha bor foydalanish mumkin. Tibbiyot uchun yuqori sifatli terapevtik davolovchi kiyimlarni ishlab chiqish, jumladan vulgar ixtioz bemorlari uchun maxsus

terapevtik kiyim ishlab chiqish butun dunyo bo‘yicha hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.



a



b



v

1-rasm. Vulgar ixtioz

Tavsiya etiladigan terapevtik kiyimlarni qo‘llash natijasida inson tanasida terining tiklanishi, kasallikni vaqtincha to‘xtashi va kamayishi kabi ijobiy ko‘rsatkichlar namoyon bo‘lishi kerak. Vulgar ixtioz bemorlari uchun mavjud maishiy kiyimlar kasallikni zo’raytirishi mumkin, ayniqsa sintetik, dag‘al to‘qilgan va jun matoli kiyimlardan foydalanilsa kasallik yanada avj olishi mumkin.

Bunda sintetik mato-havoni o‘tkazmay teri yallig‘lanishini keltirib chiqaradi. Jun mato-ixtioz teri uchun qichishish va teri qizarishga sabab bo’ladi. Dag‘al mato – teriga og‘ir botib qizarish va qichishishga olib keladi.

Shuning uchun bunday bemorlarga tabiiy tolali mayin to‘qilgan silliq, havo o‘tkazuvchan mato va mato tolasiga namlik shimdirilgan, terini ma’lum bir vaqtgacha namlantirib turuvchi kiyimlar tavsiya etiladi. Tabiiy tolali matolarga esa o‘zining ijobiy xususiyatlariga ega bo‘lgan paxta va ipak tolali matolar, sun’iy tolali matolarga esa bambuk, viskoza va modal tolali matolar kiradi [3].

Paxta (100%) tolali mato havoni yaxshi o‘tkazadi, suvni yaxshi shimadi. Ipak tolali mato juda silliq va mayin bo‘lganligi sababli terini qichishtirmaydi va qizartirmaydi. Bambuk, viskoza va modal tolali matolar paxtadan xam mayin tolali antibakterial hususiyatli matolar bo‘lib, o‘zida va terida yaxshi namlikni saqlaydi [4].

Izlanish jarayonida aynan teri kasalliklari uchun davolovchi maxsus terapevtik kiyimlar bo‘yicha bir qancha olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilindi.

Buyuk britaniya dermotologik klinikasida o‘rtacha va og‘ir kasallikka uchragan 1 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ekzema kasalligini davolashda ipak kiyimlardan foydalanish aytib o‘tilgan. Bunga ko‘ra ipak matosidan tayyorlangan kiyimlar ekzema alomatlarini yumshatishda katta ahamiyatga ega [5].

Xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida teri kasalliklari uchun kiyim tayyorlashga yetarli e’tibor qaratilmaganligi yoki tadqiqotlar asosan bog‘lov materiallarini ishlab chiqishga bag‘ishlanganligi ma’lum bo‘ldi [6-7].

Ilmiy-tadqiqot ishlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, aynan vulgar ixtioz kasalligi uchun foydalaniladigan kiyimda matolarning turlari va ularning fizik-mexanik

xususiyatlarini e’tiborga olgan holda terapevtik yoki profilaktik tibbiy kiyimlarni loyihalash ishlari amalga oshirilmagan. Bu kasallik bevosita terining suvsizlanishi natijasida yuzaga kelishini e’tiborga olib, terini doimiy namlantirib turish, terini turli infektsiyalardan himoya qilishni, teri va kiyim orasida havo almashinuvini ta’minlanishini taqozo etadi.

Yuqoridagilarni e’tiborga olib, vulgar ixtioz kasalligi uchun ishlab chiqiladigan terapevtik kiyimlar quyidagi talablarga javob berishi tavsiya etiladi:
-kiyim tabiiy yoki sun’iy tolali matodan tayyorlanishi;
-kiyim terini doimiy namlantirib turishini ta’minlashi;
-teri va kiyim orasida havo almashinuvini ta’minlashi;
-terining qichishishi, achishishi, yorilishi va terini ikkilamchi infektsiyalarga moyilligi ortishini kamaytirishi;
-kiyim tanada allergik toshmalar bo‘lishini oldini olishi;
-kiyimda konstruktiv elementlarni va choklarning tanaga ta’sirini kamaytirish.

Keyingi tadqiqot ishlarida vulgar ixtioz kasalligi uchun tavsiya etiladigan terapevtik kiyimlar uchun qo‘llanadigan antibakterial xususiyatli gazlamalarning fizik-mexanik xususiyatlarini o’rganish vazifasini amalga oshirish maqsad qilib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.apollohospitals.com/uz/health-library/dermatology-types-of-skin-diseases.
2. Thyssen, E. Godoy-Gijon, and P.M. Elias Ichthyosis vulgaris: the filaggrin mutation diseaseJ.P.Br J Dermatol. 2013 June ; 168(6): 1155–1166. doi:10.1111/bjd.12219]
3. Асатрян А.Д. «Разработка и исследование гигиенических средств для пальцев ног». Автореферат Ереван 2004
4. Alan D. Irvine, M.D., W.H. Irwin McLean, Ph.D., D.Sc., and Donal Y.M.Leung, M.D., PhD. Filaggrin Mutation Associated with Skin and allergic Diseases n engl j med 365;14 nejm.org october 6, 2011
5. Rony Aad, Ivana Dragojlov and Simone Vesentini* Sericin Protein: Structure, Properties, and Applications. Journalof Functional Biometerials 2024,15,322. https:// doi.org/10.3390/jfb15110322
6. Гурова Е.А. «Разработка технологии многослойного перевязочного материала медицинского назначения» Автореферат МГТА , 1994.
7. М.Х.Ширинова и др. Специальные больничные ткани для функционального матраса// International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION UIF-2022: 8.2| ISSN: 2181-3337, 134.

QISHKI BOSH KIYIMLARNI TIKISH TEXNOLOGIYASINING ZAMONAVIY TAKOMILLASHTIRILGAN USULLARI

G.Yuldasheva
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qishki bosh kiyimlarni tikish texnologiyasining zamonaviy takomillashtirilgan usullari tahlil qilinadi. Polar flis, merinos juni va ikki qavatli konstruksiyalar asosida material tanlash, CAD dasturlari yordamida andazalarni optimallashtirish, whole-garment (choksiz) trikotaj texnologiyasi, avtomatlashtirilgan bichish tizimlari va robotlashgan tikuv liniyalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy usullar material sarfini 15–30 foizgacha kamaytiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va mahsulot sifatini sezilarli yaxshilaydi. Maqolada texnologik jarayonlarning afzalliklari, samaradorligi va amaliy ahamiyati yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются современные усовершенствованные методы технологии пошива зимних головных уборов. Рассматриваются выбор материалов на основе поларфлиса, мериносовой шерсти и двухслойных конструкций, оптимизация лекал с помощью CAD-программ, технология whole-garment (бесшовного) трикотажа, автоматизированные системы раскроя и роботизированные швейные линии. Согласно результатам исследования, современные методы позволяют снизить расход материалов на 15–30 процентов, повысить производительность труда и значительно улучшить качество продукции. В статье освещаются преимущества, эффективность и практическая значимость технологических процессов.*

Abstract. *This article analyzes modern improved methods of the technology for sewing winter headwear. It examines material selection based on polar fleece, merino wool, and double-layer constructions, optimization of patterns using CAD software, whole-garment (seamless) knitting technology, automated cutting systems, and robotic sewing lines. According to the research results, modern methods reduce material consumption by 15–30 percent, increase labor productivity, and significantly improve product quality. The article highlights the advantages, efficiency, and practical significance of the technological processes.*

Qishki bosh kiyimlar insonni past harorat va shamoldan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy tikish usullari ko‘p mehnat talab qiladi, material chiqindilarini ko‘paytiradi va mahsulot sifatida notekislik keltirib chiqaradi. Zamonaviy sharoitda raqobatbardosh ishlab chiqarish uchun texnologiyani takomillashtirish zarur. Polar flis, merinos juni va ikki qavatli konstruksiyalar asosida material tanlash, CAD dasturlari yordamida andaza optimallashtirish, whole-garment (choksiz) trikotaj texnologiyasi, avtomatlashtirilgan bichish va robotlashgan tikuv liniyalari kabi ilg‘or yondashuvlar mavjud Tadqiqot natijalariga

ko‘ra, zamonaviy usullar material sarfini 15–30 % gacha kamaytiradi, mehnat unumdorligini oshiradi va mahsulot sifatini yaxshilaydi. Tezisda texnologik jarayonlar, ularning afzalliklari va amaliy ahamiyati yoritilgan Eng samarali materiallar – polar flis, merinos juni va ularning aralashmalari. Polar flis elastik, issiq saqlaydi va chetlari to‘kilmaydi. Ikki qavatli konstruksiya (tashqi flis + ichki sherpa yoki jun) issiqlik izolyatsiyasini sezilarli oshiradi. Zamonaviy materiallar tikish jarayonini soddalashtiradi va mahsulot qulayligini yaxshilaydi Andaza va konstruksiyani raqamli optimallashtirish CAD dasturlari yordamida andazalar aniq ishlab chiqiladi, o‘lchamlar bo‘yicha tez gradatsiya qilinadi va nesting (matoga joylashtirish) optimallashtiriladi. Bu material sarfini 15–30 % gacha kamaytiradi va chiqindilarni minimallashtiradi

Zamonaviy trikotaj mashinalari binieni bitta jarayonda, choksiz ishlab chiqaradi. Bu usul mehnat va vaqtni tejaydi, mahsulot qulayligini oshiradi va chiqindilarni deyarli yo‘q qiladi. Avtomatlashtirilgan bichish va Lazer va kompyuterlashgan pichoqli kesuvchilar yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Robotlashgan tikuv liniyalari va ko‘p ignali kashtachilik mashinalari ishlab chiqarish unumdorligini 1,5–2 barobar oshiradi, sifatni barqarorlashtiradi.Yakuniy ishlov va sifat nazorati Nam-issiqlik ishlovi (VTO), shakllantirish presslari va raqamli monitoring tizimlari mahsulotning yakuniy sifatini kafolatlaydi.

Xulosa. Qishki bosh kiyimlarni tikish texnologiyasini zamonaviy takomillashtirish material tanlash, raqamli loyihalash, whole-garment texnologiyasi va avtomatlashtirishni uyg‘unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu usullar mehnat unumdorligini oshiradi, material sarfini kamaytiradi va yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulot yaratish imkonini beradi. Kelajakda sun’iy intellekt va barqaror materiallar qo‘llanilishi texnologiyani yanada rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gaipova N.S. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. – Toshkent.
2. To‘laboyeva Sh.S., Xoliqov Q.M. Kiyim tikish texnologik ketma-ketligini ishlab chiqarish.
3. Patent RU2186513C2. Способ изготовления головного убора.
4. AceAccessory. Automation in hat production and whole-garment knitting technology (2023–2026).
5. Sanoat tahlillari: CAD nesting, robotic sewing lines and material efficiency in headwear manufacturing.
6. Amaliy qo‘llanmalar va texnik manbalar: polar fleece and beanie construction technology.
7. Studopedia va tikuvchilik sohasidagi o‘quv-metodik materiallar.

РАЗРАБОТКА СКВОЗНОГО АЛГОРИТМА ЦИФРОВИЗАЦИИ ПРОЦЕССА КОНФЕКЦИОНИРОВАНИЯ МАТЕРИАЛОВ В ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ

магистрант, М.А.Туракулова студент З.Т.Хасанов
студент, Г.Г.Базарбаева
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности


Аннотация. *В статье представлен комплексный научный подход к цифровизации и автоматизации процесса конфекционирования материалов при проектировании швейных изделий. Разработан 9-этапный сквозной алгоритм, охватывающий весь цикл: от формирования цифровой карточки модели (DPP) до многокритериальной оптимизации целевой функции, 3D-прототипирования (CLO 3D/Browzwear), интеграции с ERP/PLM-системами и обучения системы на основе обратной связи. Описаны математические модели расчета комплексного показателя совместимости пакета материалов и целевой оптимизационной функции выборки комбинаций с использованием генетических алгоритмов.*

Abstract. *The article presents a comprehensive scientific approach to the digitalization and automation of the material selection and matching process (confectioning) in apparel design. A 9-step end-to-end algorithm has been developed, covering the complete cycle: from the creation of a Digital Product Passport (DPP) to multi-objective optimization of the target function, 3D prototyping (CLO 3D/Browzwear), integration with ERP/PLM systems, and system training based on feedback. Mathematical models are described for calculating a comprehensive compatibility index for material packages and a target optimization function for selecting combinations using genetic algorithms.*

Annotatsiya. *Maqolada tikuvchilik buyumlarini loyihalashda materiallarni konfeksiyalash jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuv taqdim etilgan. Modellarning raqamli pasportini (DPP) shakllantirishdan boshlab, maqsadli funksiyani ko‘p mezonli optimallashtirish, 3D-prototiplash (CLO 3D/Browzwear), ERP/PLM-tizimlari bilan integratsiyalash va qayta aloqa asosida tizimni o‘rgatishgacha bo‘lgan butun siklni qamrab oluvchi 9 bosqichli uzluksiz algoritm ishlab chiqilgan. Materiallar paketining moslashuvchanlik kompleks ko‘rsatkichini hisoblash hamda genetik algoritmlar yordamida kombinatsiyalarni saralab olishning maqsadli optimallashtirish funksiyasi matematik modellari tavsiflangan.*

Ключевые слова: конфекционирование материалов, цифровизация швейного производства, целевая функция, генетические алгоритмы, PLM-системы, 3D-прототипирование, матрица совместимости, цифровая карточка модели.

Качество, эстетика и эксплуатационная надежность современных швейных изделий напрямую зависят от обоснованности подбора комплекса материалов (основных, подкладочных, прокладочных, фурнитуры и швейных ниток), образующих единую пакетную систему [1,2,3]. Традиционный подход к конфекционированию опирается преимущественно на интуитивно-опытный метод специалистов, что часто приводит к технологическим несоответствиям (деформация швов при влажно-тепловой обработке, разнооттеночность, разнородность усадочных процессов и несовместимость по жёсткости).



1-Рисунок. Алгоритм процесса конфекционирования материалов моделей одежды

В условиях Индустрии 4.0 актуальной задачей является перенос физических испытаний и конфекционирования в виртуальную среду [4,5]. Целью данного исследования является разработка научно обоснованного сквозного алгоритма цифровизации процесса конфекционирования материалов, снижающего материалоемкость и трудоемкость проектирования.

2. Структура и поэтапная реализация алгоритма (1-Рисунок). Разработанный алгоритм представляет собой замкнутую интерактивную систему с обратной связью и состоит из девяти последовательно-параллельных этапов:

Этап 1. Формирование входных данных (Digital Product Paper — DPP)
Этап 2. Создание и пополнение базы данных материалов
Этап 3. Классификация и фильтрация материалов
Этап 4. Оценка совместимости материалов и матрица совместимости
Этап 5. Генерация вариантов конфекционирования
Этап 6. Оптимизация выбора материалов
Этап 7. Визуализация и цифровое прототипирование
Этап 8. Интеграция в производство (ERP/PLM)
Этап 9. Обратная связь и обучение системы (Machine Learning) [6].

Разработанный 9-этапный сквозной алгоритм цифровизации процессов конфекционирования обеспечивает переход от субъективного подбора к математически обоснованному, автоматизированному проектированию швейных изделий. Алгоритм гарантирует высокий уровень технологической совместимости материалов в пакете, снижает риски возникновения брака и значительно сокращает сроки подготовки производства. Внедрение алгоритма позволяет сократить цикл подготовки производства на 35–45%, повысить технологичность изделий.

Литература

1. Ismatullayev, N. A., & Bazarbayeva, G. G. (2023). Development of the concept of the process of predicting the economic efficiency of new models at the sketch stage. AIP Conference Proceedings: Problems in the Textile and Light Industry in the Context of Integration of Science and Industry, 2784(1), 050012.

2. Sutari, O., & Rao, S. (2014). Development of plant layout using systematic layout planning (SLP) to maximise production - A case study. International Journal of Mechanical and Production Engineering, 2(8), 63–66.

3. Bakanovskaya, L. N., & Mokeeva, N. S. (2009). Development of a software module for an automated process design system. Young Scientist, 3(3), 14–18.

4. Demidov, S. (2023). Assessment of the effectiveness of implementing a MES system in EOLANE TALLINN AS (Master's thesis). Tallinn University of Technology, Tallinn, Estonia.

5. Kabilova, D. S., & Bazarbayeva, G. G. (2022). To the level of technological complexity of the model: analyze the effect of complicating elements. Annals of Forest Research, 65(1), 8369–8375.

6. Shikov, P. A. (2022). Development of a concept for increasing efficiency functioning of light industry enterprises based on the creation of information systems for monitoring production processes (Abstract of Doctoral Dissertation, Doctor of Technical Sciences). St. Petersburg, Russia.

ТУЯҚУШ ТЕРИЛАРИГА ИШЛОВ БЕРИШДАГИ ХРОМСИЗ ОШЛАШ ЖАРАЁНИ ТАДҚИҚОТИ

доц., т.ф.н. Х.Х.Бегалиев, ассистент А.Ш. Кенжаев,
ассистент Ш.У. Суюнов.
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Annotatsiya. *Maqolada tuyaqush teri xom ashyosini qayta ishlov berishdagi xromsiz oshlash jarayonida ishchi eritmadagi X-Tan oshlovchi modda konsentratsiyasiga nisbatan tuyaqush teri to‘qimasining gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichining o‘zgarishi tadqiq qilingan.*

Аннотация. *В стать исследовано изменение показателя гидротермической устойчивости кожевой ткани кожи страуса в зависимости от концентрации дублящего вещества X-Tan в рабочем растворе в процессе бесхромового дубления при переработке кожевеного сырья страуса.*

Abstract. *The article investigated the change the shrinkage temperature of ostrich leather tissue depending on the concentration of the tanning agent X-Tan in the working solution during the chrome-free tanning process when the processing of ostrich skins.*

Ўзбекистонда паррандачиликнинг бир тармоғи сифатида туяқуш паррандасини етиштириш 2016-йилдан бери ривожланиб келмоқда. Ҳозирги кунда туяқушчилик Республикамизнинг кўплаб ҳудудларида, хусусан, Фарғона вилоятидаги Риштон шаҳрида кенг тарқалган бўлиб, у ерда туяқушларини кўпайтиришнинг тўлиқ циклга эга энг йирик ихтисослашган фермер хўжаликларидан бири инглиз-ўзбек " Straus farm" фермаси фаолият кўрсатиб келмоқда[1].

Сўнгги вақтларда чарм корхоналарида экологик жихатидан зарарсиз ва осон парчаланадиган кимёвий моддалардан фойдаланишга катта эътибор қаратилмоқдалар. Саноат чиқинди сувларининг атроф-муҳитга салбий таъсирини ва ҳажмини камайтириш, шунингдек, туяқуш терисини қайта ишлаш технологиясини такомиллаштириш мақсадида туяқуш тери хомашёсини қайта ишлашдаги хромсиз ошлаш жараёни бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар мухим хисобланмоқда. Хорижий тадқиқотчиларнинг мақолаларида, хромсиз ошланган чарм ишлаб чиқаришда қўлланиладиган хромсиз ошловчи моддаларни олиш ва уларни чарм ишлаб чиқаришда қўллаш бўйича олиб борилган тадқиқот натижалари келтирилган [2-4].

Туяқуш тери хомашёстга ишлов беришдаги анъанавий технологиядаги тайёрлов босқичида ивитиш, куллаш, кулсизлантириш, мездралаш, ферментли юмшатиш, ёғсизлантириш жараён ва операциялари амалга оширилади. Ошлаш жараёни тадқиқотларида, тайёрлов ва ошлаш олди

жараёнларидан кейин туяқуш тана тери қисмининг дум қисмига яқинроқ бўлган жойидан 5×5 см ўлчамдаги тери намуналари олинди.

Олиб борилган тадқиқотларнинг назорат вариантида хром ошловчи тузлари билан ошлаш жараёни анъанавий технология асосида амалга оширилиб, бунда хромнинг ошловчи тузлари қўлланилди [5,6].

Тажриба вариантида, туяқуш тери хомашёсига ишлов бериш технологиясини такомиллаштириш мақсадида, хромсиз ошлаш жараёни амалга оширилиб, бунда TFL компаниясида ишлаб чиқарилган органик ошловчи восита X-TAN қўлланилди [7].

Туяқуш терисини қайта ишлашда ошлаш жараёнларининг технологик параметрлари қуйидаги жадвалда келтирилган.

Жадвал

Туяқуш терисини қайта ишлашда ошлаш олди ва ошлаш жараёнларининг технологик параметрлари

Жараён номи	**Кимёвий моддалар номи**	**Температура, ^{0}C**	**Кимёвий моддалар сарфи, %**	**Жараён вақти, мин.**	**Иззох**
1	2	3	4	5	6
Назорат варианти					
Пикеллаш - ошлаш	Сув Натрий хлорид (NaCl) Чумоли кислота (HCOOH, 60%) Сульфат кислота (H_2SO_4, 60%) Хром ошловчи моддаси ($CrOHSO_4$, асослилиги 33 %) Натрий формиат (HCOONa) Натрий бикарбонат ($NaHCO_3$)	20	200 10 0,5 1.0 8.0 1.0 0,5	 60 120 360 240-300 60 60	 pH=2,8-3,0 pH = 3,8-4,0
Тахлаб сақлаш				24 соат	
Тажриба варианти					
Хромсиз ошлаш	Сув X-TAN Чумоли кислотаси (HCOOH, 60%) Сув	30	100 X=3,0; 3,5; 4,0;4,5;5,0; 5,5;6,0 1,0-1,5 100	 8-9 соат 30 мин. 10 мин.	 pH=6,5 pH=3,8-4,0
Тахлаб сақлаш				24 соат	

Гидротеримик бардошлик кўрсаткичларини аниқлашда учта кўрсаткичнинг ўртачаси олинди. Ошловчи модда X-TAN нинг ошлаш

жараёнида самарали таъсири туфайли гидротермик бардошлик кўрсаткичи 1-7 тажриба вариантларига мос равишда 55,0 ± 0,4 ^{0}C дан 76,0 ± 0,3 ^{0}C гача кўтарилиши ва 8-назорат вариантида 94,5 ± 0,4 ^{0}C ни ташкил қилди. Ошлаш эритмасида ошловчи модда X-TAN концентрациясининг кўтарилиши билан туякуш тери тўқимаси намуналарида гидротермик бардошлик кўрсаткичининг кўтарилиши кузатилди. Гидротермик бардошлик кўрсаткичининг бундай кўтарилиши ошловчи модда X-TAN нинг туякуш тери тўқимаси толали оқсиллари билан таъсир кўрсатиши натижасидир. Ошлаш жараёнини тадқиқотларига асосланиб, ошловчи модда X-TAN нинг оптимал концентрацияси 5,0-5,5% ни ташкил қилди.

Туякуш териларига ишлов беришдаги хромсиз ошлаш жараёни тадқиқотлари рақобатбардош ва экологик зарарсиз технологияни ишлаб чиқишда асос бўлиб, чарм ишлаб чиқаришни ривожлантиришда муҳим хисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Оффициальный канал “Straus Farm” @strausfarm, @straustuyaqush, https//www/ facebook. com/strausfarm/www. straus.uz/ru.
2. Sundar V.J., Muralidharan C. An Environmentally Friendly Mineral-free Tanning of Animal Skins – Sustainable Approach with Plant Resources. Environ Process. Springer Nature Switzerland.2020, Vol. 7. pp. 255-270. https://doi.org/10.1007/s40710-020-00422-x .
3. Beghetto V., Agostinis L., Gatto V., Samiolo R., Scrivanti A. Sustainable use of 4-(4,6-dimethoxy-1,3,5-triazin-2-yl)-4- methylmorpholinium chloride as metal free tanning agent. Journal of Cleaner Production 220 (2019) 864—872. https://doi.org/10.1016/jjclepro.2019.02.034.
4. Ding W., Wang X., Remon J., Jiang Zh., Pang X., Ding Zh., Wu Y. Engineering an epoxy tanning agent via facile functionalization of sucrose with silane coupling agent for sustainable leather production. Collagen and Leather(2025) 7:18. https://doi.org/10.1186/s42825-025-00200-1.
5. Bitlisli B.O. Devekuşu Ham ve Mamul Derilerilerinin Bazı Teknolojik Parametreleri Üzerine Araştırmalar// B.Başaran, Ö.Sari, A.Aslan, G.Zengin. Ege Üniv. Ziraat Fak. Derg., 2003, 40 (3):137-144. ISSN 1018-8851.
6. Томашева Р.Н., Карелина И.В. Технология производства и оценка качества кож из шкур страуса. Вестник витебского Государственного Университета, Химическая технология и экология, 2022, №2(43), с.104 -118.
7. Компания TFL /: Электронный ресурс. – Режим доступа: http://www.tfl.com. Registration, Evaluation, Authorisation and Restriction of Chemicals.

ЭКОЛОГИЧЕСКИ БЕЗОПАСНЫЙ СПОСОБ ДУБЛЕНИЯ ПРИ ПЕРЕРАБОТКЕ ШКУР СТРАУСА

доц., к.т.н., Х.Х.Бегалиев, доц., И.И. Гарибян,
проф.,Т.Ж. Кодиров.
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya. *Maqolada tuyaqush terisiga ishlov berishdagi xromsiz oshlash jarayonining tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlarda “wet white” charmi namunalari olingan va ularning gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichi 76±0,3 ^{0}S ni tashkil qilgan.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования процесса бесхромового дубления страусиной кожи. В исследованиях были получены образцы “wet white” кожи страуса, которые имели показатель температуры сваривания 76±0,3 °C.*

Abstract. *This article presents the results of a study on the chrome-free tanning process for ostrich leather. During the investigation, "wet white" ostrich leather samples were obtained, that had a shrinkage temperature of 76±0.3°C.*


В настоящее время одним из основных источников загрязнения являются промышленные сточные воды, образующиеся в результате проведения технологических процессов на кожевенных заводах. Промышленные стоки, представляют собой мощный источник химического загрязнения окружающей среды, и, в первую очередь, водоёмов и подземных водных источников. Несмотря на наличие достаточно большого количества законодательных и нормативных документов, проблемы, связанные с образованием и очисткой экологически опасных стоков не нашли позитивного решения и не гарантируют экологической безопасности воздействия их на окружающую среду. В производственных стоках кожевенного производства самыми токсичными веществами являются соединения хрома Cr(III). В технологии кожи степень использования дубящих соединений хрома составляет 70–80% [1,2].

Одним из решений экологических проблем кожевенного производства является снижение в сточных водах соединений хрома. Нерациональный расход хромовых соединений, постепенное сокращение их запасов, возрастающая роль экологических требований, как к выпускаемой продукции, так и к охране окружающей среды, требует расширения научных исследований по усовершенствованию технологического процесса дубления. Наибольший интерес представляют дубящие соединения титана Ti (IV), алюминия Al(III), кремния Si(IV) и органические дубящих веществ с целью получения «wet white» дублёного кожевенного полуфабриката с улучшенными физико-химическими и гигиеническими свойствами, как с


молочно-белой кожевой тканью более пригодной для получения кож ярких цветов и оттенков [3,4].

В последнее время в этом направлении компанией TFL разработаны различные экологически безопасные дубящие вещества. Одним из таких дубящих веществ является X-Tan, который предназначен для производства белой дублёной кожи «Wet white» [5].

Технологическая последовательность процессов и операций при обработки шкуры страуса приведена ниже на рис.



а) традиционный способ обработки



б) предлагаемый способ обработки

Рис. Технологическая последовательность процессов и операций при обработке шкуры страуса.

В проведенных экспериментальных исследованиях процесса бесхромового дубления были получены образцы туловища кожи страуса бесхромового дубления «wet white», с показателями температуры сваривания 76±0,30 ^{0}C, что является вполне приемлемым показателем для последующих красильно-жировальных процессов. Согласно требованиям ГОСТа 939-2021, принятого для кожи для верха обуви, показатель температуры сваривания для кож бесхромового дубления этот показатель составляет 75,0 °C [6].

В технологическом процессе дубления с применением дубящего вещества X-Tan происходит необратимое сшивание волокнистых белков коллагена кожевой ткани. Несвязанное количество дубящего вещества X-Tan, которое остаётся в отработанных растворах после процесса дубления, в дальнейшем гидролизуется до мочевины. А мочевина, в свою очередь, является безвредной для водных организмов. В предложенной технологии отсутствует процесс пикелевания, что приводит к значительному снижению содержания соли в сточных водах и к снижению показателя химической

потребности кислорода (ХПК) при очистке производственных стоков после процесса дубления.

Усовершенствованная технология обработки шкуры страуса позволяет сократить цикл обработки, снизить расход химических материалов и сократить объем образующих вредных производственных сточных вод. В то же время, предложенная усовершенствованная технология способствует расширению ассортимента экзотической кожи страуса и имеет большое значение в создании научно обоснованной конкурентоспособной технологии переработки кожевенного сырья страуса. Углубление и расширение научных исследований по разработке альтернативных, экологически безопасных способов дубления является необходимым и востребованным для развития кожевенной отрасли в целом.

Список литературы

1. Dixit, S., Yadav, A., Dwivedi, P.D., Das, M. (2015), “Toxic Hazards of Leather Industry and Technologies to Combat Threat: A Review”, Journal of Cleaner Production, 87, 39-49, https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2014.10.017.

2. Zengin A., Crudu A.C., Maier M., Deselnicu S.S., Albu V., Gulumser L., V., Bitlisli G., Basaran B.O., Mutlu M.M. Eco-leather: Chromium-free Leather Production Using Titanium, Oligomeric Melamine-Formaldehyde Resin, and Resorcinol Tanning Agents and the Properties of the Resulting Leathers, Ekoloji, 2012, 21, 82, 17-25, doi: 10.5053/ekoloji.2011.823

3. Ding W., Wang X., Remon J., Jiang Zh., Pang X., Ding Zh., Wu Y. Engineering an epoxy tanning agent via facile functionalization of sucrose with silane coupling agent for sustainable leather production. Collagen and Leather(2025) 7:18. https://doi.org/10.1186/s42825-025-00200-1.

4. Beghetto V., Agostinis L., Gatto V., Samiolo R., Scrivanti A. Sustainable use of 4-(4,6-dimethoxy-1,3,5-triazin-2-yl)-4- methylmorpholinium chloride as metal free tanning agent. Journal of Cleaner Production 220 (2019) 864—872. https://doi.org/10.1016/jjclepro.2019.02.034.

5. Компания TFL /: Электронный ресурс. – Режим доступа: http://www.tfl.com. Registration, Evaluation, Authorisation and Restriction of Chemicals.

ГОСТ 939-2021. Кожа для верха обуви. Технические условия.

ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СТОП МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ УЗБЕКИСТАНА ДЛЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОНСТРУКЦИИ СПЕЦИАЛЬНОЙ ОБУВИ

Ст.преп. Д.Т.Максудова, доцент, М.У.Илхамова,
доцент Д.К.Турсунова
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. *В исследовании изучены антропометрические параметры стоп 426 медицинских работников Узбекистана с учетом гендерных особенностей. Установлены различия основных параметров стоп мужчин и женщин, значимые для проектирования специальной обуви.*

Annotatsiya. *Tadqiqotda tibbiyot xodimlari oyoq panjalarining antropometrik parametrlari gender xususiyatlari asosida o‘rganildi. 426 nafar tibbiyot xodimining oyoq panjasi asosiy parametrlari aniqlandi. Olingan farqlar maxsus poyabzal konstruksiyasini takomillashtirish uchun asos bo‘ldi.*

Abstract. *The study investigated the anthropometric parameters of the feet of healthcare workers based on gender characteristics. The main foot measurements of 426 healthcare workers were determined. The findings provide a basis for improving the design of specialized footwear.*

При проектировании специальной обуви для медицинских работников необходимо учитывать индивидуальные и гендерные особенности строения стопы. Соответствие конструкции обуви антропометрическим параметрам стопы является одним из основных факторов, определяющих ее удобство и эксплуатационные свойства [1–3]. Особое значение это имеет для медицинских работников, деятельность которых связана с продолжительным пребыванием на ногах и статической нагрузкой. Поэтому обувь должна обеспечивать рациональное размещение стопы и соответствие основным размерно-полнотным характеристикам.

Антропометрические параметры стопы характеризуются вариабельностью и зависят от пола, возраста и индивидуальных особенностей человека. Учет этих различий позволяет повысить точность проектирования обувной колодки и совершенствовать размерно-полнотную систему специальной обуви [2, 3]. Важное значение имеют длина, ширина, обхваты и другие формообразующие признаки стопы.

Для определения размерных характеристик стоп медицинских работников проведено антропометрическое исследование с использованием инструментальных методов, 2D-измерений и 3D-сканирования INFOOT [4, 5]. Полученные данные позволили провести сравнительный анализ антропометрических показателей стоп мужчин и женщин и определить их значение для совершенствования конструкции специальной обуви.

В исследовании приняли участие 426 медицинских работников, в том числе 182 мужчины и 244 женщины в возрасте от 23 до 60 лет. При исследовании определялись основные размерные признаки стопы: длина, ширина в области плюсневых пучков и обхват в пучках. Для получения пространственных характеристик применялось 3D-сканирование стоп с использованием системы INFOOT [4, 5].

Полученные данные подвергались статистической обработке с определением среднего арифметического значения, среднеквадратического отклонения и коэффициента вариации.

Антропометрические параметры стоп медицинских работников

Таблица 1.

№	Показатель	Женщины, n=244	CV, %	Мужчины, n=182	CV, %
1	Длина стопы, мм	239,40 ± 10,03	4,19	273,62 ± 10,70	3,91
2	Ширина стопы, мм	98,93 ± 4,58	4,63	106,79 ± 3,78	3,54
3	Обхват в пучках, мм	238,48 ± 10,65	4,46	265,26 ± 7,18	2,71

Результаты исследования показали выраженные различия антропометрических параметров стоп мужчин и женщин. Средняя длина стопы мужчин составила 273,62 мм, женщин — 239,40 мм. Ширина стопы составила соответственно 106,79 и 98,93 мм, а обхват в области пучков — 265,26 и 238,48 мм.

Коэффициент вариации исследуемых параметров находился в пределах 2,71–4,63 %, что характеризует относительно небольшую изменчивость основных размерных признаков. При этом у женщин отмечена несколько большая вариабельность ширины и обхвата стопы по сравнению с мужчинами.

Результаты 3D-сканирования также подтвердили наличие гендерных различий. Длина стопы составила 273,6 мм у мужчин и 239,2 мм у женщин, ширина — 106,7 и 97,6 мм соответственно. Кроме того, различия выявлены по обхвату подъема, ширине пятки, высоте подъема и другим формообразующим параметрам стопы.

Установлена положительная корреляционная связь между длиной и обхватом стопы. Для мужчин коэффициент детерминации составил $R^2 = 0,3763$, а коэффициент корреляции $r \approx 0,61$ ($p < 0,01$), что указывает на статистически значимую связь средней силы. Это означает, что с увеличением длины стопы в целом увеличивается и ее обхват в области пучков. При этом длина стопы не полностью определяет ее объемные характеристики, поэтому при проектировании обуви недостаточно

учитывать только длину — необходимо также принимать во внимание ширину и обхват стопы.

Таким образом, выявленные различия между мужчинами и женщинами подтверждают необходимость гендерно-ориентированного подхода к проектированию специальной обуви. Полученные антропометрические показатели позволяют более обоснованно определять параметры обувной колодки, учитывать особенности полноты и формы стопы и совершенствовать размерно-полнотную систему специальной обуви [2, 3].

Проведенное исследование показало, что учет гендерных особенностей антропометрии стоп является важным условием повышения соответствия специальной обуви анатомическим особенностям пользователей. Полученные результаты могут быть использованы при разработке более удобной и рациональной конструкции специальной обуви для медицинских работников.

Список литературы

1. Максудова Д.Т., Илхамова М.У., Турсунова Д.К. Изучение потребительских предпочтений медицинской спецобуви с использованием средств опроса социальной сети // Universum: технические науки. 2023. № 11(116). С. 68–71. DOI: 10.32743/UniTech.2023.116.11.16263.

2. Максудова Д.Т., Илхамова М.У., Турсунова Д.К. Анализ деформаций стопы и антропометрических характеристик медработников Узбекистана // To‘qimachilik va moda sanoatida ilm-fan va innovatsiyalar. 2025. № 1. С. 40–48.

3. Максудова Д.Т., Илхамова М.У., Турсунова Д.К. Гендерно-ориентированный анализ параметров стопы, полученных с использованием различных методов измерения, и оценка взаимосвязи степени плоскостопия с выраженностью вальгусной деформации (hallux valgus) у медицинских работников Узбекистана // Механика и технологии. Научный журнал. 2025. № 3(89). С. 227–233.

4. I-Ware Laboratory. INFOOT 2–3D Foot Scanning System: Product Pamphlet. 2025.

5. Kimura T. et al. 3D Foot Scanning System INFOOT // Proceedings of 3DBODY.TECH.

MO‘YNALI USTKI KIYIMLARNI LOYIXALASH USULLARINING TAHLILI

Professor, t.f.d. Kamilova X.H.
Mustaqil izlanuvchi Xonkeldiyeva N.A.
Toshkent to‘qimachilik yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yengil sanoatda eng qimmatbaho yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan qorako‘l mo‘ynasidan kiyim loyihalash usullari tahlil qilingan. Qorako‘l terilarining topografik xususiyatlari, gullar yo‘nalishi va qalinligini hisobga olgan holda loyixalashning usullarini o‘rganib chiqilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируются методы проектирования одежды из каракуля, одного из самых ценных направлений в легкой промышленности. Изучены методы проектирования с учетом топографических особенностей каракулевых шкурок, а также направления и толщины их завитков.*

Abstract. *This article analyzes methods for designing karakul garments, one of the most valuable segments of the light industry. It examines design techniques that take into account the topographical features of karakul pelts, as well as the direction and thickness of their curls.*

Bugungi kunda tikuvchilik sanoatida raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy kiyim tayyorlashda tabiiy mo‘ynalardan ustki kiyimlarni loyihalash jarayoni o‘ziga xos murakkabdir. Tabiiy mo‘ynadan tayyorlangan ustki kiyimlar konstruksiyasi va ularning modelga xos xususiyatlari gazlamali kiyimlarga o‘xshashdir[1].

Mo‘ynali kiyimlarga bir qator iste’mol va ishlab chiqarish talablari qo‘yiladi. Asosiy iste’mol talablariga quyidagilar kiradi:

– mo‘ynali kiyimlar chiroyli tashqi ko‘rinishga ega bo‘lishi, kiyishga qulay bo‘lishi, sovuqdan himoya qilishi hamda loyihalash va ishlab chiqarish jarayonida berilgan rang, o‘lcham va shaklini saqlab qolishi kerak. Bunda kafolatli foydalanish muddati davomida kiyimning uzilish yuklamalari va ishqalanishga, shuningdek, yorug‘lik va ob-havo ta’siriga chidamliligi saqlanishi ta’minlanishi lozim;


– har bir kiyimda uning og‘irligi, qulayligi, issiqlikni saqlash xususiyatlari kabi ko‘rsatkichlar talab etilgan me’yorlar doirasida bo‘lishi kerak.

Mo‘ynali kiyimlarga qo‘yiladigan yetakchi talablardan biri ularning raqobatbardoshligidir. Bu tushuncha mahsulotga bo‘lgan yuqori iste’mol talabini belgilovchi iste’mol, funksional va qiymat xususiyatlari majmuini o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlarga tabiiy mo‘ynadan tikilgan kiyimlar eng yaxshi javob beradi

Kiyimning vazifasiga qarab, yuqorida keltirilgan talablardan biri yoki bir nechtasi asosiy vazifani bajaradi. Asosiy talablarga qat’iy belgilangan doirada rioya qilish majburiydir. Qolgan talablar esa eng yaxshi ko‘rsatkichlarga imkon

qadar yaqin bo‘lgan natijalar bilan ta’minlanadi. Masalan, ustki mo‘ynali kiyimlar uchun asosiy talablar: iloji boricha qulay bo‘lishi sharti bilan kiyimning kiyilganda o‘zining chiroyli ko‘rinishini, o‘lchamlari va shaklini saqlab qolishi hamda qulayligidir. Shu bilan birga, boshqa mo‘ynali kiyimlar uchun asosiy talab — chiroyli tashqi ko‘rinishga rioya qilgan holda harakatlanishda qulaylikni ta’minlash va sovuqdan himoya qilishdir[2].

Mo‘ynali kiyimlar nafaqat chiroyli, balki qulay ham bo‘lishi lozim. Shu bilan birga mo‘ynali kiyimlarni yorqinroq va rang-barangroq qilishga muvaffaq bo‘lindi. Mo‘ynali kiyimlardagi modani belgilovchi asosiy omillar — bu mahsulotlarning rangi, silueti va shakli, mutanosibligi, detallari va bezaklarining o‘ziga xosligidir. Tadqiqot davomida so‘rovnoma ishlab chiqilgan va ayollar ustki kiyimi paltolarning siluetlari va bichimlarining natijalari qo‘yidagicha bo‘ldi.




1-rasm. Ayollar mo‘ynali paltosining bichimlari

1-rasmda ko‘rsatilgandek, 178 nafar respoyedentlar orasida so‘rovnoma o‘tkazilgan, shulardan 44,4 % to‘g‘ri bichimli, 27,5 % nim yopishgan bichimli, 17,4 % trapetsiyasimon bichimli va 10,7 % ovalsimon bichimli bo‘lishligini belgilab berishgan. Shundan kelib chiqqan holda, mo‘ynali ustki kiyimni loyixalash usullarini tahlil qilib chiqdik.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, mo‘yna xususiyatlari jihatidan analoglaridan farq qiladigan mo‘ynali buyumlarning shakli va konstruksiyasini loyihalashda ushbu usullarga yangicha usullar kiritish zarur. Mo‘ynali buyumlarni loyihalashning yangi usullari bir tomondan materiallarning xususiyatlarini chuqur bilishga, ikkinchi tomondan esa buyumning dinamik xossalarini ergonomik jihatdan tadqiq qilishga asoslanishi kerak.

Mo‘ynali kiyimlarni modellashtirishning o‘ziga xosligi shundaki, mo‘ynali paltolar o‘lchamiga va bichimiga qarab turlicha miqdordagi (5 tadan 100 tagacha) terilardan tikiladi. Mo‘yna terilarini oqilona joylashtirish, bichish va texnologik birlashtirish usullarini optimallashtirish yuqori sifatli mo‘ynali kiyimlar assortimentini kengaytirish va raqobatbardosh modellarni yaratish imkonini beradi[3].

Terilarning buyumdagi joylashuvi vertikal, gorizontal va diagonal hisoblanadi. Terilarni buyum yuzasiga joylashtirishda romb, to‘lqinsimon, chig‘anoq, spiral va shunga o‘xshash shakldagi naqshlarni hosil qilish mumkin. Terilarni joylashtirish variantlari 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Mahsulotda terilarning joylashish variantlari: a — uzunasiga, b — ko‘ndalangiga, v — diagonal, g — “archa” usulida, d — “parket” usulida, e — shaxmat usulida, j, z — aralash

Mo‘ynali buyumlardagi ulangan choklar tuk qoplami tomonidan yaqqol ko‘rinib turadi va terilar noto‘g‘ri joylashtirilsa, buyumning estetik yaxlitligi buziladi. Shu sababli, buyumning konstruktiv chiziqlarini terilarning ulash joylariga to‘g‘ri keltirib joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy mo‘ynani charm, zamsh, trikotaj yoki boshqa xildagi mato bilan birga qo‘llash, bir necha turdagi mo‘ynalarni uyg‘unlashtirish va shu kabi usullar bilan o‘ziga xos effektlar yaratish mumkin. Shunday qilib, mo‘ynali mahsulot

konstruksiyasini yaratish uchun terilarni bichish usullari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish va ularni to‘g‘ri tanlay bilish zarur[4].

Demak, mo‘yna fabrikasida bichish usulini tanlash terilarning shakli, chiziqli o‘lchamlari va maydoniga, shuningdek, tuk qoplami va teri to‘qimasining tuzilish xususiyatlariga hamda mahsulotning belgilangan modeliga bog‘liq bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.H.Kamilova, N.K.Hamrayeva. “Tikuv buyumlarini konstruksiyalash” – T.: 2003 yil. – 348 bet.
2. Toktorbayeva E.I. Razrabotka metoda proyektirovaniya jenskoy odejdi iz mexa zavitkovoy gruppi: dis. kand. texn. nauk. M.: MGUDT, 2002. 193 s.
3. Bulatova Ye. B. Konstruirovaniye odejdi iz naturalnogo mexa. — M.: Akademiya, 2017. — 180 s.
4. Cherepenko N. V. Osobennosti konstruirovaniya verxney odejdi iz naturalnogo mexa // Texnologiya tekstilnoy promishlennosti. — 2020. — № 2. — S. 112-116.

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ ЗАЩИТНЫХ ПАКЕТОВ С РАЗЛИЧНЫМИ НАПОЛНИТЕЛЯМИ

PhD стр.пр. К.Т.Ходжаева, DcS. проф. М.К.Расулова,
студентка С.М.Расулова
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация: *В статье исследованы физико-механические свойства пакетов теплозащитных материалов для специальной одежды работников, осуществляющих деятельность в условиях высоких температур. В ходе экспериментов было установлено, что базальтовая вата по своим свойствам защищает не только от жары, но и от высоких уровней холода.*

Annotasiya: *Maqolada yuqori haroratli muhitda ishlovchi xodimlarning himoya kiyimlari uchun mo‘ljallangan issiqlikdan himoyalovchi materiallar majmuasining fizik-mexanik xossalari o‘rganiladi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatdiki, bazalt jun o‘z xossalariga ko‘ra nafaqat issiqlikdan, balki kuchli sovuqdan ham himoya qilishni ta’minlaydi.*

Abstract: *The article investigates the physical and mechanical properties of thermal insulation material assemblies intended for the protective clothing of workers operating in high-temperature environments. Experimental results demonstrated that, in terms of its properties, basalt wool provides protection not only against heat but also against extreme cold.*

Данная научно-иссдедовательская работа относится к легкой промышленности, а именно к формированию огнезащитных пакетов из нескольких компонентов, и может быть использовано, для пошива спецодежды при обеспечении защиты от опасных и вредных производственных факторов огня, повышенной температуры, искр и брызг расплавленного металла, тепловых потоков большой интенсивности и т.п. Теплозащитная одежда должна иметь высокую отражающую способность, огнестойкость, термостойкость и теплоемкость, низкую теплопроводность, сохранять физико-механические свойства при высоких температурах, иметь небольшую массу, защищать тело человека от ожогов, быть непроницаемой для жидкостей и газов [1].

Учитывая вышеизложенного, в качестве объекта исследования были выбраны несколько видов теплоизоляционных пакетных материалов, используемых в швейной промышленности, и проведены экспериментальные исследования на основе существующих методик в сертификационной лаборатории "CENTEX.UZ" при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (рис. 1) [2].



Рис. 1 Процесс испытания образцов теплозащитных пакетов

При изготовлении в качестве оболочек пакета материалов одежды использовались подкладочные материалы - полиэстер, хлопчатобумажные и

трикотажные полотна, а в качестве наполнителями теплоизоляционного пакета применялись синтепон, холлофайбер, слимтекс-200, перья, ватин, вата, шерсть, минеральная вата, базальтовое штапельное волокно, мета-арамидное волокно [3-5].

Толщина, вес и воздухопроницаемость теплоизоляционного пакета с разным составом наполнителей приведены в табл. 1

таблица 1

Физико-механические показатели образцов теплоизоляционного слоистого пакета

№ образца	Наименование теплоизоляционного слоя	Толщина пакета, мм	Поверхностная плотность пакета, г/м^2	Воздухопроница емость, дм3/см2 с
1	Синтепон	3,35	296,3	32,4
2	Синтепон	1,2	200,6	28,12
3	Холлофайбер	1,5	470,0	39,8
4	Слимтекс – 200	4,0	200,0	64,3
5	Перья	2,7	582,6	32,4
6	Вата	4,3	820,6	70,7
7	Ватин	3,9	379,0	28,12
8	Шерсть	5,1	600,0	37,7
9	Минеральная вата	3,8	800,5	39,8
10	Базальтовая вата	4,0	350,0	33,7
11	Мета-арамидное волокно	2,4	300,0	41,9

По воздухопроницаемости результаты показали минеральное хлопковое волокно (39,8 дм^3/см^2 с), перья (32,4 дм^3/см^2 с), слимтекс (64,3 дм^3/см^2 с). По воздухопроницаемости минеральное хлопковое волокно, синтетический слимтекс имеет результаты в 1,5 раза ниже, а по сравнению с другими образцами в 0,5 раза ниже. Мета-арамидное волокно (41,9 дм^3/см^2 с) обладает воздухопроницаемостью, но его результат также выше, чем у минеральной ваты. Полученные результаты по характеристикам воздухопроницаемости и толщины пакета представлены в виде диаграммы (рис. 2. и рис. 3.).

Полученные результаты показывают, что для формирования пакета спецодежды рекомендуется глубокий анализ свойств каждого теплоизоляционного материала. В ходе экспериментов было установлено, что базальтовая вата по своим свойствам защищает не только от жары, но и от высоких уровней холода. Установлено, что термостойкость базальтовой ваты размером 10*10 см и 56 г составляет +800^0 С и морозостойкость -200^0 С, термостойкость размером 10*10 см и 33 г составляет +670^0 С и

морозостойкость -165^0 С, а термостойкость размером 10*10 см и 29 г составляет +450^0 С и морозостойкость -140^0 С. Это свойство свидетельствует о её преимуществе перед другими теплоизоляционными материалами и служит основным показателем при изготовлении теплоизоляционного пакета специальной одежды пожарных (БОП-1).

На следующих этапах данной исследовательской работы при выполнении функциональных задач пожарных они будут посвящены изучению зон теплового воздействия, а также разработке образцов пакетов материалов для комплектов специальной одежды.

Список использованной литературы

1. К.Т. Ходжаева и др. Инновационные подходы к формированию термозащитных пакетов одежды для пожарных. Монография. Курс-2026. – 118 с.

2. Жерницын Ю.Л. Методическое указание по выполнению научно-исследовательских и лабораторных работ по испытанию продукции текстильного назначения. - Ташкент. 2007. – 71 с.

3. M.K. Rasulova, K.T. Xodjayeva “Maxsus kiyim paketini tayyorlashda ishlov berish rejimlarini tadqiq qilish” “Ishlab chiqarish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini rivojlanishi sharoitida ilm-fan va soha korxonalarining integratsiyasi” respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani TO‘PLAMI 1-qism Toshkent –2024, 332–336 b.

4. М.К. Расулова, К.Т. Ходжаева. Исследование свойств утепляющих прокладочных материалов для формирования пакета верхней одежды // “International Journal of Engineering Mathematics: Theory and Application (Online)” 1687-6156 http://iejemta.com/ VOLUME 5 ISSUE 1 Ташкент-2023, 159 – 166 б.

5. М.К. Расулова, К.Т. Ходжаева. Study of operating modes in the process of selection and tailoring of package materials in the preparation of men’s outerwear // “Sclentific and technical journal Namangan institute of engineering and technology” NamIET –2024, 34 –41б.

4-Sho‘ba. Amaliyotga yo‘naltirilgan muhandislik ta’limi, oliy ta’lim muassasalarining sanoat bilan hamkorligi va dual ta’lim

YENGIL SANOAT YO‘NALISHLARIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH: XALQARO TAJRIBANING QIYOSIY TAHLILI

PhD. M.A. Aripjanova
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yengil sanoat yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi xalqaro tajriba asosida tahlil qilinadi. Turli mamlakatlar tajribasida kasbiy, texnologik, kreativ va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос развития профессиональных компетенций студентов, обучающихся по направлениям лёгкой промышленности, наr основе международного опыта. Анализируются подходы различных стран к развитию профессиональных, технологических, творческих и коммуникативных компетенций.*

Abstract. *This article examines the development of professional competencies among students studying in the fields of light industry based on international experience. It analyzes approaches used in different countries to develop professional, technological, creative, and communication competencies.*

Bugungi kunda yengil sanoatning texnologik jihatdan rivojlanishi va mehnat bozoridagi talablarning o‘zgarishi mazkur soha uchun yuqori malakali, zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etmoqda. Ayniqsa, to’qimachilik, tikuvchilik va dizayn yo‘nalishlarida mutaxassisning kasbiy faoliyati texnologik bilimlar bilan bir qatorda ijodiy fikrlash, kommunikativlik, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyatlarini ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta’limda yengil sanoat yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro tajribani o‘rganish esa kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkonini beradi.

Xorijiy tadqiqotlarda kasbiy kompetensiya mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy sifat va amaliy tajribaning integrallashgan majmuasi sifatida talqin qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy xususiyati ta’lim natijasini faqat o‘zlashtirilgan bilim hajmi bilan emas, balki talabaning mazkur bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati bilan baholashdan iborat.

Yengil sanoat yo‘nalishlarida kasbiy kompetensiyalarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhni **texnologik kompetensiyalar** tashkil etib, ular materiallarning xususiyatlarini bilish, texnologik jarayonlarni tashkil etish, ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish va mahsulot sifatini nazorat qilish

bilan bog‘liq. Ikkinchi guruh — **kreativ kompetensiyalar** bo‘lib, yangi konstruktiv va dizayn yechimlarini ishlab chiqish, ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvni nazarda tutadi. Uchinchi guruh **kommunikativ kompetensiyalar**ni qamrab oladi. Yengil sanoat ishlab chiqarishida mutaxassis dizayner, texnolog, konstruktor, ishlab chiqarish xodimlari va buyurtmachilar bilan samarali muloqot qila olishi zarur. To‘rtinchi guruhga **muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalari** kiradi. Ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan texnologik muammolarni tahlil qilish va maqbul yechim topish mutaxassisning kasbiy samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan ta’lim tizimlarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish alohida fan doirasida emas, balki turli fanlar mazmunining o‘zaro integratsiyasi, amaliy mashg‘ulotlar, loyiha faoliyati, ishlab chiqarish amaliyoti va muammoli topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Ayniqsa, yengil sanoat ta’limida **fanlararo integratsiya** muhim ahamiyatga ega. Masalan, materialshunoslik, tikuv buyumlarini konstruksiyalash, tikuv buyumlari texnologiyasi, kostyum va moda dizayni va ishlab chiqarishni tashkil etish fanlarining mazmunini o‘zaro bog‘lash orqali talaba bitta mahsulotni yaratish jarayonini yaxlit tizim sifatida anglaydi. Natijada nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va kreativ faoliyat o‘zaro uyg‘unlashadi.

Xalqaro tajribalarni umumlashtirish asosida yengil sanoat yo‘nalishlari talabalarida rivojlantirilishi zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

Kompetensiya guruhi	**Asosiy mazmuni**
Texnologik	Texnologik jarayonlarni bajarish va ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish
Kreativ	Yangi g‘oya, dizayn va texnologik yechimlarni ishlab chiqish
Kommunikativ	Kasbiy muloqot va jamoada ishlash
Muammoli-vaziyatli	Kasbiy muammolarni tahlil qilish va yechim topish
Integrativ	Turli fanlardan olingan bilimlarni kasbiy vazifalarda birlashtirish
Moslashuvchan	Yangi texnologiyalar va ishlab chiqarish talablariga moslashish

Mazkur kompetensiyalar bir-biridan alohida shakllanmaydi. Ularning rivojlanishi integratsiyalashgan ta’lim mazmuni, amaliy faoliyat va kasbiy vazifalarni modellashtirish bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli yengil sanoat yo‘nalishlarida ta’lim mazmunini kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish muhim pedagogik shartlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Xalqaro tajribani milliy ta’lim tizimiga joriy etishda esa uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki mamlakatning ta’lim mazmuni, ishlab chiqarish xususiyatlari, mehnat bozori talablari va milliy pedagogik tajribasi bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bunda xalqaro tajribaning ilg‘or jihatlari — loyiha asosida o‘qitish, amaliy yo‘nalganlik, fanlararo integratsiya, ishlab chiqarish bilan hamkorlik va kompetensiyaga asoslangan baholash mexanizmlaridan samarali foydalanish mumkin.

Yengil sanoat yo‘nalishlarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, mutaxassis tayyorlash jarayonida texnologik bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan bir qatorda kreativ, kommunikativ, integrativ, muammoli vaziyatlarni hal qilish va kasbiy moslashuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, yengil sanoat ta’limida kasbiy kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun ta’lim mazmunini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash hamda talabalarni real kasbiy vaziyatlarga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribaning ilg‘or jihatlarini milliy ta’lim sharoitlariga moslashtirish yengil sanoat yo‘nalishlari bo‘yicha raqobatbardosh va zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismailova Z. K., Choriev R., Musurmanova A., Karabayeva Z. I. Methods of training of teachers of university on advanced training courses // Journal of Critical Reviews. — 2020. — Vol. 7, No. 5. — P. 647–653.
2. Kohli, J. K. (2025). Impact of artificial intelligence on fashion education for future jobs. *Higher Education for the Future*, *12*(1), 114–128. https://doi.org/10.1177/23476311241284860
3. Aripjanova M.A. Professional ta’limda o’quvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish omillari. “Tikuv-trikotaj sanoatida innovatsion texnologiyalar, ishlab chiqarishdagi muammo, tahlil va sohani rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Namangan 7-8 oktyabr 2022 y. –B. 33-36.
4. Арипжанова М. А., Бобожонова Н. А. “Факторы развития профессиональных компетенций студентов в профессиональном образовании” . “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnal. Volume: 01 Issue: 06. 2022. P.180-182. https://scientists.uz/view?id=1457

KICHIK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA MODULLI-BLOKLI TA’LIM: AMALIYOT VA NATIJA INTEGRATSIYASI

maxsus fan o’qituvchisi, Z.A. G’oziyeva
Andijon shahar 1-son texnikumi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yengil sanoat yo‘nalishi bo’yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashda modulli-blokli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, amaliy ta’lim jarayonini modullashtirish orqali talabalarda operatsion-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlash hamda yakuniy natijadorlikni oshirish metodikasi tahlil qilingan.*

Аннотация. *В данной статье анализируется методика использования модульно-блочных технологий обучения при подготовке младших специалистов в сфере легкой промышленности и швейного производства. Рассматриваются вопросы формирования у студентов операционно-практических навыков путем модуляции практического обучения, обеспечения интеграции теории и практики, а также повышения конечной результативности.*

Abstract. *This article analyzes the methodology of using modular-block learning technologies in training junior specialists in the field of light industry and sewing production. It examines the formation of operational and practical skills in students through the modularization of practical training, ensuring the integration of theory and practice, and increasing final effectiveness.*

Hozirgi davrda kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimida yengil sanoat yo‘nalishi bo‘yicha kichik mutaxassislarni tayyorlash sifatiga qo‘yiladigan talablar tubdan o‘zgardi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari bitiruvchilardan nafaqat nazariy bilimlarni, balki yuqori darajadagi amaliy-operatsion ko‘nikmalarni hamda tezkor moslashuvchanlikni talab etmoqda. O‘quv jarayonida an’anaviy ta’lim usullari ko‘p hollarda nazariya va amaliyot o‘rtasida ma’lum uzilishlarni keltirib chiqaradi. Bu muammoni hal etishning eng samarali yechimlaridan biri modulli-blokli ta’lim texnologiyasini amaliyotga keng joriy etishdir. Ushbu yondashuv o‘quv materialini mantiqiy tugallangan bloklarga ajratgan holda, har bir operatsiyani chuqur o‘zlashtirish va amaliy natijaga yo‘naltirish imkonini beradi [1]. Modulli-blokli ta’lim tizimi o‘quv jarayonini mantiqiy tugallangan, muayyan kasbiy vazifani bajarishga qaratilgan va mustaqil baholanadigan o‘quv bloklariga bo‘lishga asoslanadi. Tikuvchilik yo‘nalishida bo‘lajak kichik mutaxassislarda operatsion ko‘nikmalarni sifatli shakllantirish uchun o‘quv modulining har bir

komponenti quyidagicha kengaytirilgan va chuqurlashtirilgan mazmunga ega bo‘lishi lozim:

1. Nazariy-axborot bloki (Kognitiv-texnologik tayyorgarlik). Ushbu blok talabada amaliy harakatni bajarishdan oldin uning nazariy bazasini va texnologik tasavvurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Texnologik xaritalar va sxemalar bilan ishlash: Tikuv buyumining uzel va detallariga ishlov berish ketma-ketligi, chok turlari, chok kengliklari hamda texnik shartlarni (TS) chuqur o‘rganish. Jihozlar va asbob-uskunalar parametrlari: Tikuv mashinalarining ip tarangligi, igna raqamini mato turiga mos tanlash, bosim panjasini va chok qadamini to‘g‘ri sozlash bo‘yicha yo‘riqnomalar.

Materialshunoslik va namlab-isitib ishlov berish (NIIB): Gazlama xossalariga mos harorat va bug‘ rejimlarini belgilash, qotirma materiallar (flizelin, dublerin)ni yopishtirish texnikasi. Xavfsizlik texnikasi va ergonomika: Ish o‘rnini to‘g‘ri tashkil etish, elektroxavfsizlik, kesuvchi hamda teshuvchi asboblar bilan ishlash qoidalari, ish unumdorligini oshiruvchi to‘g‘ri o‘tirish va harakat dinamikasi.

2. Amaliy-mashq bloki (Operatsion-amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish). Ushbu blok modulning o‘zak qismi bo‘lib, nazariy bilimlarni doimiy takrorlash va mashq qilish orqali avtomatlashtirilgan ko‘nikmaga aylantirishga qaratilgan.

Tayyorgarlik va namunaviy mashqlar: Mato bo‘laklarida to‘g‘ri, parallel choklarni bir xil maromda va tezlikda yuritish, mashinani bir me'yorda to‘xtatish hamda burilishlarni aniq bajarish mashqlari. Bosqichma-bosqich operatsion takrorlash: Kompleks tikuv uzellarini qismlarga bo‘lib o‘zlashtirish: Masalan, yoqaga ishlov berish. ulash: yoqa qismlarini tayyorlash, qotirma yopishtirish, ostki yoqani ustki yoqaga biriktirish va yoqa o’miziga o’tkazish. Motorika va tezlikni oshirish: Operatsiyalarni bajarish vaqtini sekundomer bo‘yicha xronometraj qilish, harakatlardagi ortiqcha ushlanishlarni bartaraf etish va harakat aniqligini ta'minlash.

3. Nazorat va integratsiya bloki. Ushbu blok bajarilgan amaliy topshiriqning sifatini tizimli tahlil qilish, talabada o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini rivojlantirish hamda keyingi murakkabroq modulga o‘tish tayyorgarligini belgilaydi. Kriterial va obyektiv baholash: Tayyorlangan detal yoki uzelning Davlat standartlari (DSt) va texnik shartlarga mosligini quyidagi mezonlar bo‘yicha tekshirish: Choklarning tekisligi va qadam uzunligining bir xilligi, namlab-isitib ishlov berish sifati, simmetriya va simmetrik nuqtalarning bir-biriga tamomila mos kelishi. Nuqsonlar tahlili va korrektirovka: yuzaga kelgan xatoliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish va qayta ishlash usullarini belgilash. Integratsiya va keyingi bosqichga o‘tish: o‘zlashtirilgan

alohida operatsiyalarni yaxlit buyum (ko‘ylak, kostyum, shim) yig‘ish texnologiyasiga birlashtirish va talabaning keyingi murakkablikdagi o‘quv moduliga kirishishiga ruxsat berish. Modulli-blokli yondashuvning an’anaviy o‘qitish usulidan afzalligi shundaki, talaba har bir o‘quv bloki yakunida aniq bir moddiy natija (tayyorlangan detal yoki bajarilgan mukammal operatsiya)ga ega bo‘ladi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, modulli-blokli tizimda ta’lim olgan talabalarda operatsion xatoliklar darajasi an’anaviy guruhlarga nisbatan 35-40% ga kamayadi, amaliy ko‘nikmalarning shakllanish tezligi esa 1.5 baravarga oshadi [2]. Modulli-blokli ta’limni samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik va texnik sharoitlarni ta’minlash zarur: Texnologik xaritalarni standartlashtirish: Har bir amaliy mashg‘ulot uchun vizual ko‘rsatmalar va qadam-baqadam operatsiya ketma-ketligi ishlab chiqilishi kerak. Ustaxona jihozlarini modullashtirish: O‘quv sexlarini operatsiyalar turiga qarab moslashtirish va talabalarning mustaqil ishlash joylarini optimallashtirish.

Kriterial baholash tizimi: Har bir modul bo‘yicha aniq sifat ko‘rsatkichlari (chok tekisligi, o‘lcham aniqligi, texnik talablarga mosligi) joriy etilishi lozim.
Olib borilgan tadqiqotlar va amaliy pedagogik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, yengil sanoat yo‘nalishida kichik mutaxassislarni tayyorlashda modulli-blokli ta’lim texnologiyasi amaliyot va erishilayotgan yakuniy natija o‘rtasidagi uzviylik hamda tizimlilikni ta’minlovchi eng maqbul didaktik omillardan biridir.

An’anaviy o‘qitish shakllaridan farqli o‘laroq, ushbu yondashuv o‘quv jarayonini chiziqli bayon etishdan voz kechib, har bir tikuv operatsiyasini alohida, tugallangan va nazorat qilinadigan amaliy bloklar ko‘rinishida tashkil etishga imkon beradi. Ushbu yondashuvni amaliyotga joriy etish yengil sanoat yo‘nalishi talabalarida operatsion-tikuv ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich, tizimli va sifatli shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, modulli-blokli ta’lim talabalarda mustaqil ishlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va bajarilgan ish sifatini xolisona baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak kichik mutaxassislarning zamonaviy tikuvchilik korxonalari va mehnat bozori talablariga tezkor moslashishiga hamda ularning kasbiy raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismailova Z. K., Choriev R., Musurmanova A., Aripjanova M. A., Karabayeva Z. I. Methods of training of teachers of university on advanced training courses // Journal of Critical Reviews. — 2020. — Vol. 7, No. 5. — P. 647–653.

2. Avazov Sh.E. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda modulli o‘qitish texnologiyasining samaradorligi // Kasb-hunar ta’limi. — Toshkent, 2018. — № 4. — B. 24–28.

INTERFAOL USULLARNI O‘QUV JARAYONIDA QO‘LLANILISHI

dotsent, B.N.Boymurotov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda bo’lajak muhandislarni o’qitishda interfaol usullarni o‘quv jarayonida qo‘llanilishi yoritib o’tilgan.*

Аннотация. *В данном тезисе освещено применение интерактивных методов в учебном процессе у будущих инженеров.*

Abstract. *This article highlights the use of interactive methods in the educational process for future engineers.*

Didaktik jarayon bosqichlarini muayyan ketma-ketlikda qurish talabalarning bilish faoliyatini mavzu bo‘yicha belgilangan maqsadlarga mos holda tanlangan o‘qitish metodlari yordamida tashkil etish demakdir. O‘qitish metodlari o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra ma’lum pedagogik nazariyaga asoslangan u yoki bu tasnifga tegishli bo‘ladi. Ularning samaradorligi tug‘risida fikr yuritilganda o‘qitish jarayonini izga soladigan va uni maqsadli yo‘naltira oladigan, o‘qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyatini ta’minlash asosida jamiyat tomonidan maktab (kasb-xunar kolleji, oliy o‘quv yurtlari) oldiga qo‘yilayotgan maqsadga nechog‘lik erishilayotganini ko‘zda tutish kerak. O‘qitish metodlari bevosita ta’lim amaliyoti bilan aloqador konsepsiyadir. “O‘qitish metodi dastlab pedagog ongida faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida mavjud bo‘ladi. Bu loyixa amalyayotga o‘qituvchi va talaba faoliyatlarining o‘zaro tutashuvi tekisligida, o‘qitish va o‘qishning aniq harakatlar, amallar yoki metodlar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metodning boshqa namoyon bo‘lish shakllari yuq, sababi umumiy holda o‘qitish metodi o‘zida faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi”.

Quyida biz JTN va U fanining ba’zi mavzulariga masalan jismoniy madaniyat nazariyasiga kirish, jismoniy tarbiyaning metodik tamoyillari, jismoniy tarbiyada qo‘llaniladigan metodlar mavzularida «Ajurli arra» metodini qo‘llashni tavsiya etamiz.

Namuna sifatida «**Ajurli arra**» o‘yinini ko‘rib chiqamiz. «Ajurli arra» mstodi to‘zilish jixatidan o‘zida quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Topshiriqni bo‘lish: Topshiriq va matnli materiallar bir nechta asosiy qismlarga (yoki mavzularga) qirqiladi.
2. Birlamchi guruhlar. Har bir guruh a’zolari qirqilgan mavzuni olishadi va ekspertga aylanadilar.
3. Ekspert guruhlari. Qo‘lida bir mavzuga oid o‘quv topshiriqlari mavjud bo‘lgan talabalar mavzuni muhokama qilish, boshqalarga o‘rgatish rejasini egallash uchun ekspert guruhga birlashadilar.
4. Birlamchi guruhlar. Talabalar o‘zlarining birlamchi guruhlariga qaytadilar va ekspert guruxlarda o‘rganganlarini o‘qitishadi.

Izoh: «Ajurli arra» mohiyatiga aniqlik kiritish uchun ba’zi bir tavsiyalarni yoritish lozim.

1. O‘kitish jarayoniga bu tarzda yondoshilganda talabalarning hamkorlikda ishlashiga va qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotlarni o‘zlashtirishlariga imkon tug‘iladi.

2. O‘kituvchi murakkab mazmunli mavzular bo‘yicha talabalarni darsga tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga muljallangan alohida axborotli paket tayyorlaydi. Unda darslikdan, qo‘shimcha tarzda gazeta, jurnallardan ma’lumotlar bo‘lishi kerak.

3. Xar bir talaba 2 guruh tarkibida ishtirok etadi: dastlab «o‘z uyi» (birlamchi) guruhiga, keyin esa «ekspert» guruhiga birlashib, o‘quv elementlarini mustaqil o‘rganishadi. Ekspert guruhini tezda tahlil etish uchun talabalar olgan axborotli paketlarda xar bir mavzuga oid ma’lumotlar bir xil rangdagi qog‘ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog‘ozning biror bir burchagi bo‘yalgani ma’qul.

4. Har bir guruxda 3 tadan 5 tagacha kishi (talabalar soniga karab) bo‘lishi mumkin. Har bir talaba «o‘z uyi»dagilarni va kayta uchrashish joyini aniklab olishi kerak.

5. O‘qituvchi talabalarni «rangli» topshiriklar asosida guruhga birlashishini taklif etadi va ular alohida mavzular bo‘yicha ekspertga aylanadi. Misol uchun, «qizil»larni, «ko‘k»larni sinf xonasining belgilangan burchagida uchrashishi belgilanadi. Har bir ekspert guruxda 3 tadan kam talaba bo‘lmasligi kerak.

6. Guruxlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli xil materiallar to‘plamini olishlari va ularni o‘qishi, muhokama qilishi, aynan shu axborotlar bo‘yicha ekspertga aylanishi lozim. O‘kuv materiallari bo‘yicha «ekspert» bo‘lishi uchun talabalarda vaqt yetarli bo‘lishi kerak. Shuning uchun agar materiallar murakkab va katta bo‘lsa, ehtimol, bir dars to‘liq talab qilinadi.

7. Talabalarga ko‘yidagicha topshiriklar beriladi:

-paketdagi materiallarni qunt bilan o‘rganing va muhokama kiling;

-bir-biringizdan so‘rang va o‘quv materiallarini har biringiz tushunib olganingizga ishonch hosil qiling;

-o‘z «uyingiz» guruhini o‘qitish zarurligipi hisobga olib materialning muxim o‘quv elementlariga e’tiborni qarating.

8. Talabalarning o‘z «uylariga» qaytishlari iltimos qilinadi. Xar biri o‘z «uyi» - guruhiga axborot beradi. Shaksiz, “uy” guruhida ekspert guruhlaridan bittadan talaba bo‘lishi shart. Talaba o‘rganib kelgan materiallarni o‘z guruhi talabalariga o‘rgatish javobgarligini bo‘yniga olishi lozim. Bu jarayon o‘quv materialining o‘zlashtirish zarurligiga qarab yana bir soat davom etishi mumkin.

Xulosa: Talabalarni interaktiv metodlarni seminar mashg‘ulotlarida qo‘llanilishi, dastur asosida ketma-ket foydalanish tizimini ishlab chiqishga yordam beradi; seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlanma ishlab chiqildi.

Seminar jarayonida talabalarda o‘z fikrlarini erkin ifodalashlari, axborotlarni tanqidiy qabul qilishlari, jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllantiriladi. Talabalar

o‘z mavqeini mustahkamlashga, fikrlarini himoya qilishga o‘rganadilar, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fanini chuqur o‘rganishlari va dars o‘tishning yangi texnologiyalarini o‘ziga xos xususiyatlarini chuqur anglaydilar. Bu ularning mustaqil va ijodiy ishlarida o‘z aksini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Professionalno-prikladnaya fizicheskaya podgotovka (uchebno-metodicheskoe posobie dlya prepodavateley vuzov), M., “Vыsshaya shkola”. 1962.
3. Raevskiy R.T. Professionalno-prikladnaya fizicheskaya podgotovka studentov texnicheskix vuzov. M.: “Vыsshaya shkola”. 1985.

KASBIY-AMALIY JISMONIY TAYYORGARLIKNING ZARURLIGI VA UNDA XAL QILINADIGAN VAZIFALAR

Gaffarov.S
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Jismoniy mashqlar bilan tizimli shug‘ullanish yo‘li orqali o‘zlashtiriladigan kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik vazifalari yoritilgan.*

Abstract. *The article conciders objectives of professionally applied physical training, mastered through systematic physical exercise, are outlined.*

Аннотация. *Изложены задачи профессионално-прикладной физической подготовки, которые усваивается систематическими занятиями физическими упражнениями*

O‘quv jarayoni dinamikasi, yuklamalar taqsimlanishining notekisligi va imtihonlar davridagi jadallashuvi, birgalikda – talaba organizmi uchun o‘ziga xos sinov hisoblanadi. Jismoniy va psixiemotsional yuklamalarga nisbatan funksional barqarorlik pasayadi, gipodinamikaning, mehnat va dam olish, uyqu va ovqatlanish rejimlarining buzilishlari, zararli odatlar tufayli organizm intoksikatsiyasining negativ ta’siri ortadi, umumiy toliqish holati yuzaga keladi va u, ortiqcha toliqishga olib keladi.

Aqliy ishchanlik qobiliyati o‘zgarishlarining pozitiv xarakteri, har bir individ uchun jismoniy madaniyat vositalarini, ta’sir usullari va rejimlarini adekvat qo‘llash paytida, ko‘proq erishiladi. O‘quv-mehnat faoliyatida talabalarda yuqori darajadagi ishchanlik qobiliyatlari holatini ta’minlaydigan jismoniy madaniyat vositalarini o‘quv jarayoniga samarali joriy qilishning umumlashtirilgan tavsiflari, quyidagilar hisoblanadi: o‘quv mehnatida ishchanlik qobiliyatini uzoq muddat saqlash; tezlashtirilgan ishga kirishish; tezkor tiklanish qobiliyati; o‘quv mehnatining har xil turlarida asosiy yuklamani ko‘taradigan funksiyalar variabelligining kichkina bщlishi; buzib yuboruvchi omillarga nisbatan hissiy va

irodaviy barqarorlik, hissiy fonning o‘rtacha ifodalanishi; ish birligiga nisbatan o‘quv mehnatining fiziologik qiymatini pasayishi.

Organizmga har xil turdagi siklik mashqlarning ta’sir qilish xususiyatlarini bilish, sog‘lomlashtiruvchi dasturlarni odam salomatligining holati, yoshi va jismoniy tayyorgarligi darajasiga bog‘liq holda, to‘g‘ri tanlash imkonini beradi.

Kasbiy mehnat turlarining ko‘pchilik natijalari, organizmning funksional imkoniyatlariga nisbatan har xil omillar bilan bir qatorda, ishlab chiqarish faoliyati va uning sharoitlari tomonidan qo‘yiladigan talablarga ma’lum bir mazmunda adekvat bo‘lgan, jismoniy mashqlar bilan tizimli shug‘ullanish yo‘li orqali o‘zlashtiriladigan maxsus jismoniy tayyorgarlikka ham ancha darajada bog‘liq bo‘ladi. Ushbu bog‘liqlik, individning hayot faoliyati jarayonidagi jismoniy va umumiy rivojlanishining har xil tomonlarini o‘zaro harakat qonuniyatlari (xususan, adaptatsion samaralarni u yoki bu faoliyat turlariga surunkali adaptatsiyasi, yaxshi trenirovka qilinganlikni ko‘chirish, trenirovka va kasbni o‘zlashtirish jarayonida o‘zlashtiriladigan va takomillashtiriladigan harakat malakalari va ko‘nikmalarini o‘zaro harakat qilishlari) to‘g‘risidagi chuqurlashib borayotgan tasavvurlar ostida ilmiy tushunchaga ega bo‘lmoqda. Ushbu qonuniyatlarni amaliy qo‘llash tajribasi, o‘z vaqtida, jismoniy tarbiyaning alohida turini, ya’ni kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni (qisqartirilgan holda – KAJT) yuzaga kelishiga olib keldi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk davridan boshlab, har tomonlama barkamol avlod tarbiyasiga diqqat-e’tibor qaratildi. Shu tufayli, kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikni jismoniy madaniyatning ixtisoslikka qaratilgan yo‘nalishi va turi sifatida shakllanishi boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga binoan, jismoniy tarbiyani nafaqat mehnatni ratsionallashtirish va mutaxassis kadrlarni tayyorlash tizimiga joriy qilish, balki mehnatkashlar salomatligini to‘laqonli rivojlanishi va mustahkamlanishiga ko‘maklashish maqsadida ham davlat va ham ijtimoiy chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Mos ravishdagi sohalarda ijobiy amaliy tajriba va ilmiy-tadqiqot ma’lumotlarining to‘planishi bilan jismoniy madaniyatning butun bir ixtisoslashgan sohasi – kasbiy-amaliy jismoniy madaniyat, uning omillaridan foydalanishning pedagogik yo‘nalgan jarayoni esa, o‘sib kelayotgan avlodni va mutaxassis kadrlarni ta’lim-tarbiyasining umumiy tizimida (KAJT ko‘rinishida) muxim o‘rin egalladi. Hozirgi vaqtda, KAJT bizning mamlakatimizda, avvalam bor, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’lim muassasalarida, oliy ta’lim muassasalarida jismoniy madaniyat va sport fanining majburiy bo‘limlaridan biri sifatida hamda mehnatning xarakteri va shartlari bo‘yicha zarur bo‘lganda, mehnatkashlarning asosiy, kasbiy faoliyati davrida mehnatni ilmiy tashkil qilish tizimida amalga oshirilmoqda.

KAJT ni yanada takomillashtirish va ta’lim tizimiga va kasbiy mehnat sohasiga joriy qilish, asosan quyidagi sabablar va holatlar bilan belgilanadi:

1. Zamonaviy amaliy kasblarni o‘zlashtirishga sarflanadigan vaqt va unda kasbiy mahoratga erishish, organizmning tabiiy asosga ega bo‘lgan funksional imkoniyatlari darajasiga, individning jismoniy qobiliyatlari darajasiga, u o‘zlashtirgan harakat malakalari va ko‘nikmalarining xilma xilligi va takomilligiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda;
2. Kasbiy mehnat turlari ko‘pchiligining unumdorligi, zamonaviy moddiy ishlab chiqarishda mushak kuchlanishlari ulushini progressiv ravishda kamayishiga qaramasdan, mehnat operatsiyalari ijrochilarining jismoniy qobiliyatlariga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda, bu, nafaqat jismoniy mehnat sohasida, balki aralash (aqliy-harakatli) xarakterdagi mehnat faoliyatining bir qator turlarida ham, masalan, mashina moslamalarini sozlovchilarda, quruvchilarda va hokazolarda mavjud; umuman olganda normal jismoniy holat (usiz, salomatlik va samarali funksiya qilish aqlga sig‘maydi), har qanday kasbiy mehnatning barqaror yuqori unumdorligining muxim zamini bo‘lib qolmoqda;
3. Kasbiy mehnatning ma’lum bir turlarini va ularning shartlarini mehnatkashlarning jismoniy holatlariga mumkin bo‘lgan negativ ta’sirini oldini olish muammosi saqlanib qolmoqda; ushbu muammo mehnatning mazmuni va shartlarini optimallashtirishning ko‘pchilik vositalari, jumladan ijtimoiy, ilmiy-texnika va gigiena vositalari yordamida xal qilinishiga qaramasdan, ularning ichida kasbiy-amaliy jismoniy madaniyat, jumladan KAJT muxim rol o‘ynashi lozim;
4. Umumiy ijtimoiy va ilmiy-texnik progressning istiqbolli an’analari odamzotni o‘zining faoliyat qobiilyatlarini doimo takomillashtirish zaruratidan ozod qilmaydi, ularning rivojlanishi esa, tabiiy sabablarga ko‘ra, individning jismoniy takomillashuvidan ajralmas bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Professionalno-prikladnaya fizicheskaya podgotovka (uchebno-metodicheskoe posobie dlya prepodavateley vuzov), M., “Vыsshaya shkola”. 1962.
2. Raevskiy R.T. Professionalno-prikladnaya fizicheskaya podgotovka studentov politexnicheskogo instituta (metodicheskaya razrabotka dlya studentov). Odessa, 1966.
3. Raevskiy R.T. Professionalno-prikladnaya fizicheskaya podgotovka studentov texnicheskix vuzov. M.: “Vыsshaya shkola”. 1985.

DUAL TA’LIMDA SHAXS VA UNING JAMIYATDAGI KASBIY FAOLLIGINING AHAMIYATI

dotsent, D.S.Maxmitova
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat institute

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxs va uning jamiyatdagi kasbiy faolligining dolzarbligi yoritib o’tilgan.*

Аннотация. *В статье освещена личность и актуальность его активности в профессиональной деятельности.*

Abstract. *The article highlights the personality and relevance of his activity in professional activities.*

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o`z-o`zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo`lgan eng muxim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir. Faollik (lotincha «actus» - harakat, «activus» - faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning xayotdagi barcha hatti harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyalardir. Bu- usha oddiy qo`limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog`lik elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg`onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo`lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o`z-o`zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashiga aloqador sifatlari orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:
A. Tashqi faollik- bu tashqaridan o`z ichki istak-xoxishlarimiz ta’sirida bevosita qurish, qayd qilish mumkin bo`lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik.

B. Ichki faollik – bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o`zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko`rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko`rsatuvchi omillarni o`z ichiga oladi.

Misol tariqasida xayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayrilikdan so`ng ona o`z farzandi visoliga yetdi. Tashqi faolllikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko`zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko`rsak, ichki faollik- o`sha ko`z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog`inchning asl sabablari (ayrilik muddati, nochorlik tufayli ayrilik kabi yashirin motivlar ta’siri), ko`rib idrok qilgandagi o`zaro bir-birlariga intilishni ta’minlovchi ichki, bir qarashda ko`z bilan ilg`ab bo`lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo‘ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvoxi bo‘lsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir aniq shaxsga uning extiyojlariga boglik bo‘lib

tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib,shaxsning jamiyat bilan bo‘ladigan murakkab va o`zaro munosabatlarining oqibati xisoblanadi

Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulk» tushunchalari bilan chambarchas bog`lik bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o`zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo`lmay, ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya’ni, faoliyat- inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman extiyojlardan kelib chikadigan, hamda tashki olamni va o`z-o`zini uzgartirish va takomillashtirishga karatilgan uziga xos faollik shaklidir. Bu-yosh bolaning real predmetlar moxiyatini o`z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o`yin faoliyati, bu-moddiy ne‘matlar yaratishga qaratilagn mehnat faoliyati, bu-yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, bu-rekordlarni kupaytirishga karatilgan sportchining maxorati va shunga o`xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg`ul bo‘lib turadi.

Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar. Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko`rinishlarda namoyon bo‘ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma’lum narsaga – predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o`zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, ma’ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo‘lib, u avvalo usha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o`zgarishlar qilish orqali, bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo‘ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yunaltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o`rab turgan tashki muxit va undagi narsa va xodisalarni o`zgartirishga qaratilgan faoliyat bulsa , ichki faoliyat – birinchi navbatda aqliy faoliyat bo‘lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashki faoliyat ro`y beradi, tajriba orttirib borilgan sari sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo‘lsak, bola dastlabki so‘zlarni qattik tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ishida o`zicha gapirishga o`rganib, o`ylaydigan, muloxaza yuritadigan, o`z oldiga maqsad va rejalar qo`yadigan bo‘lib boradi.

Jismoniy va aqliy harakatlar. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi muvofiklik nuqtai nazaridan ongi tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy–motor harakatlar mujassam bo‘ladi .Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz?. Agar uylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo`lgani bilan uning peshonalari, ko`zlari, hattoki, tana va qo`l harakatlari juda muxim va jiddiy fikr xususida bir tuxtamga kelolmayotganidan, yoki yangi

fikrni topib, undan mamnuniyat xis qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan – misol uchun, uzum kuchatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog`bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar-shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli – tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham uz ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko`rinishlarda bulishi mumkin: *pertseptiv*-ya’ni bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va xodisalar to`g`risida yaxlit obraz shakllanadi; *mnemik faoliyat* – narsa va xodisalarning moxiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog`lik murakkab faoliyat turi;

fikrlash faoliyati - aql, faxm – farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga karatilgan faoliyat;

imajitiv – («image»-obraz suzidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida xozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashki harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo`lishi mumkin [3].

Xulosa shundan iboratki, har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni maxorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo’lgan ma’lumotlarni eslab qolish va kerak bo’lganda yana esga tushurish orqali uni bajarish bo’lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashki (predmetga yunaltirishgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bogliq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. Kasbiy kompetentlik. (Darslik). T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 324 b.
2. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools. 2004 year.
3. Effective curricula for at-risk students in vocational education: a study of teachers’ practice Fix, G.M., Ritzen, H.T.M., Pieters, J.M., Kuiper, W.A.J.M.

ИННОВАЦИЯ - ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ ФАОЛИЯТИНИНГ БОШ МАНБАИ

доц. Д.О. Ортиқова
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Annotatsiya. *Maqolada ilmiy-tadqiqot faoliyati to‘g‘risidagi zamonaviy qarashlar, insonning yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlar yaratishga yo‘naltirilgan innovatsion faoliyat usullari bayon etilgan. Shuningdek unda ijodning maxsus shakli bo‘lgan ilmiy ijod ham o‘ziga xos innovatsion xarakterga ega ekanligi ta’kidlangan.*

Аннотация. *В статье излагается современные взгляды научно-исследовательскую деятельность, методы инновационной деятельности в создании новых материально-духовных ценностей. Раскрыто понятие научное творчество обладающее своеобразным характером.*

Abstract. *In article it is stated modern views research activity, methods of innovative activity in creation new it is material-cultural wealth. The concept scientific creativity possessing original character is opened.*

Ҳозирда инновацияга илмий-тадқиқот фаолиятининг бош манбаи сифатида қаралмоқда. Маълумки, инновация мураккаб ижтимоий-маданий феномен. Инновация ижтимоий-маданий ҳодиса сифатида маданиятнинг барча тенденцияларини ўзида мужассамлаштиради. Шунингдек, инновация янгиликка йўналтирилган феномен сифатида ўзи билан маданият келажагини белгилаб берадиган эвристик ғояларга асосланади.

Илмий-тадқиқот фаолиятидаги инновацияларга махсус тўхталадиган бўлсак, уларсиз илмий тадқиқотларни тасаввур қилиш мумкин эмас, чунки улар такрорланмайдиган ҳодисалар сифатида намоён бўлади. Шу маънода, уларнинг сабаблари етарли даражада аниқланмаган бўлиб, бирор нима учун эмас, ҳар доим ҳам эмас, катта қисми бўйича ҳам эмас, бирор қонун бўйича ҳам эмас, фақатгина уларнинг эвристик хусусиятидан келиб чиқиб баҳолаш мумкин. Шунинг учун ҳам У.Уевелл: “Олдинги ҳақиқатлар қувилмайди, рад қилинмайди, балки кенгайтирилади ва ҳар бир фан тарихи – ҳақиқатдан новацион характерга эгадир” [1], деб ёзади. Бироқ Дюгел тахминича, фан бўш жойда пайдо бўлмаган кўп ҳолларда янги илмий ғоя, албатта, ўз манбасига эга бўлган, яъни фандаги ҳар бир юксалиш ундаги анъанавий илмий ғоялар билан бир қаторда янгидан янги инновациялар ва новациялар асосида босқичма-босқич амалга оширилган.

Умуман олганда, инновация билан илмий-ижодий фаолият асосида қўлга киритилган ютуқларни бироз ўзгартириш мумкин. Аммо уларни мутлақо рад қилиб ҳам бўлмайди, яъни турли доирадаги инновация ва новациялар асосида янги гипотезалар пайдо бўлади. Аммо биз фан ривожида секин ва кетма-кет ўзгаришлар бўлганлигини ҳам инкор қилолмаймиз.

Дарҳақиқат, кўпгина фан ютуқлари улардан олдин мавжуд бўлган назария ёки гипотезаларга таянмаган. Бу жараён айниқса “вақтидан илгари” пайдо бўлган илмий кашфиётларга тааллуқлидир.

Инновация илмий-тадқиқот фаолиятининг мавжуд шакл ва усулларини янгилашга, уларни амалга ошириш учун янги мақсад ва воситалар яратишга қаратилган парадигмал фаолиятдир. “У олимнинг бутун салоҳияти ривожланиши, ҳар қандай, ҳатто кутилмаган ҳолатларга ҳам тайёр туриши, янги вазиятларга тез мослаша олиши учун ҳам муҳим шарт-шароит яратиб беради” [2].

Илмий-тадқиқот фаолияти тўғрисидаги замонавий қарашларда кўпроқ унинг инновацион компонентларига алоҳида эътибор берилмоқда. Шунинг учун ҳам ҳозирда ижодий фаолият деганда, инсоннинг янги моддий ва маънавий қадриятлар яратишга қаратилган ва ижтимоий аҳамиятга йўналтирилган инновацион фаолият усули тушунилмоқда. Айни шу маънода, ижоднинг махсус шакли бўлган илмий ижод ҳам ўзига хос инновацион характерга эга. Унинг асосий вазифаси эса ҳодисаларнинг реал имкониятлари ва предметларига янгилик киритиш орқали намоён бўлади.

Ҳозирги даврда республикамизда илмий-тадқиқот фаолиятининг ривожланиш ҳолати ва ундаги структуравий ўзгаришлар инновацион фаолият билан чамбарчас боғлиқ. Айниқса, фаннинг ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларига янгилик киритишда инновацияларнинг ўрни беқиёс ҳисобланади. Бу ҳар йил ўтказилаётган инновацион ғоя ва технологиялар ярмаркасида иштирок этаётган ишланмалар тақдимотида ўз ифодасини топмоқда. Ш боисдан ҳам мамлакатимизда фан, техника тараққиётини таъминлаш мақсадида инновацион муҳитни шакллантириш ҳамда доимий равишда эвристик фаолиятни рағбатлантириб бориш муҳимдир.

Ўз илмий янгиликлари асосида новатор шу пайтгача мавжуд бўлган назарияларни тубдан ўзгартириб юборади ва асосий вазифаси эса бундай янги ғояларни амалий ҳаётга татбиқ этишдан иборат бўлади. Бунда**, у:**

биринчидан, ўз ихтиролари ёки янги ғояларини амалга ошириш учун барча тўсиқларни енгиб ўтишга ҳаракат қилади;

иккинчидан, ўзи фанга олиб кирган янгиликлардан бошқа олимлар ҳам фойдаланишлари учун имкон яратади;

учинчидан, самарасиз илмий ғоялардан воз кечишга ундайди;

тўртинчидан, инновацион ғоялар ва шу кунгача мавжуд бўлган конструктив ғоялар билан мутаносиб ривожланиши мумкинлигига ундайди.

Илмий-тадқиқот фаолиятида инновацияларнинг жорий қилиниши замонавий ютуқлардан фойдаланишга кенг имконият яратади. Илмий-тадқиқот фаолиятига инновацион ёндашув янги кашфиётлар мазмуни, таркиби ва таснифини текшириш, натижаларини таҳлил қилиш имконини беради. Инновацион асосга эга бўлган илмий-тадқиқот фаолиятда олим ўзи

тадқиқ этаётган объектнинг микроструктурасини ўрганиб олиш билан бир қаторда унга янгилик киритиш билан машғул бўлади. Бу ҳолатда янгилик яратилиши унинг ижро этилиши билан узвий боғлиқ бўлади. Мазкур жараён фанда илмий-ижодий фаолиятдаги “Янгилик босқичи” деб аталади.

Эвристик асосга эга бўлган илмий-тадқиқот фаолиятида бирон-бир янги ғоянинг кашф этилиши вақти алоҳида аҳамият касб этади. Бу жараёнда ғоялар мустаҳкамланиб боради. Натижада эса, бу янги ғояларнинг тарқалиши тезлашиб, уларнинг янги соҳаларга диффузияланиб (қўшилиб) кетиш ҳодисаси юз беради. “Бундай фаолиятнинг энг эътиборли жиҳати шундан иборатки, унда янги самарали ғоя ёки парадигмаларнинг пайдо бўлиши ёки унинг янада янги самарасига ўрин алмашиши билан якунланади” [3].

Хулоса шуки:

биринчидан, илмий-ижодий фаолиятнинг инновацион ва новацион структуралари онгнинг шундай ишлашини таъминлайдики, бунда инсонга ўз ҳаёти мақсадлари, усуллари ва шароитларини мувофиқлаштириш мумкин бўлади. Бундай илмий-ижодий фаолият олимнинг келажакнинг мос илмий стратегиясини белгилаш, баҳолаш ва танлаб олишнинг турли имкониятларини ва янги технологиялар, тушунчалар, гипотезаларни апробация қилишига ёрдам беради. Инновация ва новацияларнинг конструктив жиҳатлари алоҳида рол ўйнайди. Натижада келажакка танлаб олинган илмий лойиҳа рационалликка, самарадорликка, оптималликка экспертизадан ўтади.

иккинчидан, илмий-ижодий фаолиятда келажакда вужудга келиши мумкин бўлган муаммолар ва уларни инновацион асосларда ҳал қилишга туртки берувчи эвристик омиллар устувор ўринни эгаллайди. Илмий-ижодий фаолиятда инновацион ва новацион ўзгаришларнинг амал қилиш майдонига кўра, инсон фаолиятининг ва жамиятнинг ҳар бир жабҳасини қамраб олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Uevell U. Istoriya induktivni nauk. –SPb., 1867-1869. T. 1-3. – 48 s.
2. Kryuchkova S.E. Innovatsii i ix rol v sovremennom mire (Glava v kollektivnoy monografii: “Sinergetika - nelineynost - globalizm”. - –M.: Izd-vo MGTU “Stankin”, 2007.
3. Terkina A.V. Innovatsiya kak sotsiokulturniy fenomen. Avtoref. dis. na soiskanie uch. st. kand. fil. nauk. — M., 2006. - 22 s.

TASHKILOTDA BO’LAJAK MUHANDISLAR KASBIY MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

dots.PhD Mirxodjayeva D.B.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tashkilotda bo’lajak muhandislarning kasbiy motivasiyasini shakllantirish yoritib berilgan.*

Аннотация. *В статье освещены формирование профессиональной мотивации в организации у будущих инженеров.*

Abstract. *The article considers fostering professional motivation among future engineers within an organization.*

Motiv lotincha moveo so‘zi bo‘lib, — harakatlantiraman, harakat qilaman—so‘zma-so‘z “qo‘zg‘atish” degan ma’noni anglatadi. Motiv psixologiyada — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo‘luvchi omil, vaj.

Psixologiyada motiv insonning harakat va harakatlarining turtki beruvchi sababidir. Insonning faoliyatga bo'lgan dastlabki motivatsiyasi uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish istagidir. "Ehtiyojlar va his-tuyg'ular mexanizmlarida farq bor, garchi xulq-atvorning morfofiziologik tashkil etilishining to'liq doirasi ehtiyojlar va motivatsiyadan tashqari hissiyotlarni ham o'z ichiga oladi. Ehtiyoj hayot mulki sifatida ko'rinmaydi, balki ehtiyojni ifodalovchi organizmning haqiqiy ontologik holatidir. ma'lum o'zgarishlar uning tashuvchisi uchun, kuzatuvchi uchun emas, ya'ni u har doim o'zi uchun "ehtiyoj" bo'lib, boshqasi uchun "ehtiyoj" bo'ladi.Lekin tirik organizmning barcha ehtiyojlari uni faollik holatiga keltira olmaydi. ularni bartaraf etishga qaratilgan. Ehtiyoj - bu tirik organizmning bunday ehtiyoji, unga nisbatan uni aniqlash va yo'q qilish uchun maxsus mexanizmlar bilan qurollangan. Darhaqiqat, ehtiyoj har doim bir narsaga bo'lgan ehtiyoj bo'lib, psixologik darajada ehtiyojlar aqliy aks ettirish orqali va ikki yo'l bilan amalga oshiriladi.

Umuman yangi fikrlash funksionallik Shaxsning shakllanishi bilan yuzaga keladigan, uning hayotining ma'lum bir lahzasida eng dolzarb bo'lib chiqadigan ehtiyojlarga xizmat qiladi. Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitida bu qobiliyatlar ko'pincha, asosan, hayotiy ehtiyojlarni, birinchi navbatda, oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni qondirishga qaratilgan. Ham ma'naviy, ham biologik ehtiyojlar inson uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan qoniqishning minimal darajasiga va hayotiy bo'lmagan yuqori darajalarga, masalan, "estetik" darajalarga ega. Ikkinchisi,

aytganda, inson uchun hashamatdir, ular faqat hayotning eng qulay sharoitlarida paydo bo'ladi. Ammo insonning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga faqat biologik ehtiyojlar sezilarli yoki to'liq qondirilgandan keyingina ruxsat berishi mumkinligiga ishonish noto'g'ri bo'ladi. Minimal darajada, ikkalasi ham inson mavjudligi uchun mutlaqo zarur bo'lib tuyuladi. Lekin ularning substantiv roli, inson hayoti va faoliyatidagi vazifasi butunlay boshqacha. Yakuniy tahlilda ikkalasi ham inson faoliyatining miqyosi bo'yicha bir xil darajada muhimdir, ammo o'ziga xos sharoitlarga, vaziyatga qarab, bu potentsial darajada muhim ehtiyojlar aslida butunlay boshqacha tarzda namoyon bo'lishi mumkin: ba'zi hollarda ma'naviy ehtiyojlar boshqa yo'llar bilan namoyon bo'ladi. fonga o'tib, o'z o'rnini biologik, boshqalarida biologik o'rinni ma'naviylarga bo'shatib beradi va bu nafaqat tor situatsion doirada, balki hayotning keng ko'lamida, uzoq vaqt davomida kuzatilishi mumkin.Inson. borliq, umumiy ijtimoiy jihatda emas, balki psixologik jihatdan olingan, motivatsiya, moddiy va biologik ehtiyoj turlaridan biriga tenglashtirib bo'lmaydi va ikkinchisini birlamchi va hal qiluvchi deb hisoblaydi. alohida nerv shakllanishi bilan miya yarim korteksi. U murakkab tuzilishga va ikki tomonlama xarakterga ega. Bir tomondan, biologik ehtiyojlar, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ehtiyojlar ajralib turadi. Ushbu ikki darajaning kombinatsiyasi, aslida, insonning motivatsion sohasini tashkil qiladi.

Motivatsiya -bu insonni maqsadga erishish uchun faoliyatga undash jarayonidir. Motivatsiyaning inson o’zini tutishiga ta'siri ko’plab omillarga bog’liq, u individual holat va motivlar ta'sirida hamda inson bilan teskari aloqa ta'sirida o’zgarishi mumkin.

Motiv -bu insonning ma'lum bir harakatlarga undaydigan, uning ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlaridir.

Motivatsiya jarayonini to’rtta asosiy bosqichga ajratish mumkin:

-Ehtiyojning paydo bo’lishi (ochlik, chanqoqlik, boshqa insonga intilish, bilim olish istagi va h.k.)

-Ehtiyojlarni qondirish strategiyasini ishlab chiqish va yo’llarini qidirish (pitstsa sotib olish yoki kafeda tushlik qilish, qiziqib qolgan inson bilan tanishish yoki emotsiyalarini kamaytirish, OO’Yuga o’qishga kirish yoki mustaqil ta'lim bilan shug’ullanish)

-Faoliyat taktikasini belgilash va harakatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish (tez yoki sekin harakatlanish, vositalar topish, harakat yo’llarini belgilash, imkoniyatlarni baholash, qarorni tanlash va h.k.)

- Ehtiyojning qondirilishi va moddiy yoki ma'naviy mukofot olish.

Ehtiyojlar -organizm, shaxs va ijtimoiy guruhning hayotiy faoliyatini saqlash va rivojlantirish uchun ob'ektiv kerakli bo’lgan narsalarga zaruriyat. Ehtiyojlarni qondirishda rag’batlar katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Rag’batlar deb insonni harakatlantirishga undash yoki uning o’zini tutishi sababi tushuniladi[1].

Inson motivatsiyasi va motivlarini o'rganish Shaxsning aqliy rivojlanishi biologik va ijtimoiy o'rtasidagi juda murakkab va xilma-xil munosabatlarda sodir bo'ladi, u organik moyilliklarning munosabati va muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda amalga oshiriladigan shaxs faoliyati bilan belgilanadi. Inson faoliyatining tarixan shakllangan shakllariga kirgan holda, har qanday inson faoliyati ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlariga bo'ysunadi.

Motivatsiya nazariyalarining vujudga kelishi

XIX asrdagi mehnat sharoitlari: 12-14 soatlik ish kuni, 6 va 7 kunlik ish haftasi, tor sexlar va yomon xavfsizlik texnikasi, kam ish haqi, ishchilar xuquqiy himoyasining yo’qligi hozirgi kunda daxshatli bo’lib ko’rinadi. Shunga qaramay ish beruvchilar o’z xodimlari motivatsiyasi muammolariga deyarli duch kelmasdi. Qashshoqlik va ishsizlik shunchalik keng yoyilgan ediki, kishilar har qanday ishga rozi edilar. Bunday umumiy ahvolning ayrim istisnolaridan biri XIX asr boshidagi shotlandiyalik sanoatchi Robert Ouen misolidir. U zamonaviy biznesning rag’batlantirish tizimi kabi usulni birinchi bo’lib qo’lladi: Ouen o’z tekstil korxonasi xodimlarini “jonsiz mashinalar” ishlab chiqarish uskunalaridan farqli o’laroq “tirik mashinalar” deb hisoblagan va ularni “ishchi holatida” saqlash shunchalik muhim deb uqtirgan. O’sha vaqtda uning bu qarashlarini juda kam kishilar tushunganlar. Faqat XIX asr oxiriga kelib, sanoatchilar ijtimoiy kuchlar tazyiqi ostida o’z xodimlari motivatsiyasi bilan shug’ullanish kerakligi haqida o’ylay boshladilar. Shaxsdagi motivatsion jarayonlarni o'rganish, aslida, uning faoliyatidagi shaxsni o'rganishdir. Inson faoliyatining o'ziga xosligi shundaki, u doimo maqsadli bo'ladi. Maqsadlar qo'yish qobiliyati insonning aqlli mavjudot sifatidagi asosiy xususiyatlaridan biridir.

Ongning faol tomonini ifodalash va ko'pincha inson harakatlarining usuli va xarakterini aniqlash, inson o'z oldiga qo'ygan maqsadi xulq-atvorni tartibga solish jarayonlarining murakkab tuzilmasini bir butunga birlashtiradi, bu shaxs boshqa emas, balki ushbu harakatni amalga oshirishini belgilaydi. . Inson faoliyatining faoliyati nafaqat organizmning hayotiy ehtiyoji, balki individual so'rovlarni qondirish insonning o'zi ehtiyojlarini ham, uning ehtiyojlarini ham qondirishga qaratilgan muayyan harakatlarni bajarishga bog'liqligini anglash bilan belgilanadi. jamiyat.

Yarim asrdan ko'proq vaqt davomida G'arbda xulq-atvor motivatsiyasi muammosi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi, ular asosan uchta yo'nalish: bixeviorizm, psixoanaliz, gestalt psixologiyasi, shuningdek keyingi va zamonaviy modifikatsiyalar doirasida rivojlandi. bu oqimlardan. Ko'pgina xorijiy motivatsiya nazariyalari hayvonlar bilan tajribalarga asoslangan, shuning uchun ba'zi hollarda odamga to'g'ridan-to'g'ri ekstrapolyatsiya qilish mumkin emas. Shaxs psixologiyasiga, uning faoliyati va harakatlaridagi murakkab dinamik

o'zgarishlarga qiziqishning ortib borishi inson xatti-harakatlarining motivatsiyasini o'rganishni psixologiya fanining dolzarb vazifasiga aylantiradi. Shubhasiz, muammo bo'yicha mavjud nuqtai nazarlarni tanqidiy tekshirish va uni hal qilishda yangi yondashuvni izlash talab etiladi. Bu keyingi ma'ruzalar va seminarlarda muhokama qilinadi. Odamlar bir-birining motivlarini bilish qanchalik muhimligini hamma biladi, ayniqsa birgalikdagi faoliyatda. Biroq, shaxsning xatti-harakatlari va harakatlarining asoslarini aniqlash oddiy ish emas, ham ob'ektiv, ham sub'ektiv qiyinchiliklar bilan bog'liq. Insonning psixologik tuzilishini o'rganish quyidagi savollarga aniqlik kiritishni o'z ichiga oladi: Bu odamning ehtiyojlari nima?

Qanday vositalar bilan u o'z ehtiyojlarini qondirishni afzal ko'radi; Qanday holatlar yoki holatlar u yoki bu xatti-harakatni keltirib chiqaradi; Motivatsiyaga nima kuchliroq ta'sir qiladi - mavjud ehtiyojlar yoki burch, mas'uliyat hissi; Shaxsning yo'nalishi nima Psixologlar inson motivatsiyasi va motivlarini o'rganish uchun bir nechta yondashuvlarni ishlab chiqdilar: eksperiment, kuzatish, suhbat, so'rov, so'roq, faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish va boshqalar Bu usullarning barchasini uch guruhga bo'lish mumkin: Subyektni so'roq qilish u yoki bu shaklda amalga oshiriladi; 2. Xulq-atvor va uning sabablarini tashqi tomondan baholash (kuzatish usuli); 3. eksperimental usullar. Bundan tashqari, motivlarni o'rganishning uchta umumiy uslubiy yondashuvi mavjud: bilvosita, to'g'ridan-to'g'ri va proyektiv. Birinchi yondashuvda tadqiqot jarayoni sub'ektdan bunday harakatlarni bajarishni talab qiladi, ularning diagnostik maqsadi sub'ekt uchun hal etilmagan. Motivlarni o'rganishga bilvosita yondashish tartib-qoidalari ba'zan "ob'ektiv" testlar deb ataladi.

Bunday testlarning metodologiyasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan va bilvosita yondashuv protseduralari hali keng qo'llanilmagan. Ikkinchi, to'g'ridan-to'g'ri yondashuv sub'ektlarning o'z bayonotlariga asoslanadi.Ushbu protsedura jiddiy kamchiliklarga ega. Birinchidan, javoblar sub'ekt tomonidan buzib (ongsiz ravishda) yoki ataylab soxtalashtirilishi mumkin, ikkinchidan, javoblar ko'plab qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini baholashni talab qiladi. Motivlarni o'rganishning uchinchi yondashuvi - mavzuga polisemantik material taklif etiladi.

Ushbu noaniq vaziyatlar turli motivatsion sohalarga ega bo'lgan sub'ektlar tomonidan turlicha qabul qilinadi.Bu protseduralarning muhim kamchiliklari shundaki, sub'ektlarning bayonotlari eksperimentator tomonidan o'zboshimchalik bilan talqin qilinishi mumkin va ob'ektiv mezonlar mavjud emas. Xulq-atvor motivlarini o'rganish amaliyotida ikkinchi yondashuvni amalga oshiradigan anketalar va testlar eng ko'p foydalanishni topdi. Ushbu protsedura davomida olingan ma'lumotlar og'zaki ko'rsatkichlarga bevosita reaktsiya xarakteriga ega. Ko'rsatkichlar sifatida sub'ekt ijobiy yoki salbiy javob beradigan savollar yoki u to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblagan gaplar ishlatiladi. Mumkin bo'lgan javoblar odatda oldindan beriladi va faqat an'anaviy belgi bilan belgini talab qiladi. Biroq, motivlarni qurishning butun jarayonini kuzatish, uning muhim nuqtalarini aniqlash va shu bilan ma'lum bir harakat yoki harakat motivining tuzilishini aniqlashga imkon beradigan ideal usullar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Effective curricula for at-risk students in vocational education: a study of teachers’ practice Fix, G.M., Ritzen, H.T.M., Pieters, J.M., Kuiper, W.A.J.M.
2. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. Kasbiy kompetentlik. (Darslik). T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 324 b.
3. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools. 2004 year.

ДУАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ КАК ИННОВАЦИОННАЯ ДЕТЯЕЛЬНОСТЬ ДЛЯ ИНЖЕНЕРА-ТЕХНОЛОГА

студентка Д.Кадирова, доц.,PhD Д.Б.Мирходжаева
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dual ta’lim tizimida o’qitishning samarali tomonlari yoritib berilgan.*

Аннотация. *В статье освещены эффективность дуального обучения в высшем образовании.*

Abstract. *The article considers effectiveness of dualism learning for students in higher education.*

Дуальное обучение — это такой вид обучения, при котором теоретическая часть подготовки проходит на базе образовательной организации, а практическая — на рабочем местеПредприятия делают заказ образовательным учреждениям на конкретное количество специалистов, работодатели принимают участие в составлении учебной программы. Студенты проходят практику на предприятии без отрыва от учебы. В дуальной системе обучения усиливается и качественно меняется роль работодателя. На территории предприятия создаются учебные рабочие места для студентов, которые могут отличаться от обычного рабочего места наличием виртуального симуляционного оборудования. Важнейший компонент — наличие подготовленных кадров, которые выступают в качестве наставников[1].

Чтобы реализовать дуальные процессы обучения на практике, предприятие, которому нужны специалисты, заключает договор с образовательной организацией. Также заключается договор между студентом и работодателем и трёхсторонний договор между студентом, работодателем и образовательной организацией. В договорах прописываются обязанности всех сторон и финансовые условия.

Отбор студентов для практики при дуальном образовании проходит, как правило, на первом курсе (иногда позже) по итогам собеседований или

практических заданий. Критерии отбора утверждаются заранее предприятием и образовательной организацией и озвучиваются студентам и их родителям[2].

Для качественной организации дуального обучения необходимо, чтобы:

-теоретическая база была привязана к примерам реальной практики и практическим задачам,

-было обеспечено погружение студентов в профессиональную деятельность в период прохождения практики на производстве,

-количество времени на освоение теоретических знаний и практических навыков не превышало 40 часов в неделю,

-процентное соотношение теоретического и практического обучения при дуальной подготовке было таким: 20-25% — теория, 80-75% — практика.

Принято постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «О мерах по организации дуального образования в системе профессионального образования» № 163 от 29.03.2021 г.

С 2021/2022 учебного года в системе профессионального образования организуется **дуальное образование.**

-Для организации дуального образования хокимиятами и заинтересованными министерствами выявляется потребность в кадрах среднего звена и готовится предложение.

-Министерство высшего и среднего специального образования ежегодно **до 1 июля** определяет образовательные учреждения, в которых будет осуществляться подготовка кадров по дуальной системе.

Отобранные учебные заведения принимают обучающихся в соответствии с установленными квотами

-Образовательные учреждения заключают договора с организациями, нуждающимися в кадрах. Договор также составляется между организацией и учеником. При этом для ученика в организации выделяется определенная должность.

Студенты не менее 2-х дней в неделю будут проходить обучение, а в остальные дни – работать

- Студенты и ученики будет **начисляться плата** за дни его работы.

- подписание договора между образовательным учреждением и предприятиями;

- выявление потребностей в кадрах;

- организация направления кадров на обучение;

- создание учебных программ и их обновление согласно спросу на рынке труда;

- оценка квалификации кадров, прошедших дуальное обучение.

-Также была представлена концепция дуального образования, его преимущества как для студентов, так и для работодателей.

-Концепция дуальной системы профессионального образования базируется на усилении практической направленности при подготовке специалистов через синтезирование учебного и производственного процессов, что существенно увеличивает возможность профессиональной мобильности выпускников учебных учреждений. Дуальная система является действенным и гибким механизмом, позволяющим готовить высококвалифицированных специалистов, востребованных в современных условиях рыночной экономики предприятиями различных сфер деятельности. Ни одно образование не способно дать такое знание производства изнутри, как дуальное обучение, что делает его важной ступенькой на пути к успешной карьере.

Совету Министров Республики Каракалпакстан, хокимиятам областей и города Ташкента, заинтересованным министерствам и ведомствам поручено:

-до 1 марта каждого года регулярно изучать потребность в кадрах среднего звена по соответствующим профессиям и специальностям в экономике, определять соответствующие меры по созданию дуальной системы образования и трудоустройству выпускников;

-до 1 апреля каждого года вносить предложения в Министерство высшего и среднего специального образования по организациям, в которых организовано дуальное обучение.

Итог, Министерству высшего и среднего специального образования, а также ведомствам, имеющим образовательные учреждения, необходимо:

-обеспечить участие обучающихся в образовательном процессе в учреждениях профессионального образования не реже двух дней в неделю, а в оставшиеся рабочие дни – работу в соответствующих организациях с прохождением производственной практики;

-установить системный контроль за организацией процесса дуального обучения в учреждениях профессионального образования;

-организовать систематическое изучение международного опыта совершенствования дуального образования и усиления его методического обеспечения.

Учебные заведения заключают договоры с организациями, которым необходимы кадры. Контракт также заключается между организацией и студентом, при этом студенту предоставляется конкретная работа.

Литературы:

1. Effective curricula for at-risk students in vocational education: a study of teachers’ practice Fix, G.M., Ritzen, H.T.M., Pieters, J.M., Kuiper, W.A.J.M.
2. В.А.Сластенин и др. Педагогика: Учеб.пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов; Под ред. В.А.Сластенина. М.: Издательский центр "Академия", 2002. - 576 с.
3. Б.Т. Лихачев, Педагогика: Курс лекций / Учеб.пособие для студентов педагог, учеб. заведений и слушателей ИПК и ФПК. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: Юрайт-М, 2001.—607с.

ISHLAB CHIQARISH TALABLARIGA MOSLIK — KASBIY TAYYORGARLIKNING YETAKCHI OMILI: TO‘LIQ OMILLI TAJRIBA NATIJALARI

mustaqil tadqiqotchi Yarmatova Shahnozaxon Ilxomovna
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,

Annotatsiya. *Maqolada 2^3 to‘liq omilli tajriba asosida kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga ta’sir etuvchi uch omil o‘rganilgan (n=120, uch oliy ta’lim muassasasi). Beshta regressiya modelining barchasida zamonaviy fan va ishlab chiqarish talablariga moslik omili yetakchi ta’sir ko‘rsatkichi bo‘lib chiqdi. Natija dual ta’lim va sanoat bilan hamkorlikning empirik asosini beradi.*

Abstract. *This article considers compliance with production requirements as the leading factor of professional training: results of a full-factorial experiment*

Аннотация. *В статье рассмотрены соответствие требованиям производства как ведущий фактор профессиональной подготовки: результаты полнофакторного эксперимента*

Zamonaviy yengil sanoat va to‘qimachilik ishlab chiqarish sohasida kadrlarga qo‘yiladigan talablar jadallik bilan o‘zgarmoqda, ya’ni yangi materiallar, raqamli loyihalash tizimlari hamda sifat standartlari. An’anaviy, axborotni tayyor holda uzatuvchi metodika bu o‘zgarishlar ortidan ulgurmayapti. Buni bitiruvchilar ishlab chiqarishga chiqqanda ko‘rish mumkin: mato xossalarini hisobga olmasdan noto‘g‘ri bajarilgan ishlar, texnologik jarayonlarning buzilishidan kelib chiqadigan nuqsonli buyumlar, buyurtmachi talablari ish jarayonida o‘zgarganda yechim topa olmaslik shular jumlasidandir. Bular bilim yetishmasligidan emas, balki bilimni real ishlab chiqarish jarayonida qo‘llay olmaslikdan kelib chiqadi. Shu sababli savol tug‘iladi: kasbiy tayyorgarlik samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar orasida qaysi biri hal qiluvchi? Ushbu maqolada bu savolga to‘liq omilli tajriba natijalari asosida javob beriladi.

Tadqiqot metodikasi. Tajriba-sinov 2023–2026-yillarda uch oliy ta’lim muassasalari — Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, Guliston davlat universiteti hamda Farg‘ona davlat texnika universiteti negizida o‘tkazildi (n=120). Samaradorlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash uchun 2^3 to‘liq omilli tajriba rejasi (8 ta tajriba nuqtasi) qo‘llanildi. Kirish omillari: x_1 — o‘quv materialining ilmiy asoslanganligi va tizimliligi; x_2 — nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligi; x_3 — zamonaviy fan va ishlab chiqarish talablariga mosligi. Chiqish ko‘rsatkichlari sifatida kasbiy kompetensiyani baholashning besh mezoni olindi: Y_1 — bilimlar puxtaligi, Y_2 — amaliy qo‘llash, Y_3 — tahliliy fikrlash, Y_4 — ijodkorlik, Y_5 — refleksiya.

Natijalar. Har bir chiqish ko‘rsatkichi uchun regressiya tenglamasi qilindi (1-jadval). Modellarning ishonchliligi uch universitetda o‘tkazilgan takroriy tajribalar bilan ta’minlandi; R^2 qiymatlari 0,85–0,95 oralig‘ida.

1-jadval

Besh mezon bo‘yicha regressiya modellari va x_3 omilining ulushi

Mezon	Regressiya tenglamasi	x_3 koeff.	O‘rni
Y_1 — bilimlar puxtaligi	$70 + 2{,}5x_1 + 5{,}3x_3 + 0{,}3x_1x_2 - 1{,}5x_2x_3 + 3x_1x_2x_3$	5,3	1-o‘rin
Y_2 — amaliy qo‘llash	$60 + 3{,}625x_1 + 1{,}125x_2 + 5{,}125x_3 + 0{,}875x_1x_2 + 3{,}875x_1x_3 - 0{,}625x_2x_3$	5,125	1-o‘rin
Y_3 — tahliliy fikrlash	$67{,}5 + 1{,}5x_1 + 2{,}75x_2 + 6{,}5x_3 + 1{,}75x_1x_2 - 0{,}5x_1x_3$	6,5	1-o‘rin
Y_4 — ijodkorlik	$73{,}4 + 2{,}625x_1 + 1{,}375x_2 + 3{,}625x_3 + 0{,}125x_1x_2 + 2{,}125x_2x_3$	3,625	1-o‘rin
Y_5 — refleksiya	$62{,}9 + 2{,}125x_1 + 2{,}375x_3 - 0{,}625x_1x_2 + 1{,}625x_1x_3 + 1{,}375x_1x_2x_3$	2,375	1-o‘rin

Jadvaldan ko‘rinadiki, x_3 — zamonaviy fan va ishlab chiqarish talablariga moslik omili — beshta mezonning barchasida eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Eng yuqori qiymat tahliliy fikrlash (Y_3) uchun qayd etildi: koeffisiyent 6,5. Uchala omil bir vaqtda optimal darajada bo‘lganda (x_1=85%, x_2=80%, x_3=4,5) barcha chiqish ko‘rsatkichlari maksimal qiymatga yetadi: Y_1=83%, Y_2=78%, Y_3=81%, Y_4=87%, Y_5=75%.

Tahlil. Olingan natija mutaxassislik ta’limi uchun amaliy xulosa beradi: o‘quv materialini ilmiy jihatdan tizimlashtirish (x_1) va nazariya bilan amaliyotni bog‘lash (x_2) zarur, ammo yetarli emas, hal qiluvchi omil o‘quv jarayonining real ishlab chiqarish talablariga mosligidir. Tajriba-sinov davomida bu tamoyil quyidagicha amalga oshirildi. Talabalarga ekologik materiallardan sport kiyimlari ishlab chiqarish bo‘yicha to‘liq mahsulot sikli, ya’ni eskizdan tayyor buyumgacha bo‘lgan loyiha berildi. Guruh ichida real ishlab chiqarishdagi kabi vazifalar taqsimlandi (dizayner, materialshunos, texnolog, sifat nazoratchisi); raqamli prototip sanoatda qo‘llaniladigan dasturlarda (CorelDRAW, Clo 3D) yaratildi; yangi matoning tikuv jarayonidagi cho‘ziluvchanligi laboratoriya sharoitida sinovdan o‘tkazildi. Ishlab chiqilgan metodika uch oliy ta’lim muassasasi amaliyotiga joriy etilgan (TTESI — 10.01.2026, Guliston davlat universiteti — 04.03.2026, Farg‘ona davlat texnika universiteti — 15.01.2026). Amalda bu quyidagilarni anglatadi: o‘quv topshiriqlari real buyurtmachi talablaridan kelib chiqishi; qo‘llaniladigan dasturiy vositalar ishlab chiqarishda ishlatiladiganlari bilan bir xil bo‘lishi (CorelDRAW, Clo 3D); baholash mezonlari sanoat sifat

standartlariga tayanishi kerak. Aynan shu yondashuv dual ta’lim modelining pedagogik mazmunini tashkil etadi.

Shu bilan birga natijaning kamchiligini ham ko‘rsatish lozim: tajriba bitta yo‘nalish (tikuv buyumlari texnologiyasi) va uchta OTM doirasida o‘tkazilgan, shuning uchun xulosalarni boshqa muhandislik yo‘nalishlariga qo‘llashda ehtiyot bo‘lish kerak.

Xulosa. 2^3 to‘liq omilli tajriba natijalari bo‘yicha qurilgan beshta regressiya modelida zamonaviy fan va ishlab chiqarish talablariga moslik omili (x_3) barcha baholash mezonlari uchun yetakchi ta’sir ko‘rsatkichi sifatida aniqlandi. Bu oliy ta’lim muassasalarining sanoat bilan hamkorligini va dual ta’lim elementlarini kengaytirish zarurligining empirik asosidir. Keyingi tadqiqot yo‘nalishi modelni boshqa muhandislik yo‘nalishlarida sinovdan o‘tkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Biggs J. Enhancing Teaching through Constructive Alignment // Higher Education. — 1996. — Vol. 32(3). — P. 347–364.
2. Billett S. Learning through Work: Workplace Affordances and Individual Engagement // Journal of Workplace Learning. — 2001. — Vol. 13(5). — P. 209–214.
3. Gupta D. Apparel Production Management: A 21st Century Perspective // Textile Progress. — 2011. — Vol. 43(2). — P. 55–123.
4. Jonassen D. Designing Constructivist Learning Environments // Instructional Design Theories and Models. — Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 1999. — P. 215–239.
5. Merrill M.D. First Principles of Instruction. — San Francisco: Pfeiffer, 2013. — 304 p.
6. Mulder M. Competence-Based Vocational Education and Training in the Netherlands // Journal of Vocational Education and Training. — 2007. — Vol. 59(1). — P. 67–88.
7. Sari E. Teaching Apparel Technology with CAD-Based Systems // Education and Information Technologies. — 2020. — Vol. 25(2). — P. 1253–1268.
8. Shanmugasundaram O. Innovations in Clothing Technology Training // Indian Journal of Fibre & Textile Research. — 2019. — Vol. 44(1). — P. 91–97.
9. Selevko G.K. Sovremennye obrazovatel’nye texnologii. — Moskva: Narodnoye obrazovaniye, 2006. — 256 s.
10. Sidorenko Ye.V. Metody matematicheskoy obrabotki v psixologii. — Sankt-Peterburg: Rech, 2001. — 350 s.

TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIGI VA ULARNING MEHNAT BOZORIGA KIRIB BORISHI

prof., f.f.d. G.K. Masharipova
O‘zbekiston davlat jahon tillari univetsiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada dual ta’lim tizimi asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ularning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlovchi omillar tahlil qilindi.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы факторы, обеспечивающие совершенствование профессиональной подготовки студентов на основе системы дуального образования, развитие их практических навыков, а также успешную интеграцию выпускников на рынок труда.*

Abstract. *This article analyzes the factors that contribute to improving students’ professional training through the dual education system, developing their practical skills, and ensuring their successful integration into the labor market.*

Zamonaviy ishlab chiqarish o‘rta kasb-hunar ta’limi tizimidan uzoq muddatli moslashmasdan, aniq kasbiy vazifalarni samarali bajara oladigan mutaxassislarni talab qiladi. Bunday vaziyatda ta’lim muassasasi ish beruvchilar va boshqa ijtimoiy sheriklarning o‘zgaruvchan talablarini inobatga olgan holda mutaxassislar tayyorlash mazmunini zudlik bilan yangilashi va moslashtirishi kerak. Dinamik o‘zgaruvchan dunyo ta’lim tashkilotlaridan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va bo‘lajak mutaxassislarda zarur kasbiy vakolatlarni shakllantirish masalalariga tezkor javob berishni talab qiladi. Bugungi kunda dual kasb-hunar ta’limini tashkil etishda yaqqol namoyon bo‘layotgan ishlab chiqarish va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikni ta’minlash ushbu muammoni hal etish shartlaridan biridir. Kasbiy ta’limning dual shakli G.A. Fedotova tomonidan amaliy mashg’ulotlarni ishlab chiqarish va an’anaviy ta’lim muassasasida to‘liq bo‘lmagan ish kuni bilan birlashtirgan o‘quv jarayoni sifatida tavsiflangan [1].

Yu.N.Petrov kasbiy ta’limning dual tizimini uchta uslubiy asosning birligiga asoslangan ta’lim va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan o‘zaro ta’sirni nazarda tutadigan kasbiy ta’limni tashkil etishning innovatsion turi sifatida tushunadi: aksiologik (paritet). gumanistik va texnik texnologik qadriyatlar va maqsadlar), ontologik (kompetentlikka asoslangan yondashuv), texnologik (ijtimoiy va kasbiy munosabatlarni rivojlantirish)dan iborat, - deb hisoblaydi [2].

Pedagogikada «dual tizim» tushunchasi birinchi marta 1960-yillarning o‘rtalarida Germaniyada qo‘llanilgan. Kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishning yangi shaklini belgilashdan iborat. Kasbiy tayyorgarlikning zamonaviy dual tizimi ikki xil ta’lim va ishlab chiqarish muhitini – korxona va davlat kasb-hunar maktabini o‘z ichiga oladi, ular umumiy maqsad – o‘quvchilarni kasbiy tayyorlash

yo‘lida birgalikda harakat qiladilar. Kasb-hunar ta’limi va ishlab chiqarish maqsadlarining umumiyligi o‘qitish natijalari - zarur ijtimoiy-kasbiy xususiyatlarga ega bo‘lgan ma’lum bir malakaga ega bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashda yotadi. Har qanday korxonaning maqsadi foyda olish bilan birga kadrlar salohiyatini rivojlantirish, ta’lim muassasasining maqsadi esa talabga ega mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Maqsadni tushunish ta’limning an’anaviy kognitiv yo‘nalishini engib o‘tib, o‘quv jarayonini «natijadan» qurishga imkon beradi.

Kasb-hunar ta’limi sohasidagi hamkorlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- davlat majburiy ta’lim standartlari, namunaviy o‘quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqishda ish beruvchilarning ishtiroki;
- korxonalarning texnologik bazasidan foydalangan holda talabalarning kasbiy amaliyotini, maxsus fan o‘qituvchilari va mutaxassislarining amaliyotini tashkil etish;
- mutaxassislar tayyorlash va ularning bandligini ta’minlash masalalari bo‘yicha tomonlarning o‘zaro hamkorligini rivojlantirish;
- mehnat bozorini kasbiy malaka tavsiflari talablariga muvofiq yuqori malakali ishchilar va mutaxassislar bilan ta’minlash;
- iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida kasbiy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga jalb etish;
- talabalarni yakuniy attestatsiyadan o‘tkazishda mutaxassislar tayyorlash sifati ustidan nazoratni tashkil etishda ishtirok etish;
- ta’lim tashkilotlarini rivojlantirish uchun ish beruvchilarning moliyaviy resurslarini jalb qilish.

Ishlab chiqarish sektori va ta’lim o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni tashkil etish variantlaridan biri «fan - texnologiya - biznes» innovatsion zanjirida o‘qitish, o‘zaro ta’lim va o‘z-o‘zini o‘qitishni tashkil etishni o‘z ichiga olgan ta’lim-ishlab chiqarish klasterini rivojlantirish bo‘lishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) ma’lumotlariga ko‘ra, klaster o‘zaro ta’siri quyidagilar bilan tavsiflanadi: geografik kontsentratsiya (ta’lim muassasalari va korxonalarning hududiy o‘zaro bog’liqligi), ixtisoslashuv (ishtirokchilarni bog’laydigan faoliyatning ma’lum bir sohasi atrofida konsentratsiya), xo‘jalik subyektlarining ko‘pligi (korxonalar, jamoat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqalar), raqobat va hamkorlik (klaster a’zolari bo‘lgan tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy turlari sifatida), hamkorlikning uzoq muddatli istiqbollari, innovatsion jarayonda ishtirok etishdan iborat.

Eksperimental faoliyat jarayonida talabalarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda ish beruvchining ishtirok etishining turli shakllari o‘zini ijobiy ko‘rsatdi: ta’lim dasturlarini ekspert baholash; davlat attestatsiya komissiyasida ishlash; fanlararo kurslarni o‘qish; ishlab chiqarish va o‘quv amaliyotini tashkil etish; texnikumning moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish jarayonida

ishtirok etish; buyurtmachi korxonalarning texnikum bitiruvchilarining kasbiy bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablarini muvofiqlashtirishga qaratilgan ta’lim klasterining ilmiy-uslubiy seminarlarini tashkil etish; qo‘shimcha kasbiy ta’lim sektorini rivojlantirish, malaka oshirish va kasbiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish, o‘qituvchilar va ustalarning korxonalarda amaliyot o‘tashini tashkil etish; qo‘shma tadbirlar va konferentsiyalar, ish uchrashuvlari, ekskursiyalar o‘tkazish. Tadqiqotchilar dual ta’limni amalga oshirish mexanizmi yoki sharti sifatida ijtimoiy sheriklik haqida tez-tez gapirishlariga qaramay [3], bu munosabatlarning boshqa tomonini ham o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Dual ta’lim nazariy tayyorgarlik bilan mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etuvchi muhim pedagogik va iqtisodiy strategiyadir [4].Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar dastlab mehnatga emas, balki mutaxassislikka ega bo‘lishning ijtimoiy mavqei berishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarga moslashgan.

Xulosa. Dual ta’lim tizimi talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uzviy bog’lash orqali ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va mehnat bozori talablariga mos mutaxassis sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Ta’lim muassasalari hamda ish beruvchilar o‘rtasidagi samarali hamkorlik bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirish, kasbiy moslashuvini tezlashtirish va iqtisodiyotning malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, dual ta’limni takomillashtirish, amaliyot bazalarini kengaytirish va kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Федотова Г.А. Профессиональное образование и подготовка по рабочим профессиям в ФРГ. - Москва: ИРПО, 2001. - 72 с.

2. Петров Ю.Н. Дуальная система инженерно-педагогического образования - инновационная модель современного профессионального образования. Монография. - Н.Новгород: Изд-во ВГИПУ, 2009. - 280 с

3. Яковлева И.Л. Некоторые аспекты социального партнерства как важнейшего инструмента развития профессионального образования // Вестник Московской государственной академии делового администрирования. Серия: Экономика. 2011. №4. С.31-38.

4. Sierra-Martínez, S., et al. (2026). Mapping scientific production in dual higher education and dual vocational training: A systematic review with PRISMA. Review of Education. https://doi.org/10.1002/rev3.70165.

ГЛОБАЛ МАКОНДА АХБОРОТЛАШУВНИНГ ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ТИЗИМИГА ТАЪСИРИ

катта ўқитувчи Садикова Роза Исмаиловна
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Annotatsiya. *Ushbu maqolada globallashuv jarayonining ta’lim tizimiga ta’siri axborotlashtirishning ta’lim tizimidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *В статье рассмотрено влияние процесса глобализации на систему образования, роль информации в системе образования*

Abstract. *The article examines the impact of globalization on the education system and the role of information within that system.*

Инсониятнинг XXI асрга ва ўз тарихий тараққиётининг янги минг йиллигига қадам қўйиши ижтимоий билишда қисқа ва қамровли қилиб «глобализация»деб номланган мутлақо янги ижтимоий вазият билан боғлиқ. Глобализация - бу жамият тараққиётининг аграр (биринчи тўлқин) ва саноат (иккинчи тўлқин) босқичлари ўрнини эгаллаган учинчи тўлқин цивилизациясидир (Д.Белл, Э.Тоффлер, С.Хантингтон). Глобализация, ҳозирги замон постиндустриал ахборот жамияти шароитларида фан-техника тараққиётига бугунги кунда жамият экология, иқтисод, сиёсат, мафкура орқали кучли таъсир кўрсатмоқда, зотан, улар мазкур тараққиётни жадаллаштириши, унга рағбат бериши ёки, аксинча, уни сустлаштириши мумкин. Глобаллашаётган дунё зиддиятларининг комплекси ЮНЕСКО тақдим этган XXI аср учун таълим бўйича халқаро комиссиянинг «Таълим беркитилган хазина»деб номланган маърузасида қуйидагича ифодаланган: - универсал ва индивидуал ўртасидаги зиддият; - анъана ва замонавий тенденциялар ўртасидаги зиддият; - узоқ ва қисқа муддатли вазифалар ўртасидаги зиддият; - рақобат зарурияти ва имкониятлар тенглигига интилиш зарурияти ўртасидаги зиддият; - билимларнинг ривожи ва уларни инсон томонидан ўзлаштириш имкониятлари ўртасидаги зиддият; - маънавий ва моддий дунё ўртасидаги зиддият[1,58-59 б].

Юқорида ёрқин ифодаланган ижтимоий талаб мавжудлигига қарамасдан жаҳон таълим тизими нуфузли олимлар фикрича ҳозирда таълимнинг ҳажми ва сифатига тобора ошиб бораётган эҳтиёжни қондириш ҳолатида эмас. Ҳозирги замон компьютерлаштирилган, ахборот жамияти ўзининг асосий ресурси: бутун кишилик жамияти учун улкан қимматга эга бўлган объектив, сермазмун ахборотга асосланади. Компьютер инқилоби негизида ахборот жамиятининг вужудга келиши инсон ва техника нисбатини тубдан ўзгартиради, инсон ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқаришни тартибга солувчи, ўзига хос менежер вазифасини бажаради. Ахборот ҳозирги замон ахборот жамиятининг асосий ижтимоий манбаси, бош ижтимоий бойлигидир. Бу тушунча кибернетика, генетика, информатика сингари муайян фанларда, шунингдек, илмий билиш ва ижод

эпистемологиясида кенг қўлланади. Ахборот илмий тушунчаси ўзида у ёки бу ахборотни ташувчи хабарнинг мазмун жиҳатидан фарқ қилади ва унинг сон жиҳатини олади. Ахборотнинг сони тушунчасига фанда «хабарда айтилган ҳодисанинг эҳтимоллиги даражасига тескари пропорционал катталик»деб таъриф берилган. Ҳодисанинг эҳтимоллиги даражаси қанча юқори бўлса, хабарда унинг содир бўлиши ҳақида ахборот шунча кам бўлади ва аксинча.

Ахборот умумилмий тушунчаси дунё моддий бирлигининг муҳим жиҳатини - ҳодисаларнинг ахборотга бойлигини намоён этади. Бу илгари мутлақо ҳар хил бўлиб туюлган жараёнлар: техник алоқа каналлари орқали хабарларни узатиш, асаб системасининг фаолияти, компьютерларнинг ишлаши, бошқарув жараёнлари ва ҳоказоларга ягона нуқтаи назардан қараш имконини беради. Буларнинг барчаси ахборотни узатиш, сақлаш ва қайта ишлаш жараёнлари билан боғлиқ.

Кибернетика асосчиси математик Н.Винер «Кибернетика ва жамият»деб номланган машҳур асарида: «Ахборот - бу биз ташқи оламга мослашиш ва ўз тафаккуримизни унга мослаштириш жараёнида мазкур оламдан оладиган мазмуннинг ифодасидир»[2,121 б], -деб қайд этади. Бинобарин, ахборот - бу воқелик ҳодисаларининг ранг-баранглигини акс эттирувчи тизимнинг мақсадларига мувофиқ равишда ва мазкур мақсадларни амалга ошириш учун зарур йўсинда ифода этиш демакдир. Ахборот акс эттиришнинг мустақиллик, фаоллик, мақсадга мувофиқлик, танлаш, тартибга солиш ва функционаллик сингари жиҳатлари билан боғлиқ. Ҳозирги замон ижтимоий ҳаётида ахборотнинг қиммати шундаки, у моддий ишлаб чиқаришни ошириш, трансформация қилиш, ўзгартириш, модернизация қилиш, шунингдек бошқарув ва менежмент, амалиёт, сиёсат ва маънавий-маданият соҳаларида мақбул қарорлар қабул қилиш имконини беради. Ҳозирги замон постиндустриал жамиятида ахборот - бу инсониятнинг истеъмол қилишда камаймайдиган, балки кўпайиб борадиган стратегик ресурсидир.

Хулоса қилиб айтсак, ахборот жамияти ва унинг таркибий элементлари ўта мураккаб жўшқин ижтимоий тизимлардир. Тизимнинг яхлитлигини, унинг сифат жиҳатидан аниқлигини сақлаш, унинг фаолият кўрсатиши ва ривожланишини таъминлашни ахборот жараёнларисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Тизим қанча мураккаб, кўп компонентли ва кўп алоқали бўлса, ижтимоий бошқаришда фойдаланиладиган ахборот оқимларининг ҳажми ҳам шунча катта ва хилма-хил бўлади. Жамият тараққиёти якуний ҳисобда унинг моддий-техникавий, энергетик ва ахборот таъминотига боғлиқдир. Ахборот одамлар, ижтимоий гуруҳларнинг ўзаро алоқа боғлашига ёрдам беради, фан, маданият ва таълим савиясини кўтаради, маънавиятнинг ўсишига, маънавият ва демократиянинг устуворлигини таъминлашга кўмаклашади. Бундай жараёнда таълим шахсни ўрталаштиришга эмас, балки жаҳонда ўз миллий анъана ва қадриятларнинг соҳиби ва репрезенти бўлган дунёнинг эркин фуқаросини шакллантиришга қаратилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Дюпон И.А. Международные интеграционные процессы в образовании.-СП-б. : 2008. -С. 58-59.
2. Винер Н. Кибернетика и общество. -М.: 1958. С.121

TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

katta o‘qituvchi Abdujabbarova Malika
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida talabaning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki mustaqil ravishda axborot izlash, uni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va natijalarini baholash qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогические и методические основы развития компетенций самостоятельной работы студентов в высших образовательных учреждениях. В современных условиях образования особое значение приобретает не только усвоение студентами готовых знаний, но и формирование способности самостоятельно искать и анализировать информацию, решать проблемные ситуации, планировать собственную учебную деятельность и оценивать её результаты.*

Abstract. *This article examines the pedagogical and methodological foundations of developing students’ independent learning competencies in higher education. In modern education, it is important not only to acquire ready-made knowledge but also to develop students’ ability to search for and analyse information independently, solve problems, plan their learning activities and evaluate learning outcomes.*

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar talabaning ta’lim jarayonidagi rolini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Zamonaviy mutaxassis nafaqat o‘z sohasi bo‘yicha nazariy bilimlarga, balki yangi bilimlarni mustaqil egallash, axborotni izlash va tahlil qilish, muammolarni hal etish hamda o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi lozim. Shu sababli talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mustaqil ta’lim talabaning bilimlarni o‘qituvchi yordamida emas, balki o‘zining faol izlanishi, amaliy faoliyati va refleksiyasi asosida egallash jarayonidir. Zamonaviy tadqiqotlarda mustaqil ta’lim talabalarda o‘zini boshqarish, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va moslashuvchanlik kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishi qayd etilgan.

Mustaqil ishlash kompetensiyasini shakllantirish faqat talabalarga qo‘shimcha topshiriqlar berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon aniq maqsad qo‘yish, topshiriq mazmunini belgilash, zarur resurslarni tanlash, bajarish

jarayonini nazorat qilish, natijalarni baholash va refleksiya qilishni o‘z ichiga oluvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etilishi kerak.

Talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasi tushunchasi:

Talabaning mustaqil ishlash kompetensiyasi — uning ta’limiy va kasbiy vazifalarni o‘qituvchining bevosita yordamisiz yoki minimal ko‘magida mustaqil rejalashtirish, tashkil etish, bajarish, nazorat qilish va baholash qobiliyatidir.

Mazkur kompetensiya bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topadi.

Birinchi komponent — **motivatsion komponent**. Talabaning mustaqil bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, o‘qishga qiziqishi va belgilangan maqsadga erishishga intilishi ushbu komponentning asosini tashkil etadi.

Ikkinchi komponent — **kognitiv komponent**. Bunda talaba kerakli axborotni topish, saralash, tahlil qilish, umumlashtirish va mavjud bilimlari bilan bog‘lash qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Uchinchi komponent — **faoliyat komponenti**. Ushbu komponent mustaqil topshiriqni rejalashtirish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, zarur vositalardan foydalanish va belgilangan vazifani amaliy jihatdan bajarishni nazarda tutadi.

To‘rtinchi komponent — **refleksiv komponent**. Talaba o‘zining faoliyati, erishgan natijalari, kamchiliklari va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini mustaqil tahlil qiladi.

Beshinchi komponent — **raqamli-axborot komponenti** bo‘lib, zamonaviy elektron resurslar, ta’lim platformalari, elektron kutubxonalar va boshqa raqamli vositalardan maqsadli foydalanish qobiliyatini qamrab oladi.

Elektron ta’lim muhitiga oid tadqiqotlarda LMS, elektron portfolio, metakognitiv qo‘llab-quvvatlash va maqsadli teskari aloqa talabalarning o‘zini boshqarishi, topshiriqqa qat’iyligi va raqamli savodxonligini rivojlantirishga yordam berishi ko‘rsatilgan.

Mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari:

Talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishni bir necha bosqichda tashkil etish mumkin.

Birinchi bosqich — diagnostik bosqich. Unda talabalarning mavjud bilimlari, mustaqil ishlash ko‘nikmalari, motivatsiyasi va axborot bilan ishlash darajasi aniqlanadi. Buning uchun test, anketa, suhbat, kuzatish va amaliy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Ikkinchi bosqich — motivatsion-maqsadli bosqich. Bu bosqichda talabalarga mustaqil ishlashning ta’limiy va kasbiy ahamiyati tushuntiriladi. Talaba oldiga aniq, tushunarli va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlar qo‘yiladi.

Uchinchi bosqich — faoliyatli bosqich. Talabalar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajaradilar. Bunda reproduktiv topshiriqlardan asta-sekin muammoli, ijodiy va tadqiqot xarakteridagi topshiriqlarga o‘tiladi.

To‘rtinchi bosqich — refleksiv-baholash bosqichi. Talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi va natijasini baholaydi. O‘qituvchi esa teskari aloqa orqali talabaning keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga yordam beradi.

Shu jihatdan mustaqil ta’limni motivatsion, kognitiv, operatsional va refleksiv bosqichlarda tashkil etishga asoslangan modellar pedagogik jihatdan samarali hisoblanadi.

Mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodlari

Talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda an’anaviy topshiriqlardan tashqari faol va interaktiv pedagogik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Muammoli ta’lim metodi talabalarga tayyor yechimni bermasdan, muayyan muammoli vaziyatni taklif etadi. Talaba mavjud bilimlari asosida muammoni tahlil qiladi, farazlarni ilgari suradi va mustaqil yechim izlaydi. Bu metod tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Loyiha metodi talabalarning mustaqil ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vositalardan biridir. Talaba loyiha mavzusini o‘rganadi, maqsad va vazifalarni belgilaydi, axborot izlaydi, natijalarni umumlashtiradi va yakuniy mahsulotni taqdim etadi. Tadqiqotlarda loyiha asosida o‘qitish mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini berishi qayd etilgan.

Keys-stadi metodi real yoki shartli kasbiy vaziyatlarni tahlil qilishga asoslanadi. Talaba vaziyatdagi muammoni aniqlaydi, mavjud ma’lumotlarni tahlil qiladi va bir yoki bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqadi. Ushbu metod nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

• использование балльно-рейтинговых систем оценки знаний;
• участие студента в формировании индивидуального учебного плана;
• увеличение доли самообучения в образовательном процессе;
• увеличение гибкости образовательных программ.

Кредитно-модульная система организации учебного процесса призвана обеспечить положительное решение следующих задач:

• деление материала дисциплины на модули с проверкой усвоения каждого модуля;
• использование более широкой шкалы оценки знаний;
• повышение объективности знаний;
• стимулирование систематической самостоятельной работы студентов на протяжении семестра;
• внедрение здоровой конкуренции в обучении.



Рисунок.1.

Проводят модульный контроль 2 раза за семестр, регулярность модулей регламентируется графиком учебного процесса.[3]

При кредитно-модульной системе организации учебного процесса содержание дисциплины распределяется на содержательные модули (по 2-4 модуля на семестр), то есть учебная дисциплина формируется как система содержательных модулей. Вторым условием реализации модульного принципа организации содержания учебной дисциплины является возможность выделить генеральные сквозные идеи профессиональной деятельности, на раскрытие и усвоение которых направлен каждый модуль.

Создание системы кредитов должно облегчить сравнение законченных курсов и способствовать максимальному расширению мобильности студентов [4-5].

Плюсы кредитно-модульной системы образования:

1. При оценке студента. Ставятся балы не только за его знания и навыки, а также учитываются личностные качества студента: активность, неординарное мышление, умение находить решения проблемам.

2. Модуль позволяет студенту «видеть», по каким законам дисциплины сочетается друг с другом, и выбирать состав своего обучения свободно и осознанно. Все это создает условия для формирования гибкой индивидуализированной системы обучения.

3. Модуль дает студенту свободно принимать решения, а также учиться самостоятельно планировать свой учебный процесс, чтобы в дальнейшем быть профессионалом своего дела и знать, что делать при сталкивании с конкурентоспособностью.

4. Наиболее важным плюсом в КМС является повышение востребованности к преподавателям, профессорам, тьюторам так как педагог организует, направляет, помогает, дает советы студенту, раскрывает у студента его таланты, таким образом сохраняется, ведущая роль преподавания в образовательном процессе.

Список литературы:

1. Pilz M., Wiemann K. (2021). Does Dual Training Make the World Go Round Training Models in German Companies in China, India and Mexico. Vocations and Learning 14, 95-114 (2021).

2. Х.К. Абдурахманова, И. Турсунов. «Современные методы обучения высшей математике студентов технологических вузов». Научный вестник Ташкентского государственного педагогического университета. №1, 2021 г., стр. 101–105.

3. Х.К. Абдурахманова, Р. Яркулов. «Актуальные аспекты обучения студентов технического вуза». Сборник материалов Республиканской научно-практической конференции «Перспективы реформ, проводимых в системе высшего образования Республики Узбекистан». С. 640–650, 2017 г.

4.Абдурахманова Х. К., Сабиров Н.Х. “О проблемах методики преподавание высшей математики в технических”./European Journal of Interdisciplinary Research and Development/ Website: www.ejird.journalspark.org ISSN (E): 2720-5746/C.98-103.

ZAMONAVIY TA’LIM PARADIGMASIDA VATAN TARIXI (O ‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI) FANINI O‘QITISHNING STRATEGIK AHAMIYATI

dotsent, t.f.b.PhD Elmuratova Umida Farxadovna
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyo yetakchi OTMlari tajribasi hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi kontekstida Vatan tarixi (O‘zbekistonning eng yangi tarixi) fanini o‘qitishning ilmiy-pedagogik va metodologik ahamiyati tadqiq etiladi. Muhandislik yo‘nalishidagi OTM talabalarida tarixiy xotira, milliy o‘zlikni anglash va tanqidiy fikrlashni shakllantirish orqali ularni barkamol va mas’uliyatli mutaxassislar sifatida kamolga yetkazish masalalari ilmiy tahlil qilingan.*

Аннотация. *В данной статье исследуется научно-педагогическое и методологическое значение преподавания истории Родины (Новейшая история Узбекистана Нового Узбекистана. На основе научного анализа освещены вопросы воспитания гармонично развитых и ответственных специалистов путем формирования исторической памяти, национального самосознания и критического мышления у студентов.*

Abstract. *This article investigates the scientific-pedagogical and methodological significance of teaching Modern history of Uzbekistan within the framework of leading global university practices and the Development Strategy of New Uzbekistan. Based on scholarly analysis, it highlights the formation of historical memory, national identity, and critical thinking among engineering students to nurture them into well-rounded, responsible specialists.*

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessans poydevorini qo‘yish sharoitida oliy ta’lim tizimining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – nafaqat raqobatbardosh, texnik bilimga ega mutaxassislarni, balki chuqur ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashga ega, o‘z yurtiga va xalqiga sodiq barkamol shaxslarni tarbiyalashdir. Muhandislik va texnologiya yo‘nalishlaridagi kadrlarning dunyoqarashini kengaytirishda Vatan tarixi (O‘zbekistonning eng yangi tarixi) fani alohida strategik o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek*:"Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ikki qudratli ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-ma’rifiy tarbiya. Tarixini bilmaydigan, o‘z ajdodlarining boy ma’naviy merosiga tayanmaydigan xalqning kelajagi yo‘q."*

Muhandislik ta’limi ko‘pincha qat’iy texnik formulalar, algoritmik mantiq va modellashtirish bilan cheklanadi. Biroq, zamonaviy texnologiyalar inson hayotiga chuqur kirib borayotgan bugungi davrda muhandis nafaqat mashina va inshootlarni loyihalashtiruvchi, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va

madaniy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi sub’ektga aylanmoqda. Shu bois, bo‘lajak muhandisga o‘z xalqining tarixiy tajribasi, madaniy genofondi va davlatchilik an’analarini singdirish uning ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishning asosiy omilidir.

Ma’lumki, dunyodagi yetakchi universitetlari va muhandislik markazlarining tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnik va muhandislik yo‘nalishlarida gumanitar, xususan, tarix fanlarini o‘qitish ta’lim sifati hamda innovatsiyalar rivojining ajralmas qismidir. Jumladan, birinchi AQSH va Yevropa tajribasiga e’tibor qaratsak *(MIT, Harvard, Stanford, TU Delft*), AQSHning Stenford va Massachusets texnologiya institutlarida gumanitar va ijtimoiy fanlar bloki texnik OTMlar dasturlarining 25-30 foizini tashkil etadi. Masalan, MITda ta’lim oluvchi har bir bo‘lajak muhandis AQSH tarixi, dunyo sivilizatsiyalari tarixi hamda texnika tarixi modullarini majburiy tartibda o‘zlashtirishi shart. Ilmiy tahlillarga e’tibor qaratsak, Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarix fanini chuqur o‘rgangan muhandislik talabalarida avvalo *tizimli fikrlash layoqati*ni shakllantirib, tarixiy voqea-hodisalarning sabab-oqibat zanjirini tahlil qilish ko‘nikmasi murakkab muhandislik tizimlaridagi xatoliklarni oldindan ko‘ra bilishga yordam beradi. Kontekstual tahlillarga ko’ra esa texnik loyihalarni ma’lum bir jamiyatning tarixiy, madaniy va geografik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi, Osiyo tajribasida *(Yaponiya — KOSEN va Tokio universiteti, Janubiy Koreya — KAIST*) esa Sharqiy Osiyoda "iqtisodiy va texnologik mo‘jiza"sini yaratgan davlatlarda milliy tarix va madaniyat ta’lim tizimining o‘zagini tashkil qiladi. Masalan, Yaponiyadagi KOSEN muhandislik kollejlari va Tokio universitetida Yaponiya tarixi hamda milliy falsafa fani orqali talabalarda "Monozukuri" (hunarmandchilik va muhandislikda mukammallikka intilish ruhi) hamda "Giri" (jamiyat va Vatan oldidagi burch) tuyg‘usi singdiriladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub islohotlar sanoatni raqamlashtirish, energetika, to‘qimachilik, mashinasozlik, metallurgiya va qurilish sohalarini xalqaro standartlarga o‘tkazishni nazarda tutadi. Bu kabi yirik vazifalarni bajarish uchun faqat tor soha mutaxassisi emas, balki keng dunyoqarashga ega bo‘lgan "muhandis-ziyoli" qatlami zarur. Bu borada ta’lim islohotlarining diqqat e’tibori tarixiy tajribadan innovatsiyalarga qaratilayotgani bejiz emas. Bunda davlat siyosati darajasida Renessanslar uzviyligini targ’ib qilgani holda uning davomchilarini dunyoga keltirish masalasiga ahamiyat qaratilmoqda. Sharqning Birinchi va Ikkinchi Renessansi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk mutafakkirlarimiz bir vaqtning o‘zida ham aniq fanlar, ham chuqur falsafiy, tarixiy bilimlarga ega bo‘lishgan. Misol uchun: Ahmad Farg‘oniyning Nilometrdagi (Nil daryosi sathini o‘lchagich) muhandislik loyihasi shunchaki mexanik inshoot emas, balki mintaqaning tarixiy, iqlimiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini chuqur anglash mahsuli edi. Vatan tarixini

o‘rganish orqali muhandislik talabalari o‘zlarini ana shunday buyuk an’ananing vorisi sifatida ko’rishlari to’g’ri bo‘ladi.

Ushbu maqsadlarni ta’minlash yo‘lida avvalo bo‘lg‘usi texnik mutaxassislarda milliy o‘zlik va vatanparvarlikni shakllantirish; zamonaviy globallashuv va axborot xurujlari davrida yoshlarda, ayniqsa amaliy va texnik yo‘nalish talabalarida ma’naviy immunitetni shakllantirish birlamchi masaladir. Shu kabi masalalarga yechim sifatida O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani quyidagi uchta ustuvor yo‘nalishda xizmat qiladi:

1. Ma’naviy-g‘oyaviy immunitet: O‘z xalqining shonli tarixi, bosqinchilik va qatag‘on davrlaridagi matonati hamda milliy davlatchilik evolyutsiyasini bilgan yoshlar turli yot g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona ergashmaydi.

2. Texnologik vatanparvarlik: Xorijiy texnologiyalarga ko‘r-ko‘rona qaram bo‘lmasdan, milliy sanoat va resurslardan foydalangan holda mahalliy innovatsiyalarni yaratishga bo‘lgan ichki intilish va ruhiyatni shakllantiradi.

3. Ijtimoiy va barqaror mas’uliyat: Tarixiy yodgorliklar, arxitektura va madaniy merosni (masalan, to‘qimachilik va me’morchilikda xalq milliy uslublarini) muhofaza qilish, ularni zamonaviy muhandislik loyihalarida saqlab qolish imkonini beradi.

Shuningdek, Vatan tarixini o‘qitishda an’anaviy xronologik yodlash (faktlarni shunchaki eslab qolish) metodidan voz kechib, konseptual va tahliliy metodologiyaga o‘tish lozim.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida muhandislik yo‘nalishidagi OTMlarda Vatan tarixi fanini o‘qitish shunchaki ta’limiy talab emas, balki davlatning strategik xavfsizligi, texnologik mustaqilligi va ma’naviy barqarorligini ta’minlaydigan muhim omildir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, eng ilg‘or va innovatsion texnologiyalar faqat gumanitar va tarixiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan, jamiyat taraqqiyotini teran anglaydigan mutaxassislar tomonidan yaratiladi va boshqariladi. Vatan tarixini chuqur o‘rganish orqali muhandislik talabalarida tahliliy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyat va milliy g‘urur tuyg‘usi mustahkamlanadi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizda Uchinchi Renessansning harakatlantiruvchi kuchiga aylanuvchi barkamol, bilimli va vatanparvar kadrlar avlodini voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T: "O‘zbekiston", 2021.
2. Kadirov, A. A., Baratov, X. N. O‘zbekiston OTMlarida muhandislik ta’limini modernizatsiya qilishda tanqidiy va falsafiy fikrlashning o‘rni. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 5(3), 2022. B.45-52.
3. Lucena, J. Engineering Education for Social Justice: Critical Explorations and Opportunities. Springer Science & Business Media. 2013. P.210.
4. Børsen, T., Serreau, X. Teaching Ethics, Sustainability, and Responsible Research and Innovation to Engineering Students. European Journal of Engineering Education, 46(6), 2021. P.1012-1031.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MUHANDISLIK YO’NALISHI TALABALARINI KASBIY TAYYORLASHNING ASOSIY MEZONLARI SIFATIDA

p.f.f.d., D.A.Eshnazarov
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada texnika yo’nalishi oliy ta’lim muassasalari bo’lajak muhandislarining kasbiy tayyorgarligini yanada samarali bo’lishi uchun, bugungi davr talabidan kelib chiqqan holda, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish texnologiyasining asosiy mezonlari haqida so’z boradi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные критерии разработки технологий на основе инновационных подходов, исходя из потребностей сегодняшнего дня, в целях повышения эффективности профессиональной подготовки будущих инженеров в высших учебных заведениях технического профиля.*

Abstract. *The article examines the main criteria for the development of technologies based on innovative approaches, based on the needs of today, in order to improve the effectiveness of professional training of future engineers in higher education institutions with a technical profile.*

Kompetentlik zamonaviy ta`lim tizimida talab qilinadigan asosiy ko‘nikmalardan biridir. Bu, odatda, bilim, ko‘nikma va munosabatlarning muayyan sohada samarali harakat qilish uchun zarur bo‘lgan integratsiyasini anglatadi. Ushbu maqolada kompetentlikni rivojlantirishning uslubiy asoslari tahlil qilinadi va bu jarayonni amalga oshirishda innovatsion yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Jamiyatning yangilanishi ta`lim-tarbiya tizimini o‘zgarishini, unga yangicha yondoshuv hamda yangicha munosabatni talab qiladi. Bo‘lajak mutaxasislarga sifatli ta`lim va tarbiya berish, bilim, ko‘nikmalarini har tomonlama egallashlariga, kelajakda o‘z sohasining yetuk mutaxasisi bo‘lishlarida hamda o‘quv fanlarini o‘zlashtirib borishlariga yengillik yaratish bugungi kunda dolzarblik kasb etadi[1].

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar katta ahamiyatga ega. Interaktiv va kooperativ o‘qitish usullari talabalarning faolligini oshiradi va ularning jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Loyihaviy va problemali ta’lim talabalarning muammolarni hal qilish qobiliyatini kuchaytiradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi. Simulyatsiya va ro‘l o‘yinlari esa talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Onlayn va multimedia vositalari esa ta’lim jarayonini diversifikatsiya qilishda samarali hisoblanadi[2]. Kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim qismi bo‘lib, bu jarayonni samarali amalga oshirish uchun innovatsion yondashuvlar zarurdir. Interaktiv va kooperativ o‘qitish, loyihaviy va problemali ta’lim, simulyatsiya va ro‘l o‘yinlari, onlayn va multimedia vositalaridan foydalanish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda

samarali usullar hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar talabalarning real hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan kompetentliklarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, innovatsion yondashuv asosida ta’lim jarayonini diversifikatsiya qilish va kreativ muhit yaratish talabalarni kreativ kompetentlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi[3]. Interaktiv va loyihaviy ta’lim usullari talabalarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga o‘rgatsa, innovatsion texnologiyalar esa ularga yangi bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Murabbiylik va mentorlik tizimi talabalarni motivatsiya qilishda va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Muammoga yo‘naltirilgan ta’lim esa talabalarni analitik fikrlash va ijodiy yondashuvlarga o‘rgatadi. Kooperativ va kollaborativ ta’lim usullari esa talabalarni jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsiya – (inglizcha) yangilik kiritish, yangilik degan ma’noni ifodalaydi, texnologiya esa yunoncha “texnos” – san’at, mahorat va “logos” – fan so‘zlaridan olinib, innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondoshish degan ma’noni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishdir.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- AKT bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish;
- yangi pedagogik texnologiya bo‘yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo‘lish (PISA,TIMSS);
- ta’lim jarayonini tashkil etishda didaktik o‘yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;
- ilg‘or pedagogik texnologiya bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirib borish;
- bilimlarni ko‘nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo‘lishi;
- dars jarayonida harakatli o‘yinlardan unumli foydalana bilishi;
- imkoni bo‘lsa darsni internet tarmog‘iga bog‘lab o‘ta bilishi;
- o‘z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.

O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kompyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin. O‘qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko‘p bo‘lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta’limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e’tirof etish kerak. Har bir o‘qituvchi ta’limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o‘qituvchi o‘z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi[4]. “Faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya’ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi.”– degan

edi mashhur pedagog A.Nikolskaya. Innovatsion texnologiyalardan asosiy maqsad o‘qituvchi va o‘quvchi mushtarakligiga erishish, o‘quvchilarni fanga qiziqtirish, ta’limga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, o‘rganilgan bilimlarni ijtimoiy sharoitlarda qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, AKT va didaktik materiallarni mavzu bilan uyg‘unlashtirish kabilarni keltirish mumkin. Darslarni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanishga doir ushbu maqola bilan, darslarni samarali tashkil etish uchun foydalaniladagan metod va o‘yinlardan har bir fan o‘qituvchisi dars jarayonida foydalanish imkoniga ega. O‘qituvchi, izlanuvchan, ijodkor fanini puxta biladigan va shu fani orqali o‘quvchilarga bugungi kun davr talabi asosida innovatsion g‘oyalarga tayanib bilim bersa, bu o‘sha o‘qituvchining o‘quvchilar hamda ota-onalarning e’tiborini qozonishiga sabab bo‘ladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fikrlar asosida barcha darslarda ham o‘quvchilarga ko‘plab ma`lumotlarni singdirish orqali ularni bilim olishga, kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini ham orttirish mumkin. Buning uchun albatta o‘quvchilarga fanga oid zamonaviy muhandislik va texnologiyalar haqida ko‘proq tushunchalarni uyg‘unlashtirish, singdirish lozim[5]. O‘qituvchi qanchalik mahoratli bo‘lsa, kelajakda o‘quvchilarining yutuqlaridan shunchalik ko‘p faxrlanib yuradi. Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiya – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-muhandislik yutuqlaridan foydalangan holda o‘quvchilarga yangi bilim berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Xojiyev M.T., Raximov B.X., Eshnazarov D.A. “Development of professional competence of future specialists” Journal of Physical Education and Sport: October 07,2021.
2. Ходжиев М.Т. Эшназаров Д.А. “Олий таълим муассасалари техника йўналиши бўлажак мутахассисларининг касбий компетенцияларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари” Гулистон Давлат Университети ахборотномаси, Гуманитар-ижтимоий фанлар серияси, 2020 №3.
3. Eshnazarov D.A “Validity development of professional competence of future specialists of the university of technical direction” PalArch’s Journal of Archeologu of Egupt/Eguptoloju 17(20) (2020), Indonesia.
4. Eshnazarov D.A “Бўлажак техника йўналиши мутахассислари касбий компетецияларини ривожлантиришнинг метод ва воситалари” Ta’lim fidoyilari Республика илмий-услубий онлайн журнали, 2 январь 2021 йил 951-961 бетлар.
5. Эшназаров Д.А. Ибодуллаев Б.Й. “Бўлажак техника йўналиши мутахассислари касбий компетецияларини ривожлантиришда модулли ўқитиш технологияси” Ta’lim fidoyilari Республика илмий-услубий онлайн журнали, июнь 2021 йил 146-148 бетлар.

BO’LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

p.f.f.d., D.A.Eshnazarov
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada texnika yo’nalishi oliy ta’lim muassasalari bo’lajak muhandislarining kasbiy tayyorgarligini yanada samarali bo’lishi uchun, bugungi davr talabidan kelib chiqqan holda, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish texnologiyasining shakl, metod va vositalari haqida so’z boradi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются формы, методы и средства разработки технологий на основе инновационных подходов, исходя из требований сегодняшнего дня, в целях повышения эффективности профессиональной подготовки будущих инженеров высших учебных заведений технического направления.*

Abstract. *This article examines the forms, methods, and tools for developing technologies based on innovative approaches, based on current requirements, with the aim of improving the effectiveness of professional training for future engineers at technical universities.*

Butun dunyoda innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri muhandislik yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishdir. Bunda yangi g‘oyalar ishlab chiqarish, murakkab jarayonlarda yechim topa bilish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, oqilona tavakkalchilikka bo‘lgan qobiliyat, kasbiy barkamollik kabi harakatlar nazarda tutiladi. Sanoat va ishlab chiqarish jarayonlarining tobora rivojlanib borayotgan texnik murakkabligi mutaxassislarning kasbiy intellektual fazilatlariga va uning ijodiy qobiliyatlariga katta talablar qo‘yadi[1]. Muhandislik yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlanganligi hamda kelgusi faoliyatidagi muvaffaqiyati ko‘p jihatdan oliy ta’limda kasbiy tayyorgarlik bosqichidagi o‘quv jarayonining sifati bilan belgilanadi.

Jahonda yetakchi ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida differensial ta’lim asosida ta’limning sifat darajasini yangi bosqichga ko‘tarish, ishlab chiqarish jarayonlarini matematik modellashtirish, matematik tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni hamda pedagogik va texnik falarni integratsiyalash asosida bo‘lajak muhandislarni loyihalash, konstruktorlik va tadqiqotchilik, kreativlik kabi kompetensiyalarini, individual ta’lim trayektoriyasini qurish orqali muhandislik faoliyatiga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish, ta’limda konpetensiyaviy yondoshuvlarni tadbiq qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu esa, bo‘lajak muhandislarning kreativ kompetensiyalarini shakllantirishning tarkibiy, konseptual va metodik modelini takomillashtirishni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga keng tatbiq etish,

talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir talabaga alohida moslasha oladigan uslubiy ishlarni yaratish hamda muhandislik ta’limni loyihalashtirish zaruratini taqozo qilmoqda[2].

Mamlakatimizda oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan murakkab muammolarni hal qilishga hamda talabaning yuqori sifatli fundamental va umumtexnik tayyorgarligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish munosabati bilan ta’lim muassasalarini zamonaviy ilmiy-tadqiqot, asbob-uskunalar, texnologik va axborot bazasiga ega bo‘lgan hamda yangi ilmiy texnologiyalarni bozor ishlab chiqaruvchilariga uzatishga qodir bo‘lgan innovatsion ilmiy-ta’lim markazlariga aylantirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida “...uzluksiz ta’limni yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish” vazifalari belgilab berilgan.

Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni rivojlantirish jarayoni murakkab va uzoq davom etadi, shuning uchun uni amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlarni tizimlashtirish va tavsiflash tavsiya etiladi[3]. Pedagogik shart-sharoitlar deganda pedagogik tizimning elementlaridan biri tushuniladi, bu ta‘lim muhiti imkoniyatlari yig‘indisi bo‘lib, uning harakati ushbu tizimning shaxsiy va jarayoniy tomonlariga ta‘sir ko‘rsatish orqali uning samarali ishlashiga yordam beradi.

OTMda ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun tashkiliy tuzilmalar tarmog‘ining mavjudligi muhim ahamiyatga ega (1-jadval). Bu OTM, ishlab chiqarish tashkilotlari va ilmiy muassasalarning integratsiyasi bo‘lib, bu ularning salohiyatidan ilmiy tadqiqotlar uchun samarali foydalanish imkonini beradi.

1-jadval

Muhandislik yo‘nalishi talabalari kasbiy tayyorgarligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish shakllari.

Infratuzilma shakllari	Faoliyat mazmuni
Biznes markazlar	Yangiliklarni tadbiq etish
Ilmiy-ishlab chiqarish	Eksperimental loyihalarni sinovdan o‘tkazish
Ilmiy-texnik jamiyat	Konferensiyalar, konkurslar, olimpiadalar tashkil
Ilmiy tadqiqot markazlari	Elektron ta’lim vositalarini ishlab chiqish
Xalqaro hamkorlik markazi	Xalqaro aloqalarni mustahkamlash
OTM kafedralari va laboratoriyalari	Zamonaviy dasturiy vositalardan va pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Innovatsion infratuzilma elementlarini moslamalar, qurilmalar, ishlab chiqarish liniyalari, texnologik o‘quv qo‘llanmalari, veb-kameralar, telekommunikatsiya tarmoqlari, o‘quv elektron dasturiy ta’minoti, darsliklar, CD va DVD filmlar, taqdimotlar, Wi-Fi texnologiyalari bilan moddiy-texnik ta’minlash innovatsion texnologiyalarning jadal yangilanishiga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish” ta’lim yo‘nalishida “Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi” fanini o‘qitish jarayonining maqsadlarini amalga oshirish talabalarni zamonaviy pedagogik vositalar yordamida innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning asosi sifatida jalb qilishga, interfaol texnologiyalardan foydalangan holda o‘quv va kognitiv faoliyatning evristik va ijodiy darajalarida o‘rganishga yordam beradi; talabalarning ilm-fanni talab qiluvchi eng yangi texnologiyalar asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishiga ko‘maklashadi.

Ta’limning faol shakllaridan foydalanishga yo‘naltirilgan o‘quv va amaliy mashg‘ulotlar muhandislik ijodiyoti va loyiha faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha maxsus kurslar shaklida ta‘lim mazmunining innovatsion elementlarini amalga oshirish imkonini beradi[4,5].

Interfaol ta’lim texnologiyalari nafaqat seminar mashg‘ulotlarida, balki ma’ruzalarda ham qo‘llaniladi, ularning kursi bizda maxsus ishlab chiqilgan va o‘quv jarayonida faol foydalanilmoqda. Talabalarning kognitiv faoliyatini faollashtiradigan shakllardan biri bu amaliy, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni olishga, kelajakdagi kasbiy faoliyatda mumkin bo‘lgan muammoli vaziyatlarni modellashtirishga qaratilgan o‘yin metodlaridan foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Xojiyev M.T., Raximov B.X., Eshnazarov D.A. “Development of professional competence of future specialists” Journal of Physical Education and Sport: October 07,2021.

2. Ходжиев М.Т. Эшназаров Д.А. “Олий таълим муассасалари техника йўналиши бўлажак мутахассисларининг касбий компетенцияларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари” Гулистон Давлат Университети ахборотномаси, Гуманитар-ижтимоий фанлар серияси, 2020 №3.

3. Eshnazarov D.A “Validity development of professional competence of future specialists of the university of technical direction” PalArch’s Journal of Archeologu of Egupt/Eguptoloju 17(20) (2020), Indonesia.

4. Eshnazarov D.A “Бўлажак техника йўналиши мутахассислари касбий компетецияларини ривожлантиришнинг метод ва воситалари” Ta’lim fidoyilari Республика илмий-услубий онлайн журнали, 2 январь 2021 йил 951-961 бетлар.

5. Bates A.W. Technology: Open Learning and Distance Education/ A.W.Bates. – Routledge: London, 1995. – 266 p.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDAGI MUHANDISLIK YO’NALISHI TALABALARINING KASBIY TAYYORLASHNING ASOSIY MEZONLARI

p.f.f.d., D.A.Eshnazarov
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada texnika yo’nalishi oliy ta’lim muassasalari bo’lajak muhandislarining kasbiy tayyorgarligini yanada samarali bo’lishi uchun, bugungi davr talabidan kelib chiqqan holda, innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish texnologiyasining asosiy mezonlari haqida so’z boradi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные критерии разработки технологий на основе инновационных подходов, исходя из потребностей сегодняшнего дня, в целях повышения эффективности профессиональной подготовки будущих инженеров в высших учебных заведениях технического профиля.*

Abstract. *The article examines the main criteria for the development of technologies based on innovative approaches, based on the needs of today, in order to improve the effectiveness of professional training of future engineers in higher education institutions with a technical profile.*


Bugungi kunda, ilm-fan, ishlab chiqarishning turli sohalaridagi iqtisodiy rivojlanishining yuksak natijalarga erishishda talabalarni raqobatbardosh kadr etib tayyorlash, bitiruvchilarda kasbiy kompetentligini rivojlantirish tizimini takomillashtirishga ehtiyoj kuchaymoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar hisobotlariga asosan texnik ob’ektlarni ishlab chiqarishi va ekspluatatsiya qilishni optimallashtirish, muhandisning malakasi, zamonaviy yuqori texnologiyalarni, muammolarini ijobiy hal yetish qobiliyatini oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

Xalqaro tajribalariga ko‘ra, Xalqaro fan va muhandislik idorasi (OISE), Amerika ta’lim va rivojlanish jamiyati (ASTD), Milliy professional muhandislar jamiyati (NSPE), Muhandislik va texnologiya instituti (ABET), Buyuk Britaniya muhandislik kengashi (YeCUK), Avstraliya muhandislar instituti (lEAust) va Yaponiya muhandislik ta’limi akkreditatsiya Kengashi (JABEE) kabi intellektual markazlar kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini taqdim yetish, muhandislik sohasini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar, ta’lim jarayoniga zamonaviy metodlarni tatbiq yetish, muhandislar uchun ta’limni tartibga solish va ta’minlash orqali bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, bo‘lajak muhandislarda global malakani singdirishni asosiy maqsad qilib qoy’gan[1]. Shu asnoda, bo‘lajak muhandislarni o’qitishda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvni qo’llash, talabalar kasbiy kompetensiyalarining kengaytirishiga olib kelishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda o‘qitish jarayonining shakllari va texnologiyalari o’zgarishiga, muhandislar tayyorlash sifatini baholash mezonlariga bog‘liq bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini o‘quv faoliyatini tashkillashtirishning metodlari bilan

transformatsiyasi pedagog-tadqiqotchilar faoliyati uchun keng imkoniyatlar taqdim etmoqda va mamlakatimizda kasbiy faoliyatga jahon amaliyotida qabul qilingan yondashuvlarni bosqichma-bosqich tatbiq yetish zarur. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy yetishning samarali mexanizmlarini yaratish hamda Innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan ta’lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta’minlash kabi ustuvor vazifalari belgilandi[2]. Talabalarni muhandislik kasbiy kompetentligini takomillashtirishning kelajak yo’nalishlarini belgilash, o‘quv jarayonini tashkil yetishning turli shakllarini optimallashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy malakasini baholash mezonlarini ishlab chiqish, iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalari mutaxassisning kasbiy fazilatlari sohasiga tobora ko‘proq talab qo’yadi.

Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo’llay olinishi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi. Yuqoridagi fikrlar bizni mutaxassis tayyorgarligining sifatiga talab yuqori bo‘lgan sharoitda alohida dolzarblik kasb etadigan oliy o‘quv yurtlari talabalari muhandislik tayyorgarligining tizimi samaradorligini nazariy asoslanishi va eksperimental tekshirilishi zarurligiga undadi. Quyidagi rrasmda bo‘lajak muhan dislarning kasbiy kompitetntlik negizida aks etuvchi sifatlari keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Kasbiy kompetentlik sifatlari

Bo‘lajak muhandislarning kelajakda rivojlanishi kerak bulgan kasbiy kompetentlarga misollar keltiramiz.

1. Kasbiy faoliyat sohasida yangi ijodiy g‘oyalarni shakllantirish va tashkil qilish qobiliyati;
2. Tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda bilimlarni mustaqil ravishda o‘zgartirish qobiliyati;
3. Universal bilimlarni ongli ravishda qo‘llay olish;
4. Lokal bilimlarni ongli ravishda qo‘llay olish;
5. Muhandislik muammolarini tahlil qila olish;
6. Muhandislik yechimlarini loyihalashtirishni amalga oshira olish;
7. Ijtimoiy javobgarlik;
8. Qonunchilik va huquqiy me‘yorlarga rioya etish;
9. Muhandislik faoliyatining etikasi;
10. Muhandislik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
11. Kommunikatsiya;
12. Hayoti davomida ta‘lim olishni to‘xtatmaslik;
13. Lozim joylarda muhandislik qarorlarini qabul qila olish;
14. Muhandislik qarorlari uchun javobgarlik hissini mavjudligi.

Motiv - ehtiyoj predmeti hisoblanib, maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Subyektning turli ehtiyojlarini qondiradi, rag‘batlantiradi va faoliyatini yo‘naltiradi[3]. Shuningdek, motivatsiya shaxs asosini tashkil etib, inson hayotida juda muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan faoliyat bilan bog‘liq barcha voqea-hodisalarni o‘rganishda motivatsiyani ham tadqiq etish zarur. Chunki, har qanday faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshishi motivatsiyaga bog‘liq bo‘ladi deb hisoblaydi.

Eng muhim darajadagi faol faoliyat va muvaffaqiyat motivatsiyasini o‘zaro bog‘liqlik xarakteriga ko‘ra, uchta muhim motivatsion yo‘nalishga ega:

Individ oldida turgan vazifani shaxs uchun muvaffaqiyatliligi va qiyinchiligining ehtimollari to‘g‘risidagi individual subyektiv tasavvur;

Subyekt uchun vazifaning ahamiyatlilik darajasi, shu bilan birga qo‘llab-quvvatlashga va o‘ziga nisbatan bahoni oshirishga bo‘lgan intilish kuchi;

Shaxsni muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik uchun mas’uliyatni o‘ziga, boshqa insonlarga va vaziyatga adekvat bog‘lashga moyilligi.

Faoliyatni amalga oshirish uchun, yetarli darajada motivatsiya bo‘lishi zarur, biroq motivatsiya o‘ta yuqori bo‘lsa, faollik va zo‘riqish darajasi oshadi va bu o‘z o‘rnida faoliyat, xattiharakat samaradorligini yomonlashishiga sabab bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan motivatsiyaning o‘ta yuqori darajasi faoliyatda salbiy holatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan negativ emotsional ta’sirlar: stress, hayajon, zo‘riqishni keltirib chiqarishi mumkin[4]. Bundan ko‘rinadiki, motivatsiyaning o‘ta yuqori darajasi har doim ham eng yaxshi jihat hisoblanmaydi. Pedagoglarning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyat ham ularning kasbiy-kognitiv faoliyati, bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshib borishi va shu bilan birga undagi motivatsiyaga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Bozor shart-sharoitlarida o‘z hayotiy layoqatini barqaror saqlashga intiladigan har qanday ta'lim muassasasi pirovard natijada ilm-fan sohasida yoki kadrlar tayyorlash tizimida biron bir yangilikni yaratishga, yangi g‘oyalarni amalga oshirishga, ya'ni g‘oyalarning moddiylashtirilishiga hamda bozorlarda salohiyat xaridorlarga sotilishiga erishishi lozim[5]. Ta'lim muassasalarining faoliyatini tijoratchilik asosida yo‘lga qo‘yilishi ularni funktsional vazifalaridan birmuncha chalg‘itishi mumkin albatta, ammo ilmiy-innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish oxir oqibatda o‘quv yurtlariga moddiy jihatdan o‘z-o‘zini ta'minlash imkoniyatini yaratib beradi.

Respublikamiz miqyosida amal qiluvchi innovatsion muhitning yaratilishi barobarida ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish ob'ektiv ehtiyojga aylangan. Innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir[6]. Ushbu nuqtai nazardan olib qaralsa, innovatsion sikl vaqt o‘lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo‘lgan turli xil bosqichlarda funktsional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat majmuasidir.

Ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini joriy etishda innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir. Ushbu nuqtai nazardai olib qaralsa, innovatsion jarayon vaqt o‘lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo‘lgan turli xil bosqichlarda funktsional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat yig‘indisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Xojiyev M.T., Raximov B.X., Eshnazarov D.A. “Development of professional competence of future specialists” Journal of Physical Education and Sport: October 07,2021.

2. Жўраева М. Немис тилини ўрганишда ижтимоий шакллардан фойдаланиш //"Science and Education" Scientific Journal. – Vol.1. Issue 2. 3 - 550.

3. Ибраймов А.Е. Масофавий ўқитишнинг дидактик тизими. – Тошкент: “Lesson press”, 2020. – Б.32.

4. Муслимов Н.А. Усмонбоева М.Ҳ., Мирсолиева М. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик. - Тошкент, 2016. – Б. 22.

5. Ходжиев М.Т. Эшназаров Д.А. “Олий таълим муассасалари техника йўналиши бўлажак мутахассисларининг касбий компетенцияларини ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари” Гулистон Давлат Университети ахборотномаси, Гуманитар-ижтимоий фанлар серияси, 2020 №3.

6. Eshnazarov D.A “Validity development of professional competence of future specialists of the university of technical direction” PalArch’s Journal of Archeologu of Egupt/Eguptoloju 17(20) (2020), Indonesia.

DUAL TA’LIM TIZIMINING MEHNAT BOZORI BARQARORLIGINI TA’MINLASHDAGI ROLI: TARKIBIY MUAMMOLAR VA STATISTIK KO‘RSATKICHLAR

dots. F.Q.Joniyev,
tayanch doktorant F.F.Axmatova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Tadqiqotda dual ta'limning ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va kamchiliklari o'rganiladi, an'anaviy ta'lim modeli va dualizm o'rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilinadi. Dual ta'limda amaliyot va nazariya o'rtasidagi tafovutning yo'qligiga urg'u beriladi.*

Аннотация. *В исследовании рассматривается важность дуального образования, его специфические особенности, преимущества и недостатки, а также анализируются основные различия между традиционной моделью образования и дуализмом. Особое внимание уделяется отсутствию разрыва между практикой и теорией в дуальном образовании.*

Abstract. *The study examines the importance of dual education, its specific features, advantages and disadvantages, and analyzes the main differences between the traditional education model and dualism. The emphasis is on the absence of a gap between practice and theory in dual education.*

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mehnat bozorining talablari mutasil ravishda o‘zgarib bormoqda, bu esa an’anaviy ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda oliy va o‘rta maxsus ta’lim bitiruvchilarining nazariy bilimlari hamda amaliy ko‘nikmalari o‘rtasidagi uzilish (gap) eng asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoning eng samarali yechimi sifatida butun dunyoda dual ta’lim (dual training) tizimi e’tirof etilgan. Dual ta’lim modelining bosh mezoni — ta’lim muassasasida nazariy qismni o‘zlashtirish va bevosita ish joyida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning parallel olib borilishidir.

Ushbu tadqiqotda rivojlangan mamlakatlar, xususan, Germaniya tajribasidan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasida dual ta'limni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi. O‘zbekiston Respublikasida dual ta'lim dasturini amalga oshirish bosqichlari masalasi batafsil muhokama qilinadi va mamlakat qonunchilik bazasidagi o'zgarishlar masalasi yoritiladi. Bundan tashqari, ta'lim jarayoniga dual ta'limni joriy etishning asosiy muammolari va ularni hal

qilish yo'llari ta'kidlangan. Tadqiqotning maqsadi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasida oliy va o'rta maxsus ta'limda dual ta'limni joriy etishni tahlil qilishdan iborat. Ushbu tahlil natijasida, dunyoda dual ta'limni joriy etish dasturining amalga oshirilishining to'liq manzarasini ko'rish imkonini beradi. Dual xarakterdagi ta’lim andozasi tarixan Germaniyada shakllangan bo‘lib, keyinchalik Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan o‘zlashtirilgan. Nemis modelining o‘ziga xosligi qat’iy qonunchilik bazasiga tayanishi hamda savdo-sanoat va hunarmandchilik palatalarining faol ishtirokidir. Ushbu tizim hunarmandlar, ijodiy kasb egalari (dizaynerlar, tikuvchilar), sanoat, bank va savdo sohasi xodimlari hamda ijtimoiy soha vakillarini tayyorlashda keng qo‘llaniladi. Germaniyada dual tizimda o‘qish uchun korxona bilan shartnoma tuzish va asosiy maktab sertifikatini taqdim etish majburiydir. Xususan, Germaniyada dual ta'limning batafsil tavsifi ushbu turdagi o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'liq tasavvur berdi. Dual ta'lim holatida korxonalar ta'lim muassasalari uchun ma'lum miqdordagi mutaxassislarga buyurtmalar beradi, ish beruvchilar o'quv dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadilar. Talabalar o'qishni uzmasdan korxonada amaliyot o'taydilar.

O‘zbekiston Respublikasida professional va oliy ta’lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, nazariya va amaliyot integratsiyasini ta’minlash maqsadida dual ta’lim modelini joriy etishning mustahkam normativ-huquqiy bazasi yaratildi. Xususan, ushbu tizimning huquqiy asosi **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 163-sonli “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori** bilan belgilab berildi. Mazkur hujjatga muvofiq, o‘quvchilar va talabalar haftaning ma’lum kunlarida ta’lim muassasasida nazariy bilimlarni olib, qolgan kunlarida bevosita ishlab chiqarish korxonalarida mehnat shartnomasi asosida amaliy ko‘nikmalarni egallashi qonuniy mustahkamlandi. Tizimning transformatsion rivojlanishini raqamli ko‘rsatkichlar tahlili ham yaqqol tasdiqlaydi. Chunonchi, respublika bo‘yicha professional ta’lim tashkilotlariga (kollej va texnikumlar) umumiy qabul parametrlarining sezilarli qismi aynan ushbu shaklga yo‘naltirilmoqda.

Oliy ta’lim tizimida ham dual ta’limni institutsional kengaytirish maqsadida **Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori** qabul qilindi. Ushbu hujjat asosida respublikada **“Kasb egasi”** maxsus elektron platformasi joriy etilib, talabalarning ishlab chiqarish korxonalarida haftasiga 3-4 kun davomida amaliy mehnat faoliyati olib borishi va ularga Bandlikka ko‘maklashish

jamg‘armasi hisobidan 2 million so‘mgacha kompensatsiya to‘lanishi tizimli yo‘lga qo‘yildi.

UNESCO va Yevropa Ittifoqi ko‘magidagi xalqaro reyting hisobotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning 4 ta strategik hududida (Toshkent, Namangan, Qoraqalpog‘iston, Samarqand) dual model asosida "Kasbiy mahorat markazlari" (Centres of Vocational Excellence) tashkil etilgan bo‘lib, bu milliy ta’lim tizimini Germaniyaning "Duale Ausbildung" andozalariga yaqinlashtirish imkonini bermoqda.

Maqolada dual ta’lim tizimini muvaffaqiyatli joriy etishning to‘rtta asosiy sharti ajratib ko‘rsatilgan: bazaviy korxonalarning mavjudligi, ta’lim muassasasi va korxona o‘rtasidagi ishlab chiqilgan hamkorlik dasturi, korxonada talaba uchun maxsus ish o‘rnining ajratilishi hamda korxona sharoitida maxsus fan o‘qituvchilarining malakasini oshirish tizimidir. Dual model doirasida uch tomonlama munosabat shakllanadi: *ta’lim muassasasi – korxona – talaba*. Bunda bitiruvchining kasbiy ko‘nikmalari uchun mas’uliyat nafaqat ta’lim muassasasi, balki amaliyot o‘talayotgan korxona zimmasiga ham teng yuklanadi.

Tizimning yuqori samaradorligiga qaramay, uning joriy etilishida bir qator muammolar ham mavjud. Korxonalarda ishlab chiqarish ta’limi ustozlarining (mentorlarning) pedagogik malakasi yetishmasligi, ta’lim muassasalarida esa zamonaviy texnologik jihozlarning yetishmasligi nazariya va amaliyot o‘rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Birinchidan, ta’lim dasturlarining mavsumiylikka mos kelmasligi nazariya va amaliyot o‘rtasida qisman uzilishlar hosil qilishi mumkin. Ikkinchidan, kichik va o‘rta biznes subyektlari (SMEs) moddiy-texnik va moliyaviy yetishmovchiliklar sababli talabalarni qabul qilishga doim ham qodir emas, chunki davlat tomonidan bu jarayon to‘liq subsidiyalanmaydi. Qozog‘iston va Rossiya misolida qonunchilik bazasining to‘liq mukammal emasligi, korxonalarda ish o‘rinlarining jihozlanmaganligi va tadbirkorlarning uzoq muddatli prognozlardan qo‘rqishi asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatilgan.

Dual ta’lim modeli bugungi kunda ishchi va mutaxassis kadrlarni tayyorlashning eng samarali shakli hisoblanadi, chunki u bitiruvchining mehnat bozoriga moslashish davrini qisqartiradi va tajribaga ega bo‘lgan kadrlarni yetishtirib beradi. Tizimni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun davlat tomonidan tadbirkorlarni moliyaviy rag‘batlantirish, mentorlik (ustoz-shogird) institutini qonuniy mustahkamlash va korxonalarning infratuzilmasini yaxshilash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO Toshkent vakolatxonasi hisoboti: "Modernizing Vocational Education Institutions in Uzbekistan" (2025/2026); Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi statistik ma’lumotnomasi. https://translate.google.com/translate?u=https://www.unesco.org/en/articles/unesco-supports-development-dual-education-uzbekistan-through-long-term-cooperation-technicums-and&hl=uz&sl=en&tl=uz&client=sge

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 163-sonli Qarori. 2021-yil 29-mart // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–73-son Farmoni. 2025-yil 28-aprel.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining professional ta’lim muassasalariga qabul ko‘rsatkichlari bo‘yicha rasmiy statistik hisoboti. Toshkent, 2026.

5. Sulaymanov, R. (2024). Professional ta’lim tizimida dual ta’lim tizimining o‘rni. Pedagogik kasbiy ta’lim jurnali to‘plami, 471-473-b.

6. UNESCO Tashkent Office Report. UNESCO supports the development of dual education in Uzbekistan through long-term cooperation with technicums. UNESCO Public Information, July 2026.

7. Muratbayeva, Sh., Nurabayeva, L., Ilimkhanova, L., Tatarinova, G., Aizhanova, G., & Lepeshev, D. (2020). Dual Education of Developed Countries: Trends, Concept, Future. Research Journal of Applied Sciences, 15(12), 477-482. doi:10.36478/rjasci.2020.477.482.

8. Ovsienko, L., Zimina, I., & Esenina, E. (2014). Dual training as an important factor in increasing the investment attractiveness of the region. FIRO RANHIGS, Moscow, Russia.

9. Kutumova, A. A., & Yarkova, G. A. (2016). Dual training system as a technology for training bachelors of vocational training in the modern conditions of a pedagogical university. Modern High Technologies, 4, 139-142.

10. Fedotova, G. A. (2001). Professional Education and Training in Working Professions in Germany. IRPO Publisher, Moscow, Russia, 72 p.

TEXNOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA FIZIKA TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

katta o‘qituvchi. M.R. Kayumova
Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Annotatsiya. *Maqolada texnologiya yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda fizika tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Fizika bilimlarini amaliy va kasbiy faoliyat bilan integratsiyalash masalalari tahlil qilingan. Fizikaning asosiy bo‘limlarini texnologik jarayonlar bilan bog‘lash imkoniyatlari ko‘rsatilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности использования физических экспериментов в формировании профессиональных компетенций студентов технологических направлений. Анализируется интеграция знаний по физике с практической и профессиональной деятельностью. Показаны возможности связи основных разделов физики с технологическими процессами.*

Abstract. *The article examines the use of physics experiments in developing professional competencies of students in technological fields. The integration of physics knowledge with practical and professional activities is analyzed.The possibilities of connecting major physics topics with technological processes are presented.*

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va o‘z kasbiy faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalana oladigan mutaxassislarni tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda tabiiy fanlar, jumladan, fizika fanining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fizika tajribalarining kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni. Fizika tajribasi — talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalardan biridir. Tajriba jarayonida talaba tayyor xulosani qabul qilibgina qolmay, balki muammoni aniqlash, tajribani rejalashtirish, kerakli asboblarni tanlash, o‘lchash, hisoblash va natijalarni baholash kabi faoliyatlarni bajaradi.Texnologiya yo‘nalishi talabalarida quyidagi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda fizik tajribalardan foydalanish mumkin: **Amaliy kompetensiya** — fizik asbob-uskunalar bilan ishlash, o‘lchash va tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantirish;**Tahliliy kompetensiya** — tajribada olingan natijalarni matematik va grafik usullarda tahlil qilish;**Muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyasi** — texnologik jarayonda yuzaga keladigan muammolarning fizik sabablarini aniqlash va yechim toppish;**Texnik**

kompetensiya — zamonaviy o‘lchov vositalari, datchiklar va raqamli qurilmalardan foydalanish; **Kommunikativ kompetensiya** — tajriba natijalarini guruhda muhokama qilish va ilmiy asoslangan xulosa chiqarish;**Kasbiy kompetensiya** — fizik bilimlarni bo‘lajak kasbiy faoliyat bilan bog‘lash.

Fizik tajribalarni tashkil etish metodikasi.

1-bosqich — kasbiy muammoni qo‘yish. Talabaga real texnologik vaziyat taqdim etiladi. Masalan: “Mahsulotni quritish jarayonida haroratni qanday nazorat qilish mumkin?”

2-bosqich — fizik qonuniyatni aniqlash. Talabalar muammoni hal qilish uchun zarur bo‘lgan fizik tushunchalarni aniqlaydilar.

3-bosqich — tajribani rejalashtirish. Tajriba uchun zarur bo‘lgan asboblar, o‘lchash vositalari va tajriba shartlari belgilanadi.

4-bosqich — tajribani bajarish. Talabalar mustaqil yoki kichik guruhlarda tajribani amalga oshiradilar.

5-bosqich — natijalarni qayta ishlash. O‘lchash natijalari jadvalga kiritiladi, formulalar yordamida hisob-kitoblar amalga oshiriladi va zarur hollarda grafiklar tuziladi.

6-bosqich — kasbiy xulosa chiqarish. Olingan fizik natijaning texnologik jarayon uchun ahamiyati aniqlanadi.

Shu tarzda tashkil etilgan tajriba mashg‘uloti oddiy laboratoriya ishidan farqli ravishda talabaning kasbiy faoliyatiga yo‘naltirilgan ta’lim vositasiga aylanadi.

Taklif etilayotgan metodikani tajriba-sinov jarayonida qo‘llashda talabalarning bilim, amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhimdir.Baholashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: fizik qonun va formulalarni tushunishi; tajriba qurilmasini mustaqil yig‘ishi; o‘lchash asboblaridan to‘g‘ri foydalanishi; tajriba natijalarini qayd eta olishi; matematik hisob-kitoblarni bajarishi; grafik va jadvallar tuza olishi; natijalarni tahlil qilishi; fizik natijani texnologik jarayon bilan bog‘lay olishi; mustaqil xulosa chiqarishi.Mazkur mezonlar asosida talabalarning tajribadan oldingi va tajribadan keyingi natijalarini taqqoslash mumkin. Bunda tajriba mashg‘ulotlarini kasbiy yo‘naltirilgan holda tashkil etish talabalarning nafaqat fizik bilimlarini, balki amaliy va kasbiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Fizika tajribalarini texnologik yo‘nalishlar bilan integratsiyalash talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, fizik bilimlarning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini anglashiga yordam beradi.An’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlarida talaba ko‘pincha berilgan ko‘rsatma asosida tajribani bajaradi va tayyor formula yordamida natijani hisoblaydi. Kasbiy yo‘naltirilgan tajribada esa talaba oldiga muayyan texnologik muammo qo‘yiladi. U ushbu muammoni fizik qonuniyatlar asosida mustaqil hal qilishga harakat qiladi.Natijada ta’lim jarayonida: **nazariy bilim → tajriba → o‘lchash → tahlil → texnologik muammo → kasbiy xulosa** ketma-ketligi shakllanadi.

Raxbar faoliyatida muzokara. Muzokara olib borish ko’lami juda keng bulib,

bu soxa tashkilotdagi ayrim ziddiyatli xolatni ijobiy yo’nalishda xal etishdan boshlab, toki sarmoya jalb etishdagi ko’l ay pozitsiyani qo’lga kiritishga va xatto ziddiyatdagi tomonlarni yarashtirish yulida vositachilik vazifasini bajarish maqsadida xam ko’l laniladi. Shu bois, raxbar muzokara olib borishga oid asosiy qonun va qoidalarni bilishi, ulardan amaliy tarzda foydalana olishi lozim[1].

Muzokaraga tayyorlangan tomondan qator vazifalarni amalga oshirish talab etiladi. Bu vazifalara qatorida quyidagilarni sanab utish mumkin:

-o’zga tomonda qiziqish uygotish;

-masalaga yo’zasidan o’z nuqtai nazarini tug’ri tushuntirishga erishish va shu bilan birga o’zganing qarashi xaqida tula-tukis tasavvurga ega bo‘lish;

-o’zga tomonda xayrixoxlik harakatlarini uygotish;

-birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish va o’zgada mas’uliyat uygotish.

Muzokara olib borish bosqichlari. Muzokaraning samarali o’tishi ko’p jixatdan amalga oshirilgan tayyorgarlik jarayonining puxtaligiga bog’liq.

1. Muzokara maqsadini aniq ifodalay bilish.
2. Ushbu maqsadga erishishga yordam beruvchi vazifalarni aniqlash (ya’ni maqsadga erishish yulida qanday kadamlarni bosib utish lozim).
3. Muzokaralarning tashkiliy qismini aniqlashtirish:

-utkazish muddati

-utkazish joyi

-joyni tayyorlash

-muzokara jarayoni uchun xavflarni bartaraf etish

-delegatsiya tarkibi

-muzokaralarni moliyalashtirish manbaalari

-muzokara ishtirokchilariga sarf-harajatlar (kanselyariya anjomlari, video va audio moslamalar mavjudligi, tarnsport, aloka, ozik- ovkat ta’minoti, tanaffus va kofe-breyklar)

-o’zga tomon delegatsiyasini kutib olish va joylashtirish

madaniy dam olish dasto’rini ishlab chiqish

-sovg’a-salom va yodgorliklar

-yakuniy ziyofat

-delegatsiyalarni kuzatish.

-Muzokara asosidagi manfaatning turli darajalarini bilish.

-O’zga tomonning manfaatlarini iloji boricha batafsil tasavvur

etish.

Muzokaraning quyidagi jihatlari buyicha ma’lumot tuplashga erishish:

muxokama masalasining tarixi, xozirgi xolati va ko’rsatkichlari:

-Muzokarada ishtirok etuvchi delegatsiya vakillari xaqida ma’lumot (yoshi, kasbi, shu soxadagi tajribasi, kizikishlari, harakter xislatlari, ularning sheriklari kimlaru, raqiblari kimlar, ular orasida ikkilanuvchilar bormi va x.k.)[2].

4. Iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, psixologik soxalarda maslaxatchilarga bo’lgan extiyojni aniqlash.

5. Muzokara jarayonining umumiy ***strategiyasini*** aniqlash.
6. Vaziyatga qarab qanday harakatni amalga oshirish taktikasini belgilash.
7. Muxokama etilajak muammoning mavjud echimlarini aniqlab qo’yish.
8. Agar Muzokara uzilsa, qay tarzda maqsadga erishish yo’lini belgilash.
9. Muzokaralar o’tayotgani va natija xaqidagi ma’lumotlarni qay tarzda yoritish masalasini o’ylab qo’yish (masalan, ommaviy axborot vositalarida).

Muzokara uch natijaga erishilganda muvaffaqiyatli deb xisoblanishi mumkin:

1) oqilona kelishuv;
2) vaqtni tejash;
3) tomonlar o‘rtasidagi munosabatning yaxshilanishi (xech bo’lmaganda yomonlashmasligi).

Ta’lim jarayonining boshqaruv elementlari

Pedagogik menejmentni samarali amalga oshirish uchun boshqaruv jarayonining barcha bosqichlari o‘zaro uyg‘unlikda olib borilishi kerak. Ular quyidagilardan iborat:

1. Rejalashtirish: Ta’lim muassasalarida maqsad va vazifalarni belgilash, ularni amalga oshirish strategiyasini ishlab chiqish. Masalan, har bir semestr uchun ta’lim jarayonining strategik rejasini tuzish.
2. Tashkiliy jarayonlar: Ta’lim tashkilotining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash, hamkorlik mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish.
3. Nazorat: O‘quv jarayonining samaradorligini kuzatish, talabalar bilimini baholash va faoliyat natijalarini tahlil qilish.
4. Tahlil va takomillashtirish: Yuzaga keladigan kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Bu jarayonni izchil olib borish orqali ta’lim sifatini oshirishga erishiladi.

Pedagogik menejment fanini o‘qitish jarayonida ushbu boshqaruv elementlariga oid amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazilishi muhim. Bu talabalarni kelgusidagi boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda muhim qadam hisoblanadi.

Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” doirasida ta’lim tizimida boshqaruvning yangicha usullarini tatbiq etish orqali ta’lim sifati va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda[3].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

3. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. Kasbiy kompetentlik. (Darslik). T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022. 324 b.

4. Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools. 2004 year.

3.Effective curricula for at-risk students in vocational education: a study of teachers’ practice Fix, G.M., Ritzen, H.T.M., Pieters, J.M., Kuiper, W.A.J.M.

OLIY TA’LIMDA BO’LAJAK MUHANDISLAR UCHUN KONSTITUTSIYA TUSHUNCHASINING TARG’IBI

Nodir Botirovich Nurulloyev
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti,

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Konstitutsiya - davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradigan asosiy oliy huquqiy hujjatdir. Konstitutsiya har qanday dunyoviy, demokratik davlatdagi barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanib falsafiy mohiyatiga oid ma’lumotlar ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

Аннотация. *В статье представлена научно и теоретически обоснованная информация о месте обновленной Конституции Республики Узбекистан в социальных сферах, ее политико-правовом укреплении, ее философской сущности.*

Abstract. *This article provides scientifically and theoretically substantiated information on the place of the updated Constitution of the Republic of Uzbekistan in social spheres, its political and legal strengthening, and its philosophical essence.*

Konstitutsiya so‘zi (lot. Constitutio - tuzilish, tuzuk) - davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradigan asosiy oliy huquqiy hujjatdir. Konstitutsiya har qanday dunyoviy, demokratik davlatdagi barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi.

Ijtimoiy munosabatlarning huquqiy asoslarini paydo bo‘lishi, insoniyat tarixining uzoq davrlariga borib taqaladi. Ularni aksariyati ilohiy, ya’ni, teologik xususiyatlari bilan alohida xususiyatga ega.

Qadimgi davrlarda hukmdorlar o‘z hokimiyatlarini ilohiylashtirganligi tarixdan ko‘plab misollar ayyondir. Xususan, Misr fir’avnlari, Xitoy hukmdorlari va boshqa tamaddun o‘choqlarida paydo bo‘lgan ilk davlatlarda shunday jihatlarni bo‘lganligini aytib o‘tish mumkin. Bu davr hukmdorlarining aksariyati o‘zlarini Xudo deb e’lon qilgan bo‘lsalar, keyinchalik, o‘z hukmdorligi va hukmlarini Allohni nomidan deb, ishontirishgan. Bu jihat, musulmon Sharqida, shar’iy asosdagi ijtimoiy munosabatlarda ham to‘liq targ‘ib qilingan. E’tiborli jihati, bunday xususiyatlar hozirgacha ayrim davlatlarda saqlanib kelmoqda.

Dunyoviy asosdagi tarixiy-huquqiy manbalarga esa ***“Xammurapi kodeksi”, “Ur-Nammu kodeksi”***, “***Feodosiya kodeksi”***, ***“Solon qonunlar”***, ***“Drakont***

qonuni”, “Xett kodeksi”, “Asteklarda o‘lim jazosi”, “Mesopotamiya qonunlari”ni misol qilish mumkin[1].

Bulardan shunday xulosa qilish mumkinki, har bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar darajasi, shu davr aholisi tafakkur tarzi, ijtimoiy-falsafiy tafakkuriga mutanosib bo‘lgan. Bu yerda falsafiy jihatdan qaraganda, insonni, insoniyatni ijtimoiy ehtiyojlari juda cheksiz ekanligi, har bir qabul qilingan qaror va uni amaliyotda qo‘llanishi aynan ana shu ehtiyoj, zaruriyat farzandi deyish to‘g‘ri bo‘lardi.

O‘zbekiston zaminida ham tarixni turli davrlarida ijtimoiy-siyosiy-huquqiy munosabatlar zamon zayli va ijtimoiy-maishiy, e’tiqodiy-mafkuraviy holatdan kelib chiqib o‘zgarib, takomillashib kelgan.

Masalan, ***Amir Temur “Tuzuklar”i*** Sharq va Osiyo mamlakatlari, xususan musulmon xalqlari sivilizatsiyasiga xos alohida shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan. U shariat qonunlari bilan bir qatorda O‘rta Osiyo xalqlari taqdiriga kuchli ta’sir o‘tkazgan.

Konstitutsiya zamonaviy davlatchilikning asosiy belgisidir. Huquqshunoslikga oid manbalarda bir-biridan farqlanuvchi yuridik va haqiqiy (faktik) Konstitutsiya tushunchalari bor.

Yuridik Konstitutsiya ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi ma’lum huquqiy normalar tizimidir. Haqiqiy Konstitutsiya esa -shunday munosabatlarning o‘zi, ya’ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o‘z shakliga ko‘ra, kodekslashtirilgan, kodekslashtirilmagan va aralash turlarga bo‘linadi.

Kodekslashtirilgan Konstitutsiya - konstitutsiyaviy xususiyatga ega barcha asosiy masalalarni tartibga soluvchi bir butun yozma hujjat hisoblanadi. Agar ayni o‘sha masalalar bir necha yozilgan hujjatlar bilan tartibga solinsa, u holda Konstitutsiya kodekslashtirilmagan hisoblanadi.

Aralash turdagi Konstitutsiya parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar va sud pretsedentlari bilan birga, odatlar va nazariy sharxlarni ham o‘z ichiga oladi, ya’ni qisman yozilgan bo‘ladi. O‘zgartirish kiritish usuli bo‘yicha Konstitutsiya yumshoq va qattiq turlarga bo‘linadi. Ularning birinchisi oddiy qonun qabul qilish yo‘li bilan o‘zgartirilishi mumkin. Ikkinchisi maxsus takomillashtirilgan tartibda (parlament a’zolari ovozining malakali ko‘pchiligi, ba’zan esa referendum o‘tkazish, tuzatishlarni muayyan miqdordagi federatsiya sub’ektlari tomonidan ratifikatsiyalash va sh.k.) o‘zgartirilishi mumkin. Amal qilish muddatlari bo‘yicha Konstitutsiyalar doimiy va muvaqqat turlarga bo‘linadi.

Davlat faoliyatining turli sohalarida Konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish Oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. Konstitutsiya atamasi qadimgi Rimdayoq bor edi.

Yevropadagi mintaqasi mamlakatlari tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo‘lgan Konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi:

birinchi guruh - hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski Konstitutsiyalar. Bu xildagi Konstitutsiyalarga 1787 yilgi AQSh Konstitutsiyasi, 1831 yildagi Belgiya Konstitutsiyasi, 1874 yildagi Shveysariya Konstitutsiyasi misol bo‘la oladi;

ikkinchi guruhga - XX asrning 2-yarmida qabul qilingan “yangi avlod” Konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki Konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutitining, Konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolarga murojaat kilish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko‘payishi bilan farq qiladi.

Xalqaro konstitutsiyaviy tajribalarni o‘rganish, xalqaro hujjatlar qoidalarini inobatga olish, milliy davlatchilik an’analardan kelib chiqish natijasida yaratilgan va 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jahon andozalariga mos bo‘lib, xalqaro talablarga javob beradi[2].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toskent, 2023. - 41-b.

3. Malikova G.R., Normuhamedova S.B. Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish huquqi: O’quv qo’llanma. – Toshkent, 2023. – 88 bet.

4. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – To’ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. − 330-343-betlar.

5. Mamatov X.T. Konstitutsiyaviy huquq: darslik. – Toshkent: Yurist-media markazi, 2018. 371-391-b.

6. Masharipova G.K. Xorazm Ma’mun akademiyasi allomalari tabiiy-ilmiy merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri. Falsafa fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. 2021. 302 b.

OLIY TA’LIM MUASSASALARINDA CHIZMA GEOMETRIYANI O‘QITISHNING INNOVATSION USULLARI.

katta o‘qituvchi O.R.Azimov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Oliy ta’lim muassasalarida chizma geometriyani o‘qitishning innovatsion usullarini modernizatsiyalash yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье освещена модернизация инновационных методов преподавания начертательной геометрии в высших учебных заведениях.*

Abstract. *This article highlights the modernization of innovative methods for teaching descriptive geometry in higher education institutions.*

Texnik yo‘nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash katta hajmdagi grafik axborotni (chizmalarni) uzoq masofalarga uzatishni talab etadi. Bunda chizmalarni yoki, chizma geometriya haqida gapiradigan bo‘lsak, epyurlarni har ikki yo‘nalishda: talabadan o‘qituvchiga va kiritilgan mulohazalar bilan ortga yuborish talab qilinadi. Masofaviy metodikalarni qo‘llash odatiy pochta jo‘natmalari o‘rniga kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda axborotning dinamik almashinuvini nazarda tutadi. Shu munosabat bilan, ta’limda qog‘ozdagi muhandislik grafikasi rad etilishi hamda loyiha hujjatlarining kompyuter axborot tashuvchilariga o‘tkazilishi bilan bog‘liq muammo birinchi o‘ringa chiqadi. Bunday holda, kompyuterda AutoCAD tizimida tayyorlangan grafik fayllarni uzatish hech qanday muammo tug‘dirmaydi, faqat ta’lim standartlari barcha chizmachilikni istisnosiz ravishda kompyuter grafikasiga o‘tkazishni nazarda tutmaydi.

Chizma geometriyaning asosi geometrik shakllarni ortogonal proyeksiyalarda o‘rganishdan iborat, ya’ni fazoviy shakllarning xossalari bevosita chizmaning o‘zi bo‘yicha o‘rganiladi. Boshqacha aytganda, talabaning ko‘z oldida o‘rganilayotgan asl nusxalar emas, balki faqat ularning tekis tasvirlari bo‘ladi. Ko‘rib chiqilayotgan fanning eng katta murakkabligi ham shundadir. Shunday qilib, chizma geometriya chizmachilik kursi uchun nazariy baza hisoblanadi va u bilan chambarchas bog‘liqdir.

Chizma geometriya kursi elementar geometriya – planimetriya va stereometriya asoslarini bilishga tayanadi, shuning uchun keyinchalik chizma geometriya kursida foydalaniladigan elementar geometriyaning ta’riflari va teoremalariga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda nuqtalar va chiziqlarning geometrik o‘rinlari metodiga alohida to‘xtalib o‘tish kerak [4].

Dastlab talabalarga masalalarni fazoda yechishni, ya’ni qo‘yilgan masalani fazoviy tasavvur kuchi bilan modellashtirishni o‘rgatish lozim. Faqat masalaning barcha elementlari o‘z o‘rniga qo‘yilgandan so‘ng, ya’ni talaba o‘z masalasini fazoda ko‘ra olganidan keyingina chizma geometriya usullari bilan uni tekislikda tasvirlashga o‘tish mumkin. Masalaning boshlang‘ich ma’lumotlarini to‘g‘ri tahlil qila olish ko‘nikmasiga alohida e’tibor qaratiladi, chunki barcha keyingi amallar aynan to‘g‘ri o‘tkazilgan tahlildan кelib chiqadi.

Chizma geometriya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun asosiy o‘quv qo‘llanmasi “Ishchi daftar” hisoblanadi. U talabalar yechimlarni bevosita ishchi daftarning o‘zida bajaradigan va grafik shartni qayta chizishga qo‘shimcha vaqt sarflamaydigan qilib tuzilishi kerak. Bundan tashqari, qayta chizishda grafik shartning buzilishi natijasida xato yechim chiqarish ehtimoli istisno etiladi.

Kursni o‘zlashtirishga ham chizma geometriya uchun maxsus tayyorlangan, ham mavjud texnik detallar ko‘rinishidagi modellardan foydalanish, shuningdek Flash-animatsiyalarni namoyish etish yordam beradi. Biroq tajriba shuni ko‘rsatadiki, modellarga ortiqcha berilib ketmaslik kerak, chunki bu mustaqil fazoviy tafakkurni sekinlashtiradi. Modellardan faqat talabalarda qandaydir qiyinchiliklar yuzaga kelgan hollardagina foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Har bir o‘quv fani, shu jumladan chizma geometriya ham ushbu fanning mohiyatini mustahkamlaydigan hamda o‘qitish yondashuvlari va usullarini belgilashga xizmat qiladigan o‘qitish konsepsiyasini ishlab chiqishga muhtojdir. Fanni o‘qitish usuli umumiy didaktikaga asoslanadi, shu bilan birga, ushbu metodika didaktikaning zaruriy manbasi hisoblanadi [3]. Didaktika va metodika o‘rtasida umumiy va xususiy tushunchalar o‘rtasidagi kabi nisbat mavjud. Didaktikaning eng muhim vazifalaridan biri alohida fanlarni o‘qitish metodikalarida mavjud bo‘lgan tajriba va umumlashmalarni imkon qadar chuqurroq aks ettirishdan iboratdir.

Oliy maktab metodikasi ilmiy va o‘quv asoslarini birlashtiradi, bunda o‘quv asosi har doim ilmiy asosga tayanadi. O‘qitish metodikasi ilmiy mazmun va metodlardan kelib chiqadi. Ilmiy metod fanda nima mumkin va nima imkonsiz ekanligini baholash imkonini beradi.

Ma’ruzani olib borishning metodik tomoni o‘qitish nazariyasidan ijodiy foydalanishga asoslanadi.

Asosiy pedagogik talablardan biri — har bir mashg‘ulot qiziqarli hamda tinglovchilarda fan mohiyatini chuqur anglash ishtiyoqini uyg‘otadigan bo‘lishidir.

O‘qitishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, o‘qitish metodlarini aniq o‘quv vazifalarini yechishning didaktik tizimini loyihalash va amalga oshirish (faoliyat ko‘rsatish) sifatida ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Chizma geometriya masalalari murakkablikning keng diapazonini qamrab oladi — oddiy o‘quv masalalaridan tortib, noyob, loyihaviy-amaliy masalalarni aniqlash va yechishgacha. Muammoli ta’lim talabalardan mustaqil ijodiy izlanishni talab etadi.

O‘quv materiallari va test topshiriqlarini matn hamda tasvirlar ko‘rinishida taklif etuvchi ta’lim tizimlari azaldan mavjud; bunday tizimlardagi axborot chiziqli yoki daraxtsimon tuzilmaga ega bo‘lib, zamonaviy variantlarida gipermatn va multimedia vositalari qo‘llaniladi hamda ta’lim oluvchi bilan masofaviy o‘zaro ta’sir ta’minlanadi. Muallif chizma geometriya bo‘yicha bir qancha elektron o‘quv qo‘llanmalar bilan tanish. Ular o‘rtasidagi farq, asosan, mavzularning joylashuvi va illyustratsion materialning sifatidadir. Ko‘rgazmalilikni oshirish muammosi qo‘yilgan hamda chizma geometriya masalalarini yechishni vizuallashtirishning oddiy va samarali vositalari taklif etilgan. Biroq ma’lum bo‘lgan eng yaxshi tizimlarda ham Monj usuli bo‘yicha tekislikdagi yasalmalar tegishli hajmga ega ob’yektlarni hosil qilmaydi [1].

Monj epyurida yasalmalarni bajarish va bir vaqtning o‘zida ob’yektlarning uch o‘lchamli ko‘rinishlarini hosil qilish hamda natijalarni aksonometriyada ko‘rib chiqish imkonini beruvchi ta’lim tizimining bir nechta versiyasi ishlab chiqildi. Tizim ham foydalanuvchi boshqaruvi ostida ishlash, ham o‘rgatuvchi darslarni ijro etish (rejimida) qo‘llanilishi mumkin. Darslarni yaratish uchun geometrik shakllar va ular ustidagi amallarni tavsiflovchi maxsus tildan foydalaniladi. Darslar matn muharriridan foydalangan holda ham, foydalanuvchi xatti-harakatlarini eslab qolish rejimida ham shakllantirilishi mumkin. Bunda ob’yektlar ustidagi har bir amalga yuqorida tilga olingan tilning bir yoki bir nechta jumlasi mos qo‘yiladi.

O‘quv jarayoniga kompyuter texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Insoniyat taraqqiyoti uning ishlab chiqaruvchi kuchlari rivojlanish darajasi va eng avvalo, shakllanishiga muayyan talablar qo‘yiladigan inson intellekti bilan belgilanadi; bular — diqqatni taqsimlash va vaqt cheklanganligi sharoitida axborotni adekvat idrok etish va unga ishlov berish hamda kasbiy kompetentlikdir.

Grafik tayyorgarlikning maqsadlari oddiy geometrik yasashlar ko‘nikmalarini, grafik muharrirda ishlashning boshlang‘ich ko‘nikmalarini (geometrik grafika), og‘zaki-vizual axborotni tahlil qilishni (proyeksion grafika) shakllantirish hamda texnik hujjatlarni yaratishda mehnat unumdorligini oshirishdan (mashina grafikasi) iboratdir. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining o‘quv dasturlari fikrlashning og‘zaki-mantiqiy xarakterini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning mantiqiy-obrazli komponentini rivojlantirish e’tibordan chetda qolmoqda. Buni ustiga, so‘nggi yillarda fazoviy idrokni rivojlantiruvchi fanlar hajmi tizimli ravishda qisqartirib borilmoqda. Obrazli

geometrik fikrlashni shakllantirishni hozirgi vaqtdagiga qaraganda barvaqtroq yoshdan boshlash zarur. Boshlang‘ich, o‘rta va oliy kasb-hunar ta’limini isloh qilishda nomutanosiblik kuzatilmoqda. Buning oqibati o‘laroq, birinchi va ikkinchi bosqich talabalarida fazoviy tasavvurlarning yetarlicha rivojlanmagani namoyon bo‘lmoqda [2].

Fazoviy tasavvur ko‘nikmalarini shakllantirish geometriya elementlari, chizma geometriya, muhandislik grafikasi va SAPR (loyihalashni avtomatlashtirish tizimlari)ni o‘rganishdan boshlanadi. Fazoviy tasavvurni o‘rgatishning an’anaviy tashkiliy tamoyillari nisbatan katta o‘quv yuklamasi hajmiga asoslangan edi. Bunday yondashuv o‘zini oqlagan bo‘lsada, fanning o‘quv hajmini tizimli ravishda qisqartirish tayyorgarlik darajasining sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda chizmachilik kursi o‘rta maktab dasturidan chiqarilgan hamda o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida muhandislik grafikasi soatlari hajmi deyarli ikki baravarga qisqartirilgan. Bu aqliy faoliyatning tahliliy ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo‘ydi.

Loyihalashni avtomatlashtirish usullari va vositalarining jadal rivojlanish tezligi geometrik modellashtirishning pedagogik jihatlarini tadqiq qilish zaruratini o‘tkir qilib qo‘ydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Азимов, О. Р. (2022). Классификация передовых педагогических технологий в отборе талантливых студентов на примере инженерно-графических наук. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, *3*(6), 16-21.

2. Azimov, O. R., & Mahamatrasul, E. (2022). TALABALARNING MUSTAQIL TARTIBDA BAJARADIGAN GRAFIK ISHLARIDAGI KO ‘P UCHRAYDIGAN “XATO” VA “KAMCHILIK” LAR TAXLILI HAMDA ULARNI BARTARAF ETISH YO ‘LLARI HAQIDA. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, *2*(8), 110-116.

3. https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-metody-prepodavaniya-nachertatelnoy-geometrii-v-vuzah/viewer

4.Azimov O.R. TA’LIMDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. https://doi.org/10.5281/zenodo.11501223

MOLIYAVIY-IQTISODIY ATAMALARNING STRUKTUR TAHLILI: SODDA, YASAMA, QO'SHMA VA ATAMAVIY BIRIKMALARNING QIYOSIY TAHLILI

tadqiqotchi. D.A. Rasulova
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqola zamonaviy moliyaviy-iqtisodiy terminologiyaning strukturaviy tuzilishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ingliz tilidagi iqtisodiy atamalar to‘rtta asosiy struktur turga ajratilib, ularning morfologik, semantik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Abstract. *This article is devoted to the study of the structural organization of modern financial and economic terminology. In the study, English economic terms are classified into four main structural types, and their morphological, semantic, and functional characteristics are analyzed.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению структурной организации современной финансово-экономической терминологии. В исследовании английские экономические термины классифицируются на четыре основные структурные типа, а также анализируются их морфологические, семантические и функциональные особенности.*

Zamonaviy jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, moliyaviy bozorlarning globallashuvi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi natijasida moliyaviy-iqtisodiy terminologiya doimiy ravishda kengayib, yangi tushunchalar va atamalar bilan boyib bormoqda. Iqtisodiy fan va amaliyot tili o‘ziga xos tizim sifatida shakllanib, unda aniq bir sohaga oid tushunchalar, kategoriyalar, jarayon va hodisalarni ifodalovchi turli tuzilishdagi atamalar jamlangan. Terminlarning strukturaviy tahlili nafaqat tilshunoslik, balki terminologiya, tarjimashunoslik va iqtisodiy ta’lim metodikasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki atamalarning tuzilishini bilish ularni to‘g‘ri tushunish, izohlash va boshqa tillarga adekvat tarjima qilish imkonini beradi. Moliyaviy-iqtisodiy terminologiya o‘zining ko‘p qatlamliligi, tizimli bog‘liqligi va termin yasash usullarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu sohadagi atamalar oddiy bir o‘zakli so‘zlardan tortib, murakkab ko‘p komponentli birikmalargacha bo‘lgan keng qamrovni o’z ichiga oladi. Ularning strukturaviy tuzilishi semantik yuklamaga, qo‘llanish doirasiga va iqtisodiy tushunchaning murakkablik darajasiga qarab farqlanadi. Shu sababli, moliyaviy-iqtisodiy atamalarni strukturaviy tasniflash ularning mohiyatini chuqurroq anglash, tizimli aloqalarini aniqlash va tarjima amaliyotida yagona yondashuvni ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — zamonaviy moliyaviy-iqtisodiy terminologiyani strukturaviy tahlil qilish, atamalarni sodda, yasama, qo‘shma va atamaviy birikmalar turlariga ajratib, ularning morfologik, semantik va funksional xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish hamda har bir struktur turga xos tarjima usullarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari qatoriga atamalarning struktur turlar bo‘yicha miqdoriy nisbatini aniqlash, har bir turga xos yasovchi qo‘shimchalar va modellarni tavsiflash, semantik xususiyatlarini ochib berish hamda tarjima amaliyotida qo‘llaniladigan usullarni tizimlashtirish kiradi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy-iqtisodiy terminologiyaning strukturaviy tahlili atamalarni to‘rtta asosiy guruhga ajratish imkonini beradi. Bu tasnif atamalarning morfologik tuzilishi, ya’ni ular nechta o‘zak va yordamchi morfemalardan tashkil topganligi, shuningdek, semantik yaxlitlik darajasi asosida amalga oshiriladi.

Sodda atamalar bir o‘zakdan iborat bo‘lib, asosiy iqtisodiy tushunchalarni ifodalaydi va terminologik tizimning negizini tashkil qiladi. Ushbu guruhga bank, cash, debt, tax, price, value, profit, market, firm, bond, share, loan, rent, wage, money, cost, demand, unemployment, productivity, investment, saving, risk, liquidity, solvency, assets, liabilities, equity, dividend, interest kabi atamalar kiradi. Sodda atamalar ma’no jihatidan turg‘un, kontekstga nisbatan kam bog‘liq va tarjimada odatda ekvivalent so‘zlar bilan beriladi. Masalan, ingliz tilidagi bank so‘zi o‘zbek tilida ham bank, price — narx, tax — soliq, debt — qarz, profit — foyda sifatida bir so‘z bilan tarjima qilinadi. Sodda atamalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular boshqa atamalar yasalishi uchun asosiy o‘zak vazifasini ham bajaradi. Jumladan, market so‘zidan marketability, marketer, marketing, supermarket, marketplace kabi ko‘plab yangi atamalar yasalgan.

Yasama atamalar suffiks va prefikslar yordamida yasalgan bo‘lib, asosiy ma’noga jarayon, holat, xususiyat, munosabat yoki faoliyat sub’ektini ifodalovchi qo‘shimcha semantik yuklamalarni oladi. Moliyaviy-iqtisodiy terminologiyada eng faol qo‘llaniladigan yasovchi qo‘shimchalar sirasiga quyidagilar kiradi: -*ation/-tion* (capitalization, liberalization, privatization, stabilization, amortization, allocation, urbanization), -*ment* (assessment, management, employment, adjustment, development, establishment, payment, requirement), -*ity* (liquidity, elasticity, productivity, commodity, equity, facility, integrity, utility), -*ism* (capitalism, socialism, protectionism, monetarism, mercantilism, paternalism), -*ist* (economist, specialist, capitalist, socialist, protectionist, monopolist, oligopolist), -or/-er (investor, broker, consumer, producer, trader, borrower, lender, manager, leader), -*able/-ible* (adjustable, convertible, sustainable, reliable, available, responsible), -*ive* (adaptive, affirmative, allocative, competitive, effective, efficient, excessive), -*al* (capital, financial, commercial, industrial, natural, real,

fiscal, monetary), -*ous* (continuous, enormous), -ic (economic, specific, basic, elastic, public), -y (economy, industry, property, security, variety, equity), -ure (expenditure, structure, culture), -age (average, shortage, usage), -ance/-ence (performance, balance, finance, evidence, existence). Yasama atamalar ko‘pincha o‘zbek tiliga qo‘shimchalar orqali — masalan, globalization — globallashuv, investment — investitsiya, liquidity — likvidlik, productivity — mahsuldorlik, capitalism — kapitalizm, economist — iqtisodchi, adjustable — moslashuvchan, competitive — raqobatbardosh shaklida tarjima qilinadi.

Qo‘shma atamalar ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning barqaror birikmasidan tashkil topgan bo‘lib, yaxlit tushunchani ifodalaydi. Ushbu guruh lug‘atning eng katta qismini tashkil qiladi va iqtisodiy tushunchalarning murakkab tizimli bog‘liqligini aks ettiradi. Qo‘shma atamalarga absolute advantage, ability to pay, accelerator principle, active fiscal policy, adverse selection, balance of payments, balance sheet, base rate, beggar-my-neighbour policy, economic growth, economic integration, effective demand, electronic commerce, employment rate, equilibrium price, equity capital, excess demand, exchange rate, excise duty, factor cost, fixed capital, fixed cost, fixed exchange rate, unemployment benefit, unit cost, value added, variable cost, venture capital, wage rate, working capital kabi ko‘plab atamalar kiradi. Qo‘shma atamalar odatda aniqlovchi va aniqlanmish munosabati asosida tuzilgan bo‘lib, o‘zbek tiliga ham birikma shaklida tarjima qilinadi: balance of payments — to‘lov balansi, business cycle — iqtisodiy sikl, bank capital — bank kapitali, foreign trade — tashqi savdo, market economy — bozor iqtisodiyoti, interest rate — foiz stavkasi.

Atamaviy birikmalar uch va undan ortiq so‘zlardan tashkil topgan, barqaror va ko‘pincha idiomatik xususiyatga ega terminologik birliklardir. Ular murakkab iqtisodiy hodisalar, nazariyalar, modellar, siyosatlar va institutsional tushunchalarni aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Bu turga absolute income hypothesis, accelerator principle, active fiscal policy, ad valorem tax, adverse supply shock, affirmative action, agency theory, agio theory of interest, capital asset pricing model, certificate of deposit, consumer price index, demand curve, demand management, diminishing returns, direct foreign investment, discount rate, disposable income, division of labour, economic growth, economic integration, effective exchange rate, tariff barrier, tax evasion, tax haven, terms of trade, trade union, transfer income, unemployment insurance, value added tax, venture capital, wage rate kabi misollar kiradi. Atamaviy birikmalar o‘zbek tiliga ko‘pincha kalkalash (gross domestic product — yalpi ichki mahsulot, value added tax — qo‘shilgan qiymat solig‘i) yoki tavsifiy usulda (adverse supply shock — noqulay taklif shoki, rational expectations — ratsional kutilmalar) tarjima qilinadi. Ushbu guruh umumiy atamalarning taxminan 23 foizini tashkil qiladi.

Qo‘shma va atamaviy birikmalar umumiy atamalarning 63 foizini tashkil etib, bu moliyaviy-iqtisodiy terminologiyaning analitik va tavsifiy xususiyatini yaqqol namoyish etadi. Bunday yuqori ko‘rsatkich iqtisodiy fan tilining aniqlik, ixchamlik va tushunchalarni mantiqiy bog‘lashga intilishi bilan izohlanadi. Sodda atamalar fundamental tushunchalarni ifodalab, terminologik tayanch vazifasini bajaradi. Yasama atamalar esa jarayon, holat va xususiyatlarni ifodalashga xizmat qilib, atamalarning semantik doirasini kengaytiradi. Qo‘shma atamalar iqtisodiy munosabatlar va institutsional tushunchalarni, atamaviy birikmalar esa murakkab nazariy konstruksiyalar va tizimli hodisalarni ifodalashga ixtisoslashgan.

Tarjima amaliyoti nuqtai nazaridan, struktur turlarning o‘zbek tiliga o‘tkazilishi turlicha usullarni qo‘llashni taqozo etadi. Sodda atamalar, qoidaga ko‘ra, ekvivalent so‘z bilan tarjima qilinadi. Yasama atamalarda ko‘pincha o‘zbek tiliga mos qo‘shimchalar orqali o‘tkazish mumkin, biroq ba’zi hollarda (masalan, affordability, marketability kabi) tavsifiy tarjimaga murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. *Qo‘shma atamalarda tarjima* tarkibiy qismlarning tartibi va ma’nosiga bog‘liq holda amalga oshiriladi: ba’zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kalkalash (balance of payments — to‘lov balansi), ba’zan semantik moslashtirish (business cycle — iqtisodiy sikl) usuli qo‘llaniladi. Atamaviy birikmalar esa tushuntirish va tavsifni talab qiladi, chunki ularning tarkibiy qismlari yig‘indisidan farqli ravishda yaxlit ma’no kasb etadi.

Qo‘shma va atamaviy birikmalarning tarjimasida so‘z tartibi, aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlari, shuningdek, iqtisodiy kontekstni to‘g‘ri tushunish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ingliz tilida aniqlovchi odatda aniqlanmishdan oldin keladi (market economy), o‘zbek tilida esa ko‘pincha teskari tartib (bozor iqtisodiyoti) qo‘llaniladi. Predlogli birikmalarda (balance of payments, rate of interest) predlog o‘zbek tilida izofa konstruksiyasi orqali (to‘lov balansi, foiz stavkasi) ifodalanadi. Murakkab tarkibli atamalarda (capital asset pricing model) tarkibiy qismlarning o‘zbek tilidagi tartibi ingliz tilidagi tartibdan farq qilishi mumkin va qo‘shimcha grammatik vositalar (izofa, sifatlash) qo‘llaniladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda moliyaviy-iqtisodiy terminologiyaning strukturaviy tahlili quyidagi asosiy xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, ingliz tilidagi iqtisodiy atamalar tarkibida qo‘shma va atamaviy birikmalar yetakchi o‘rinni egallab, ular umumiy atamalarning 63 foizini tashkil etadi. Bu holat iqtisodiy tushunchalarning murakkabligi, tizimli bog‘liqligi va aniq ifodalanishga bo‘lgan talab bilan bevosita bog‘liqdir. Sodda atamalar (13%) va yasama atamalar (24%) nisbatan kamroq uchraydi, biroq ular terminologik tayanch vazifasini o‘tab, yangi atamalar yasalishi uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir struktur tur o‘ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga ega. Sodda atamalar fundamental tushunchalarni ifodalab, yuqori darajadagi turg‘unlik va kontekstga nisbatan kam bog‘liqlik bilan ajralib tursa, yasama atamalar jarayon, holat, xususiyat va munosabatlarni ifodalab, yasovchi qo‘shimchalarning turlicha semantik yuklamasi orqali atamalarning ma’no doirasini kengaytiradi. Qo‘shma atamalar iqtisodiy munosabatlar, institutsional tushunchalar va bozor hodisalarini, atamaviy birikmalar esa murakkab nazariy konstruksiyalar, modellarni ifodalashga ixtisoslashgan. Atamalarning struktur xususiyatlari ularning tarjima usullarini belgilab beradi. Sodda atamalar ekvivalent tarjima, yasama atamalar ko‘pincha qo‘shimchalar orqali yoki tavsifiy usulda, qo‘shma atamalar kalkalash yoki semantik moslashtirish orqali, atamaviy birikmalar esa asosan tavsifiy usulda tarjima qilinadi.

Ushbu tadqiqot natijalari terminologik lug‘atlar tuzish, iqtisodiy o‘quv va ilmiy matnlarni tarjima qilish hamda iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashev T. Iqtisodiy atamalarning o‘zbekcha-inglizcha-ruscha lug‘ati. – Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2020.

2. Qosimova M., Jabborova Sh., Ziyoratova M. O‘zbek tilida iqtisodiyotga oid atamalarni qo‘llanishi. Iqtisodiy va innovatsion texnologiya ilmiy elektron jurnali. – 2024. – №4. – B.

3. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug‘ati / Tahrir hay’ati: A. Vahobov, B. Xodiyev va boshq. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2004.

4.Routledge Dictionary of Economics. – 3rd ed. – London: Routledge, 2012.

5. Black J., Hashimzade N., Myles G. A Lexicon of Economics. – Oxford: Oxford University Press, 2009.

6. Structural and Semantic Analysis of Economic Terms Samafind.sama.gov.sa. – 2022. – URL: https://samafind.sama.gov.sa

7. Word Building Models of Some English Basic Compound Terms Vestnik On-line. – 2020. – №3. – B

8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Atamalar lug‘ati – 2026. – URL: https://www.hukumat.uz

TIL O‘RGATISHDA TABAQALASHTIRILGAN (DIFFERENSIAL) YONDASHUV VOSITASIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH

T.Sattorova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada to‘liq o‘rta ta’limning yuqori bosqichida o‘quvchilar tarkibining geterogenligi, ularning kasbiy yo‘nalganligi, motivatsiyasi va individual xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif differensial va individuallashtirilgan yondashuvni zamonaviy pedagogik sharoitda samarali yechim sifatida asoslaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasi, faoliyatga asoslangan, madaniyatshunoslik hamda kommunikativ-kognitiv yondashuvlar uyg‘unligida chet tilini o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari ochib beriladi. Shuningdek, chet tilini o‘qitishning ikki darajali (bazaviy va profil) modeli hamda uning davlat ta’lim standartlari va Yevropa mezonlari (B1 darajasi) bilan uyg‘unligi ko‘rib chiqiladi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются современные педагогические условия старшей ступени общего среднего образования с учетом гетерогенного состава учащихся, различий в их профессиональной направленности, мотивации и индивидуально-психологических особенностях. В качестве эффективного решения обосновывается необходимость применения дифференцированного и индивидуализированного подходов. Раскрывается значение личностно-ориентированной парадигмы образования в единстве с деятельностным, культурологическим и коммуникативно-когнитивным подходами. Также рассматривается двухуровневая модель обучения иностранному языку (базовый и профильный уровни) в соответствии с государственными образовательными стандартами и общеевропейскими требованиями (уровень B1).*

Abstract. *The article examines the modern pedagogical conditions at the upper stage of secondary education, taking into account the heterogeneous composition of students, differences in their professional orientation, motivation, and individual psychological characteristics. The necessity of differentiated and individualized instruction is substantiated as an effective solution under such complex conditions. The study highlights the importance of a learner-centered educational paradigm integrated with activity-based, cultural, and communicative-cognitive approaches. Furthermore, the two-level model of foreign language instruction (basic and profile levels) is discussed in accordance with national educational standards and the Common European Framework requirements (B1 level).*

Zamonaviy globallashuv jarayonlari va xalqaro integratsiyaning jadallashuvi chet tillarini o‘qitish tizimi oldiga nafaqat til o‘rgatish, balki raqobatbardosh, lingvistik jihatdan yetuk shaxsni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’lim paradigmasining "o‘qituvchi markazidan" (teacher-centered) "o‘quvchi markaziga" (student-centered) ko‘chishi lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda ta’lim oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. An’anaviy "yagona qolip" (one-size-fits-all) yondashuvi o‘quvchilarning turlicha o‘zlashtirish sur’ati va kognitiv imkoniyatlari sharoitida o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda.

Lingvistik kompetensiya va differensial ta’lim masalalari N. Chomsky, I. Bim, va E. Passov kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Biroq, ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini (xotira turi, temperament, kognitiv uslublar) differensial modellashtirish prinsiplari asosida o‘rganish hamon metodik tizimlashtirishga muhtoj.

To‘liq o‘rta ta’limning yuqori bosqichida zamonaviy pedagogik sharoitlar ma’lumki, to‘liq o‘rta ta’limning yuqori bosqichi o‘quvchilar tarkibi jihatidan nihoyatda geterogen, ya’ni turlicha xususiyatlarga ega bo‘lgan guruhdan iborat. Bu bosqichda o‘quvchilarning kasbiy yo‘nalganligi, qiziqishlari, motivatsiyasi va shaxsiy rejalari o‘zaro sezilarli darajada farqlanadi.

Ba’zi o‘quvchilarda kasbiy o‘zini aniqlash jarayoni ancha shakllangan bo‘ladi: ular kelajakda qaysi sohada faoliyat yuritishni istashlarini aniq biladilar. Boshqa bir guruh o‘quvchilar hali ikkilanadi, ularning qiziqishlari keng, ammo aniq yo‘nalish belgilanmagan bo‘ladi. Uchinchi toifa o‘quvchilar esa kasbiy tanlov masalasida mutlaqo qat’iy qarorga kelmagan bo‘lib, ular ko‘pincha tashqi ta’sirga beriluvchan yoki yetarli axborotga ega emas bo‘ladilar.

Bunday holat, ayniqsa, asosiy maktab bosqichida kasbga yo‘naltirish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan taqdirda yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Agar turli fanlar doirasida zamonaviy kasblar haqida suhbatlar o‘tkazilmasa, mutaxassislar bilan uchrashuvlar tashkil qilinmasa, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarida “ochiq eshiklar kunlari” o‘tkazilmasa hamda qiziqishlarga mos to‘garak va fakultativ mashg‘ulotlar yetarli bo‘lmasa, o‘quvchilarning kasbiy orientatsiyasi sust shakllanadi.

Chet tiliga munosabatning turlicha bo‘lishi yuqori sinflarda chet tiliga bo‘lgan munosabat ham bir xil emas. Hozirgi globallashuv sharoitida xorijiy tillarning ahamiyati barchaga ayon. Biroq o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish darajasi keskin farqlanadi.

Ayrim o‘quvchilar tilni oson o‘zlashtiradi va hatto ularning kelajakdagi kasbiy yo‘nalishi boshqa soha (masalan, iqtisodiyot, jurnalistika, informatika yoki tabiiy fanlar) bilan bog‘liq bo‘lsa ham, ular chet tilini mukammallashtirish zarurligini anglaydi.

Boshqa o‘quvchilar esa xorijiy tilni o‘zining kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘laydi (tarjimonlik, pedagogika, lingvistika, filologiya va boshqalar).

Shu bilan birga, ayrim o‘quvchilar uchun chet tili murakkab fan hisoblanadi. Ular o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha ortda qolgan, motivatsiyasini yo‘qotgan, hatto tilni o‘rganish imkoniyatiga ishonchini yo‘qotgan bo‘lishi mumkin. Biroq ular ham kamida elementar kommunikativ darajada tilni bilishni istashlari ehtimoldan xoli emas.

Bundan tashqari, 10-sinf tarkibi turli maktablardan kelgan o‘quvchilardan shakllanishi mumkin, bu esa avvalgi ta’lim sifati va metodik yondashuvlarning turlicha bo‘lishi sababli bilim darajasidagi tafovutni yanada kuchaytiradi.

Differensial va individuallashtirilgan yondashuv zarurati bunday murakkab sharoitda barcha o‘quvchilarning imkoniyat va ehtiyojlarini qanday hisobga olish mumkin? Buning yagona samarali yo‘li — differensial va individuallashtirilgan ta’lim yondashuvini qo‘llashdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga o‘tish bu jarayon uchun real shart-sharoit yaratadi. O‘quvchilar individual ta’lim trayektoriyasini tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan (insonparvarlikka asoslangan) yondashuv ta’lim va tarbiyaning konseptual asosini tashkil etadi. U o‘quvchi shaxsining rivojlanishi, o‘zini anglash, o‘zini namoyon qilish va ijtimoiy moslashuviga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv quyidagi konsepsiyalar bilan uyg‘unlikda amalga oshiriladi:

faoliyatga asoslangan yondashuv (inson faoliyat jarayonida rivojlanadi);

madaniyatshunoslik yondashuvi (ta’lim — bu shaxsning madaniyatga kirib borish jarayoni);

kommunikativ-kognitiv yondashuv (bilish va muloqot faoliyati ta’limning asosiy vositasi sifatida qaraladi).

Chet tilini o‘qitishning ikki darajali modeli bu zamonaviy davlat ta’lim standartlariga muvofiq, chet tilini o‘qitish ikki darajada amalga oshiriladi:

1. Umumta’lim (bazaviy) daraja — haftasiga 3 soat.
3.P tekislik gorizontali h ning frontal izi yasaladi: N(N′,N″);

4.N″ orqali tekislik frontalining frontal f′ proyeksiyasiga parallel to‘g‘ri chiziq o‘tkazib, P tekislikning frontal izi (P_V) yasaladi.

Ushbu algoritmni ramziy belgilardan foydalanib quyidagicha ifodalash mumkin:


1. f∩H=M(M′,M″): f″∩OX=M″, M″↓M′∈ f′;
2. M′⊂(P_H)∥h′.
3. h∩V=N(N′,N″): h′∩OX=N′, N′↑N″∈ h″; (1)
4. N″⊂(P_V)∥f″.

Tekisliklarning izini yasashda uchraydigan oson va qulay yechiladigan tekislikning bunda y, gorizontal va frontal chiziqlar bilan ifodalanib berilishiga tekislikni **qulay vaziyatga keltirish** deb nomladik (1-algoritm).



1-rasm

2-rasm




3-rasm

Agar tekislikizlarini qurish masalalarida tekislik ixtiyoriy to‘g‘ri chiziqlar yordamida berilgan bo‘lsa, 3-rasm, ularning gorizontal va frontal chiziqlarini o‘tkazib, qulay berilishga keltirib, 2-rasmdagidek, 1-algoritm asosida tushungan holda oson va qulay yechiladi [2].


Ixtiyoriy tekisliklarni bunday kreativ yondashuv asosida qulay vaziyatga keltirish pozitsion masalalarni yechishda quyidagi afzallikka ega ekanligini ko‘rsatdi:

1. Tekislikning izlarini ularni qulay ko‘rinishga keltirib qurishda bajarilgan amallar – manipulyatsiyalar soni 60-65 foizga kamayadi, yani 18 tadan 8 taga, 4, 5 rasmlar. Bunda ixtiyoriy tekisliklarni qulay berilishga keltirishdagi 10 ta manipulyatsiyalar soni hisobga olinmadi. Chunki, tekisliklarning izlarini muqaddam foydalanib kelinayotgan algoritm asosida qurib bo‘lgach, ularni to‘g‘ri o‘tkazilgan ($P_H \| h'$ va $P_V \| f''$) ligini tekshirib ko‘rishda tekislikning maxsus chiziqlarini o‘tkazilishini inobatga olib xisoblanmadi.



4-rasm

2. Ixtiyoriy tekisliklarni qulay berilishga keltirib izlarini topishda, ularni maxsus chiziqlarini bittadan izlarini toppish kifoyadir. Chunki, tekislik izlarining ikkinchi nuqtalari gorizontal va frontal chiziqlar yo‘nalishi bo‘yicha xosmas nuqtalar bo‘ladi. Shuning uchun topilgan M va N nuqtalardan quyidagicha o‘tkaziladi: M$\subset P_H \| h'$ va N$\subset P_V \| f''$.



5-rasm

3. Grafik yasashlarni chizma ko‘lamidan tashqariga chiqib ketmasligi kerak.

4. Qurilgan izlarni to‘g‘ri ($P_H \| h'$ va $P_V \| f''$) ekanligini yoki xatoligini tekshirishga xojat bo‘lmaydi.

5. Ixtiyoriy vaziyatdagi tekisliklar berilishini qulay berilishga keltirib, yagona 1-algoritm asosida yechilishi kabi afzalliklarga ega bo‘linadi[3].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan pozitsion masalani, ixtiyoriy vaziyatda berilgan tekisliklarni qulay berilishga keltirib, osonroq yechish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ортиков, О. А., Абдурахимова, Ф. А., & Халилова, Х. Э. (2019). Обучение студентов трёхмерному техническому моделированию электронных моделей предметов. *Точная наука*, (65), 19-20.

2. Sindarova, S. M., Rikhsibaev, U. T., & Khalilova, H. E. (2022). THE NEED TO RESEARCH AND USE ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE RESEARCH. *Academic research in modern science*, *1*(12), 34-40.

3. Xalilova, H. E., & Rixsiboev, U. T. (2021). The Role Of Computer Graphics In Working With Colors In Design. *International Journal on Orange Technologies*, *3*(3), 83-87.

AVTOMATLASHTIRILGAN VA YO‘NALTIRILGAN MUHANDISLIK TA’LIMI ORQALI BO‘LAJAK MUHANDISLARNING KREATIV POTENSIALINI RIVOJLANTIRISH

TTYSI, “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi professori Xalmuratova J.G

Annotatsiya: *Mazkur maqolada avtomatlashtirilgan va yo‘naltirilgan muhandislik ta’limi orqali bo‘lajak muhandislarning kreativ potensialini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются педагогические возможности развития творческого потенциала будущих инженеров посредством автоматизированного и ориентированного инженерного образования.*

Abstract: *This article examines the pedagogical potential of developing the creative potential of future engineers through automated and personalized engineering education.*

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot, raqamlashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi muhandislik ta’limi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy sanoat korxonalarida raqamli boshqaruv tizimlari, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari, kompyuter modellashtirish, sun’iy intellekt va boshqa innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Bunday sharoitda bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayoni faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga asoslanmasdan, talabaning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Muhandislik faoliyatining o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda ko‘plab kasbiy vaziyatlar oldindan belgilangan yagona yechimga ega bo‘lmaydi. Muhandis texnik jarayonni tahlil qilishi, mavjud muammoning sabablarini aniqlashi, bir nechta muqobil yechimlarni ishlab chiqishi va ulardan eng maqbulini tanlashi kerak. Shu sababli bo‘lajak muhandisning kreativ potensiali uning kasbiy kompetentligining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi [1].

Kreativ potensial deganda shaxsning yangi va original g‘oyalarni ilgari surish, mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarda qo‘llash, muammolarga nostandart yondashish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyati tushuniladi. Muhandislik ta’limida ushbu potensialni rivojlantirish uchun talaba faol ishtirok etadigan, tajriba o‘tkazish va xatolardan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lgan ta’lim muhitini yaratish muhimdir.

Avtomatlashtirilgan ta’lim mazkur vazifani amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Raqamli ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, kompyuter simulyatsiyalari, uch o‘lchamli modellashtirish dasturlari va interaktiv o‘quv vositalari talabalarga murakkab muhandislik jarayonlarini modellashtirish va turli yechimlarni sinab ko‘rish imkonini beradi. Bunday muhitda talaba faqat

nazariy bilimlarni egallab qolmay, balki ularni amaliy va ijodiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yo‘naltirilgan ta’lim esa ta’lim jarayonini talabaning individual qobiliyati, bilim darajasi, qiziqishi va kasbiy ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Bunda barcha talabalar uchun bir xil topshiriqlar berish o‘rniga ularning tayyorgarlik darajasiga mos murakkablikdagi vazifalar taklif etiladi. Masalan, bilim darajasi yuqori bo‘lgan talabalarga mustaqil loyihalar, texnik modellashtirish va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar berilishi mumkin. Bu esa talabaning o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishiga va kreativ salohiyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak muhandislarning kreativ potensialini rivojlantirishda muammoli ta’lim alohida ahamiyatga ega. Talabaga tayyor texnik yechimni taqdim etish o‘rniga muayyan kasbiy muammo berilishi va uning yechimini mustaqil izlashga sharoit yaratilishi lozim. Bunday jarayonda talaba muammoni aniqlaydi, ma’lumotlarni tahlil qiladi, farazlarni ilgari suradi, muqobil variantlarni taqqoslaydi va o‘z qarorini asoslaydi. Natijada analitik va kreativ fikrlash jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog‘lanadi.

Loyihaviy ta’lim ham bo‘lajak muhandislarning kreativ potensialini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Talabalar real ishlab chiqarish yoki texnik muammolarga bag‘ishlangan loyihalarni bajarish jarayonida muammoni aniqlashdan boshlab, g‘oya ishlab chiqish, loyihalash, modellashtirish, sinovdan o‘tkazish va natijani baholashgacha bo‘lgan jarayonlarda ishtirok etadilar. Ayniqsa, sanoat korxonalari bilan hamkorlikda tashkil etilgan loyihalar talabalarga haqiqiy kasbiy muhitda ijodiy faoliyat olib borish imkonini beradi [2].

Avtomatlashtirilgan va yo‘naltirilgan muhandislik ta’limida kreativ potensialni rivojlantirish jarayonini “muammo – tahlil – g‘oya – modellashtirish – tajriba – baholash – takomillashtirish” ketma-ketligi asosida tashkil etish mumkin. Mazkur yondashuv talabaning mustaqil fikrlashi va amaliy faoliyatini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfini kamaytirish muammosi talabalarga loyiha topshirig‘i sifatida berilganda, ular mavjud jarayonni tahlil qiladi, energiya sarfining asosiy sabablarini aniqlaydi, bir nechta yechimlarni taklif etadi va raqamli modellashtirish vositalari yordamida ushbu yechimlarni sinab ko‘radi. Shu tariqa nazariy bilim, amaliy faoliyat va kreativ fikrlash yagona ta’lim jarayonida birlashadi.Bunda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning ijodiy faoliyatini yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va muammoli vaziyatlarni tashkil etuvchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi. Talabaga tayyor javobni berish o‘rniga uni mustaqil izlanishga undash, savollar orqali fikrlash jarayonini faollashtirish va turli yechimlarni taqqoslashga imkon berish muhimdir [3].

Kreativ potensialning rivojlanish darajasini baholashda ham an’anaviy yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Baholash faqat yakuniy natijaning to‘g‘riligiga emas, balki talabaning original g‘oya taklif qilishi, muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rib chiqishi, muqobil yechimlar ishlab chiqishi, mustaqil qaror

qabul qilishi va o‘z faoliyatini tahlil qila olishiga asoslanishi kerak. Portfolio, loyiha natijalari, amaliy topshiriqlar, taqdimotlar va refleksiv hisobotlar bunday baholashning samarali vositalari bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, avtomatlashtirilgan va yo‘naltirilgan muhandislik ta’limi bo‘lajak muhandislarning kreativ potensialini rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhitni shakllantiradi. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar bilan boyitish bilangina cheklanmaydi. Uning asosiy mohiyati talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olish, real kasbiy muammolarni ta’lim jarayoniga kiritish, mustaqil izlanish va ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratishdan iborat [4].

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy muhandislik ta’limida bo‘lajak muhandislarning kreativ potensialini rivojlantirish ta’lim jarayonining mazmuni, metodlari va texnologiyalarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan va yo‘naltirilgan ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun muhim pedagogik omil hisoblanadi. Bunday yondashuvda talabaning individual qobiliyati, qiziqishi, bilim darajasi va kasbiy ehtiyojlari hisobga olinib, unga mos ta’limiy topshiriqlar va amaliy faoliyatlar tashkil etiladi.

Avtomatlashtirilgan ta’lim texnologiyalari orqali o‘quv jarayonini raqamlashtirish, virtual laboratoriyalar, kompyuter dasturlari, sun’iy intellekt elementlari, raqamli modellashtirish va simulyatsiyalardan foydalanish imkoniyati kengayadi. Bu esa bo‘lajak muhandislarga murakkab texnik jarayonlarni modellashtirish, turli yechimlarni sinab ko‘rish va ularning natijalarini tahlil qilish imkonini beradi. Natijada talaba tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi subyekt emas, balki bilimni amaliy faoliyat orqali mustaqil shakllantiruvchi va undan yangi yechimlar yaratishda foydalanuvchi faol ishtirokchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti- Toshkent: Sano-standart, 2017.
2. Xodjayev B.X., Choriev A., Salieva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi.- Toshkent: Iqtisod dunyosi, 2018.
3. Taylakova D.N. Kreativ pedagogika- 1-qism.- 2026.
4. Nurmamatov Z.Sh., Xayitov J.X. Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi.-2024.

O‘QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA XALQARO INTEGRATSIYA VA DUAL TA’LIMINING AHAMIYATI

Xodjakulova Dilorom Imamovna,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti professori

Ushbu maqolada Germaniya dual ta’lim tizimi tajribasi, dual ta’lim tizimi nazariy bilimlarni o‘quv yurtida o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarni korxonalarda o‘zlashtirishga asoslangan samarali model hisoblanishi hamda dual ta’limning maqsad va vazifalari haqida so’z boradi.

В данной статье рассматривается опыт Германии в области дуального образования. Дуальная система образования представляет собой эффективную модель, основанную на сочетании теоретических знаний, получаемых в образовательных учреждениях, и практических навыков, приобретаемых непосредственно на предприятиях. Также в статье рассматриваются цели и задачи дуального образования.

This article examines Germany’s experience in the field of dual education. The dual education system is considered an effective model based on the combination of theoretical knowledge acquired at educational institutions and practical skills gained directly at enterprises. The article also discusses the goals and objectives of the dual education system.

Ma’lumki, har qanday texnologiya ta’limning yangi mazmunini shakllantiruvchi ta’lim tamoyillariga asoslanadi va ta’lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo‘nalishlarda kasbiy ko‘nikmalarni hosil qilishga yo‘naltiriladi. Ta’lim jarayonining faol sub’ektlari o‘qituvchi va o‘quvchilar bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu (yoki fanlar asoslari) bo‘yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish imkonini beruvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi. Jahon mamlakatlari ta’lim tizimi. Dunyo ta’lim makonining yuzaga kelishi, faol integratsion jarayonlar, ta’limni “inson kapitali” sifatida e’tirof etilishi, ma’lumot haqidagi diplomlarning dunyo bo’ylab tan olinishi chet el tajribasini o’rganish jarayonini tezlashtiradi. Germaniya dual ta’lim tizimi tajribasi o‘rganilgan. Dual ta’lim tizimi nazariy bilimlarni o‘quv yurtida o‘qitish va amaliy ko‘nikmalarni korxonalarda o‘zlashtirishga asoslangan samarali model hisoblanadi.

Germaniyada bu tizim davlat, ta’lim muassasalari va ish beruvchilar hamkorligida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, u yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur tizim bitiruvchilarning kasbiy malakasini oshiradi va ishsizlik darajasini kamaytirishga xizmat qiladi. Dual ta’lim — nazariy qismi oliy ta’lim tashkilotida, amaliy qismi esa korxonada(ish joyida) o’tkaziladigan ta’lim jarayon;

dual ta’lim dasturi — oliy ta’lim tashkiloti va korxona talabining muayan ta’lim yo’nalishi (mutaxassislik) bo’icha bilim olishi hamda uning kasbiy bilim va ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o’quv rejasi, o’quv dasturi (modul)lari, o’quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to’plami;

dual ta’lim asosida o’qitish — talabalar o’quv mashg’ulotlarini bir haftada, qoida tariqasida, kamida ikki kun ta’lim dasturining nazariy qismini oily ta’lim tashkilotida, qolgan kunlari ishlab chiqarish bilan bog’liq amaliy qismlarini korxonada o’tkazishlarini nazarda tutuvchi o’qitish usuli;

«Kasb egasi» dual ta’lim tizimi — nazariy qismi oliy ta’lim ta’lim tashkilotida, amaliy qismi esa yo’llanma asosida ish joyida) o’tkaziladigan hamda korxona tomonidan ish haqi to’lanadigan ta’lim ta’lim jarayon;

o’quv rejasi — o’quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari va o’qitiladigan o’quv fanlarining soatlari miqdori,ketma-ketligi, o’quv jarayonini jadvali va tinglovchilarni attestatsyadan o’tkazish muddatlarini belgilaydigan hujjat;

корхона (tashkilot) — oliy ta’lim tashkiloti bilan dual ta’lim asosida kadrlar tayyorlash bo’yicha shartnoma tuzgan yuridik shaxs;

ish joyi — dual ta’limda talabaga korxonaning ichki tartib-qoidalari, tegishli vazifalari hamda ta’lim dasturlariga muvofiq amaliy ko’nikma va malakalarini egallash uchun belgilangan ish o’rni;

амaliyot rahbari (ustoz) — ta’lим jarayonining ishlab chiqarish bilan bog’liq amaliy qismini o’tkazish uchun korxona tomonidan talaba(lar)ga biriktirilgan mas’ul xodim;

shartnoma — корхона, oliy ta’lim tashkiloti va talaba o’rtasida dual ta’limni amalga oshirish uchun tuzilgan uch tomonlama bitim.

Dual ta’lim shakli joriy etiladigan oliy ta’lim tashkilotlari tizimida oliy ta’lim tashkilotlari bo’lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda, O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda O’zbekiston Respublikasi savdo-sanoat palatasi tomonidan belgilanadi.

Dual ta’lim shakli bo’yicha tahsil olayotgan talaba biriktirilgan korxona faoliyati tugatilganda dual ta’lim shakli bo’yicha talabaning o’qishini davom ettirish yuzasidan boshqa korxona bilan shartnoma imzolanishi yoki talabaning o’qishi mos ta’lim yo’nalishi(mutaxassislik) bo’yicha kunduzgi, kechki, sirtqi yoki masofaviy ta’lim shakliga o’tkazilishi mumkin.

Dual ta’limning maqsadi quyidagilardan iborat:

c nazariy bilimlarini mustahkamlash;

Talabalarda ta’lim olayotgan ta’lim yo’nalishi (mutaxassislgi) bo’yicha amaliy ko’nikmalarni shakllantirish;

Talabalar uchun tashkiliy- huquqiy shakldan qa’tiy nazar, korxonlardaishlab chiqarish faoliyatiga oid tajribalarni o’rganishni tashkil etish;

Talabalarning kasbiy va ijodiy qiziqishlarini rivojlantirish;

Bitiruvchilarning zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ishlashi uchun zarur amaliy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishini ta’minlash;

oliy ta’lim tashkiloti va korxonada o’qitish, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotining o’quv jarayoniga yangi o’qitish texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning raqobatbardoshligini.

Dual ta’limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Mehnat bozori ehtiyojlariga, iqtisodiyot tarmoqlarini va rivojlanish istiqbollariga mos ravishda mutaxassislar tayyorlash;

Ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish;

oliy ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlari mazmuni va tuzilmasining mobilligini ta’minlash;

ishlab chiqarish sharoitidagi kasbiy tajribasini o’rganish uchun talabalarga etarli sharoit yaratish;

talabalarga o’qish va ishlash imkoniyatlarini yaratish.

Xulosa qilib aytganla, mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida radrlar tayyorlashning takomilolashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.Dual ta’lim esa bugungi kunda mutaxassis kadrlarni yuqori malakali kasb egalari qilib tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Azizxo’jaeva N.N. “ Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat” T. Fan-2006.
2. Подласый И.П. Педагогика.В2-х кн.-М:ВЛАДОС.2003.
3. http://www.ziyonet.uz -Ta’lim portali.
4. www.ziyonet.uz

ZAMONAVIY LINGVISTIKADA LEKSIKANI O‘RGANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xoliqova Shaxlo O‘ktamovna
TTYSI, “O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi
mustaqil izlanuvchi

Ushbu bo‘limda zamonaviy tilshunoslikda leksik qatlamni tadqiq etishning nazariy-metodologik evolyutsiyasi yoritiladi. Leksik-semantik maydon tushunchasi, so‘zlarning paradigmatik va sintagmatik munosabatlari, shuningdek, struktural lingvistikaning shakllanishida Yevropa hamda rus tilshunosligi vakillarining qo‘shgan hissasi atroflicha tahlil qilingan.

В данном разделе освещается теоретико-методологическая эволюция исследования лексического пласта в современном языкознании. Подробно анализируются концепция лексико-семантического поля, парадигматические и синтагматические отношения слов, а также вклад представителей европейской и русской лингвистических школ в становление структурной лингвистики.

This section highlights the theoretical and methodological evolution of studying the lexical layer in modern linguistics. The concept of the lexico-semantic field, paradigmatic and syntagmatic relations of words, as well as the contribution of European and Russian linguistic school representatives to the formation of structural linguistics are analyzed in detail.

Leksik-semantik maydon doirasida jamlangan til birliklari bir-biri bilan zich va ko‘p qirrali mazmuniy munosabatlar vositasida bog‘lanadi. Ushbu iyerarxik va tizimli aloqalarning eng asosiy hamda yetakchi turlariga quyidagilar kiradi:

-Giponimik munosabatlar (jins va tur aloqadorligi): Maydonning iyerarxik va pog‘onali tuzilishini ta’minlovchi bitta umumiy tushuncha (arxileksema) va unga bo‘ysunuvchi xos tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Masalan, ingliz va o‘zbek tillari kiyim-kechak leksikasida bu hodisa yorqin namoyon bo‘ladi: ingliz tilida *clothing* (jins) → *coat*, *dress* (tur); o‘zbek tilida *kiyim* (jins) → *to‘n, ko‘ylak* (tur) iyerarxiyasi hosil bo‘ladi.

-Sinonimik munosabatlar: Ma’nodosh va mazmunan yaqin birliklarning o‘zaro teng qiymatli munosabatidir. Masalan, ingliz tilidagi *coat — overcoat* hamda o‘zbek tilidagi *to‘n — chopon* kabi leksik birliklar o‘rtasidagi yaqin ma’nolilik hosil bo‘ladi.

-Antonimik munosabatlar: Semantik jihatdan zid va qarama-qarshi ma’noli birliklar o‘rtasidagi aloqadir. Masalan, *ustki kiyim — ichki kiyim* oppozitsiyasi buni aniq ko‘rsatadi [1].

Tilshunos olima E.V. Kuznetsovaning ta’kidlashicha, aynan giponimik munosabatlar leksik-semantik maydonning mantiqiy-iyerarxik arxitekturasini shakllantiradi — ya’ni markaziy arxileksema tevaragida uning turli ko‘rinishlarini anglatuvchi xos nomlar tartib bilan joylashadi. Kiyim-kechak va liboslar semantik maydonida ushbu giponimik bog‘lanishlar qiyoslanayotgan har ikkala tilda ham o‘ta izchil va yaqqol seziladi, bu esa ushbu leksik qatlamni tarqoq so‘zlar to‘plami emas, balki yaxlit va mukammal tizim sifatida tadqiq etishga mustahkam poydevor yaratadi [1].

Insoniyatning til lug‘at tarkibiga bo‘lgan ilmiy yondashuvi va nazariy qarashlari XIX–XX asrlar mobaynida tub o‘zgarishlarga yuz tutdi. Dastlabki bosqichda, ya’ni yosh grammatikachilar (mshadogrammatizim) davrida so‘zga alohida olingan, boshqa leksik birliklardan ajratilgan va mustaqil tarixiy-etimologik birlik sifatida atomistik nuqtai nazardan qaralar edi. Biroq XX asrning boshlariga kelib, bu kabi tor va uzuk-yuluk yondashuv o‘rnini zamonaviy tizimli-struktural metodologiya egalladi. Yangi qarashga muvofiq, tilning butun lug‘at tarkibi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan va o‘zaro shartlangan birliklarning yaxlit majmui deb talqin qilina boshlandi.

Ushbu ilmiy burilishning tamaloshini buyuk shveytsariyalik tilshunos Ferdinand de Sossyur o‘zining **qiymat (*valeur*)** konsepsiyasi orqali qo‘yib berdi. Sossyur talqiniga ko‘ra, har qanday til belgisining chinakam ma’nosi va qiymati uning yakka va izolyatsiyalangan holatida emas, balki til tizimidagi boshqa barcha

belgilarga qarshi qo‘yilishi va ularga nisbatan tutgan o‘rni orqali shakllanadi hamda aniqlanadi [2]. Shu tariqa, leksika nutq faoliyatining eng dinamik, ochiq va doimiy harakatdagi sathi bo‘lishiga qaramay, o‘zining qat’iy va ichki qonuniyatlarga ega bo‘lgan tartibli tizimi borligi isbotlandi.

Sossyur leksik tizimni ilmiy tahlil qilish va o‘rganish uchun ikkita asosiy munosabatlar o‘qini bir-biridan ajratib ko‘rsatdi:

1. **Sintagmatik o‘q:** Nutq zanjirida so‘zlarning birin-ketin chiziqli joylashuvi va kelishi bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatdir (*in praesentia* — ishtirok etuvchi munosabatlar).
2. **Assotsiativ (vaqt o‘tib paradigmatik deb atalgan) o‘q:** Inson xotirasida va shuurida muayyan o‘xshashliklar, semantik va shakliy Yaqinliklar asosida shakllanadigan, nutqiy jarayondan tashqarida mavjud bo‘lgan munosabatdir (*in absentia* — g‘oyibona munosabatlar) [3].

Ushbu ikki o‘qning kashf etilishi va farqlanishi keyinchalik leksik-semantik maydon hamda leksik guruhlar nazariyasining bevosita metodologik va poydevoriy asosiga aylandi. Zero, har qanday semantik maydon a’zolari bir vaqtning o‘zida ham paradigmatik (almashtiruvchanlik va oppozitsiya), ham sintagmatik (nutqda birga qo‘llanish yetukligi) aloqadorlik tamoyillari asosida o‘zaro jipslashadi.

Tizimli yondashuvning dastlabki amaliy va nazariy ko‘rinishlari rus tilshunosligi maktabida ham o‘zining aniq aksini topgan. Hali XIX asrning oxirlaridayoq M.M. Pokrovskiy so‘zlarning semantik ma’nolari va kelib chiqish manbalarining yaqinligi bo‘yicha muayyan guruhlarga uyushishini, ya’ni til lug‘atida o‘ziga xos **"so‘zlar oilasi"** mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab bergan edi [4].

Keyinchalik ushbu nazariyani A.A. Ufimtseva yanada rivojlantirib, ingliz tili leksikasi va faktik materiallari asosida leksikani yaxlit tizim sifatida o‘rganish tajribasini umumlashtirdi va har bir so‘zning semantik ma’nosi uning ushbu tizimda tutgan o‘rni bilan bevosita belgilanishini ko‘rsatib berdi [5].

D.N. Shmelyov esa leksik tizimni semantik tahlil va deskriptiv metodologiya prizmasi orqali ko‘rib chiqdi. U o‘z ilmiy izlanishlarida so‘zlarning ko‘p ma’noliligi (polisemiya) hamda semantik ma’nolarning turli leksik maydonlar bo‘ylab taqsimlanishi kabi murakkab va fundamental lingvistik muammolarni kun tartibiga qo‘ydi [6].

Leksik qatlamning ichki tizimliligi va mantiqiy tartibini eng yaqqol va ko‘rgazmali tarzda namoyon etuvchi model — bu **semantik maydon (semantic field)** modelidir. Maydon nazariyasining falsafiy va dunyoqarashiy ildizlari VILGELM fon Gumboldtning til — bu xalq ruhining (Volksgeist) bevosita ifodasi hamda insoniyatning dunyoni idrok etishidagi "ichki shakli" degan ta’limotiga borib taqaladi [7].

Tilshunoslikda **"so‘z maydoni" (*Wortfeld*)** atamasini va terminologik tushunchasini ilk bor fanga nemis tilshunosi G. Ipsen olib kirdi. U bitta til doirasida ma’no jihatdan o‘zaro uzviy bog‘langan so‘zlar guruhini yaxlit va bo‘linmas maydon sifatida baholashni taklif etdi [8].

Ushbu dastlabki tushunchani mukammal va izchil nazariyaga aylantirgan olim J. Trier bo‘ldi. Trierning qarashlariga ko‘ra, tilning lug‘at tarkibi inson tushunchalari olamini xuddi mozaika parchalaridek uzluksiz va jipslikda qoplab oladi. Bunda har bir so‘zning semantik chegarasi va ma’nosi unga qo‘shni bo‘lgan boshqa so‘zlarning chegaralari bilan belgilanadi hamda maydon ichida hech qanday "bo‘sh joy" yoki vakuum qolmaydi [9]. Biroq Trier modeli asosan static va paradigmatik munosabatlarga tayanar edi. Shu sababli, V. Porzig ushbu nazariyani **sintagmatik maydon** tushunchasi bilan to‘ldirdi va uni rivojlantirdi. Porzig so‘zlar o‘rtasidagi muhim va zaruriy ma’noviy va sintagmatik bog‘lanishlarni, masalan, *"tishlamoq — tish"*, *"ko‘rmoq — ko‘z"* tipidagi so‘zlarning nutqiy va ma’noviy juftliklarini tadqiqot obyekti qilib oldi [10].

Nihoyat, L. Vaysgerber tilni insoniyat bilan uni o‘rab turgan obyektiv borliq o‘rtasidagi o‘ziga xos **"oraliq dunyo" (*Zwischenwelt*)** sifatida talqin qildi va maydon nazariyasiga mazmunga yo‘naltirilgan grammatika (*inhaltsbezogene Grammatik*) g‘oyasini muvaffaqiyatli tatbiq etdi [11].

Natijada, zamonaviy lingvistikada leksikani o‘rganish shunchaki lug‘at boyligini inventarizatsiya qilish emas, balki uni paradigmatik va sintagmatik o‘qlarda birlashuvchi, inson tafakkuri va madaniyatini aks ettiruvchi murakkab leksik-semantik tizim sifatida kompleks tadqiq etishga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Кузнецова, Э. В. Лексикология русского языка. Москва: Высшая школа. 1989. – 216 с.
2. Соссюр, Ф. де. Труды по языкознанию. Москва: Прогресс. 1977. – 696 с.
3. Соссюр, Ф. де. Труды по языкознанию. Москва: Прогресс. 1977. – 696 с.
4. Покровский, М. М. Семасиологические исследования в области древних языков. Москва: Университетская типография. 1895. – 132 с.
5. Уфимцева, А. А. Опыт изучения лексики как системы (на материале английского языка). Москва: Изд-во АН СССР. 1962. – 288 с.
6. Шмелёв, Д. Н. Проблемы семантического анализа лексики. Москва: Наука. 1973. – 280 с.
7. Гумбольдт, В. фон. Избранные труды по языкознанию. Москва: Прогресс. 1984.-400 с.
8. Ipsen, G. Der alte Orient und die Indogermanen //Stand und Aufgaben der Sprachwissenschaft: Festschrift für W. Streitberg. Heidelberg:Winter. 1924.-S. 200-237.
9. Trier,J.Der deutsche Wortschatz im Sinnbezirk des Verstandes:Die Geschichte eines sprachlichen Feldes. Bd.I.Heidelberg:Carl Winter.1931.
10. Porzig, W. Das Wunder der Sprache. Bern: Francke. 1950. – 414 S.
11. Weisgerber, L. Von den Kräften der deutschen Sprache. Bd. II. Düsseldorf: Schwann. 1962. – 312 S.

DEVELOPMENT OF FOREIGN LANGUAGE AND MANAGEMENT COMPETENCIES IN THE DUAL EDUCATION SYSTEM: A MODEL OF COOPERATION BETWEEN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND INDUSTRY.

Yesbosinova Nursulu Perdebayevna,
Acting associate professor, department
of Uzbek and Foreign languages, TITLI.
Ibadullayeva Feruza Xalmuratovna
first-year student at Ajou university in Tashkent

The article examines foreign language and management competencies in dual education. It focuses on university–enterprise cooperation and practice-oriented English and Korean education. The study highlights the integration of theoretical learning and practical training to prepare students for the modern labor market.

В статье рассматривается развитие языковых и управленческих компетенций в дуальном образовании. Основное внимание уделяется сотрудничеству университетов и предприятий, а также практическому обучению английскому и корейскому языкам. Рассматривается связь теоретического обучения с практикой.

Maqolada dual ta’limda til va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi yoritiladi. Universitet va korxonalar hamkorligi hamda ingliz va koreys tillarini amaliy o‘qitishga e’tibor qaratiladi. Nazariy ta’limning amaliyot bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi.

Introduction. Contemporary higher education is undergoing significant transformation as a result of globalization, technological development, digitalization, and changes in labor-market requirements. Employers increasingly expect university graduates not only to possess theoretical knowledge but also to demonstrate practical skills, effective communication, problem-solving abilities, teamwork, leadership, and the ability to operate in multicultural professional environments. Foreign language proficiency has become an important component of professional competence. In many sectors, English is used for international communication, professional documentation, digital resources, research, project management, and cooperation with foreign partners. At the same time, management competencies are essential for graduates who are expected to organize professional activities, work in teams, make decisions, manage projects, and communicate effectively with colleagues and clients. In this context, the dual education system represents a promising approach to improving the connection between higher education and the labor market. Unlike traditional models, dual education combines academic learning at a higher education institution with structured practical training at an enterprise. This allows students to apply theoretical knowledge in authentic professional situations and gradually develop

competencies required by employers. The purpose of this article is to examine the role of dual education in the development of foreign language and management competencies and to propose a model of cooperation between higher education institutions and industry.

Theoretical background. Dual education is based on the principle of combining theoretical instruction with systematic practical training. Students acquire academic knowledge at a university while simultaneously gaining professional experience in an enterprise or organization. Such an approach creates opportunities for students to understand the relationship between academic disciplines and real professional activities. From the perspective of competency-based education, the effectiveness of learning should be measured not only by the amount of knowledge acquired but also by students’ ability to apply this knowledge in practical situations. Foreign language competence, for example, includes linguistic knowledge as well as the ability to communicate appropriately in professional and intercultural contexts. Professional foreign language education should therefore move beyond general grammar and vocabulary instruction. Students need opportunities to work with authentic professional materials, participate in presentations and negotiations, write professional correspondence, prepare reports, and communicate with colleagues from different cultural backgrounds. Management education can also benefit from practical integration. Students can develop management skills through participation in projects, teamwork, problem-solving activities, planning tasks, and organizational processes within enterprises. Combining these activities with foreign language instruction creates an integrated learning environment in which students develop several complementary competencies.

Foreign language competence in dual education. Foreign language competence is particularly important for students preparing to work in internationally connected industries. English frequently serves as a lingua franca in business, technology, science, engineering, tourism, economics, and management. Within a dual education model, foreign language instruction can be directly connected with students’ professional activities. For example, students can be asked to:

-prepare professional presentations in English;
-write emails and reports related to workplace activities;
-study English-language technical and managerial documentation;
-participate in simulated meetings and negotiations;
-communicate with international colleagues and partners;
-develop professional terminology related to their specialization.

Such activities make foreign language learning more meaningful because students can immediately understand the practical value of language competence. The inclusion of other foreign languages, such as Korean, can also provide additional opportunities for students interested in international cooperation with Korean

companies and institutions. In this case, language education can be combined with intercultural communication and knowledge of business etiquette.

Development of management competencies. Management competence includes a combination of knowledge, practical skills, personal qualities, and communication abilities that enable an individual to organize and manage professional activities effectively. The dual education environment provides favorable conditions for developing such competencies. Students can participate in real or simulated organizational projects under the supervision of university teachers and enterprise mentors. Important management competencies include:

1. **Leadership and teamwork** – the ability to coordinate activities and work effectively with colleagues.
2. **Communication** – the ability to exchange information clearly and professionally.
3. **Decision-making** – the ability to analyze situations and select appropriate solutions.
4. **Project management** – the ability to plan, implement, monitor, and evaluate projects.
5. **Time management** – the ability to prioritize tasks and meet deadlines.
6. **Problem-solving** – the ability to identify problems and develop practical solutions.
7. **Intercultural competence** – the ability to communicate effectively with representatives of different cultures.

The integration of these competencies with foreign language education can create a more comprehensive model of professional preparation.

Model of cooperation between higher education Institutions and Industry. An effective dual education model requires systematic cooperation between universities and enterprises. This cooperation should not be limited to sending students to enterprises for short-term internships. Instead, both sides should participate in designing, implementing, and evaluating educational activities. The proposed model includes five interconnected stages.

Stage 1. Identification of labor-market requirements. Universities and industry partners jointly identify the professional, language, digital, and management competencies required from future graduates.

Stage 2. Joint Development of educational programs. Academic staff and industry representatives participate in developing curricula and practical assignments. Foreign language courses can include professional terminology and communication tasks related to specific industries.

Stage 3. Integrated academic and workplace learning. Students divide their learning activities between the university and the enterprise. Academic classes provide theoretical foundations, while workplace activities allow students to apply their knowledge in authentic professional situations.

Stage 4. Mentoring and project-based learning. Each student may receive guidance from both a university supervisor and an enterprise mentor. Students can

participate in projects requiring teamwork, communication, planning, and problem-solving.

Stage 5. Competency assessment. Assessment should be based on both academic achievement and workplace performance. It can include portfolios, presentations, project reports, language assessments, supervisor evaluations, and practical demonstrations. This model establishes a continuous relationship between education and professional practice.

6. Role of digital technologies. Digital technologies can significantly strengthen cooperation between universities and enterprises. Online learning platforms, digital portfolios, video conferencing, artificial intelligence-based language tools, and collaborative project-management systems can support students before, during, and after workplace training. For foreign language education, digital tools can provide opportunities for pronunciation practice, professional vocabulary development, writing assistance, and simulated communication. However, technological tools should complement rather than replace interaction with teachers, mentors, and professional colleagues. Digital platforms can also facilitate communication between universities and enterprises by enabling supervisors to monitor students’ progress, provide feedback, and coordinate practical assignments.

Expected outcomes. The implementation of an integrated dual education model can produce several positive outcomes. For students, it can contribute to:

- stronger foreign language proficiency;
- improved professional communication;
- development of management and leadership skills;
- greater confidence in workplace situations;
- increased employability;
- improved intercultural competence;
- better understanding of industry requirements.

For higher education institutions, cooperation with industry can help modernize curricula, strengthen practice-oriented education, and improve the relevance of academic programs.

For enterprises, participation in dual education can provide access to talented students and contribute to the preparation of future employees whose competencies correspond to specific organizational needs.

Discussion. The successful implementation of dual education requires several conditions. First, cooperation between universities and enterprises should be based on clearly defined responsibilities and long-term objectives. Second, educational programs should be flexible enough to respond to changes in technology and labor-market requirements. Third, university teachers and enterprise mentors should coordinate their activities and use common competency criteria. Another important issue is the integration of foreign language education into professional training. Language learning should not be treated as an isolated academic subject. Instead, it should be connected with students’ professional

disciplines and workplace activities. This approach is particularly relevant for students who will work in multinational companies or organizations engaged in international cooperation. The integration of English, management, and professional training can therefore create a multidisciplinary educational environment. For students studying Korean philology, a similar approach can be applied through Korean language, intercultural communication, business communication, and management-related activities.

Conclusion. The dual education system provides significant opportunities for developing foreign language and management competencies through the integration of academic and workplace learning. Cooperation between higher education institutions and industry enables students to connect theoretical knowledge with practical experience and develop competencies that are relevant to the contemporary labor market. The proposed model, based on joint curriculum development, practical training, mentoring, project-based learning, digital technologies, and competency-based assessment, can strengthen the relationship between higher education and industry. The integration of foreign language education with management and professional training is especially important in an increasingly globalized economy. English and other foreign languages should be considered not only as academic subjects but also as instruments of professional communication, international cooperation, and career development. Therefore, the development of a sustainable partnership between higher education institutions and industry can contribute to preparing competitive, professionally competent, communicatively skilled, and internationally oriented graduates.

REFERENCES

1. European Commission. (2022). *European Education Area: Quality education and training for all*. European Commission.
2. International Labour Organization. (2022). *The future of vocational education and training*. ILO.
3. OECD. (2023). *Education at a Glance 2023: OECD Indicators*. OECD Publishing.
4. UNESCO. (2023). *Global Education Monitoring Report*. UNESCO.
5. Teaching-focused university–industry collaborations: Determinants and impact on graduates' employability competencies https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0048733320302468

ПРИМЕНЕНИЕ ФОРМУЛЫ БЕЙЕСА В УПРАВЛЕНИИ КАЧЕСТВОМ ТЕКСТИЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА

старший преподователь
З.А.Налибаева
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

This article examines the applicability of the Bayes formula as a probabilistic analysis tool in textile and apparel manufacturing. It demonstrates how the method of updating probabilities based on new data can be used in product quality control, assessing the causes of defects, and predicting equipment failures. Practical examples of calculations applicable to light industry manufacturing facilities are provided.

В данной статье рассматривается применимость формулы Байеса как инструмента вероятностного анализа в текстильном и швейном производстве. Показано, как метод обновления вероятностей на основе новых данных может использоваться при контроле качества продукции, оценке причин возникновения дефектов и прогнозировании отказов оборудования. Приведены практические примеры расчетов, применимых на предприятиях легкой промышленности.

Ushbu maqolada Bayes formulasi ehtimollik tahlili vositasi sifatida to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Yangi ma’lumotlar asosida ehtimolliklarni yangilash usuli mahsulot sifatini nazorat qilishda, nuqsonlar sabablarini baholashda hamda uskunalar nosozligini prognoz qilishda qanday qo‘llanishi ko‘rsatib beriladi. Yengil sanoat korxonalarida qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy hisoblash misollari keltirilgan.

Лёгкая промышленность - одна из наиболее динамично развивающихся отраслей экономики, в которой качество выпускаемой продукции напрямую определяет конкурентоспособность предприятия. Производство тканей, пряжи, готовой одежды и других изделий сопряжено с большим числом технологических операций, каждая из которых может стать источником дефекта. В этих условиях особую актуальность приобретают математические методы анализа и управления рисками.

Одним из таких инструментов является формула Бейеса - фундаментальный результат теории вероятностей, позволяющий пересчитывать оценку вероятности события с учётом поступающей новой информации. Первоначально разработанная в XVIII веке английским священником и математиком Томасом Бейесом, эта формула сегодня широко применяется в медицине, технике, экономике и многих других прикладных областях.

Цель настоящей статьи - показать, каким образом формула Бейеса может быть применена на предприятиях текстильной и швейной

промышленности для решения практических задач управления качеством.

1. Формула Бейеса: теоретические основы

Формула Бейеса является следствием определения условной вероятности и теоремы о полной вероятности. Пусть имеется полная группа несовместных событий Hi, H2, ..., H_n (гипотезы), и наблюдается некоторое событие A. Тогда апостериорная вероятность гипотезы Hi при условии, что произошло событие A, определяется по формуле:

$$\mathbf{P(H_i \mid A) = P(H_i) \cdot P(A \mid H_i) / \Sigma\, P(H_i) \cdot P(A\, H_i)}$$

где $P(H_i)$ - априорная вероятность гипотезы (до наблюдения события A), $P(A \mid H_i)$ - условная вероятность наступления события A при условии, что истинна гипотеза Hi, а сумма в знаменателе представляет собой полную вероятность события A.

Ключевое достоинство байесовского подхода состоит в том, что он позволяет систематически обновлять оценку вероятности по мере накопления новых данных. Это делает его незаменимым инструментом в ситуациях, когда решение необходимо принимать в условиях неопределенности, постепенно уточняя имеющиеся знания.

2. Применение в текстильной промышленности

2.1. Оценка причин производственного брака

Одной из наиболее востребованных задач в текстильном производстве является диагностика причин возникновения дефектов. Предположим, что на ткацком предприятии выделены три основные причины появления брака:

H_1 - неисправность ткацкого станка (встречается в 20% случаев брака);

H_2 - низкое качество сырья (встречается в 50% случаев);

H_3 - ошибка оператора (встречается в 30% случаев).

Пусть событие A - обнаружение дефекта в виде обрыва нити. По данным предыдущих проверок установлено, что $P(A|H_1) = 0,7$; $P(A|H_2) = 0,3$; $P(A|H_3) = 0,2$. Требуется определить, какова вероятность того, что причиной обрыва нити является неисправность станка.

По формуле полной вероятности:

$$P(A) = 0,20 \cdot 0,7 + 0,50 \cdot 0,3 + 0,30 \cdot 0,2 = 0,14 + 0,15 + 0,06 = 0,35$$

Апостериорная вероятность гипотезы H_1 по формуле Бейеса:

$$P(H_1|A) = (0,20 \cdot 0,7) / 0,35 = 0,14 / 0,35 \approx 0,40$$

Таким образом, при обнаружении дефекта в виде обрыва нити вероятность того, что причиной является неисправность станка, составляет около 40%, что в два раза выше исходной оценки в 20%. Это позволяет направить усилия контролёров качества именно на проверку оборудования.

2.2. Задачи

Формула Байеса в текстильной и лёгкой промышленности

Сборник задач с решениями по теории вероятностей

Теоретическая справка


Формула полной вероятности позволяет найти вероятность события A, которое может произойти совместно с одной из несовместных гипотез H_1, H_2, ..., H_n:

$P(A) = P(H_1)\cdot P(A|H_1) + P(H_2)\cdot P(A|H_2) + ... + P(H_n)\cdot P(A|H_n)$

Формула Байеса — позволяет пересчитать вероятность гипотезы после того, как наступило событие A:

$P(H_i|A) = P(H_i) \cdot P(A|H_i) / P(A)$

2 Контроль качества пряжи по цехам



Условие: прядильное объединение включает три цеха:
— Цех А (хлопковая пряжа): 60% от общего выпуска, брак 2%
— Цех Б (шерстяная пряжа): 25% от выпуска, брак 6%
— Цех В (синтетическая пряжа): 15% от выпуска, брак 10%

Вопрос: На склад поступила бракованная катушка пряжи. Определить вероятности того, что она из каждого цеха.

Решение:

P(H_А)=0,60; P(H_Б)=0,25; P(H_В)=0,15
P(A|H_А)=0,02; P(A|H_Б)=0,06; P(A|H_В)=0,10

Полная вероятность брака:
P(A) = 0,60·0,02 + 0,25·0,06 + 0,15·0,10 = 0,012 + 0,015 + 0,015 = 0,042

По формуле Байеса:
P(H_А|A) = 0,012 / 0,042 ≈ 0,286 (28,6%)
P(H_Б|A) = 0,015 / 0,042 ≈ 0,357 (35,7%)
P(H_В|A) = 0,015 / 0,042 ≈ 0,357 (35,7%)
Проверка: 0,286 + 0,357 + 0,357 = 1,000 ✓

Ответ: Цеха Б и В — по 35,7% (наибольшие), несмотря на малый объём: высокий % брака перевешивает

2.3. Контроль качества входного сырья

Такая деятельность одновременно развивает иностранную речь, лидерские качества, навыки командной работы, принятия решений и управления проектами.

Проектное и проблемно-ориентированное обучение. Проектное обучение является одним из наиболее эффективных методов интеграции языковой и управленческой подготовки. В отличие от традиционного выполнения упражнений, проект предполагает достижение конкретного результата. Студенты используют иностранный язык как инструмент решения профессиональной задачи. Проблемно-ориентированное обучение также позволяет создавать ситуации, максимально приближенные к реальной профессиональной деятельности. Например, студентам можно предложить ситуацию, в которой международная компания планирует выход на новый рынок. Студенты должны провести анализ, разработать стратегию коммуникации, определить возможные риски и представить свои предложения на английском или корейском языке. В результате формируются не только языковые навыки, но и аналитическое мышление, инициативность, ответственность и способность принимать решения.

Модель интегрированного обучения. На основе рассмотренных подходов можно предложить модель, включающую четыре взаимосвязанных компонента:

Языковой компонент. Формирование лексических, грамматических, речевых и коммуникативных навыков английского и корейского языков.

Цифровой компонент. Использование образовательных платформ, мультимедийных ресурсов, искусственного интеллекта и интерактивных инструментов.

Управленческий компонент. Развитие лидерства, командной работы, проектного управления, принятия решений и тайм-менеджмента.

Профессиональный компонент. Использование языковых навыков и управленческих компетенций в ситуациях, связанных с будущей профессиональной деятельностью студентов.

Интеграция этих компонентов позволяет сформировать целостную образовательную модель, ориентированную на требования современного рынка труда.

Оценка результатов обучения. Автоматизированная образовательная среда позволяет применять разнообразные формы оценки. Помимо традиционных тестов, могут использоваться электронные портфолио, проектные работы, презентации, цифровые задания и самооценка. Для оценки языковой компетенции могут учитываться:

- точность и разнообразие используемой лексики;
- грамматическая правильность;
- произношение;
- способность вести профессиональный диалог;
- качество письменной коммуникации.

Управленческие компетенции могут оцениваться по следующим показателям:

- способность работать в команде;
- лидерские качества;
- самостоятельность;
- качество принятия решений;
- организация времени;
- способность решать проблемы;
- качество презентации проекта.

Комплексная система оценки позволяет определить не только уровень языковых знаний, но и способность студентов применять их в профессиональной деятельности.

Преимущества и перспективы. Использование автоматизированной образовательной среды способствует повышению доступности и гибкости обучения. Студенты получают возможность обучаться независимо от времени и места, использовать различные цифровые ресурсы и получать индивидуальную обратную связь. Для преподавателя цифровые технологии позволяют отслеживать прогресс студентов, выявлять проблемные области и корректировать образовательный процесс. Особенно перспективным является развитие международных образовательных проектов. Студенты, изучающие английский и корейский языки, могут взаимодействовать с зарубежными студентами, участвовать в виртуальных проектах и моделировать ситуации международного профессионального сотрудничества. В дальнейшем такие подходы могут стать основой для создания виртуальных международных классов, цифровых лабораторий языкового обучения и интегрированных образовательных программ, объединяющих иностранные языки, менеджмент и профессиональную подготовку.

Заключение. Инновационные технологии создают новые возможности для обучения английскому и корейскому языкам и развития управленческих

компетенций студентов. Автоматизированная образовательная среда позволяет сделать обучение более индивидуализированным, интерактивным и ориентированным на практическое применение знаний. Особую эффективность может иметь интеграция языкового обучения с проектной деятельностью, профессиональной коммуникацией, проблемно-ориентированным обучением и развитием управленческих навыков. Английский и корейский языки в данном контексте выступают не только как самостоятельные учебные дисциплины, но и как инструменты профессиональной коммуникации и международного сотрудничества. Использование искусственного интеллекта и цифровых платформ расширяет возможности для моделирования реальных профессиональных ситуаций и формирования индивидуальных образовательных траекторий. Таким образом, сочетание иностранных языков, цифровых технологий и менеджмента позволяет создать современную модель подготовки конкурентоспособного специалиста. Перспективным направлением дальнейших исследований является экспериментальная проверка эффективности предложенной модели на основе конкретных образовательных программ и сравнительного анализа результатов студентов, обучающихся по традиционной и автоматизированной моделям.

ЛИТЕРАТУРА

1. UNESCO. *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO, 2023.
2. OECD. *Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem*. OECD Publishing, 2023.
3. Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume*. Strasbourg: Council of Europe, 2020.
4. European Commission. *Digital Education Action Plan 2021–2027*. Brussels: European Commission, 2020.
5. World Bank. *World Development Report 2019: The Changing Nature of Work*. Washington, DC: World Bank, 2019.
6. Ekizer F. N. (2025). *Exploring the impact of artificial intelligence on English language teaching: A meta-analysis. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S000169182500962X?utm_source=chatgpt.com*

ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЯНГИ ЛАБОРАТОРИЯЛАРНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШ

Исламов Б.Х., Мамаева Д.А., Фаттахов М.А
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Анотация. *Мазкур мақолада физика ўқитиш жараёнида янги лабораторияларни жорий қилиш орқали талабаларга қуёш энергияси ва ундан фойдаланиш усуллари, сайёрамизда кузатилаётган глобал экологик муаммолар таҳлил қилинган. Шунингдек, қуёш энергиясидан фойдаланиш қанчалик муҳим эканлиги кўрсатилиб берилган.*

Аннотация. *В данной статье анализируются способы использования солнечной энергии студентами путем внедрения новых лабораторий в процесс преподавания физики, а также глобальные экологические проблемы, наблюдаемые на нашей планете. Также показано, насколько важно использование солнечной энергии.*

Abstract. *This article analyzes methods for students to utilize solar energy by introducing new laboratories into the physics teaching process, as well as the global environmental problems observed on our planet. It also demonstrates the importance of utilizing solar energy.*

Қуёш энергияси - бу қуёшдан чиқадиган нур ва иссиқлик шаклидаги табиий энергия бўлиб, турли технологиялар орқали электр ёки иссиқлик энергиясига айлантирилади. Бу - барқарор, экологик тоза ва қайта тикланувчи энергия манбаидир. Қуёш энергиясдан фойдаланиш жаҳоннинг долзарб муаммоларидан биридир. Бу эса жуда катта миқдордаги гелиоэнергетика ресурсларига эга Ўзбекистон Республикаси учун хам долзарб муаммо бўлиб ҳисобланади.

Қуёш энергиясидан фойдаланиш бугунги кунда жуда ҳам муҳим саналади, айниқса глобал иқлим ўзгаришлари, энергия танқислиги ва атрофмуҳит муҳофазаси масалалари долзарб бўлиб турган бир пайтда. Қуйида қуёш энергиясидан фойдаланиш қанчалик муҳим эканлиги ҳақида тўхталамиз:

Атроф-муҳитни муҳофаза қилишдаги ўрни. Қуёш энергияси экологик тоза манба ҳисобланади. У ҳеч қандай зарарли газлар - углерод диоксиди (CO_2), олтингугурт диоксиди (SO_2) ёки метан чиқармайди. Бу эса ҳавонинг ифлосланишини камайтиради ва глобал исишга қарши курашишда муҳим аҳамиятга эга.

Иқтисодий жиҳатдан тежамкорлиги. Қуёш панелларига бир марта сармоя киритилгандан сўнг, узоқ йиллар бепул энергия ишлаб чиқариш мумкин. Электр тўловлари камаяди, хусусан, қишлоқ жойларда ёки уйда мустақил электр таъминоти керак бўлганда жуда фойдали ҳисобланади

Шуни таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон ҳақиқатан ҳам қуёш энергиясидан фойдаланиш бўйича улкан салоҳиятга эга, бугунги кунда, Республикамизда ушбу соҳани ривожлантириш борасида бир қатор амалий ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, бир неча йилдан буён қуёш энергияси билан сув иситадиган қурилмалар негизида уй-жой ва ижтимоий объектларни иссиқ сув ва иссиқлик билан таъминлаш тизими ишлаб чиқилмоқда ва улардан тажриба тариқасида фойдаланилмоқда.Бу борада Тошкент шаҳрида, Самарқанд вилояти ва бошқа ҳудудларида сувни иситиб берадиган гелиоқурилмалар ўрнатилиб, бу қурилмалардан ҳозирги кунда самарали фойдаланиб келинмоқда. Банк тизими томонидан энергия тежаш лойиҳаларини, шунингдек, қуёш панеллари ўрнатилишини фаол молиялаштирмоқда. "Яшил" энергияни ривожлантириш доирасида халқаро ҳамкорлар ва экспертлар билан ўзаро ҳамкорлик қилиш жуда муҳимдир. Шундай қилиб, Жаҳон банки Ўзбекистонда энергетика соҳасида таркибий ислоҳотларни амалга оширишда ва қайта тикланадиган энергия манбаларига инвестицияларни жалб қилиш учун қулай шарт-шароитларни яратишда фаол ёрдам беради. Ушбу соҳада тажриба ва технологиялар алмашиш бўйича лойиҳаларни амалга ошириш орқали бугунги кунда инновацион маҳсулотлар, жумладан, қуёш энергиясидан фойдаланиш қурилмалари яратилмоқда ва жорий этилмоқда. Лекин шуни тан олиш лозимки мактаб, академик лицей, касб - хунар коллежлари хатто олий укув юртларида физика фанини ўқитиш бўйича хозирда мавжуд бўлган жуда кўп лаборатория қурилмалари нафақат маьнавий эскирган, бир хил доимо такрорланувчи, балки ўқувчи ва талабаларда ижодий фикрлаш, тафаккурни ривожлантириш хамда олган билимларини тадбиқ қилиш имкониятларини тўлиқ очиб бера олмайди. Табиий фанлардан бири бўлган физика фанини ўқитишда янги педогогик технологияларни қўллаш, айниқса дарсларда ўтиладиган назарий билимларни лаборатория машғулотларида мустахкамлаш педагог зиммасига катта матсулият юклайди. Лаборатория машғулотларида илғор педагогик технологиялар методларини (суний интелект, ақлий хужум, муаммоли изланиш, физикавий-техник масалаларни ечиш, физикавий катталиклар орасидаги боғланишни ўрнатиш) қўллаш орқали талабаларда олинган натижаларга ишлов бериш, илмий матнлар мохиятини тушунтириш каби кўникмаларни шакллантириш мумкин.

Лаборатория машғулотларини кичик гурухларда ишлаш, ҳар бир талаба алохида вазифа бажариш, фронтал равишда ҳамма талаба бир хил вазифа бажариш каби шаклларда ўтказиш мумкин. Замонавий педагогик технологиялар талабига мос келадиган талабаларга физика фанидаги эффектлар, қонунлар ва ходисалар мохиятини тўла очиб берадиган, уларнинг хозирги замон техника ва технологиясидаги ўрнини кўрсата оладиган тубдан янги турдаги қуёш энергиясидан фойдаланувчи лаборатория асбобларини яратиш шу куннинг мухим ва долзарб масалалардан биридир.


Шу мақсадда Тошкент тўқимачилик ва енгтл саноати институти "Аниқ ва табиий фанлар" кафедрасида "Қуёш элементлари" асосида тубдан янги турдаги қуйидаги лаборатория қурилмалари яратилди: "Фотоэффект ходисаси", "Қуёш энергияси манбаларининг кетма-кет ва параллел уланишини ўрганиш", "Қуёш элементи лаборатория стенди", "Қуёш батареялари", "Энергияни бир турдан иккинчи турга айланиши", "Ўтказгич қаршилигини амперметр ва волтметр ёрдамида аниқлаш". Бу лаборатория қурилмалари "Физика" ва “Электротехника” фани бўйича куёш энергиясидан фойдаланишга асосланган лаборатория машғулотлари учун мўлжалланган.

Жорий қилинган янги лаборатория қурилмалари мавжуд қурилмалардан бир қатор қатор устунлиги билан ажралиб туради:

- Биринчи устунлик томони - уларга ишлаши учун ташқаридан электр манба керак эмас, бу нафақат уларнинг умуман хавфсизлигини таминлаб қолмасдан, электр энергияси тез - тез ўчадиган вилоят марказларидан узоқ худудларда жойлашган мактаб, академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун доим ишлатишга имкон беради. Бу қурилмалар ихчам, кўриниши ўзига жалб этадиган, ишлатиш қулай, чидамли ва кўп функциялидир.

-Иккинчи устунлик томони - бу лаборатория қурилмалари физика фанидаги хозирги замон микро ва наноэлектроника соҳаларини юксалишининг асоси бўлган қонун ва ҳодисалар моҳиятини ҳар томонлама тўла очиш ва тушунтириш имкониятини беради. Масалан: куёш батареяларининг асоси бўлган фотоэффект ҳодисаси моҳиятини очиб, тушунтириб берадиган зарур лаборатория қурилмалари мактаб, академик лицей ва касб-хунар коллежларида мавжуд змас. Кафедрамиз томондан яратилган лаборатория қурилмалари ҳодиса жараёнини тўла намойиш этиш билан бирга, бу ходисани техниканинг барча сохаларида амалий қўллаш имкониятини хам кўрсатиб беради.

- Учинчи устунлик томони - бу ўқувчи ва талабаларда ижодий фикрлаш, тафаккур қилиш ҳиссиётларини юзага чиқаради. Масалан: қуйидаги расмда ёруглик энергиясини электр энергиясига айлантириб берувчи лаборатория қурилмаси келтирилган.



Laboratoriya stendi

Энергияни бир турдан иккинчи турга айлантириб берувчи лаборатория қурилмаси.

Бундай лаборатория қурилмаси ёрдамида ўлчашлар амалга оширилганда, ўқувчи ва талаба қуйидаги муаммолар ҳақида фикр юрита бошлайди: қуёш нури бу экологик тоза, текин, хавфсиз ва доимий энергия манбаси эканлиги, ундан қандай йул билан унумли фойдаланиш лозим, куёш элементи - бу куёш энергиясини тўғридан - тўғри электр энергиясига айлантириб берадиган электрон қурилма эканлиги учун, унинг фаоллигини қандай ошириш лозим ва у нималарга боғлик. Ўқувчи ва талабаларда муқобил энергия манбалари ёрдамида қуйидаги ғояларни амалга ошириш мақсадлари юзага келиши мумкин, яъни масалан: уйни ёритиш, сувни қуёш коллекторларидан фойдаланган ҳолда иситиш, компьютерни доимий ишлашини таъминлаш, ўзлари яшаётган қишлоқни электр энергия билан таъминлаш учун зарур маълумотлар йиғиш билан бирга ўзларига ҳос хисоб китоблар, лойихалар, техник ечимлар билан берилиб шуғуллана бошлайди.

Бу нарсалар уларга нима беради деган савол туғилади.

- биринчидан ўқувчи ва талабаларда ижодий фикрлаш ва тафаккур қилиш ҳиссиётини оширади,

- иккинчидан инсон ҳаракат қилса, ҳар қандай муаммолар ечимини топиши мумкинлиги,

-учинчидан хозирги замон электрон технологияси билан танишиш ва ниҳоят инсоният келажакда доимий, экологик тоза, арзон энергия билан таъминланиш мумкин эканлиги, бунинг учун эса жамиятимиз ривожланишига ўз хиссасини қўша оладиган илмли, ўйлайдиган ва тафаккур қила оладиган етук ёшлар лозимлигини англаб етади.

Бу туркумдаги янги ўқув лаборатория асбоблари хозирги замон қуёш элементларидан фойдаланиш асосида яратилганлиги учун, улар қуёшнинг битмас-туганмас энергия манбаси эканлиги, ундан хозирги пайтда ва келажакда альтернатив энергия манбаси сифатида фойдаланиш негизида шунга ўхшаш экологик жихатдан тоза энергия манбалари тўғрисида ўқувчи ва талабалар қизиқарли маълумотлар оладилар, уларни тушуниш ва мавжуд муаммолар ечимини ҳал қилиш йўлларини излайдилар.

Жумладан, талабаларга, айрим сабабларга кўра, электр узатиш тармоқлари ва сув таъминоти тизими ишламайдиган ҳудудларда сувни юқорига кўтариб бериш борасида қийинчиликлар мавжудлиги, уларни ечимини бошқа усулда излаш кераклилиги, тушинтирилади. Шу мақсадда қуёш энергиясини электр энергиясига айлантирадиган фотоэлектр қурилмалардан кенг фойдаланилаётганлиги. Бу қурилмалар қуёш батареялари, энергия тўплаш тизими ва доимий токни ўзгарувчан токка айлантирадиган мосламани ўз ичига олади. Фермер хўжаликлари ресурс тежайдиган технологиялар –томчилатиб суғоришни йўлга қўйиши ва илгари суғорилмаган ерларни ўзлаштириши мумкинлиги. Фотоэлектр қурилмаси узоқ муддат хизмат қила олишлиги, махсус техник хизматни талаб

этмаслиги ва бир неча йил давомида сарфланган харажатни тўлиқ қоплаши билан изоҳланиши мумкин.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Halliday D., Resnick R., Walker J. Fundamentals of Physics. — Wiley.
2. Клычев Ш.И., Мухаммадиев М.М., Авезов Р.Р. и др. Нетрадиционные и возобновляемые источники энергии. Тошкент: Издателство «Фан ва технология» - 2010 г.
3. М.А.Фаттахов, А.А.Халматов, Ю.О.Матназаров. “Ўзгарувчан токни ўзгармас токга тўғрилаш усулларини ўрганиш” “Paxta tozalash, to‘qimachilik, yengil sanoat, matbaa ishlab chiqarish texnika-texnologiyalarni modernizatsiyalash sharoitida iqtidorli yoshlarning innovatsion g‘oyalari va ishlanmalari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjuman.Toshkent-2022.
4. Б.Х.Исламов, Р.Т.Уразалиев, А.А.Ахмедов, “О возможности повышения активизации познавательной деятельности будущих специалистов”. Фидойи ва жонкуяр педагоглар журнали, Устозлар учун. 2022. 153 б.

TURLI SELEKSIYA NAVLARI TOLASINING SIFAT KO‘RSATKIChLARINING TADQIQOTI

Tayanch doktorant N.Mamatisaqova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Andijon viloyatida ekilgan turli selektsiya navlari tolasining sifat ko‘rsatkichlarini tahlili bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В статье представлены данные анализа показателей качества волокна различных возделываемых сортов хлопчатника в Андижанской области.*

Abstract: The article presents data from an analysis of fiber quality indicators for various cultivated cotton varieties in the Andijan region.

Paxta hosildorligini oshirish bo‘yicha yangi tizimni joriy qilish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarga asoslangan urug‘chilik, nav tanlash, yerga ishlov berish, o‘g‘itlash, sug‘orish ishlarini yo‘lga qo‘yish orqali paxta-to‘qimachilik sohasida eksport hajmlari va daromadni oshirish asosiy maqsad hisoblanadi[1].

Hozirgi vaqtda yer yuzining barcha mintaqalarida paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlari zamonaviy tipdagi AQSh ning HVI 1000 SA tizimi asosida

o‘rganiladi. Paxta tolasi rangi, tashqi ko‘rinishi, pishib yetilganligi bo‘yicha navlarga bo‘linadi va shu ko‘rsatkichlari asosida paxta birjalarida sotiladi.

Paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlariga chiziqiy zichligi, solishtirma uzilish kuchi, navi bo‘yicha rangi, tashqi ko‘rinishi, sarg‘ishlik darajasi, uzunligi, kalta tolalar indeksi va tarkibidagi nuqsonlar miqdori kiradi.

Paxta tolasining chiziqiy zichligi teks yoki milliteks birligida ifodalanib, tola uzunligi va tipiga qarab baholanadi. Agar tola chiziqiy zichligi yoki uzunligi bo‘yicha chegaradan chiqadigan bo‘lsa, unda pastki tiplarga o‘tib ketadi, natijada ipning yigiruvchanlik imkoniyatini kamaytiradi va sifatsiz tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

Paxta tolasining rangi Amerika standarti bo‘yicha ikkita ko‘rsatkichga, ya’ni nur qaytalanish va sarg‘ishlik darajasiga bo‘linadi. Shu sababli, paxta tolasi rangi yuqori talablardan hisoblanadi. Natijada, mamlakatimizdagi paxta tozalash korxonalarida paxta asosan kunduz kunlari qabul qilinadi, malakali laborantlar klassyor uslubi bilan maxsus etalon namunalariga solishtirish yo‘li bilan aniqlaydilar.

Paxta tolasining yana bir ko‘rsatkichlaridan biri uning chiziqiy zichligidir. Tolaning chiziqiy zichlik o‘lchamini yetarli aniqlik darajasida aniqlash murakkabroqdir. Shu sababli, Amerikaning tolani sertifikatlashtirish tizimi bo‘yicha chiziqiy zichlik tushunchasi o‘rniga mikroneyr ko‘rsatkichi kiritildi. Bu usulda parallel tolalar guruhidan o‘tgan havo oqimining yo‘qotilishi hisobiga aniqlanadi. Havo qarshiligi tolaning ko‘ndalang kesimiga proporsional bo‘lib, tolaning qarshilik kuchi ko‘ndalang kesim funksiyasi kabi tezligiga bog‘liq bo‘ladi[3].

Xalqaro standartlar bilan paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlari O‘z DSt 604-2016 ga asosan klassyor va HVI tizimida o‘lchash usullari bilan baholanadi. Sinov yo‘li bilan olingan natijalar 1.1-jadvalda keltirildi.

1.1-jadval

Paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlarining turli seleksiya navlari bo‘yicha o‘zgarishi

t/r	Ko‘rsatkichlar	Seleksiya navlari				
		Andijon-36 seleksiya navi	52-4 seleksiya navi	Xitoy-31 seleksiya navi	Xitoy - 29 seleksiya navi	52 seleksiya navi
1.	Mic-mikroneyr	4,6	4,76	4,78	5,15	4,95
2.	Str-solishtirma uzilish kuchi, gk/teks	31,5	30,9	31,8	33,0	34,1
3.	UHML -yuqori o‘rtacha uzunlik	28,84	28,48	29,48	29,47	30,01

4.	SFI-kalta tolalar indeksi	7,8	8,4	8,7	8,5	7,4
5.	Elg-uzilishdagi uzayish, %	6,4	5,8	6,9	6,2	7,4
6.	Rd-nur qaytarish koeffitsienti	75,6	81,8	79,8	78,8	80,01
7.	+b-sarg‘ishlik darajasi	8,8	8,2	8,1	7,8	8,3
8.	Tolaning yigiruvchanlik qobiliyati (SCI)	141	133	135	133	152

Turli seleksiya navlari tolasining sifat ko‘rsatkichlarining tadqiqoti tahlil etildi. Olingan sinov natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, Andijon-36 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,6 ni, kalta tolalar indeksi 7,8 ni, solishtirma uzilish kuchi 31,5 gk/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 28,84 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 141 ni, 52-4 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,76 ni, kalta tolalar indeksi 8,4 ni, solishtirma uzilish kuchi 30,9 gk/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 28,48 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 133 ni, Xitoy-31 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,78 ni, kalta tolalar indeksi 8,7 ni, solishtirma uzilish kuchi 33,0 gs/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 29,48 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 135 ni, Xitoy -29 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 5,15 ni, kalta tolalar indeksi 7,4 ni, solishtirma uzilish kuchi 33,0 gs/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 29,47 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 133 ni, 52 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 4,95 ni, kalta tolalar indeksi 7,4 ni, solishtirma uzilish kuchi 34,1 gs/teksni, yuqori o‘rtacha uzunligi 30,01 ni, yigiruvchanlik qobiliyati 152 ni tashkil etdi[5].

Tadqiqot natijalari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Andijon-36 seleksiya navli tolaning ko‘rsatkichlariga nisbatan solishtirsak, 52-4 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 3,4% ga, kalta tolalar indeksi 7,1% ga oshdi, solishtirma uzilish kuchi 1,9% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 1,2% ga, yigiruvchanlik qobiliyati 5,7% ga kamaydi, Xitoy-31 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 0,9% ga, kalta tolalar indeksi 10,3% ga, solishtirma uzilish kuchi 0,9% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 2,2% ga oshdi, yigiruvchanlik qobiliyati 4,3% ga kamaydi, Xitoy-29 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 10,7% ga, kalta tolalar indeksi 8,2% ga, solishtirma uzilish kuchi 4,5% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 2,1% ga oshdi, yigiruvchanlik qobiliyati 5,7% ga kamaydi, 52 seleksiya navli tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 7,1% ga oshdi, kalta tolalar indeksi 5,1% ga kamaydi, solishtirma uzilish kuchi 7,7% ga, yuqori o‘rtacha uzunligi 3,9% ga, yigiruvchanlik qobiliyati 7,2% ga oshdi.

Turli seleksiya navlari tolasining sifat ko‘rsatkichlarini tahlilidan ko‘rinib turibdiki, Andijon-36 seleksiya navli tolaning ko‘rsatkichlariga nisbatan

solishtirganimizda boshqa Xitoydan olib kelingan va bizning hududlarda sinovdan o‘tkazilayotgan seleksiya navlarida tolaning mikroneyr ko‘rsatkichi 0,9% dan 3,4% gacha, kalta tolalar indeksi 7,1% dan 10,3% gacha oshganligi, solishtirma uzilish kuchi 0,9% dan 4,5% gacha, yuqori o‘rtacha uzunligi 1,2% dan 3,9% gacha, yigiruvchanlik qobiliyati 4,3% dan 5,7% gacha kamayganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 7-iyuldagi PQ-308-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv - trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi borqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-maydagi PF-71-son farmoni. 2-b.

3. Obidov Q., Sultonov M. Paxtachilikda Andijon uslubi: chigitni plyonka ostiga ekish va uning samaradorligi. Toshkent-1996.

4. Qodirov S., Xudayberdiyev S. Paxtachilik - G‘o‘za agrotexnikasi. Andijon -2001.

5. Ochilov T.A., Norov A. Qisqartirilgan texnologiya asosida ip ishlab chiqarish //Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2007.

6. O‘z DSt 604:2016 “Paxta tolasi. Texnikaviy shartlar”.

YIGIRISH JARAYONIDA IP ISHLAB CHIQARISH VA SIFATINI BASHORATLASH

tayanch doktorant N.Mamatisaqova,
dotsent A.Abdugaffarov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yigirish jarayonida ishlab chiqarilgan iplarning sifat ko‘rsatkichlarini bashoratlashi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В статье представлена информация о прогнозировании показателей качества пряжи, вырабатываемой в процессе прядения.*

Abstract: *The article presents information on predicting the quality indicators of yarn produced during the spinning process.*

Respublika to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini yanada kengaytirish, mahalliy to‘qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi uchun sharoitlar yaratish asosy maqsadlardan hisoblandi[1].

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan yigiruv qo‘shma korxonalarida turli yigirish mashinalari ishlatiladi va turli maqsadlarda turli assortimentdagi iplar ishlab chiqariladi. Bular jumlasiga, yigirish mashinalarida iplarni shakllantirilish usuliga ko‘ra halqali (urchuqli) va pnevmomexanik (kamerali) turlarga ajratiladi. Natijada, ulardan olingan iplar mos ravishda halqali usulda va pnevmomexanik usulda yigirilgan iplari deb tavsiflanadi. Shundan, pnevmomexanik yigirish mashinasida olinadigan iplar o‘rtacha chiziqli zichlikdagi ip ishlab chiqarishda qo‘llaniladi, texnologik o‘timlar qisqarishi (yigiruv oldi jarayoni bo‘lmaydi), olingan ip hajmdorroq, mustahkamligi (15-25%) kamroq, lekin bir tekisligi yuqori, tukdor bo‘lishi bilan farqlanadi.

Yigiruv korxonasidagi texnologik jarayonning bir meyorda ishlashi uchun har bir yo‘g‘onlikdagi ip yigirish uchun alohida yigirish rejasi ishlab chiqiladi. Natijada, korxonaning iqtisodiy ko‘rsatkichi yaxshilanadi va sifatli ip ishlab chiqarish imkoniyati tug‘ildi [2, 3].

Shu jumladan, yo‘g‘onligi bo‘yicha iplarning notekislik ko‘rsatkichi eng muhim sifat ko‘rsatkichlari bo‘lib hisoblanadi. Iplarning notekisligi oshib ketishi natijasida gazlamalarda yo‘l-yo‘llar hosil bo‘ladi va tashqi ko‘rinishi buziladi, nuqsonlar soni ortadi. Iplarning notekisligi qanchalik oshsa, ipdagi tolalarning va to‘da iplaridagi tanho iplarning mustahkamligidan foydalanish imkoniyati kamayadi, natijada iplarning mexanik xossalari yomonlashadi, to‘quvchilik va o‘rilish jarayonida uzilish miqdori keskin ortadi [8].

Yigiruv korxonalarida turli xil ko‘rinishdagi iplar ishlab chiqariladi va ularning ishlatilishiga qarab, turlicha sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladi [5].

Ip yigirish uchun tanlangan mashinalar va ularda bajariladigan texnologik jarayonlar majmui yigirish tizimi bo‘lib hisoblanadi [6].

Ma’lumki, bir nechta yigirish tizimi mavjud bo‘lib, ularda turli xil yo‘g‘onlikdagi, turli maqsadlarda ishlatiladigan iplar olinadi. Paxta tolasidan ip olish texnologiyasining bosqichlari tola turlariga, ipning qanday maqsadlarda ishlatilishiga va qo‘llaniladigan mashinalarning turlariga bog‘liq bo‘ladi [8].

Masalan, paxta tolalarini bir-biridan ajratish tarash mashinalarida bajarilib, ularni ingichkalashda pilta, pilik mashinalari va ulardan ip olish uchun cho‘zish asboblari qo‘llansa, bunday tizim karda (oddiy) yigirish tizimi bo‘ladi. Bunda paxta tolalarini bir-biridan ajratish, ulardagi xas-cho‘plar, iflosliklar arra tishli ignali lentalar yordamida, mahsulotni ingichkalash mashinalarning cho‘zish asbobi yordamida amalga oshiriladi [8].

Yigirish sanoatini yanada rivojlantirish va jarayonlar samaradorligini oshirish soha tadqiqotchilari oldiga yangi ilmiy-texnologik vazifalarni qo‘ymoqda.

O‘zbekistonda kalava-ip ishlab chiqarishni yanada kengaytirish va uning istiqboli xomashyoni chuqur qayta ishlab, tayyor va qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar tayyorlashga qaratilgan.

Xom ashyoni faqat xorijga sotish o‘rniga, mahalliy korxonalarda tayyor mato, trikotaj va kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmini oshirish muhim hisoblanadi.

Ip ishlab chiqarish jarayonida iplarning sifat ko‘rsatkichlari avvalambor boshlang‘ich xom ashyoning, qolpversa tolalarning xossalariga bog‘liqdir. Tolalarning xossalariga ularning yo‘g‘onligi, mustahkamligi, bir tekisliligi, pishib yetilganliligi kiradi.

Yigirish jarayoni-inson tolalaridan (paxta, jun, sun’iy va sintetik tolalar) puxta, sifatli va bir maromdagi ip kalavalarni hosil qilishning murakkab, ko‘p bosqichli texnologiyasidir. To‘qimachilik sanoatining poydevori hisoblangan bu jarayon hozirgi kunda yangi raqamli texnologiyalar va ekologik talablar asosida jadal rivojlanmoqda.

To‘qimachilik sanoatida mahsulot sifatini barqaror ta’minlash, xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish ko‘p jihatdan xomashyo xususiyatlarini to‘g‘ri baholash hamda ulardan olinadigan mahsulot sifatini oldindan prognozlash imkoniyatiga bog‘liq. Ayniqsa, yigirish ishlab chiqarishida tola xossalari, texnologik jarayon parametrlari va tayyor ip sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Paxta tabiiy xomashyo bo‘lganligi sababli uning xususiyatlari nav, seleksiya turi, yetishtirish sharoiti, terim usuli, dastlabki ishlash texnologiyasi va boshqa omillar ta’sirida sezilarli darajada o‘zgaradi. Shu sababli bir xil chiziqiy zichlikdagi ip ishlab chiqarishda ham turli xomashyo partiyalaridan olingan iplarning pishiqligi, notekisligi, uzayishi, tukdorligi va nuqsonlari soni bir xil bo‘lmasligi mumkin.

2025-yilga borib ishlab chiqariladigan to‘qimachilik tolalari 127 million tonnaga yetib, shundan polester 55,5 %, paxta 20,4 %, polyamid 6,1 %, viskoza 5,2 % hamda boshqa tabiiy va kimyoviy tolalar (jun, ipak, zig‘ir, kanop, jut, lub va boshqalar) qolgan 12,8 %ni tashkil etadi. 2030-yilda esa ishlab chiqarilishi kutilayotgan to‘qimachilik tolalari 147 million tonnadan oshib, polester 57 %, paxta 18 %, polyamid 7 %, viskoza 6 % hamda boshqa tabiiy va kimyoviy tolalar (jun, ipak, zig‘ir, kanop, jut, lub va boshqalar) qolgan 12 %ni tashkil qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to‘liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi [1].

So‘ngi 5 yilda paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor buyumlar, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,1 baravarga va eksport ko‘rsatkichini 2,6 baravarga oshirishni ta’minlash hamda gilam va maishiy matolar ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida to‘qimachilik sanoatini davlat tomonidan keng miqyosda qo‘llab-quvvatlash orqali 2025-yilda sohaning eksport salohiyatini 7 milliard Amerika Qo‘shma Shtatlari dollariga yetkazish, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 foizdan 81 foizga oshirish, 35 mingta bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish [1] va yangi assortimentdagi halqali yigirish usulida yigiriladigan iplarni ko‘paytirishni va mavjud texnologiyalarni takomillashtirishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “To‘qimachilik va tikuv - trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi borqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-maydagi PF-71-son farmoni. 2-b.
2. I. G. Borzunov, K.I. Badalov i dr. Pryadeniye xlopka i ximicheskix volokon, M:Legkaya i pishevaya promishlennost, 1982.
3. Cheng K P S, Lam H L I. Physical properties of pneumatically spliced cotton ring spun yarns Textile Research Journal. 2000. 70 12 pp 1053-1057.
4. Y.V. Pavlov. Lobaratorniy praktikum po pryadeniyu xlopka i ximicheski volokon. Ivanova 2006.
5. Milovidov N.N., Faminskiy P.P., Shishkunova YE.N. Proyektirovaniya xlopkopryadilnix fabrik. M., Izdatelstvo «Legkaya industriya», 1981.
6. Koxovskiy V.V., Marasulov SH.R. Montaj mashin xlopkopryadilnogo proizvodstva. Legkaya industriya, M.:,1972.
7. «Spravochnik po xlopkopryadeniyu». Shirokov V.V. M., Izdatelstvo “Legkaya industriya”, 1985.
8. Marasulov SH.R. Paxta va kimyoviy tolalarni yigirish. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti, 1985.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI SIFAT MENEJMENTIDA QO‘LLASHNING YO‘NALISHLARI

assistent A.Abdujabbarov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni sifat menejmentida qo‘llashning yo‘nalishlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотатsiя: *В данной статье представлена информатsiя о направлениях применения цифровых технологий в управлении качеством в Узбекистане.*

Abstract: *This article presents information on the areas of application of digital technologies in quality management in Uzbekistan.*

Sifat menejmenti tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish so‘nggi o‘n yil ichida alohida ilmiy-amaliy yo‘nalishga aylandi. Xalqaro adabiyotlarda bu yo‘nalish «Sifat 4.0» nomi bilan yuritiladi va u sifat funksiyasining raqamli asosga o‘tishini anglatadi [3; 5]. To‘qimachilik korxonalari sharoitida ushbu yo‘nalishlarni sakkizta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish - sanoat ashyolar interneti (IIoT) asosida jarayonni real vaqtda kuzatish. Yigirish va to‘quv dastgohlariga o‘rnatilgan sensorlar ip taranglig‘i, dastgoh tezligi, uzilishlar soni, harorat va namlik kabi parametrlarni uzluksiz qayd etadi. Bu ma’lumotlar MES va SCADA tizimlari orqali yig‘iladi va sifat ko‘rsatkichlari bilan

bog‘lanadi. Natijada tanlanma nazoratdan to‘liq qamrovli nazoratga o‘tish imkoni yuzaga keladi.

Ikkinchi yo‘nalish - kompyuterli ko‘rish asosida nuqsonlarni avtomatik aniqlash. Yuqori aniqlikdagi kameralar va tasvirni tanib olish algoritmlari mato yuzasidagi tirqish, ilmoq, dog‘ va naqsh siljishini inson ko‘zidan tezroq hamda barqarorroq aniqlaydi. Bu yo‘nalish to‘qimachilikda eng katta iqtisodiy samara beruvchi qo‘llanma hisoblanadi, chunki u nazoratning eng mehnat talab qismini avtomatlashtiradi va sub’ektivlikni yo‘qotadi.

Uchinchi yo‘nalish - bashoratli tahlil va mashinali o‘qitish. To‘plangan tarixiy ma’lumotlar asosida qurilgan modellar ma’lum bir xom ashyo partiyasi va dastgoh sozlamalarida qanday nuqson yuzaga kelish ehtimolini oldindan baholaydi. Bu esa nazoratdan oldini olishga o‘tish imkonini beradi. Adabiyotlarda bunday yondashuv katta ma’lumotlar bilan ishlashning asosiy amaliy natijasi sifatida ko‘rsatiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish - raqamli egizak va simulyatsiya. Texnologik jarayonning virtual modeli yaratilib, unda sozlamalar o‘zgartirilganda sifat ko‘rsatkichlari qanday o‘zgarishi sinab ko‘riladi. Bu yangi assortimentni o‘zlashtirishda sinov partiyalari sonini va shunga mos yo‘qotishlarni qisqartiradi.

Beshinchi yo‘nalish - ta’minot zanjirining kuzatuvchanligi. Blokcheyn va raqamli identifikatsiya vositalari paxta tolasidan tayyor kiyimgacha bo‘lgan yo‘lni hujjatli tarzda kuzatish imkonini beradi. Bu yo‘nalish eksportga yo‘naltirilgan korxonalar uchun alohida ahamiyatga ega, chunki xalqaro xaridorlar va sertifikatlash tizimlari kelib chiqishni isbotlashni talab qilmoqda.

Oltinchi yo‘nalish - elektron sifat menejmenti tizimlari (eQMS). Ular ISO 9001 talab qiladigan hujjatlar, ichki auditlar, nomuvofiqliklarni qayd etish va tuzatuvchi choralarni yagona platformada yuritadi. Natijada hujjat aylanishiga sarflanadigan vaqt qisqaradi va audit izi (audit trail) to‘liq saqlanadi.

Yettinchi yo‘nalish - statistik jarayon nazoratining raqamli shakli. Klassik Shyuxart kartalari real vaqt ma’lumotlari bilan to‘ldirilganda, chetlanish signali bir necha soatdan keyin emas, bir necha soniyada beriladi[1]. Bu klassik nazariyaning yangi texnologik asosda qayta tiklanishidir.

Sakkizinchi yo‘nalish - raqamli laboratoriya va rangni boshqarish. Spektrofotometrik o‘lchash va CIELAB tizimidagi rang farqini (ΔE) avtomatik hisoblash bo‘yash sifatini ob’ektiv baholash imkonini beradi va qayta bo‘yash hollarini keskin kamaytiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlarga so‘nggi yillarda yana ikkitasi qo‘shildi. Birinchisi - sun’iy intellekt vositalaridan sifat hujjatlarini tayyorlash va tahlil qilishda foydalanish. Nomuvofiqlik haqidagi hisobotlarni tasniflash, tuzatuvchi choralar loyihasini tayyorlash va ichki audit savolnomalarini shakllantirish kabi ishlar qisman avtomatlashtirilmoqda. Bu sifat bo‘limi xodimlarining vaqtini hujjat yuritishdan tahlilga yo‘naltirish imkonini beradi. Ikkinchisi - jarayonlarni robotlashtirilgan avtomatlashtirish (RPA): turli tizimlar o‘rtasida ma’lumot ko‘chirish, hisobot shakllantirish va xabarnoma yuborish kabi takrorlanuvchi amallar dasturiy robotlarga topshiriladi.

Raqamlashtirish yangi xatarlarni ham keltirib chiqaradi va ular sifat menejmenti tizimida hisobga olinishi lozim. Birinchi xatar - ma’lumotlarning yaxlitligi va himoyasi: sifat yozuvlari elektron shaklga o‘tgach, ularning o‘zgartirilishi yoki yo‘qolishi xatari yuzaga keladi, shu bois audit izi va zaxira nusxalash tartibi majburiy bo‘ladi. Ikkinchi

xatar - tizimga haddan tashqari ishonish: avtomatik nazorat vositasi sozdan chiqqanda, uning natijalariga so‘zsiz ishonish ko‘p miqdordagi nuqsonli mahsulotning o‘tib ketishiga olib keladi. Uchinchi xatar - ta’minotchiga bog‘lanib qolish: bir yetkazib beruvchining yopiq platformasiga o‘tgan korxona keyinchalik tizimni almashtirishda katta xarajatga duch keladi. Bu xatarlarni ISO 9001 talab qiladigan xatarga asoslangan tafakkur doirasida rejalashtirilgan choralar bilan boshqarish maqsadga muvofiq [2].

Sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bir-biridan ajralgan holda emas, balki bir-birini to‘ldirgan holda qo‘llanadi. Ularning o‘zaro bog‘liqligini quyidagicha ifodalash mumkin: birinchi yo‘nalish ma’lumot manbaini yaratadi, ikkinchi va sakkizinchi yo‘nalishlar o‘lchov aniqligini oshiradi, yettinchi yo‘nalish ma’lumotni statistik jihatdan izohlaydi, uchinchi va to‘rtinchi yo‘nalishlar uni bashoratga aylantiradi, oltinchi yo‘nalish natijani hujjatlashtiradi, beshinchi yo‘nalish esa uni tashqi manfaatdor tomonlarga isbotlaydi. Agar zanjirning biror bo‘g‘ini yetishmasa, qolganlarining samarasi keskin pasayadi. Masalan, sensorlar o‘rnatilgan, ammo ma’lumot tahlil qilinmaydigan korxonada investitsiya faqat xarajatga aylanadi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish avtomatik ravishda sifatning yaxshilanishini kafolatlamaydi. Xalqaro tadqiqotlar Sifat 4.0 loyihalarining muvaffaqiyati texnologiya bilan bir qatorda rahbariyat qo‘llab-quvvatlashi, xodimlar malakasi va tashkiliy madaniyatga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda [3;5]. N.Radzivill ham sifat madaniyati raqamli muhitda ham yetakchi omil bo‘lib qolishini ta’kidlaydi [4].

O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalari uchun uch bosqichli yo‘l xaritasi taklif etilmoqda: tayyorgarlik, asosiy joriy etish va tahliliy rivojlanish (bashoratli modellar va kuzatuvchanlik).

Raqamli texnologiyalar asosida sifat menejmenti tizimi samaradorligini baholashning mavjud yondashuvlari yoki faqat texnik, yoki faqat moliyaviy tomonni qamrab olishi aniqlanadi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun kompleks integral baholash uslubiyoti ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shewhart W.A. Economic Control of Quality of Manufactured Product. - New York: D. Van Nostrand Company, 1931. - 501 p.

2. ISO 9001:2015. Quality management systems - Requirements. - Geneva: International Organization for Standardization, 2015. - 29 p.

9. Sony M., Antony J., Douglas J.A. Essential ingredients for the implementation of Quality 4.0: A narrative review of literature and future directions for research // The TQM Journal. - 2020. - Vol. 32, No. 4. - P. 779–793.

4. Radziwill N.M. Quality 4.0: Let’s Get Digital - The many ways the fourth industrial revolution is reshaping the ways we think about quality // Software Quality Professional. - 2018. - Vol. 20, No. 3.

5. Sader S., Husti I., Daróczi M. A review of quality 4.0: definitions, features, technologies, applications and challenges // Total Quality Management & Business Excellence. - 2022. - Vol. 33, No. 9–10. - P. 1164–1182.

6. Escobar C.A., McGovern M.E., Morales-Menendez R. Quality 4.0: a review of big data challenges in manufacturing // Journal of Intelligent Manufacturing. - 2021. - Vol. 32. - P. 2319–2334.

UYUSHMAGAN YOSHLAR BILAN ISHLASHNING XORIJIY TAJRIBASI: SAMARALI MEXANIZMLAR

O.Abdugaffarova,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada uyushmagan yoshlar bilan ishlashning ayrim xorijiy davlartlarning tajribasini tahlili bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В статье представлены сведения, основанные на анализе опыта ряда зарубежных стран по работе с неорганизованной молодежью.*

Abstract: *The article presents information based on an analysis of the experience of several foreign countries in working with unorganized youth.*

O‘zbekiston dunyodagi eng yosh aholiga ega davlatlardan biri: YUNISEF ma’lumotlariga ko‘ra, 30 yoshgacha bo‘lganlar mamlakat aholisining taxminan 60 foizini tashkil etadi [1]. Bu demografik imkoniyat bo‘lish bilan birga, yoshlarni ta’lim, mehnat va jamoat hayotiga barqaror jalb etish bo‘yicha katta mas’uliyatni ham yuklaydi. Jahon banki tadqiqotiga ko‘ra, 16–24 yoshda-gilarning 24 foizi va 16-29 yoshdagilarning 26,4 foizi ishlamaydi, o‘qimaydi va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tmaydi [2]. YUNISEFning yoshlar so‘rovida esa 19-30 yoshdagilarning 54,6 foizi majburiy o‘rta ta’limdan keyin o‘qish, mehnat yoki kasbiy tayyorgarlikka o‘tmagani, ayollarda bu ko‘rsatkich 74,0 foizgacha yetishi (erkaklarda 24,8 foiz) qayd etilgan [3]. Viloyat darajasida ham masshtab sezilarli: Xorazm viloyatida 2020 yil ma’lumotlariga ko‘ra, 1,88 mln aholining taxminan 30 foizini yoshlar tashkil etib, 36 mingdan ortiq yosh NEET toifasiga kiritilgan [4]. Ko‘rsatkichlardagi katta tafovut (24 foizdan 55 foizgacha) qisman ta’riflar, yosh doirasi va o‘lchash usullarining turliligi bilan izohlanadi. Bu - xorijiy tajribada ham uchraydigan metodologik muammodir.

O‘zbekiston adabiyotida «uyushmagan yoshlar» deganda 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan, vaqtincha mehnat bilan band bo‘lmagan, mustaqil ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, ishga joylasha oladigan shaxslar tushuniladi [5]. Bu ta’rif mehnat bozori mezoniga yaqin. Xorijiy tadqiqotlarda unga eng yaqin tushuncha - NEET (Not in Employment, Education or Training) bo‘lib, u ishlamaydigan va o‘qimaydigan yoshlarni birlashtiradi. Lekin zamonaviy adabiyot ishsiz va mehnat bozoridan chetda qolgan (nofaol) yoshlarni alohida tahlil qilishni talab qiladi [6, 7].

“Uyushmaganlik” undan tashqari, yoshning yoshlar institutlari, jamoat tashkilotlari va mahalla hayotidan uzilganligini ham anglatadi. Shu bois maqolada uyushmagan yosh deganda ta’lim, mehnat va jamoatchilik institutlaridan turli darajada uzilgan yosh tushuniladi; NEET esa bu uzilishning eng ko‘p o‘rganilgan mehnat-ta’lim shakli sifatida qaraladi.

Xorijda uyushmagan yoshlar qanday toifalarga ajratiladi va nega bu muhim; qanday dasturlar va boshqaruv modellari o‘lchanadigan natija bergan; qaysi yondashuvlar kutilgan samarani bermagan yoki nojo‘ya oqibatlarga olib kelgan; bu tajribadan O‘zbekiston uchun qanday xulosalar chiqadi? Metodologiya sifatida narrativ sintez qo‘llanildi: 100 ta empirik tadqiqot (1978-2019 yillardan 50 ta va 2022–2026 yillardan 50 ta), Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Finlyandiya siyosat hujjatlari hamda milliy manbalar tahlil qilindi. Dalil kuchi bo‘yicha meta-tahlillar va tasodifiy nazoratli tajribalar (RCT) yuqori, longityud kuzatuvlar o‘rta, kesim va sifat tadqiqotlari esa cheklangan ahamiyatga ega deb qaraldi.

NEET tushunchasi 1990-yillar oxirida Buyuk Britaniya siyosatida keng qo‘llanila boshlangan. Bugungi kunda uning yosh doirasi turli hujjatlarda farq qiladi (1-jadval). Bu farqlar nafaqat statistik taqqoslashni, balki dasturlarni bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chirishni ham qiyinlashtiradi, chunki ko‘plab qo‘llab-quvvatlash choralari aniq bir yosh guruhiga moslab tuzilgan [8].

Hisoblash usulining o‘zgarishi ham siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, Angliyada 2016 yil sentabrida mahalliy hokimiyatlar uchun NEET ko‘rsatkichini hisoblash tartibi o‘zgartirilib, 18 yoshli o‘quvchilarga oid ma’lumotlar hisobdan chiqarilgan. Natijada hisobotlarda NEET soni kamroq ko‘rinib, avvalgi yillar bilan aniq solishtirish qiyinlashgan. Tadqiqotchi fikricha, bu muammo «hal bo‘lgandek» taassurot uyg‘otib, zarur qo‘llab-quvvatlashni qisqartirish uchun asos bo‘lishi mumkin [8].

Adabiyotning markaziy xulosasi shuki, NEET bir xil guruh emas. Furlong (2006) bu toifa juda geterogen ekanini, bir xil yarliq ostida turli sabab va ehtiyojlarga ega yoshlar aralashib ketishini ko‘rsatgan [7]. Yates va Payne (2006) esa faqat NEET sonini qisqartirishga qaratilgan maqsadli boshqaruv yoshlarning uzoq muddatli ehtiyojlarini chetda qoldirib, «yong‘in o‘chirish» siyosatiga olib kelishi mumkinligini ta’kidlagan [12]. MacDonald (2011) muammoni individual «motivatsiya yetishmasligi» bilan tushuntirish noto‘g‘ri ekanini, mehnat bozori tuzilishi, beqaror bandlik va sinfiy sharoitlar hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Rossiya ma’lumotlari (1995-2017) ishsiz NEET va nofaol NEET sabablari farq qilishini, oliy ta’lim ham barcha yoshlarni himoya qilavermasligini ko‘rsatdi [6]. Bryusselning kam ta’minlangan mahallalaridagi NEET trayektoriyalari esa vaqtinchalik, aralash va ijtimoiy tengsizlik bilan kuchli bog‘liq ekanini tasdiqlaydi [7].

Eng yangi sistematik sharh (2015-2025 yillardagi 50 ta tadqiqot) NEET sabablarini uch darajada birlashtiradi: makro (yoshlar ishsizligi, beqaror mehnat bozori, siyosat), mezo (oila, ta’lim, maktabdan mehnatga o‘tish institutlari) va mikro (jins, yosh, ta’lim va individual xususiyatlar). Mualliflar ishsiz va nofaol NEETni alohida tahlil qilishni tavsiya etadi [7]. Buyuk Britaniya kogortasida ko‘pchilik NEET yoshlar ishlash istagini bildirgan, lekin ruhiy salomatlik va psixoaktiv modda bilan bog‘liq xavflari yuqori bo‘lgan. Demak, ularni “ishlashni xohlamaydigan” guruh deb talqin qilish noto‘g‘ri [8]. Bu xulosalardan amaliy

tamoyil kelib chiqadi: dastur tanlashdan oldin yoshning toifasi va ehtiyoji aniqlanishi (profiling) kerak.

Yoshlarning ta’lim, mehnat va jamoa hayotidan uzilishi geterogen, ko‘p darajali sabablarga ega va uzoq muddatli iqtisodiy hamda ruhiy iz qoldiradi; xavflar erta yoshdan yig‘iladi. Shu bois samarali aralashuv erta, individual, ko‘p komponentli va ish beruvchi hamda jamoa bilan bog‘langan bo‘lishi, natija esa tadbirlar soni emas, yoshning ta’lim, bandlik va jamoa hayotiga barqaror qayta qo‘shilishi bilan o‘lchanishi kerak.

